

84/50/6
Q-60

Maqsud Qoriyev

SRITAMEN



84(50)6

B-60 Boriver. M.

Spitznamen 1-

Китобларни вақтида топшириш варағи

[illegible]

34(55)6
8-60
Maqsud QORIYEV

SPITAMEN

(tarixiy roman)

JIZZAX DPI

INV № _____

AXBOROT RESURS MARKAZI



«Fan» nashriyoti
Toshkent – 2019

UO'K: 94(5-191.2):355.091(092)
KBK 84(50')6
Q-60

M. Qoriyev

Spitamen / M. Qoriyev. - Toshkent. «Fan»
nashriyoti 2019. -280 b.

Q-60

Vatan uchun kurashgan o'g'lonlar talaygina. Spitamen ana shunday mard-jasur o'g'lon. Ushbu kitobda Spitamenning vatan ozodligi yo'lidagi jasorati qalamga olingan. Uning mardligi chindanda ibrat olsa arzigulik.

UO'K: 94(5-191.2):355.091(092)
KBK 84(50')6

ISBN: 978-9943-19-530-1

© M. Qoriyev, 2019-y.
© «Fan» nashriyoti, 2019-y.

Xayol ko'zgusi bilan tafakkurim yetgunga qadar
ona diyorim tarixining uzoq o'tmishiga nigoh tashladim;
xalqimiz hayoti, turish-turmushi, kurashi
sahifalarini varaqlab, undan olgan
taassurotlarimga badiiy ifoda berishga
urinib ko'rdim...

Muallif.

I qism

SUG'D QOYALARI

DARIYOD

Sug'diyona poytaxti Maroqand¹. Hamisha gavjum, notinch, ajoyibot, g'aroyibotlarga to'la. Shaharning chegarasi yetmish stadiy² bo'lib, tevaragi baland va mustahkam qo'sha devorlar bilan o'rab olingan, dushman o'tolmasligi uchun atrofiga xandaqlar qazilgan. Maroqandning to'rt chekkasida osmono'par baland minoralar savlat to'kib turadi. Undan tashqari, o'sha minoralarning sakkizta «bolasi» ham bor. Shahar o'rtasida eng gavjum joy – «Olov qasri» deb nomlangan qadimiy ibodatxona bo'lib, unga kiraverish yo'lida sochlari to'zg'ib ketgan vag'npatlar³ ko'zlarini yumib olib, erta-yu kech duo o'qib o'tirishadi. Ibodatxona atrofida hunarmandchilik buyumlari, turli bezaklar va boshqa mayda-chuydalar bilan savdo qiluvchi kichik do'konchalar, yoymachilar bor. Ibodatxonaga tutashib ketgan boshqa qasrlar shahar husniga husn qo'shadi. Shimoli-sharq tarafda esa Maroqand hokimining hashamatli saroyi.

Shaharning eng gavjum, serqatnov joyi butun Sharqqa mashhur bo'lgan Maroqand bozori. Bu yo'lda erta tongdan boshlab yuk ortilgan turli-tuman aravalar, tuya karvonlari, birovlarining molini ko'tarib olgan hammollar, zodagon suvoriylar, to'yakashlar, uzoq-yaqin qishioqlardan kelgan dehqonlar, piyoda, oyoqyalanglar bozor tomon shoshilishadi. Ko'chaning ikki chekkasida turli mollar bilan savdo qiluvchi do'konlar, hunarmandchilik ustaxonalari, zargarliklar joylashgan. Olamga mashhur va ma'lum bo'lgan Maroqand bozorida yo'q yerda-gi narsalar bor. Bu yerga Baqtriya, Hindiston, Midiya, Chinmo-chin, Kashmir, Mesopotamiya, Misr va Turonning hamma joy-

¹ Eramizdan avval hozirgi Samarqand Maroqand deb atalardi.

² Kvint Kurtsiy Rufning «Aleksandr Makedonskiy yurishlari»da shunday deb ko'rsatiladi. Bu taxminan 12 kilometrga teng.

³ Vag'npat – Zardo'sht ibodatxonasi xizmatchisi, kohin.

laridan savdo-sotiq qilish uchun kelgan turli qabilalar, elatlar, jamoalarga mansub savdo ahllari o'z matolari, teridan qilingan buyumlardan tortib hunarmandchilik ashyolarigacha, shohi-yu ipak mollar-u fil suyagidan ishiangan naqshdor taroqlar, saroy ayollarining nafis didiga moslab ishlangan nozik zargarlik buyumlari-yu surmalargacha bozorga soladilar. Maroqandlik savdogarlar bo'lsa bozorning xo'jayinlari, ular o'zlari uchun eng qulay va serqatnov joyni tanlab olishgan. Bozorning bir chekkasida turli xil shirinliklar: holva-qandolatlar, shafobaxsh asallar, meva-chevalar bilan savdo qiladigan alohida rasta mavjud.

Erta bahor bo'lgani uchun shahar quyosh nurida rango-rang jilolanadi, turfa libos kiygan yosh qizlar, ayollar yigit-yalanglar, qari-qartanglar, bolalar ko'chalarni to'ldirib shaharga fayz, jo'shqinlik kiritgan. Bir yoqda do'mbira ovozi, boshqa tomonda bo'lsa surnay navosi eshitiladi. Bozorning bir chetida odamlar davra qurib olishibdi. Ilon o'ynatuvchi chol sehrli qamish nayini chalganda savat ichidan ko'zoynakli ilon sekim bosh ko'taradida tomoshaga kelganlarga go'yo chiroyli raqsga tushib beradi. Yana boshqa davrada xo'roz urishtirayotganlar baralla baqirib-chaqirib, g'olib chiqqan xo'roz egasini olqishlaydilar.

Usti qamish bilan berkitilgan salqingma joyda bo'lsa qushlar bozori. Eh-he, qanchalik ajoyib-g'aroyib tomosha ekan bu qushlar bozori, kirmagan, ko'rmagan kishi yo'q. Sayroqi qushlarning navosi-yu mahmadona to'tilarning odamga o'xshab so'zlashigacha hamma-hammasini ko'rasiz. Oppoq soqoili, baquvvat chol ko'proq yirtqich qushlar bilan savdo qiladi, uni hamma «Qushchi bobo» deb ataydi. Unda ovga o'rgatilgan burgutlarning hamma xillari topiladi. Bir chekkada o'z qushlariga joy ajratib olgan yoshgina yigit kaptar savdosi bilan mashg'ul. Panjakentlik qushchi bo'lsa tol navdasidan to'qilgan savatlarda yuzlab zotli, rang-barang to'tiqushlar, mayna, sa'valar, kam uchraydigan qushlar sotadi. Sayroqi bedanalar, kakliklar-chi? Ularning son-sanog'i yo'q. Qush bozorining qiy-chuvidan chiqib, orqa maydonga o'tsangiz, yovvoyi hayvonlar bozoriga chiqib qolasiz. Bunda quyonlar, tulkilar, bo'rilar, turli xildagi maymunlar... Hayvonlarning terilari, mo'ynalarini ham shu yerda sotib olish mumkin.

Bozor chekkasidagi serhasham joy – qullar bozori. Bunda inson ashyo o'rnida, mol tariqasida sotiladi. Turli xalqlarga, elatlarga mansub bo'lgan sarviqomat go'zal qizlar, ayollar, bilaklari kuchga to'lgan yigitlar, qo'li gul ustalar mana shu yerda bozorga solinadi. Qul bozoriga shaharning kelgindi xo'jayinlari – forslar, turli qabilalarning e'tiborli kishilari, Sug'diyonaning badavlat zodagonlari ko'proq tashrif buyurishadi.

– Keling, mana bu sarvinozga bir qarang-a, gul kabi nozik badan, xuddi sutga chayib olinganday, mo'rcha miyon, pista dahan, suv ichsa tomog'idan, sabzi yesa biqmidan ko'rinadi, asli midiyalik, mana bunisi bo'lsa Kashmir go'zali; jodu ko'z, qunduz qosh, xipcha bel, tundek qora sochlari beliga uradi, boz ustiga juda xushovoz, qo'shiq aytadi, ud chaladi, raqsga tushadi, – deydi boshiga qizil kuloh kiyib olgan ekbatanlik⁴ qul sotuvchi.

Qul bozori yonidagi serqatnov joyda oppoq soqolli, sochlari bo'yniga qadar tushgan bir basavlat mo'ysafid o'tgan-ketganlarga murojaat qilib, baland ovoz bilan diydiyo aytadi. Uni Maroqandda bilmagan odam yo'q, o'z hikoyalari, qiziq rivoyatlari bilan hammaga mashhur, uni ba'zilar «Dariyod devona» deb atashsa, boshqalar «Dariyod donishmand» deyishadi.

Mana, Dariyod bozorning bir chekkasidagi maydonda turib olib hikoyat so'zlamogda.

Bir odam Axuramazdaga⁵ murojaat etib:

– Farovonligimiz manbayi bo'lgan chorva mollarni yaratgan kimsa senmisan? – debdi.

– Ha, Axuramazda yer yuzida hayotning boshlanishida Artaming⁶ saxovati bilan moliarimiz uchun o'tloqlar yaratdi.

Haligi odam yana so'radi:

– Arta sababchi bo'lib cho'pon mollarning agasi bo'lib qoladimi?

⁴ Ekbatan – qadimgi Midiyaming poytaxti. Hozirgi Eronning Hamadon shahriga to'g'ri keladi.

⁵ A x u r a m a z d a – Zardo'shtlik dinining asosiy – oliy tangrisi, yorug'lik, yaxshilik ifodasi.

⁶ A r t a (A s h a) – Zardo'shtlik dinining asosiy mafkuraviy tushunchasi. Haqiqat, adolat, saino, yer yuzida tartib bo'lishi haqida ang asosiy va oliy ma'huda Axuramazda orqali shu g'oyani ilgari suradi.

Shunda g'oyibdan nido keldi:

«Axuramazda chorva uchun mehnatkash cho'ponni yaratdi. Qani do'stlar, azizlar, Arta va podalarni, suv va o'simliklarni, nur va yerni, barcha boyliklarni yaratgan Axuramazdani sharaflaylik!

Turgan xaloyiq baravariga:

– «Axuramazdaga sharaflar bo'lsin, butun borlig'imiz, hayotimiz uning saxovatidan», – deb baqirishdi. Dariyod davom etdi:

– Ayo do'stlar, qon-qardoshlar, tinglang mening so'zlarim, bu boqiy dunyo ibtidosin va inti hosin. Yorug' jahon, quyoshli dunyo – bu yaxshilik dunyosidir. Sug'diyona, Marg'iyona, Xvay-rizem⁷, Baqtriya – jahonning eng go'zal, serhosil, sero't yerlaridir kim, am tabiat bizlarga hadya etmishdir. Yaxshilik tarqatuvchi ulug' Axuramazda yer-u suv, o'simlik, barcha boyliklarning yaratuvchisidir, Yomonlik yakson bo'lsin, u yerning tubida. Unga yomonlik, qorong'ilik, buzg'unchilik ma'budasi Ayshmaning⁸ o'zi bosh-qosh! Qachonki, dunyo paydo bo'lib, inson degan buyuk zot yaratilibdiki, yomonlik bilan yaxshilik, yorug'lik bilan qorong'ilik o'rtasida jangu jadal ketadi. Bu jang, bu hango ma abadiy davom etadi. Ulug' va inuqaddas Kitobimizda⁹ ham ana shular qon bilan yozib qo'yilgan.

Biz haminamiz yorug'likning, Quyoshning farzandlarimiz. Yorug'lik ham, yaxshilik ham, boylik, yemak-ichmak, go'zallik, rohat-farog'at ulug' Quyoshdandir. U olamni munavvar etadi, yerdagi butun mavjudotga hayot baxsh etadi.

O, Ulug' Quyosh, senga sig'inaman, o'z panohingda asra, shavqat qil!

Mo'ysafid osmonga qaragancha ko'zini bir nuqtaga tikib qoldi. Uning atrofiga yig'ilgan bir to'da yosh-yalanglar cholning otashin so'zlarini e'tibor bilan tinglashardi.

⁷ X v a y r i z e m – hozirgi Xorazm, ma'nosi «Quyosh o'lkasi» demakdir.

⁸ A y s h m a – qorong'ilik, yomonlik ma'budasi.

⁹ Bu yerda gap zardo'shtlik dinining muqaddas kitobi «Avesto» haqida boryapti. Avestoda hayon etilgan ma'lumotlarning eng qadimiysi miloddan avvalgi 1000-yilning birinchi yarmi o'rtalariga oiddir. Bu kitobda Eron, Baqtriya, O'rta Osiyo, Ozarboyjon xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, urf-odatlari olam haqidagi tasavvurlari ifoda etilgan.

– Nega jim bo'lib qolding, hay Dariyod, – kimdir murojaat qildi.

Dariyod o'ziga kelib, endi yashirin bir sirni aytmoqchiday ovozini pastroq qilib so'zlay boshladi:

– Yerning qa'rida abadiy qorong'ilik joylashgan. Shu boisdan osmoni azaldan kelayotgan yorug'lik yer ostidagi qorong'ulik bilan kurashadi. Bilsangiz, azizlarim, yer sathi abadiy kurash, uzluksiz jang maydonidir. Qora kuchlar yorug'likni bo'g'ib tashlash uchun yer qa'rini o'zlariga makon qilib olganlar. Ular urush, janjal, nizo, ig'vo bilan odamlar o'rtasida adovat urug'ini sochadilar. Ha, podalarimiz ham, insonlar ham Ayshmadan bezordirlar, uni yo'q qilish kerak. Buning uchun kuchli hokimiyat zarur.

Dariyod yana jimib qoldi.

– Dariyod, endi anavi marvarid teruvchi haqidagi hikoyatni aytib ber, – dedi sho'x yigitlardan biri.

– Yo'q, yo'q, yaxshisi Siyovush haqida so'zlab bersin, – dedi yana kimdir.

To'plangan olomon yigitning taklifini yakdillik bilan quvvatlashdi.

Dariyod maroq bilan so'zlay ketdi:

– Andog' rivoyat qilibdurlarkim...

Shu vaqt birdaniga bozorda to's-to'polon ko'tarildi. Midiyalik fors haligi panjikentlik qush sotuvchini qo'lidagi hassa bilan do'pposlab, haqorat qilib shovqin solardi. Qush sotuvchi yigit baland bo'yli, baquvvatdan kelgan bo'lsa ham qo'llari bilan yuzini yashirib qarshilik ko'rsatmay jimgina turardi, atrof-tevarakda turganlar qancha iltijo qilishmasin, foydasiz edi.

– Qo'yinglar, janjal qilmanglar. Ulug' zot, qancha qush kerak bo'lsa oling, men heraman, – dedi Qo'shchi bobo forsga murojaat etib.

– Nari tur, qari it, – fors Qushchi boboni itarib yubordi.

– Oq soqolimni hurmat qil, – dedi bobo ranjib.

Fors Qushchi boboning so'zlariga e'tibor bermay, yana yigitga yopisha ketdi.

– Tagi past maxluq, itvachcha, sen hali menga hurmatsizlik qilasanmi, kimligimni bilmaysanmi, he yovvoyi, qushlaring boshingda qolsin, hozir bitta-bittalab bo'yini uzib tanglayman.

Midiyalik zodagon aytganini qilib, qafasda javrab, janjalga aralashib turgan to'tiga yopishdi. Qo'lini qafasga tiqib, qushni ushlab olmoqchi bo'lganda, to'ti patir-putur qilib, o'tkir panjalari bilan forsning qo'llarini tilib tashladi. Battar jahli chiqib, to'tini qanotidan ushlab qafasdan sug'urib oldi, qush bo'lsa janjalkash ayollardek bor ovozi bilan qichqirardi. Bu ayanchli manzarani kuzatib turgan jussador, abjir sahroyi yigit o'rtaga tushib, to'tiga azob berayotgan midiyalik tomon yurdi.

– Qani ayt-chi, hoy, kelgindi, bundan ko'ra Ayshmaming qahriga yo'liqsang bo'lmaydimi, bu sho'rlik qush senga nima gunoh qildi, hozir qo'yib yubor, – dedi midiyalikka po'pisa qilib.

Unirida bunaqa muomalani eshitmagan midiyalikning rangi o'chib battar jahli chiqib ketdi.

– O, Ulug' Quyosh, bu dunyoda mimalar bo'lyapti o'zi? – Quyoshga qarab zorlandi fors.

– Senlarning kunlaring endi bitdi, ha, sug'dlar boshiga shuncha kulfat solganing yetar, bu bechorada nima ayb, nega uni kaltaklaysan, ilohim ajdaholarga yem bo'lgm, devlar adabingni bersm, – dedi sahroyi yigit.

– Iya, hoy, odamlar, mana buni tomosha qiling, – dedi-yu qasdma-qasdlikka qo'lidagi to'tini qiyqirtirib, bo'ynini uzib tashlamoqchi bo'ldi, shu vaqt sahroyi yigitning qattiq mushti bilan yerga chil parchin bo'lib ag'darildi, to'ti qo'lidan chiqib, pirillagancha birpasda qayergadir g'oyib bo'ldi. Midiyalik nomus kuchi zo'ridan og'riqmi ham unutib, apil-tapil o'rnidan turib, kiyimidagi changni qoqdi-yu, sahroyiga yopishmoqchi bo'ldi. Ammo yigit bo'sh kelmay gurzidek baquvvat mushti bilan ikkinchi bor urgan edi, midiyalik chalqanchasiga ag'darilib tushdi. Endi u o'rnidan turolmay qoldi, olomon o'rtasida g'ovur-g'uvur boshlandi. Biror odam xabar bergan bo'lsa kerak, shu vaqt hovliqqancha uch nafar sipohiy yetib kelib, sahroyiga yopishgan edi, yigit ularga ham bo'sh kelmay, bitta-bitta musht bilan uchchallasini ham ag'dardi. Keyin yerda yotgan kulohimi olib, olomon ichiga o'zini urdi. Forslar midiyalik zodagonni o'rnidan turg'azishib, chakmonining tuprog'ini qoqib suv ichirishdi, midiyalik ola-zarak bo'lib o'zini beobro' qilgan sahroyini qidira boshladi va alam bilan: «anavi sahroyini

ushlanglar, oyog'idan bozor darvozasiga osib qo'yinglar», deb baqira boshladi.

– Qush sotuvchi ablah qani? – yana baqirdi zodagon.

Qush sotuvchi bo'lsa qafaslarini ko'tarib, allaqachon bozordan chiqib ketgandi.

Shu vaqt Dariyodning tor bilan qo'shiq aytgan ovozi yanrangladi, butun olomon o'sha tomonga yugurdi.

*Sarkardalar, allomalar,
shohlar, gadolar,
Ezilganlar, xo'rlanganlar,
qalbi adolar...*

*Bu olamda biri aziz, boshqasi xor-zor,
Kuni tugab, vaqti yetsa hammasi bir go'r.
Bu dunyoga kimlar kelib, kimdar ketmadi,
Qancha ishlar o'lda-jo'lda, umr yetmadi...*

Bir to'da suvoriy odamlarni urib-surib yo'l bo'shatishni talab qilar, oldinda qizil zarbof chopon kiygan ovozi xuddi qo'ng'iroqdek jarchi tezda chekkaga chiqib, yashirinib turishlari lozimligini uqdirardi.

– Ne gap o'zi, hoy bobo? – so'radi haligi qushchini himoya qilgan sahroyi yigit bir chekkada turgan Dariyoddan.

– Iya, sen haligi to'polonchi yigitmisan, ohbo, xumpar-ey, mayli-mayli, tezroq yot! Boshingni ichingga ol, toshhaqa bo'li! – dedi Dariyod sahroyi yigitga.

Dariyod yigitning etagidan tortib, yaqinidagi do'kon qanorasiga yashirindi.

– Kim kelyapti o'zi, otaxon? – so'radi yigit.

– Agar hilmoqni istasang, bo'tam, Maroqand bukmidorining qizi Malikayi Turona kelyapti, haftaning shu kunida kanizaklari bilan hammomga boradi.

– Shunday deng... – dedi sahroyi bir oz taajjuhlanib.

Jarchilar shovqin-suron bilan o'tib ketishdi. Bir necha daqiqalardan so'ng chiroyli qilib yasatilgan, ustiga zarbof yopinchoq to'shalgan oq fil ustida malika paydo bo'ldi. Filning bo'yniga tilla qo'ng'iroqlar osilgan, ustiga o'rnatilgan chiroyli

maofaning to'rt tomoni oppoq shohi pardalar bilan o'ralgandi. Malika ahyon-ahyon o'rindiqning pardasini ochib, atrofni tomosha qilar, fil ham go'yo ustida zamonasining eng go'zal malikasi ketayotganidan g'oyat mag'rurlangandek viqor va salobat bilan tantanavor qadam tashlab borardi.

Malikayi Turonani oq ot mingan bir necha go'zal kanizaklar kuzatib kelishmoqda. Ular qizil shohidan libos kiyib olishgan yelkalarida och kulrang ro'mol. Oyoqlarida bejirim etikchalar, bo'yinlarida, qo'llarida qimmatbaho taqinchoqlar.

Kanizaklar ortidan ikki nor tuyada saroy xodimlari kelishmoqda. Ulardan biri qirg'iy burun, oq yuzli, ingichka mo'ylovli yigit. Ikkinchisi esa qizg'ish rang, qorachadan kelgan, soqoli oq, keksaroq odam; Har ikkalasi ham serbezak kiyimda, bellarida kichik xanjar va qilich osilgan. Savlat bilan qo'llariga chiroyli hasa ushlab olishgan. Bu ularning e'tiborli saroy kishilari ekanligini bildiradi.

Bu tantanavor yurishni qo'rqa-pisa kuzatib turgan haligi sahroyi yigit: «Nima bo'lyapti o'zi», deb qiziqib boshini ko'tardi. Shu vaqt malika pardani ko'tarib tomosha qilayotgan edi, ittifoqo sahroyimning ko'zi unga tushib qoldi. Ko'zlar beixtiyor to'qnashdi. Yigit qizning husni jamoliga mahliyo bo'lib anqayib qoldi. Shu vaqt to'satdan boshiga tushgan qamchi zarbidan es-hushi og'ib qoldi. Bir vaqt o'ziga kelib ko'zini ochsa, tepasida Dariyod o'tiribdi.

– Ey, bo'tam, aytmadimmi senga, boshingni xam qil deb...

Sahroyi yigit Dariyodning so'ziga qo'loq solmaganligi uchun aybdor kishidek mo'ltillagancha jim turaverdi. Bir daqiqa ichida bo'lib o'tgan uchrashuv sho'rlikning aql-hushini olib qo'ygandi.

Belbog'ini yechib, yuz-ko'zlarini artdi, yerda yotgan kulohini olib kiydi.

– Sazoyi kishi shunday nomaqbul ish qilsin, – dedi Dariyod bir oz hazilomuz.

– Bu nima? – Sahroyi Dariyod bo'ynidagi kumush taqinchoqqa ko'zi tushdi, unda ailaqanday qushning surati naqsh etilgan edi.

– Maroqqandda Kas degan bir zargar do'stim bor. Qo'li gul usta. Bu o'shaning ishi. Uning otasi asli Yunondan qochib kelib, sug'diyonalik bir ayolga uylangan, deyishadi. Ajoyib bir inson o'zi, el-ulusda obro'si ham katta. Xo'sh, nega so'rading buni, – dedi Dariyod.

– Men ham suratkashman, uning mahroratiga qoyil qoldim, – dedi sahroyi yigit.

– Agar Kas bilan suhbatlashsang, shunaqa qiziq hangomalar aytib beradiki, aslo qo'yaber. Ana, suratkashlikni o'shandan o'rgan. Qalqonga ham, qilichga ham naqsh chizadi.

– Qanaqa qilib, – taajjublandi yigit.

– Bilmayman, ammo qalqonga ot, sher, qoplon suratlarini o'xshatib tushiradi. Panjikentlik Spitamenning qalqomiga «Qorasoch» degan otning suratini tushirib bergan ham shu Kas emish.

– Dariyod bobo, ayting-chi, Spitamen kim o'zi? – qiziqsinib so'radi yigit.

– Men uni ko'rgan emasman, ta'rifini odamlardan eshitganman. Uq-yoy bilan osmonda uchib ketayotgan quzg'unni ham urib tushirarkan, uning uchqur tulporiga yetib oladigan ot hali Sug'diyonada ham, Baqtriyada ham tug'ilmagan emish. Haligi sen mushtlashgan forslarning o'ntasi ham unga bas kela olmas emish!

– Spitamenni qanday qilib ko'rsam ekan-a? – dedi, sahroyi hovliqib.

– Bilmadim, bo'tam, niyating yaxshi bo'lsa ko'rishasan, odam-odam bilan, albatta, uchrashadi.

Dariyod o'ylab turib bir narsa yodiga tushgandek sahroyiga qaradi:

– Kas Spitamenni yaxshi biladi, ular qalin do'st, axir uning qalqomiga Qorasoch ismli otining shaklini naqsh qilib bergan-ku!

– Shunday deng, – o'ylanib qoldi yigit taajjubda.

– Agar o'sha Kas Arastu haqida, Aflotun haqida so'zlab bersa bormi, ehe, esing og'ib qoladi. Avestoni yoddan biladi. Sen makedoniyalik Iskandarni eshitganmisan? Uning olmagan

mamlakati, poyi yetmagan shahari yo'q. Eshitishincha, Doriyovushdan¹⁰ ham zo'r emish. Makedoniyalik Iskandarning har biri tog'mi urisa talqon qiladigan pahlavonlari, lashkarboshilari bor ekan. Lashkarlarining nayzalari g'oyatda uzun, qalqonlaridan o'q ham, qilich ham o'tmas emish. Manjanaqlari mustahkam darvozalar, qalin devorlarni birpasda yer bilan yakson qilar ekan. Xullas, Iskandar askarlarining son-sanogi yo'q, faqat unga Siyovushdek, Afrosiyobdek pahlavon bas kelmasa, boshqa hech kim bas kelolmas.

– Spitamen-chi? – so'radi sahroyi yigit qiziqib.

– Spitamenmi... bilmadim, har holda ularning kuchiari teng kelib qolsa ajabmas, – dedi bir oz o'ylamb Dariyod.

– Qiziq ekan...

– Ha, o'sha Kas hammasini yaxshi biladi... O'zi yaxshi usta, – dedi-yu «bu o'shaning ishi» deb bo'ynidagi suvratni yana yigitga ko'rsatdi.

– Men ham shunday qilib chiza olaman, – dedi sahroyi yigit!

– Ha, aytganday, isming nima, o'zing qayerlik bo'lasan? – so'radi Dariyod.

– Nomim Sherdor, aslida bixralikman¹¹. Otamni forslar o'ldirishgan, faqat bir bechora qari onam bilan qolganman.

– Senga ham og'ir ekan, bo'tam.

– Asli ishim ovchilik, kamonni yaxshi otasan, deyishadi hamqishloqlarim.

– Ovchiliging yaxshi, o'zing ham ancha pahlavon ko'rnanas, anavi forsning boplab adabini berding, kamon otishga usta bo'lsang nur ustiga nur, suratkashman deyapsan, chizganlaring qani? – so'radi Dariyod qiziqsimib.

– Agar bilsangiz, suratni men tog'larga, qoyalarga chizaman.

– Qiziq, nega endi unday qilasan? Bu befoyda ish-ku! Chizganingga kim tillo beradi, sen ham menga o'xshash devona ekansan, ikkovimiz bir joydan chiqib qoldik, shekilli.

– Men suratni tillo uchun emas, havasga ishlayman.

– Ey, devona yigit, ajib hunaring bor ekan-ku, uni qayga ishlatishni bilmas ekansan, – dedi u, – tilloying bo'lmasa,

¹⁰ Doriyovush – bu yerda gap Eron shohi Doro III haqida ketmoqda.

¹¹ Qadimgi Buxoro shunday atalgan.

moling bo'lmasa dunyoda yashay olmaysan, seni hech kim bir pulga olmas. Bu ko'hna dunyoda hamma narsa pulga sotiladi, hatto vijdonni ham sotib olishmoqda.

– Unday demang, otaxon, men vijdonimni hech kimga sotmayman.

Shunday dedi-yu, Sherdor Dariyodga tikilgancha jim qoldi. Qamchi zarbini ham unutib qo'ydi, yuragi bezovtalandi. «Nega qalbim notinch, menga mima bo'ldi?» Fil ustida ketayotgan parivashning qarashlari ko'z oldidan hamon ketmasdi. Serishva, bir daqiqalik o'sha o't qarashlar uning yuragiga o'chmas olov solgandi...

– Menga qara, – dedi to'satdan Dariyod.

– Nima deysiz, – dedi ma'yuslik bilan Sherdor.

– Ko'zingga qara, – dedi Dariyod va sinovchanlik bilan yigitga tikildi.

Sherdor bezovtalanib, u yoq-bu yog'ini tuzatgan bo'ldi.

– Nega o'ng'aysizlanasan? Kiyimlaring menikidan ham eski ekan, – dedi Dariyod kulib.

– Ha, siznikidan qolishmaydi...

– Gado gadoni chiqishtirmaydi, bo'tam. Ha, biz bir-birimizdan kulyapmiz. Ha, dunyo shunday tuzilgan. Muhabbat dardiga muhtalo bo'libsang, ha, qizning ishqiy yuragingdan uribdi.

– Malikani yaxshi ko'rib qoldim, endi mima qilay, ey padari buzrukvor, – yolvordi Sherdor.

– Devona ekansan, – dedi Dariyod.

– Ha, shunday, haq gapni aytdingiz, devonaning ishqiy malikaga tushibdi.

– Tentaklik qilma, bo'tam, hayotingni xavfga qo'yma. Bu so'zlaring uchun sening boshingni taningdan judo qilurlar. Maroqand hukmdori Namich bilan o'ynashib bo'ladimi? Malikayi Turona-chi, bunaqasi yetti iqlimda yo'q. Sen bir sahroyi yupun yigit bo'lsang, yaxshisi es-hushingni yig'ib ol, bu savdomi qo'y, o'zingga o'zing jabr qilma.

Dariyod qanchalik pand-nasihat qilmasin, yigitning qo'log'iga kirmasdi.

– Qo'limda guldek hunarim bo'lsa, axir hokimga umr bo'yi xizmat qilaman desam, ko'nmasmikin, – dedi yigit ma'yus.

– Tentak ekansan...

Yigit indamadi. Lekin qarshisida turgan mo'ysafiddan bir oz ko'ngli ranjigandek bo'ldi.

– Baribir hokimga kiraman, yalinib-yolvoraman.

– Nima ham derdim, ixtiyor o'zingda. Faqat mening pand-nasihatimga quloq ber, hokimlarning qahri qattiq bo'ladi. Sen o'z nasl-nasabingga qarab ish tut. Ko'rpangga qarab oyoq uzat, deganlar. O'zing kimsan? Malikaga yetaman deb kallangdan ajralib qolma!

Dariyod o'z yo'liga ketdi. Sherdor qayerga bosh urishini bil-may Maroqand ko'chalarida uzoq daydib yurdi. Olov qasri yoniga bordi. Qo'llarini ko'ksiga qo'yib, ko'zlarini yumgancha yolvord:

– O, Axuramazda, o'zing shafqat qil. Men bir notavon, becho-raman, biror mehribonim bo'lmasa, sendan boshqa kimdan najot so'ray.

Shundan so'ng yigit boshi og'ib Maroqandning Sharqiy darvozasi tomon ketdi. Panjikentga shu daryo orqali boriladi. Keyin Bixraga ketadigan Ilon darvoza tomonga o'tdi. Darvoza yonidagi mimoraga qaragandi, kulohi tushib ketdi. Minora yuqoridan pastga yo'g'onlashib tushgandi. «Kishining aqli bovar qilmaydi. Qanday qilib barpo etishibdi-ya, ha Maroqandni Afrosiyob bahodir qayta qurgan, deyishadi. O'zi ham juda zo'r pahlavon ekan-da Shunday baland minoralarni qurgan bo'lsa, ammo Spitamen ham zo'r emish-ku, uni bir ko'rishim zarur. Balki meni o'ziga navkar qilib olar, bunday pahiavonga qul bo'lishga tayyor edim», ko'nglidan o'tkazdi Sherdor. Keyin asta-sekin yana Olov qasriga qaytib keldi.

«Olov qasri»ga qarab kuni kecha bir vag'npatning aytgan hikoyati yodiga tushdi. Rivoyatlarga qaraganda, Maroqand barpo etilmasdan ilgari ham bu yerda «Olov qasri» bo'lgan, Axuramazdaning o'zi Quyoshdan ana shu yog'duni olib tush-ib, shu yerning eng ko'rinarli, baland joyiga o'rnatgan emish. Odamlar ana shu olov ustiga qasr barpo etibdi. Keyin uning atrofiga asta-sekin xalq to'plana boshlabdi. Shunday qilib olov parchasi insonlarga hayot, ovqat, kiyim-kechak hadya etibdi. Olov qasri atrofiga koshonalar, saroylar, ulkan mino-ralar barpo etishibdi.

Sherdor o'ziga-o'zi taskin berdi. Olov bo'imsa inson qanday qilib yashaydi. Quyosh ham shunday, agar u bir daqiqa yo'q bo'lib qolsa, yer yuzi muzdek qotib qolsa kerak.

- O, aziz mehribon Axuramazda, o'zing panohingda asra, iloho Quyoshimizdan judo qilma bizni.

Sherdor ibodatxonaga qarab turdi-da, boshini sajdaga qo'yib, keyin cho'kkalagancha nimalarnidir o'qidi, ko'zi bilan og'zini silab barmoqlarini o'pdi-da, o'rnidan turib o'z yo'lga ketdi...

Qarshida uchta minorali Maroqand hokimning saroyi salobat to'kib turardi. Sherdor saroy darvozasiga razm soldi. Tepada soqchilar, darvoza esa taqa-taq yopiq. Saroy g'oyat ko'rkam, hashamatli, uning atrofiga qurilgan uchta kichik minora saroyini yana ham serhasham ko'rsatadi. Saroy darvozasi ustunlarining naqshlariga e'tibor bilan qaradi. Qo'li gul, ulkan san'atkorning mahoratiga tahsinlar o'qidi. «Men ham o'zimni suratkash deb yurganankanman, bunaqa ustalar bor ekan-ku bu dunyoda, Dariyodning gaplarida ham jon bor, men bo'lsam tog'-toshlarga rasm chizib yuribman, haqiqatan ham mening toshlarga chizgan suratimni kim ko'radi, agar mana shunaqa naqsh chizishni menga qo'yib bersa, o'zimni ko'rsatardim. Qani endi, Malikayi Turonaning rasmini qoyaga o'yib chlzgin deyishsa, bir qoyil qilardi. Ammo buni mendan kim iltimos qilardi... Malika meni ham, sevgimni ham bilmasa. O, Axuramazda mende bir g'arib bechoraga karomatingni ko'rsatsang nima qiladi, axir sen-shafqat qilmasang, kim shafqat qiladi...»

CHO'L QOPLONI

Osmono'par tog' tizmalari... Uning tuyu o'rkachlariga o'xshash cho'qqilariga nazar tashlasangiz, ko'zlaringiz qamashadi, bu tizmalar bir kunda bir necha turga kirib tovlanadi. Qarangki, cho'qqilarda oppoq qorlar yozning eng issiq kunlarida ham erimaydi, tog'lardan esgan shabada yozning jazirama kunlarida butun mavjudotga orom-rohat baxsh etadi.

Tog'-toshlar orasidan o'zlariga yo'l topib, erta-yu kech qo'shiq aytganday oqib tushayotgan behisob shalolalar-chi!

Ular hali inson oyog'i yetmagan joylardan ana shu muzdek, musaffo qor suvlarini ardoqlab olib kelib, pastdagi sho'x daryoga qo'shiladi, poyonsiz past tekisliklarga yoyilib, momo yerga hayot baxsh etadi. Sug'd tog' tizmalarining orombaxshligi, hayotbaxshligi ham shunda. U Sug'diyananing beshigi, obi hayot manbayi.

Navbahor kezarida uning kishini maftun etuvchi hech qaytarilmas manzaralari aql bovar qilmaydigan darajada go'zallashib ketadi. Qarangki, tog' cho'qqilaridagi oppoq qor pastdagi ko'm-ko'k adirlar bilan qo'shilib bir ajib ko'rkamlik kashf etadi. Qushlar qo'shig'ida bu jannatsimon o'lkaning bahori, go'zalligi kuylanayotganday. Mana bu bir chekkasi jo'shqin daryodan chiqib, haykalday qotib qolgan qoyalar o'tmish zamonlardagi hamma voqealar, hodisalarning guvohidek salobat to'kib turibdi. Nimalarni ko'rmadi bu ulkan tosh qoyalar... Suv toshqinlari, o'tli vulqonlar, yer qimirlashlar, tabiatning hamma dahshatlariga bardosh berib mag'rur qad ko'tarib turibdi. Yillar, o'n yillar, yuz yillar o'tib asrlarga yo'l bo'shatib berdi, ammo bu ulkan qoyalar hamon salobat bilan sukut saqlab turibdi.

Bu tog' tizmalarining g'arbi janubiy etaklarida sho'x tez oqar daryo chekkasida bir ulkan qoya bor, uni «So'g'd qoya»lari deb atashadi. O'z go'zalligi, manzaralarga boyligi, atrofining serdaraxtligi bilan birorta qoyaga o'xshamaydi. Go'yo uning o'z hayoti, o'z tarixi bordek...

Ana qarang, hov uzoqda epchil chavandoz mana shu tomonga qarab o'z o'ljasini shitob bilan quvib kelmoqda. Zulukdek uchqur tulporining oyog'idan o't chaqnaydi, agar jilovini qo'yib yuborsa bormi, anavi go'zal qoya ustiga uchib chiqadiganday. Ammo epchil suvoriy uni o'ziga bo'ysundirgan. Ot ham, egasi ham bir jon, bir tandem bir-biriga yarashib tushgan. Mana-mana, hozir o'z o'ljasiga yaqinlashadi. Qoplon terisi yopingan abjir ovchi yigit qo'lidagi arqonni ustalik bilan tashlab, kiyikning bo'yniga ilintiradi. Ko'zlari qinidan chiqib ketgudek qo'rqib jon-jahdi bilan qochib borayotgan kiyik tuproqqa qorilib gursillab yiqildi. Ovchi chaqqonlik bilan otidan tushib, chilvirni torta-torta o'ljasiga yaqinlashadi.

kamaridan o'tkir xanjarini olib yerda tipirchilayotgan kiyik ustiga keldi.

– To'xta, hoy, sayyod, nima qilmoqchisan?

G'oyibdan kelgandek jaranglab eshitilgan buyruqdan Ovchi hayratga tushib ovoz kelgan tomonga qaradi. Qoya tagida juldur-juldur kiyimli, sochlari to'zg'ib butun yuzlarini chulg'ab olgan bir mo'ysafid **turardi**. Ovchi yigit cholga taajjubda qaradi-yu, keyin hech narsa bo'lmagandek kiyikning oyoqlarini bafurja mahkamlab bog'ladi. Biroz jahli chiqqandek, nima gap, deb cholga yuzlandi:

– Soqoling hurmati o'ldirmayin. Xo'sh, nima gap o'zi, kimsan o'zing? Bu kimsasiz beshalarda kimni istab yuribsan?

– Avvalo, xanjaringni g'ilofiga sol, ey, ovchi yigit, bu gunohsiz sho'rlik jonivor sening g'azabingga arzimaydi! Ulug' Axuramazda butun mavjudotni yo'q qilish, qirish, yer yuzini xarobaga aylantirish uchun emas, kengaytirish, yashnatish, boyliklarni ko'paytirish uchun yaratgan.

– Qo'y, yo'limga to'g'anoq bo'lma, – yana g'azabi toshdi ovchining.

– Hoy yigit, agar sen soqolim oqini hurmat qilsang, gapimga quloq sol, bu o'tkinchi dunyoda bировga hech qachon ozor berma. Agar sen sayyod bo'lsang, bilginki, men bir jahongashta sayyohman. Dunyoni kezdin, Turonning hamma joyida bo'ldim, bormagan yurtim, ko'rmagan elim qolmadi. Shu boisdan bir jahongashtaning nasibatini mohatga ol! O'zing tanangga o'yla, ne gunohi bor bu sho'rlikning? Yoki senga biror ziyon-zahmat yetkazdimi? Men bilaman, nafsing yo'lida uni qurbon qilmoqchisan, voz kech bu miyatingdan. Ko'zlaring aytib turibdi, g'azab o'ti seni qiynamoqda, mendan jahling chiqyapti, o'ldirishga ham tayyorga o'xshaysan. Ammo olamni munavvar etib turgan anavi ulug' Axuramazdaga qarab iltijo qilaman, yolvoraman bechoraga ozor berma, qo'yib yubor. Unga bir qara-ya, sendan najot istayalti, yalinib-yolvoryapti.

Yigit qo'lidagi shikor anjomlarini bir chekkaga qo'ydi-da, ov gashtini buzgan cholga hayrat bilan qarab turdi. «Qayerdan paydo bo'lib qoldi shu topda, bu tog'-toshlarda bir o'zi nima istab yuribdi», deb xayolidan o'tkazdi.

Mo'ysafid yana davom etdi:

– Ko'zlarindan bilib turibman, sen o'zing yaxshi odamsan, ammo mendan o'pkalama, hozir bu odam qaydan ham kelib qoldi, deb. Agar bilsang, meni olamni munavvar etib turguvchi ulug' Axuramazdaning o'zi yubordi.

– Ajab, sen qiziq odam ekansan, mabodo Arastu emasmisan? Qancha yillardan beri ov qilaman, shu vaqtga qadar hech kim menga xalaqit bermagan edi. Sen bo'lsang sevgan ishimdan voz kechtirmoqchisan, soqoling oqi hurmati, endi yo'lingga ketaver...

– Yo'q, bo'tam, ovora bo'lma, men hech qayerga ketmayman. Avvalo ko'z oldimda mana bu tog' go'zalimi qo'yib yubor, oyoqlaridagi kishanni bo'shat. Agar qiliching qonsirab qolgan bo'lsa, huv anavi baland tog' cho'qqilariga qara, Sug'diyona ustiga ofat yaqinlashyapti! Ey, juvonmard, bu nojo'ya gaplar emas, bu haqiqat, hozir shikor mavridi emas, maishatni yig'ishtirmoq kerak, mana bu gunohsiz jonivorga jabr qilgandan ko'ra, el boshiga kelayotgan ofat haqida o'yla, qanday og'ir qunlar boshlanishini bilsang edi...

– Bilaman, hammasidan voqifman, Ayshmaning avzoyi buzilgan, yaqinda o'sha tomonlarga o'tgandim.

– Ey bo'tam, ayt-chi, o'zing kim bo'lursan, isming nima?

– Meni Spitamen deb ataydilar.

– Ha, eshitganman. Lekin ko'rmagan edim, mana, nasib endi sen bilan uchrashmoqlik, otangni yaxshi tanirdim, asli panjikentlikсан, – dedi chol.

Spitamening otasi Sug'diyonaning ancha nufuzli kishilaridan. Rivoyatlarga qaraganda, aslida Siyovush avlodidan bo'lgan emish. Lekin bu yaqinlik ota tomonidanmi yoki ona tomonidanmi, bumisini hech kim bilmaydi. Yaylovda chorvasi juda ko'p bo'lmasa ham, ammo elda o'zining zotli otlari bilan tanilgan. Otlarini sotib olish yoki biror narsaga ayriboshlash uchun uzoq-uzoq o'lkalardan odamlar kelib turar, spitamenlar xonadonining asosiy daromadi asosan ana shu zotdor otlardan edi.

Spitamening bolaligi behisob yilqilar yayrab-yashnab yurgan bepoyon yaylovlarda o'tdi. Yoshlikdan otlarga mehr

qo'yib, ular hayoti bilan yashadi, Otasi yakka-yu yagona o'g'lini qattiqqo'llik bilan tarbiyaladi, boshqa zodagonlarning bolalaridek erka qilib qo'ymadi, mehnatda pishitdi, qattiqchilikka o'rgatdi. Yoshlik chog'idanoq ot chopishni mashq qildi, turli qabilalar o'rtasida bo'lib turadigan musobaqalarda qatnashdi. Spitamenning otlar bilan o'tgan hayoti uning jangovar, shijoatli yigit bo'lib kamol topishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Otasi uni jismoniy jihatdan yetuk, baquvvat jangchi xizmatkorlarga birkiritib qo'ygandi. Kamon otish, nayza sanchish, qilichbozlik va boshqa mashqlar Spitamenning kundalik odatiga aylanib qolgandi.

Otasi eng zotdor toychoqlarni alohida parvarishlar, tajribali, ishbilarmon mulozimlar bu ishga muqim birkiritib qo'yilardi. Turli bayram va tantanalar munosabati bilan urug'lar, qabilalar o'rtasida bo'lib turadigan uloq va poygalarga ana shu zotdor otlar qo'yilar va ular ko'pincha g'olib chiqishardi. Qarabsizki, endi otlarning dong'i Sug'diyonagagina emas, balki boshqa o'lkalarga ham taralardi.

Spitamen minib yurgan qorabayirning o'z tarixi bor, otasi Midiyaga savdo-sotiq bilan borganda ming dinorga biya sotib olib, keyin uni o'z yurtidagi zotli, uloqda «g'olib» ayg'irga qochirib, tug'ilgan toychoqni Spitamenga atab parvarish qilgan, deyishadi. Keyin qabila oqsoqollari ishtirokida tantana bilan o'g'liga hadya etgan emish.

Toychoq bo'lsa Spitamen bilan birga o'sdi. Go'yo aka-ukadek. Spitamenning o'zi yoshligidan parvarishladi, yuvib-taradi, cho'miltirdi, tog' yon-bag'irlaridagi eng yaxshi o'tloqlarga olib borib boqdi, uxlaganda ham toychoq uning poyida yotar, bir yoqqa borsa ketidan ergashib yurardi. Shunday qilib odamlarning aytishicha, qorabayirning mehri Spitamenga sut bilan kirgan emish. Spitamen sevimli otiga yoshlikdan Qorasoch deb nom bergan. Shu-shu el-yurt o'rtasida Spitamenning Qorasochi haqida, uning o'z egasiga vafodorligi haqida ko'p rivoyatlar to'qilgan...

Ana shunday rivoyatlarga qaraganda, Spitamen tog' yon-bag'ridagi uzoq yaylovga borganida birdan qattiq yomg'ir ostida qolib ketib, qattiq shamollagan. Yo'l-yo'lakay biydek kimsasiz dala-dashtda bir o'zi, ahvoli borgan sari og'irlashib,

isitmasi balandlashib, oqibat ot ustida hushidan ketib qolgan. Shunda Qorasoch egasini yiqitmay, ehtiyotlab, cho'ponlarning qamish chaylasiga yeson-omon olib borgan, yerlarda sochilib yotgan xashaklarni oyog'i bilan to'plagan, keyin o'zi yerga cho'kkalab egasini ehtiyotlab yotqizgan emish. Spitamen bir oz o'ziga kelib, ko'zini ochganda, vafodor oti uning yonida hech qayerga qimirlamay, qo'riqlab turgan ekan.

– Bir kuni Spitamen cho'lda ketayotib qo'qqisdan qum bo'roniga duch keladi. Quyoshning yuzi bekilib, hech narsa ko'rinmay, bir qadam siljish mumkin bo'lmay qolganda otning tizginini bo'shatib o'z ixtiyoriga qo'yib bergan ekan. Qorasoch egasini dahshatli bo'rondan eson-omon olib chiqib ketgan deyishadi.

Aytishlaricha, Qorasoch begona odamni ustiga hecham mindirmas ekan, agar Spitamenning o'zi rozi bo'lib, ot jilovini tutqazsag'ina ustiga mingan odamga indamay turarkan. Lekin bunday rozilik juda kamdan-kam bo'lgan, Spitamen hatto o'g'illariga: «Qorasochga tegmay, o'z otlaringni mimaverlaring», deb qo'yarkan. Qorasoch aqlli, juda ziyrak, odamlarning yaxshiyomonini darhol tanib olarkan, agar g'alamis, niyati buzuq biror kishi otning yopiga kelsa yer depsinib, kishnab egasiga ma'lum qilarkan.

Qandaydir bayram arafasida Spitamen dah qabilalari uyushtirgan ko'pkariga taklif qilindi. Ana shu katta anjumanda Spitamenning Qorasochi hech kimni o'ziga yetkazmadi. Dahlar boshlig'i o'sha kun bir necha ot, mol, qo'y so'yib katta qurbonlik qildi. Spitamen dahlar sardorining go'zal qizi Odatidani ko'rib ishqiq tushib qoladi. O'shanda otda chopib turib, kamon otish musobaqasida jasur qiz Odatida ham g'olib bo'lib chiqqandi. O'rta qo'soqollar tushdi, o'zaro maslahatlar uzoq davom etdi, oqibat ikki tomonning roziligi bilan hamda barcha rasm-rusumlar o'tkazilib, Spitamen Odashdaga uylandi. Bu bilan qabilalar o'rtasidagi yaylov, o'tloq yerlar, chorva talashib goho-goho bo'lib turadigan janjallar, mizolar, urushlarga bir oz bo'lsa ham xotima berildi.

– Spitamenning baxti chopib xotini qo'shaloq o'g'il tug'ib berdi, yana ikki yildan keyin uchinchi o'g'il dunyoga keldi. Hozir

Spitamen uchta farzandning otasi, demak vorislar, jangchilar, otchopar chavandozlar yetilyapti.

Spitamen haqidagi qisqacha soʻz hozircha ana shundan iborat. «Sugʻd qoyalari»dagi uchrashuvga qaytsak, moʻysafidning kelayotgan xavf haqidagi soʻzlaridan Spitamen hayratda qolib:

– Ey, padari buzrukvor, hayratomuz gaplar bilan yuragimni bezovta qilib qoʻyding. Sen koʻpni koʻrgan dono odam koʻrinasan, menga ayt-chi, Iskandar Sugʻdiyonga lashkar tortib kelishi mumkinmi? – deb soʻradi.

Moʻysafid Spitamenga qarab soʻzlay ketdi:

– Baqtriyadan kelayotib shu tomonga yoʻlim tushdi. Endi ochiq gapni aytib qoʻya qolay, seni shu vodiya deb eshitib qoldim, sodiq odamlarim bor, oʻshalar xabar berishdi. Bess oʻz lashkari bilan Midiyaga joʻnamoqchi, senga bugun-erta chopar ham kelib qoladi. Oksiart, Katay, Xorienga ham xabar ketgan. Ulugʻ Doriyovush hammi qoʻshinlarini yigʻib, Iskandarga qarshi urushga tayyorlanyapti, katta jang boʻladiganga oʻxshaydi. Gap ana shu, boʻtam. Doʻstlarimga «Sugʻd qoyalari»ga chizilgan suratlarini koʻrib kelay deb bahona qildim.

– Qanaqa suratlar? – soʻradi Spitamen qiziqib.

– Qoyalarga chizilgan. Maroqandda Sherdor degan bir suratlash yigitni uchratgandim. Tasodifan Maroqand hokimining qizini koʻrib, unga oshiqi beqaror boʻlib qolibdi. Bilmadim, shoʻrlikning holi ne kechdi ekan. Ammo mana bu qoyalarga chizilgan turli qushlar, ohular, yoʻlbarslar va hayvonlarning suratini oʻsha qoʻli gul yigit ishlagan.

– U qoyalarga oʻyib chizilgan suratlarini men ham koʻrganman, oʻsha Sherdornikimi?

– Ha, ha, oʻshaniki. Lekin gap suratda emas, endi bu yogʻini eshit: daryoning narigi tomonida, skiflar oʻrtasida ham shov-shuv gaplar yuribdi. Bilishimcha, Iskandar qoʻshin tortib Baqtriyaga ham kelarmish, Bessning hovliqib bezovta boʻlayotganida jon bor, oʻgʻlim.

– Bu gap haq, men ham eshitgandim.

– Mana shunisi yomon, ey aziz padari buzrukvor, Baqtriyaga kelsa, bu yogʻi Sugʻdiyona. Ha, hali qattiq janglar boʻladi, – dedi-yu, Spitamen oʻrnidan turib ketdi.

Erda oyoqlari bogʻliq yotgan kiyik ham Spitamenning qatʼiy harakatidan qoʻrqib, tuzoqdan boʻshamoqchi boʻlib harakat qilib qoldi, Spitamen beixtiyor xanjarini olib kiyikning oyogʻidagi chilvirni kesib yubordi. Ozodlikka chiqqan jonivor oʻrnidan turdi-yu, birpasda togʻ-toshlar orasida gʻoyib boʻldi.

– Iskandarning aygʻoqchilari odamlar orasida gap-soʻz yigʻib yurganmish. Xullas, bunday shum shov-shuv xabarlar ancha-muncha bor.

– Ayt-chi, ey, padar buzrukvor, meni istab kelishingga seni nima majbur etdi? – soʻradi Spitamen.

– Sen Sugʻdiyoning jonkuyar oʻgʻloni ekanimgni bilaman, Axuramazdaning sodiq bolasisan, boshqalarni bilmayman, ammo xalq seni yaxshi biladi, ishonadi ham...

– Shunday degin... – Spitamen oʻyga toldi. Osmon bilan oʻpishgan togʻ choʻqqilariga tikilgancha qoldi. Endi Spitamen ovni butunlay unutmadi. Moʻysafid cholning gʻoyatda horgʻin, sargʻayib ketgan yuzlariga, juldur kiyimlariga qarab koʻz oʻngiga oʻz xalqining ayanchli, yupun hayoti keldi. Goʻyo u ana shu xalq nomidan uning oldiga vakil boʻlib kelgandek. «Axir sen bizning gadolardek ahvolimizni koʻr, rahm-shafqat qil, shoʻrliklarni himoya qil», degandek tuyuldi unga.

– Ulugʻ Axuramazda yer yuzida osoyishta, tinch hayot barpo etgan. Uni qonga belash gunoh. Mana eshit, senga Muqaddas kitobdan bir kalima soʻzlab beray:

Zardoʻsht Xurmuzddan¹² savol soʻrdi:

– «O, Xurmuzd, muqaddas ruh, xoliq ul dunyo-yu xilqat, Habib ul haqqi taolo! Men – Zardoʻsht bilan muloqotgingdan avval odamlardan kim bilan suhbat qurganding? Kimni Xovar¹³ va Zardoʻsht imoniga oʻrgatgan eding?»

Shunda Xurmuzd soʻz ochdi:

– «Podalari sanoqsiz goʻzal Yima¹⁴ bilan, o taqvodor Zardoʻsht, eng avvalo odamlardan u bilan, men – Xurmuzd, suhbat qildim sen Zardoʻshtga qadar. Unga oshkor ayladim Xovar va Zardoʻsht dinin».

¹² Xurmuzd – bu yerda Axuramazda maʼnosida keltirilgan.

¹³ Xovar – quyosh demakdir.

¹⁴ Yima – Avestoda yozilishicha, nur taratuvchi siymo. Eron tarixida keyinchalik Jamshid nomi bilan mashhur boʻlgan afsonaviy podshoh.

Unga men dedim:

- «O, go'zal Yima Vivaxvant o'g'li, mening dinimni o'rganishga va himoya qilmoqqa tayyor bo'lgil».

Menga ul olijanob Yima javob berdi:

- «O, Zardo'sht. Men dinimni o'rganmoqqa va qo'riqlamoqqa qodirmasman, omiman».

Shunda Xurmuzd Yimaga dedi:

- «Mening dinimni o'rganmoqqa va qo'riqlamoqqa qodir bo'lmasang, men yaratgan dunyoni parvarish qil, kengaytir. Uning himoyasiga tayyor bo'l, qo'riqla va nazorat qil».

Menga ul go'zal Yima javob ayladi:

+ «O, Zardo'sht. Men sening dunyongni parvarishlab kengaytirishga, qo'riqlashga, nazorat qilishga tayyorman. Mening hokimligimda toki qahraton ham, jazirama ham, kasallik ham bo'lmagay.

Men, Axuramazda unga ikki qurol berdim: biri oltin o'q, biri esa oltin zebli qamchi... shundan buyon uch yuz yil o'tdi. Yer yuzi chorva bilan to'ldi, odamlar gavjum bo'ldi, itlaru qushlar, ha, alangali otash-la ma'mur bo'ldi.

Erda mayda, yirik hayvonlarga va odamlarga joy yetishmay qoldi. Shunda men Yimaga bir xabar nozil qildim:

«Ey, olijanob Yima Bivaxvant o'g'li! Yer yuzi mayda - yirik hayvonlar odamlar, itlar va qushlar, qirmizi alangali otashlar bilan to'lib toshdi. Ularga... joy topib berish mahol bo'lib qoldi».

Shunda Yima kun tikkaga kelgan pallada nur – quyosh tomon parvoz ayladi. Undan turib oltin o'qi bilan yer bag'rimi tildi, oltin qamchisi bilan urib duo tilovat qildi: «O, bebaho muqaddas Armai¹⁵ti, suril, kengay, toki mayda, yirik hayvonlar uchun, odamlar uchun makon bo'lg'aysan».

Shunday qilib Yima yerni uchdan bir marta kengaytirdi. Unda mayda, yirik jondorlar va odamlar o'z ta'blariga muvofiq joylashdilar.

Keyin yana Yimaning podsholigi olti yuz yil davom etdi. Yer yuzi to'lib, joy yetmay qoldi. Shunda men Yimaga bir xabar nozil qildim.

¹⁵ Armai¹⁵ti – yer ma'budasi.

Kun tikkaga kelgan pallada Yima Quyosh tomon parvoz etdi. Yerni yana uchdan birga kengaytirdi. To'qqiz yuz yildan so'ng yana Yima yuqoridagi kabi uchdan birga yerni kengaytirib, barcha jonzotlarni ta'blariga loyiq joylashtirdi.

Xurmuzd Yimani ogohlantirganidek, oxir-oqibat qahraton sovuqlari bilan qish keldi, qorlar erigan pallada toshqin suvlar yaylovlarni bosadigan bo'lib qoldi. Jonzotlarni sovuqdan va toshqindan asrash uchun Yima Xurmuzd aytganidek, devor qurdirdi, to'rt tomoni bir ot chopimiga teng. U yerga mayda, yirik jonzotlarning odamlar, itlar, qushlar, qirmizi alangali otash urug'laridan olib kirdi. U yerda ming qadam uzunlikda ariq orqali suv keltirdi, ko'chalar qurdi, turar joylar qurdi dahliz-u dolonlari bilan, ustunu devorlari bilan. Shunday qilib, odamlar jamoasining hayoti yuzaga keldi. Ular orasida Xurmuzd dini va Zardo'sht g'olib bo'ldi.¹⁶

Mo'ysafid toliqqandek jim bo'lib qoldi.

– Axuramazdaga olqishlar bo'lsin, ko'rinishdan ko'p azob chekibsan, charchabsan, ey padari buzrukvor, bu kecha mening aziz mehmonim bo'l, – dedi Spitamen unga rahmdillik bilan.

– Yo'q, bir daqiqa ham bu yerda qololmayman, nasib etsa hali ko'p uchrasharmiz. Seni Ulug' Axuramazda o'z panohida asrasin! Faqat bir narsani hech unutma, bo'tam, seni nomingga Zardo'shtning muqaddas ruhi singdirilgan, sen yaxshilik jarchisi – adolatsan, Quyoshning bolasisan. Shuni unutma!¹⁷

Juda bo'lmasa bir oz tamaddi qilib ol!

– Xayr, bo'tam, omon bo'li!

– Juda bo'lmasa o'zingni tanishtir, kim bo'lasan?

– Meni Dariyod deydi odamlar...

Cholning ovozi tog' cho'qqilariga urilib aks sado bergandek bo'ldi Spitamenga. «Meni Dariyod deydi odamlar» degan ovoz bir necha bor qulog'i tagida jarangladi. Dariyod bo'lsa ildam qadam bosib, yakkapoy yo'ldan xuddi qanot bog'lab uchib ketayotgandek tez borardi, Spitamen Dariyod ko'zdan g'oyib

¹⁶ «Avesto»ning 21-kitobi, Vendidotning II bobi.

¹⁷ Bu yerda Spitamenning ismi haqida gap ketyapti. Spitama degan so'z muqaddas kitob – «Aresto»ni yaratuvchi Zardo'shtning nasl-nasabi, kelib chiqishini ifodalovchi nomdir. Chol shu ma'noda uning nomiga ishora qilmoqda.

bo'lguncha qarab turdi, burgutnikidek o'tkir, chag'ir ko'zlari uzoq-uzoqlarga tikilgancha o'yg'a toldi...

Balki Dariyodni mening yonimga Axuramazdaning o'zi yuborgandir. Soyami yoki ko'rinmas odamning o'zimi? Nega bo'lmasa ko'rindi-yu, birpasda g'oyib bo'ldi, odam shunchalik ham tez yuradimi, qara, hozir shu yerda edi, birpasda anavi qoya yonidan o'tib, keng adirlar orqali Quyoshga tomon yo'rg'alib ketdi. Nega indamay uni qo'ldan chiqarib yubordim.

– Hoy, Dariyod to'xta!!!

Spitamening ovozi tog' daralariga urilib bir necha bsr aks sado berdi:

– Hoy, Dariyod to'xta!!!

MAROQAND KECHASI

Maroqand hukmdori Namichning hashamatli saroyi. Bugun bu yerda a'yonlar uchun katta qabul marosimi o'tkazilmoqda. Juda ko'p elchilar, sarkardalar, mehmonlar ham tashrif buyurishgan. Mehmonxonaning to'riga qo'yilgan taxtda Maroqand hokimi. Doriyovushning elchisi Nabarzon go'yo taxt o'zinikidek hokim bilan yonma-yon o'tiribdi. Taxtga yaqin joyda o'ng qo'l, chap qo'l vazirlar, atrofida esa sarkardalar, amaldorlar turishibdi.

Dasturxonda turli-tuman taomlar, xilma-xil meva-chevalar, tillo, kumush ko'zachalarda sharbat va musallaslar qo'yilgan. Saroyning hamma yeriga mash'alalar yoqilgan. Uch-to'rt joyga gulxan uchun alohida joylar qilinib, o'tin qalab yoqishga tayyorlab qo'yilgan... Saroyning mehmonlar qabul etiladigan katta xonasidan tashqari to'rt chekkasida kichik ayvonchalar bor. Unga ipak gilamlar to'shalgan, yaxshilab jihozlangan... Aftidan, bu ayvonchalarda tantanali marosimga taklif etilgan musiqachilar, qo'shiqchilar, raqqosalar, masxarabozlar, polvonlar va boshqa xizmat qilishi zarur mutasaddi kishilar joylashtirilsa kerak.

Saroyning har yer, har yeriga qafaslarda turli sayroqi qushlar osib qo'yilgan. Ayiq va yo'lbarslarning chiroyli qilib ishlangan terilari ayvon supachalariga tashlangan. Kiyik shoxlari, yovvoyi cho'chqalarning tishlari ham bisyor. Aftidan Maroqand hokimi shikorga juda ham qiziqsa kerak.

Saroyga tashrif buyurgan mehmonlarning rang-barang milliy kiyimlari, taqinchoq va bezaklari saroy hashamatlari bilan qo'shilib, kechaga yana ham tantanavor tus berardi. Hammadan ham saroy devorlariga chizilgan rasmlar diqqatni jalb etadi. «Bunday ajoyib suratlarni yetti iqlimdan ham topib bo'lmaydi», – deb maqtab qo'ydi mehmonlardan biri. Mana qarang, devorning bir tomonida chayqalib turgan bepoyon moviy dengiz tasvirlangan. Dengizda turli qushlar, baliqlar va boshqa hayvonlar, turli xil jonivorlar suzib yurishibdi. Suratlash bu tasvirlarni o'ziga xos uslub bilan yaratganki, tomosha qiluvchi ancha vaqtgacha uning yonidan keta olmay turadi.

Saroyning shimol tomondagi devorida esa ikki voqea tasviri berilgan; Birinchi voqeada bahor fasli, turli gullolalar chaman bo'lib ochilgan vodiy. Qaddi-basti kelishgan jasur ovchi yigit qo'lidagi o'q-yoyni o'z o'ljasiga, chaman ichra yurgan afsonaviy bir qushga otmoqchi bo'lib turibdi. Yigitning shikor uchun kiygan kiyimlari, ov qurollari bashing. Uning o'z mahoratidan mag'rurligi, ishonchi yuzlaridan sezilib turibdi. Bu yoqda turgan ikkinchi ovchi yigit bo'lsa buloq bo'yida turgan kiyikka sirtmoq tashlamoqchi, ovchi yigit hayajonda, butun vujudi bilan arqonni kiyikka ilintirmoqchi.

Xavf oldidan xavotirda turgan kiyikning holati ham yaxshi berilgan. Hov, anavi tog' yaqinida turgan suvoriy bo'lsa o'z o'ljasiga otgan o'qini mo'ljalga tekkizolmabdi. Umuman butun devorga ishlangan suratlarda go'zal vodiya bo'layotgan katta shikor manzarasi mohirlik bilan tasvirlangan.

Ikkinchi bir manzarada bo'lsa daryoda qayiqda ketayotgan bir guruh jangchilar mo'yqalamga olingan. Boshlarida sovut, qo'llarida qalqon. Hammasining qo'lida nayza, jangovar holatda oldinda turgan qilich, qalqon taqqan kishi diqqatni o'ziga jalb qiladi. Boshidagi du'bulg'asiga jig'a taqib olgan pahlavon aftidan ularning sarkardasi bo'lsa kerak. Suratlash tasvir etgan bu odam podshohning o'zi bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Saroyning boshqa bir tomonidagi devorda elchilarni qabul qilish marosimi aks etgan. Mana, elchilar podshohga o'zlarining qimmatbaho sovg'a-salomlarini topshirishyapti. Elchilarning

zarrin belbog'lariga qilich, xanjar, hamyon taqilgan, ko'kraklariga marjonlar osilgan, quloqlarida sirg'alari bor. Yuzlaridagi jiddiylik, qarashlaridagi samimiylik ham ularning boshqa elga, podshohlikka mansubliklaridan dalolat berib turibdi.

Maroqand hokimi saroyining bezaklari, naqshlari, ayniqsa, musavvir chizgan suratlar bu yerga to'plangan barcha mehmonlarni hayratga solardi. Mana, qabulda ishtirok etayotgan mehmonlar va elchilar qabul marosimi tasvirlangan surat oldida uzoq turib qolishdi. Go'yo ular bu suratlarda o'z akslarini ko'rayotgandek edilar. Elchilar bir-birlariga, egnilaridagi kiyimlariga, kamarlaridagi qilichlariga qarab «bunda sen tasvirlanibsan, mana bunisi esa men» deb bir-birlarining dillarini xushnud etardilar va taxtda zo'r iftixor bilan o'tirgan hukmdorga minnatdorlik bilan ta'zim bajo keltirardilar.

Marg'iyona elchisi ustidagi kiyim-boshlariga, devordagi suratga qarab o'zini g'oyat mamnun sezardi. U ustiga havorang zarbof to'n, to'n ichidan esa oq jujun ko'ylak kiygan, zarrin kamariga taqib olgan uzun qilichi xanjari va hamyoni bor. Bir qulog'iga oltin baldoq taqib olganligi uchun devordagi tasvirga qarab, suratkash xuddi uning o'zginasini chizganligidan behad xursand edi. Qani endi imkon bo'lsa-yu, ana shu rasmni ko'chirib o'z viloyatiga olib ketsa.

Shoshdan kelgan elchi Abu Behzod egniga sarg'ish rang to'n kiygan edi. Boshini esa qizil chilvir bilan bog'lab, bilidagi kumush kamariga oltin g'ilofli katta qilich osib olgan. Uning tasviri ham aftidan suratkash tomonidan bekam-u ko'st, xuddi o'ziga o'xshatib chizilgan. Maroqand hukmdori saroyi devorlaridagi suratlar Mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Ular suratlardan ko'zlarini uzolmay, bir-birlari bilan musohaba qilishar, zavqlanishardi.

Devor yonida turgan baqtriyalik zodagon Oksiart do'sti Xorien bilan nimalar haqidadir so'zlashib turib, huv anavi chekkadagi suratlarga e'tibor ham qilmasdan Shosh elchisi bilan nima haqdadir suhbatlashayotgan Spitamenga qarab-qarab qo'yardi. Massagetlar sardori Xamuk Tormit elchisi bilan savdo-sotiq ishlarini bitirmoqda.

Spitamen baland bo'yli, keng yag'rinli, jussasi baquvvat o'ttiz yoshlar chamasidagi yigit edi. U boshqalarga o'xshab zeb-u ziynatlarga belanmagan edi. Ust-boshl sodda, ammo did bilan kiyingandi. Spitamen ko'pmcha ustiga chiroyli qoplon terisi tashlab yurardi, aftida kun issiq bo'lganligi uchun hokimning qabuliga yengilroq kiyinib kelgan. Belidagi kumush kamarga osig'liq xanjardan boshqa quroli yo'q. Uning sahro quyoshida pishib ketgan yuzlarida o'ziga xos ulug'vorlik sezilib turardi. Patila-patila bo'lib osilib yotgan sochlari, qop-qora soqol va mo'ylovi o'ziga yarashib tushgan. Xuddi burgutnikidek chag'ir ko'zlari hamma narsani birpasda payqab oladigan, ziyrak. Spitamen uzoqdan turib ham Oksiartning o'z suhbatdoshiga nima haqda so'zlayotganini bilib turganday edi. Buni sezgan Oksiart sherigidan ajralib surat tomosha qilayotgan elchilar yoniga bordi. Xorien bo'lsa o'zining yolg'iz qolganligidan xijolat chekib noilojdan Spitamen tomoniga yurdi. Lekin Shosh elchisi bilan qizg'in suhbatlashib turgan Spitamen unga negadir e'tibor ham qilmay, bemalol so'zini davom ettiraverdi.

– Cho'ldan kelgan qandaydir qabilalar ming-minglab chorvamizni haydab ketishdi. Biz juda ko'p qidirdik, ularning izlari cho'ldan chiqib tog' tomonga ketgan, – dedi Shosh elchisi Spitamenga shikoyat qilib.

– O'tgan yili mening ham bir uyur otlarimni haydab ketishdi. Lekin biz ularni tutib olib rosa adabim berdik. Ammo otlarimizni qaytib topa olmadik, – dedi Spitamen.

– Ular na birovning haqidan, na o'limdan va na xudodan qo'rqishadi.

– Nima qilasiz, o'lgudek yupun, yeyishga, ichishga hech vaqosi yo'q cho'l odamlari, – dedi Spitamen suhbatga yakun yasab.

– Ayshma yo'ldan ozdirgan niyati buzuk odamlar... Axuramazda yaylovlar yaratganda nasibalari cho'lga tushgan bo'lsa kerak, – dedi Shosh elchisi.

Shu vaqt xona o'rtasida qalovli turgan gulxan yoqib yuborildi. Hamma olov atrofiga jamuljam bo'ldi. Boshi taqir qilib qirilgan, ustiga qip-qizil shohidan uzun ko'ylak kiyib

olgan Vag'npat quritilgan barasman¹⁸ o'tini yonayotgan olovga tashlab duoga qo'l ko'tardi, keyin, ovoz chiqarib qiroat bilan Muqaddas Kitobdan tilovat qildi.

Hamma rasm-rusumlar tugagach, qabul marosimi boshlandi. Maroqand hokimi Namich elchilar, mehmonlar olib-kelgan sovg'alarni qabul etib olgach, hammani dasturxonga taklif etdi. Turli xil taomlar tortildi. Mulozimlar sharob keltirishdi. Cholguvchilar nag'ma-navolarini boshlab yubordilar. Yarim yalang'och sarviqomat qizlar gulxan atrofida raqsga tushib ketdilar. Bazm avjiga mindi. Qo'shiq, xilma-xil raqslar kechaning tantanavor ruhiga ruh qo'shardi.

Kuy tugagach, Chinmochindan kelgan sehrGAR o'rtaGa tushib, o'z san'atini ko'rsata boshiadi. U cho'p uchiga o'ralgan paxtani yondirib, hammaga ko'z-ko'z qildi-da, og'ziga, tiqdi. Keyin haligi cho'pni tashlab yubordi-yu, og'zidan atrofga cho'g' ufura boshladi. Hamma Mehmonlar uning atrofiga yig'ilishib, yoqalarini ushiab bu ajib hangomani hayratlanib tomosha qilardilar.

Hokim yonida zo'r viqor bilan hamma narsani kuzatib, o'tirgan Doriyovushning elchisi Nabarzan Chinmochin sehrGARining o'yinlarini tomosha qilmoq uchun Spitamen yoniga keldi.

– Bu juvonmarg balo ekan, – dedi Nabarzan Spitamenmi gapga solib.

– Ha, u hali ko'p hunar ko'rsatadi, – dedi Spitamen istehzo bilan.

– Seni Bess yo'qlayotgan edi, tezda Baqtriyaga borib kelishing kerak, – dedi Nabarzan,

– Nima gap ekan o'zi? – so'radi Spitamen bilmaslikka olib.

– Boshqalar ham chaqirilgan, borganda bilasan, – dedi elchi gapni qisqa qilib. Shunday dedi-yu, go'yo hech narsa bo'lmagandek oldinga o'tib sehrGARning navbatdagi o'yinlarini ko'ra boshladi. Vaqtdan foydalanib, Spitamen odamlar orasidan yorib Namichga yaqmlashdi. Spitamen avvaliga hokimga qulluq qilib, keyin uring yoniga o'tirdi.

– Meni kechirgaysiz, bu xushnavo kechada bir noxushroq xabarni sizga yetkazib qo'yishim zarur, – dedi Spitamen vazmimlik bilan.

¹⁸ Barasman – olovga tashlaganda hid taratuvchi o'simlik.

– Ne xabar ekan, aytaber, – hokim sinovchan ko‘zlari bilan Spitamenga qarab turdi.

– Nimadan boshlasam ekan, mening odamlarim daryoning narigi tomoniga o‘tishgan edi. Forslar o‘rtasida mish-mish gaplar yuribdi. Bess meni ham Baqtriyaga chaqirtiribdi. Katta jangga hozirlik ko‘rmoq darkor ekan. Iskandar o‘z qo‘shinlari bilan Baqtriyaga bostirib kirishga tayyorlanayotgan emish. Uning ayg‘oqchilari hammayoqda izg‘ib yuribdi degan gaplar bor, hatto Maroqandda ham ko‘rishibdi. Menga bir mo‘ysafid ham aytdi. Ammo Sug‘diyonaga yurish qiladimi, yo‘qmi, bu hozircha noma‘lum. Ammo haq gap shuki, Iskandar albatta Baqtriyaga yurish qiladi, Bessning ham yuragiga g‘ulg‘ula tushib qolganga o‘xshaydi.

Hokim bir oz o‘ylamb turdi-da, keyin Spitamenga yuzlanib:

– Bu haqda men hech narsa bilmayman, Nabarzan hali bir narsalar deytotgan edi, hammasi mavhum gaplar. Kechamizda qancha-qancha elchilar qatuashmoqda. Ularning bu gaplardan mutlaqo xabarlari yo‘q. Kuni kecha huzurimga Xvayrizemdan Farasmanning¹⁹ odamlari kelgandi. Agar biror xavf-xatar bo‘lsa ular ham albatta meni xabardor qilardi.

– Iloho, siz aytgandek bo‘lsin, ammo bo‘layotgan voqealar, mish-mishiardan sizni xabardor qilib qo‘ymoqni o‘z burchim deb bildim. Lekin mening gaplarim jiddiy!

– Ma‘lumotlaring uchun rahmat, ammo men ishonmayman, – dedi Namich.

– Maroqand Sug‘diyonaning aziz poytaxti, axir siz ham-mamizning boshimizni bir joyga birlashtirishingiz kerak. Mana, bugun barcha qabila boshliqlari shu yerga to‘planishgan. Datafarn, Xorien, Katan, Xamuk, Oksiart, boshqa elchilar, mehmonlar... Farasman bilan ham aloqa bog‘lab, maslahatlashaylik!

– Hozir ko‘p vahima qilmay tur, senga qo‘yib bersa Iskandardek jahongir podshohga qarshi urush e‘lon qilib yuborasan. Axir, Iskandar bilan olishib bo‘ladimi, «sichqonning o‘lgisi kelsa mushuk bilan o‘ynasharkan»...

¹⁹ Farasman – Xorazm shohi. O‘sha vaqtda Xorazm alohida davlat hisoblanib, Farasman unga podshohlik qilgan.

– O‘zim ham shunday deb o‘ylagandim, – dedi Spitamen Namichning yarim yumuq ko‘zlariga qarab.

– Nima deb o‘ylasang o‘ylayber, – dedi Namich beparvolik bilan.

– Bess hizni Baqtriyaga chaqirmoqda, axir Iskandarning bu yoqlarga kelishi haq gap bo‘lib qoldi, – dedi bir oz tutoqib Spitamen.

– Mayli, hozir bu gaplarning mavridi emas, ulug‘ Axuramazda madadkor bo‘lsin, bafurja so‘zlasharmiz, – dedi Namich munozaraga yakun yasab.

Hokim ancha charchagan, yoshi bir joyga borib qolganligi uchun bo‘lsa kerak, darmonsizdek ko‘rinardi. Kosada turgan, hozirgina mulozimlar quyib ketgan musallasni bir shimirishda ichib yuborgandan keyin bir oz bo‘shashib, ko‘zlarini yumgancha yostiqaqqa yonboshladi. Endi Spitamen ham, uning so‘zlari ham hokimning yodidan ko‘tarilgandi...

Chinmochin sehrgari o‘z o‘yinlarini tugatgandi. Endi kuy, navo boshlandi. Hokim yomidagi mulozimlariga qarab dedi:

– O‘yin-kulgi boshlansin!

Spitamen turib ketdi, hukmdorning e‘tiborsizligiday ranjib, gulxan yoniga keldi, u yerda Oksiart, Xoriyon, Katan, Xamuk elchi Nabarzan bilan musallas ichib, dunyo ishlaridan so‘zlashib o‘tirishardi. Spitamen ham o‘lar yoniga kelib, gulxan yoniga cho‘kkaladi. Musallas ushlab turgan qora qul kosani limmo-lim qilib, Spitamenga uzatgan edi, kosani oldi-yu, hammasini ichib yubordi.

Mulozimlar katta idishlarda cho‘g‘ga ko‘mib pishirilgan go‘sht olib kelishdi. Spitamen yonidan pichog‘ini chiqarib, qovurg‘adan bittasini kesib oldi-da, ishtaha bilan tanovvul qila boshladi. Boshqalar ham undan o‘rnak olib, qo‘r kabobning o‘zlari xohlagan yeridan kesib olib yeya boshladilar. Yana kosalarga musallas quyildi...

Bir vaqt qarabsizki, ichkaridan oq xarir ko‘ylak kiygan, hamma yog‘iga zeb-u ziynatlar taqib olgan Maroqand hukmdorining qizi Turona chiqib keldi. Marosimga fayz kirib, malikaning zulmatdek qora kokillari ichra yarqirab turgan oydek yuzlari saroyni yoritib yuborgandek bo‘ldi. Malikayi

Turona o'z kanizaklari bilan kelib, mehmonxona to'rida qilingan taxti ravonga o'tirdi.

Spitamen malikani ko'rishdayoq «So'g'd qoyalari» yonida uchratgan Dariyodning so'zlarini esladi: «Ha, xuddi o'sha suratkash sevib qolgan malika shu bo'lsa kerak, uning kuyib-yonganicha bor ekan, ko'nglidan o'tkazdi Spitamen. «Balli senga, agar diding baland bo'lmaganda suratkashlik qilarmiding, xo'sh, sho'rlik oshiq yigit hozir qayerda ekan, hali ham shu yerlarda sang'ib yurganmikin». Spitamen negadir suratkash yigitni esladi-da, shu xayollar bilan malikaga tikilgancha qoldi. Spitamenning holatini sezgan Oksiart piyoladagi musallasni shimirar ekan, gap tashladi:

– Ha, sardor, nima gap o'zi, judayam mahliyo bo'lib qoldingiz?

– Hukmdorning qizlari haqiqatan ham go'zal ekan, umri ziyoda bo'lsin!

– Malikani bir sahroyi yigit sevib qolgan emish, podshoh uni aldab-suldab yangi qurilayotgan ko'k saroy devorlariga surat chizdirayotgan emish, – dedi hamisha hamma narsadan xabardor Katan.

– Qanaqa suratkash? – so'radi Spitamen.

– Bilmayman, ammo sahroyining soddaligini qarangki, hokimning o'ziga dangal aytibdi, malikani menga ber deb... Tavba!

– Ishqi tushib qolgan bo'lsa, unda ayb yo'q, jonidan o'tib ketgach, shunday qilgan bo'lsa kerak, – dedi Spitamen Katanning so'zini bo'lib.

– Ko'rpangga qarab oyoq uzat deganlar, u betamiz bo'lsa, – dedi Oksiart gapga aralashib.

– Shuni bilingki, azizim, muhabbat odam tanlab o'tirmaydi, shohmi, gadomi, baribir. Sen bilan biz undan uzoqmiz, azizim, ha, juda uzoqmiz!

– Ha, Spitamen, namuncha, suratkash senga kim bo'ladi, arzimagan narsaga birpasda jahling chiqib ketadi-ya! – dedi uni yupatganday.

– Yo'q, azizim, Oksiart, bu arzimagan narsa emas, birovning birovga ishqi tushibdimi, tabiatning inoyati bu, ulug'

Axuramazda odamlarni qalbiga muhabbat solib yaratgan, ammo yomon odamlar uni bora-bora g'azabga aylantiradi. Chunki Ayshma g'alamislari inson fikrini zaharlaydi... Ha, shunday.

– Spitamen to'g'ri aytyapti, – gapga aralashdi Katan. – Bola ham dunyoga kelayotganda onamning qornidan yorug' dunyoga chiqmayman, deb yig'larkan, dod solarkan, keyin majbur qilib yer yuziga olib chiqisharkan. Inson qarib-qartaygach, o'zi yig'lab kirib kelgan yorug' dunyodan ketmayman, deb yana dod-voy solarkan.

Hamma Katanning so'zlarini o'ylab qoldi.

– Mayli, yuragim negadir g'ash bo'lib ketyapti, men ketay, – Spitamen qo'lidagi musalias to'la kosami shimirib, mungli qo'shiqni jon-dili bilan kuylayotgan, qotmadan kelgan qo'shiqchiga bir oz qarab turdi, keyin saroydan chiqib ketdi. Saroy mulozimlari Spitamenin ko'rishlari bilan betoqat bo'lib xo'jayinini kutayotgan «Qorasoch»ning jilovini unga tutqazishdi.

NAVRO'Z

Erta bahor, hammayoqda ko'klam nafasi kezadi, hammayoqda uyg'onish. Bugun Sug'diyonaga Navro'z²⁰ kirdi. Bugun Quyoshning hamal burjiga kirishi. Quyosh yili hlsobida farvardin oyining avvali, ya'ni kecha bilan kunduzning tenglashgan vaqti, kunduzning uzaya boshlani. Ha, bugundan boshlab saddi pok, qishning hamma injiqliklari orqada qolib, tabiatda jonlanish boshiandi. Bundan bir necha kun ilgari qattiq yomg'ir bo'lib, oxiri qorga aylangandi. Qariyalar uni terak kuchalasi uchun yog'gan qor deb aytishdi. Rivoyatlarga qaraganda terak kuchalasi pishib yetilgach, yerga tushganda beli sinmasligi uchun tabiatdan qor yog'ishini iltijo qilarmish. Mana, endi terak kuchalasi ham murod-maqsadiga yetdi, kuchala eson-omon «beli sinmay» yerga tushib oldi.

²⁰ Navro'zning kirishi hozirgi kalendar bo'yicha mart oyining 21-kuniga to'g'ri keladi. Sug'diyonada Zardo'sht kalendarida «Novsarj», deb atalgan. Al-Beruniy o'zining «Osor ul-Boqiya» asarida, So'g'd kalendarining birinchi oyini, nil boshini «Navro'z», «Novsarj» deb ko'rsatadi.

Ilq-issiq kunlar boshlanib, tabiat qish uyqusidan uyg'onib, dov-daraxtlar kurtak yoza boshladi,

Bugun chindan ham Navro'z, Sug'diyona odati bo'yicha yangi yil kirdi. Hammayoqda bayram, odamlar yasanib-tusanib olishgan, ko'cha-ko'ylar, maydonlar yosh-yalanglar bilan to'la. Muqaddas gulxanlar atrofida qo'shiqlar yangraydi, qizlar, yigitlar raqsga tushishadi, turli o'yinlar bilan mashg'ul bo'ladilar, bir-birlarini yangi yil, bahor bayrami, Navro'z kirishi bilan tabriklashadi.

Ota-bobolarning udumi bo'yicha yangi yil kirar kechasi hamma g'am-anduhni unutib, o'zingni baxtiyor va xushnud his etsang, Navro'zni quvnoqlik bilan qarshi olsang, butun yil bo'yi hecham ozor, tashvish chekmaysan, omading kelib, xursand bo'lib yurasan. Agar sen biror odamdan qarzdor bo'lsang, yil kirish oldidan ana shu qarzlardan forig' bo'lishing kerak. Agar birovga yomon gapirib ko'nglini ranjitgan ekansan, o'sha odamdan borib uzr so'ra. O'zingni kamtar va samimiy tut, gina va adovatlarni unut, qariyalarning duosini ol, katta-kichikni hurmat qil, sovg'a-salomlar bilan ota-onalaringni tabrikla. Agar davlating bo'lsa yetim-yesirlardan yordamingni ayama, gadolarga sadaqa ber. G'ariblarga, zaiflarga yordam qo'lingni cho'z. Ayniqsa, Sug'diyona odati bo'yicha Navro'zda ayollarga bo'lgan hurmat va e'tibor yana ham oshgan. Xullas, Navro'zni sof qalb bilan, tiniq fikr bilan qarshila.

Shunday qilib, sug'diyonaliklar – katta-kichik, qari-yu yosh – hamma bu dunyo tashvishiarini unutib, Navro'zni, kutib olishga hozirlanmoqda.

«Xorien qoyasi»da ham bugun tong otgunga qadar hech kim uxlamadi. Qal'ada nog'ora sadosi, surnay navosi hech tinmadi. Ayollar katta doshqozon tepasida o'tirib olib, ikki hafta ilgari undirib qo'yilgan bug'doy maysalaridan sumalak tayyorlashardi. Bularning hammasiga Oksiartning xotini Sarvinozim bosh-qosh edi.

– Hoy, Ravshanak, qayerdasan, kel, sen ham sumalakni kovla, savobdan chetda qolma, qizim, – dedi Sarvinoz qiziga.

Ravshanak onasining so'zi bilan yog'och cho'michni olib, o'zicha ichida nimalarnidir pichirlab sumalakni kovlay boshlaydi.

– Axuramazdadan chin dil bilan baxt-iqbol tila, ha, ibodat qil, kam bo'lmaysan, qizim, – dedi sumalak kovlayotgan ayollardan biri Ravshanakning kelishgan qaddi-bastiga havas bilan tikilib.

– Sumalak haqidagi rivoyatni bilasanmi? – so'radi ayol Ravshanakdan.

– Yo'q, – dedi Ravshanak.

– Mana, eshit bo'lmasa.

– Rivoyatlarga qaraganda Tarmitada g'oyat kambag'al bir oila chor-nochor hayot kechirar ekan. Uning sakkizta farzandi: yetti o'g'il, bir qizi bo'lgan emish.

Ular hammasi yosh, hali qo'lidan ish kelmas ekan. Eng katta o'g'li endigina o'n to'rtga kirgan ekan. Axir shuncha bolani boqishning o'zi bo'ladimi? Sho'rlik otaning bisotida bitta-yu bitta eshagidan boshqa hech narsasi yo'q ekan.

Voqea erta bahor, avji ilik uzildi vaqtda, Navro'zga kirar kechasi ro'y bergan. Otasi eshagini yetaklab, o'tin olib kelish uchun toqqa jo'nabdi-yu, dom-daraksiz ketibdi. Ona bechora qiyin ahvolda qolibdi. Uyida tishga bosgudek narsa yo'q. Endi hamma og'irlik ona sho'rlikning ustida, och bolalar onasiga yopishib yeb qo'ygudek to'polon qilisharmish, endigina ko'krakdan ajralgan kenja erkato'y qiz bo'lsa, onasining ko'kragida sut bo'lmaganligi uchun yurakni ezib betinim yig'larmish.

Shundan keyin mushkul ahvolda qolgan ona na qilarini bilmay, bolalarini bir oz bo'lsa ham tinchitish maqsadida qozonga suv solibdi-da, tagiga o'tin qalab yoqaveribdi. Doni bo'lmasa ham mazasi chlqar deb endigina nish olayotgan bug'doy nihollaridan olib kelib qozonga solibdi. Soydan tosh terib chiqib, uni ham nihollar ustiga tashlabdi. Keyin o'tni balandlatib yoqaveribdi.

– Ey, Axuramazda, o'zing shafqat qil, yuragim, uzilib ketyapti, men ayolman, bu bolalarni ne azob bilan tug'dim, endi ularni voyaga yetkazishim kerak, nega bolalarimni rizq-ro'zi bilan bermading, – deb nolib tabiatdan inobat so'rab yig'layveribdi.

- Bolalar bo'lsa qozon atrofida «qachon pishadi», deb o'ralashar, onamiz biz uchun shirin taom tayyorlayapti deb xursand bo'lishar emish. Ona bo'lsa yuragi buzilar, vijdomi qiynalar, o'choq boshida tiz cho'kib ibodat qilarmish. Yarim kechaga borib g'oyat toliqqan onaning ko'zi ilinib, uxlab qolibdi. Uyqusida qo'lidagi sopol tovoqda olov ko'targan ikki qanotli, ikki ko'zi cho'g'dek yonib turgan bir ayol samodan tushib uning yoniga kelgan emish-da, boshini silab, «xafa bo'lma, niyatingga yetasan», deb ketganmish. Saharga yaqin ayol uyg'omib qarasa, bolalari o'choq boshida o'tirib, qoshiq bilan qozondagi qandaydir quyuq ovqatni jon-jon deb tanovvul qilishayotgan emish.

- Juda shirin bo'libdi, onajon, - debdi bolalari. Ona o'z farzandlarining ko'zlarida quvonch ko'ribdi, axir ona uchun jigarporalarini quvnoq ko'rishdan yaxshi narsa bormi dunyoda!

Shu-shu yo'qni bor qiladigan ona qalbi sumalakni kashf etgan ekan.

Sumadak qaynayotgan qozondan nariroqda kigiz ustida cho'kka tushib olgan bir to'da ayollar ismaloq, yalpiz, otquloq, beda va boshqa ko'katlardan somsa, chuchvara va boshqa taomlar pishirishmoqda. Bir ayol katta qovoqni oybolta bilan kesib ichidagi urug'larini tozalab bo'lak-bo'lak qilib kesmoqda. Aftidan undan qandaydir taom tayyorlashsa kerak.

Sug'diyona odati buyicha yangi yil dasturxoniga «Sh» harfi bilan «Xaftshin», ba'zi qabilalarda bo'lsa «M» harfi bilan - «Xaftmim» boshlanadigan narsalar qo'yilgan. Dasturxondagi har bir narsa o'z mazmuniga ega bo'lgan, ma'lum maqsadga xizmat qilgan.

Qarshida yumshoq ko'rpacha ustida o'tirib sumalak afsonasini so'zlagan ayol bo'lsa xizmat qilayotganlar zerikmasin deb turli cho'pchak, rivoyatlar, qiziq-qiziq hangomalar aytib o'tirardi. Bir guruh yoshlar gulxan atrofida qo'shiq aytib, raqsga tushishardi. Kattalardan ham bolalar ko'p, berkinmachoq, qiz bolalar bo'lsa ko'z bog'lash o'ynashmoqda. Qari-qartanglar gulxan atrofida o'tirib olib chilim tortishar, olovga sig'inib, duo o'qishardi.

Birdan qiy-chuv bo'lib qoldi, ovqat tayyorlayotgan yosh jo'vonlar bir-birlarining yuzlariga un surisha boshlashdi. Hammaning diqqati endi o'shalarga qaratildi.

– Ravshanakning yuziga sur, – dedi kekxa cho'pchakchi ayol.

Kimdir o'choq tepasida turgan eski ko'za, tovoqlarni sindirib tashlay boshladi. Boshqalar ham undan o'rnak olishib, shunday qilishdi. Chunki Navro'z kuni eski-siniq narsalar qolmasligi kerak. Uydagi eski-tuski, yirtiq narsalar ham gulxanda yoqib yuborildi. Bolalar, qizlar hammasi o'yinlarini tashlab eski idish-tovoq sindirilayotgan joyga chopib kelishdi, chunki shundan keyin qo'shiq boshlanishini hammalari yaxshi bilishardi, Qo'shiqni kekxa ayollar boshlab berishdi. Sochi yoyilib ketgan, xuddi jodugarga o'xshagan semiz bir ayol o'rta tushib bir xil ohangda deysingancha boshini u yoq-bu yoqqa silkitib xuddi o'yinga tushgandek jazavasi tutib «hu-hu»lab ketdi. Gavdalarini tebratib turgan boshqa ayollar ham xuddi shu alpozda unga qo'shilib ketishdi. Mash'allarning lipillab yonayotgan yorug'ida bu manzarani tomosha qilib turgan kishi g'aroyib bir dunyoga tushib qolgandek his etardi o'zini.

Qop-qora sochlari orqasi, yuzlari bo'ylab yoyilib ketgan, baland bo'yli, olcharang uzun ko'ylak kiyib olgan, turli zebziynatlar taqqan, oq yuzli xushro'y ayol o'rta tushdi-da, zikr ohangiga moslab yig'lagansimon siniq ohangda kuylay boshladi:

Bahor kezar cho'llarda, ho'!

Cho'qqilarda qor qolar, ho'!

Jangda o'ldi botirim, ho'!

Yuragimda o't yonar, ho'!

Ayollar zikrning so'nggi bandini ikki martadan baravariga takrorlashdi.

Yuragimda o't yonar, ho'!

Xushsuvrat ayol qo'shiqning ikkinchi bandini yana kam chiroyli ovozda kuyladi:

Qirmizi olov yonar, ho'!
Yig'idan ko'zlar tolar, ho'!
Tul ayollar nolishin, ho'
Arzi dodin kim tinglar, ho'!

Ayollar xuddi ilgarigidek so'nggi bandmi yana ikki marta takrorlashdi. Endi zikr tushayotganlar oyoqlarini goh o'ngga, goh chapga, keyin orqaga tashlab, so'ng osmonga qarab «ho', ho'» deb jon-jahdlari bilan yer tepmishardi.

Haligi go'zal ayol endi yana ham shirin-mayim ovoz bilan kuylay boshladi:

Tuya mingan yo'lovchi, ho';
Gulxanimga qo'naqol, ho';
Agar bo'lsang zo'r ovchi, ho';
O'tovimda qolaqol, ho'!

Hamma ayollar jazavalari tutib baravariga:
O'tovimda qolaqol, ho'!...

So'nggi, to'rtinchi bor oyoq zarbini yerga urib, samoga qarab «ho', ho'» deb raqsga tushar edilar. Raqs vaqtida ayollarning har biri o'ziga xos jismoniy harakat qilar, ba'zi yoshroq juvonlar bo'lsa xuddi qaddi-qomatlarini ko'rsatayotgandek u yoq-bu yoqqa o'zlarini tashiab, gohogo-ho tovuşlar chiqarib faryod chekishar, go'yo yuraklaridagi g'am-alamlari, anduhiaridan shu yo'l bilan qutulib, bo'shalib oladiganday edi. Ha, har hir ayolning o'z hissiyoti, dardi, o'yi, orzusi bor, bukun Navro'z kechasi ana shu o'zlaridagi ichki kechinmalarini shu topda tan harakatlari, qo'shiqlar bilan samoga yo'llagandek edi. Bu marosim bir soatga yaqin davom etdi, raqsga birinchi tushgan keksa ayol holdan toyib, bir chekkaga borib yiqildi, yana bir homilador xotinning ko'ngli ozib qoldi. Unga suv, purkab, o'ziga keltirib bir chekkaga olib chiqib ketishdi. Kimningdir yuragi yomon bo'ldi. Qo'shiq aytgan go'zal xotin ham chekkaga chiqib bir oz suv ichib o'ziga keldi. Xullas, marosimning natijasi ana shunday

ko'ngilsizliklar bilan tugadi. Lekin bular sug'diyonaliklar uchun odatdagi bo'ladigan voqea edi. Shu boisdan hamma o'z ishiga kirishib ketdi, bolalar yana qiy-chuv qilib gulxan atrofida o'ynay boshlashdi.

Katta sopol idishda turshak, olma qoqi, shaftoli qoqilarni ivitib tayyorlangan sharbat suvi keltirishdi. Haligi kelishgan chiroyli xotin kosalarga sharbat solib, raqsdan keyin chanqab tomoqlari qaqrab qolgan ayollarga ulashishdi.

Xorien bilan Oksiart ayollarning odatdagi bu ishlariga e'tibor ham qilmay shohsupada yonboshlab o'zaro suhbatlashishardi. Mulozimlar ikki zodagon atrofida girdikapalak.

– Men Spitamenni ham taklif etdim, ertalab shu yerda bo'ladi, o'n-o'n beshta zotli otidan so'ragandim, negadir sotgisi yo'q, – dedi Oksiart undan norozidek.

– Menga ham shunday dedi, ertaga yana bir o'rtaga olamiz. Siz ham bo'sh kelmang, – dedi Xorien.

– Hozir mingga yaqin yilqisi bor, o'rniga qo'y beray desam, menga qo'y kerak emas, xohlasang tekinga beraman deyapti, – dedi Oksiart.

– Uning ham shohligi, ham zodagonligi bor, agar ko'nglini topsangiz, hech narsasini ayamaydi, qo'li ochiq, agar izzat-nafsiga tegsangiz, sizga bir qora chaqasini ham ravo ko'rmaydi, – dedi Xorien.

– Shundayku-ya, ammo bizning ham undam kim joyimiz yo'q, anavi qurumsoq qaynatasiga ishonadimi har holda ba'zi o'jarligi ham bor, bo'lmasa uning uchun o'n beshta ot mima bo'пти, axir biz qadrdonlarmiz-ku, – bir oz kuytib so'zladi Oksiart.

– Lekin, Maroqand hokimining qabul kechasida xafa ko'rindi, musallasni ham rosa tortdi.

– Anavi Doriyovushning noibi chekkaga olib, qulog'iga nimadir aytdi, shundan keyin kayfiyati buzildi.

– Yo'q, hukmdorning yoniga borib so'zdashgach, qaytib kelib alamini musallasdan oldi.

Shu vaqt ko'zachada musallas ko'tarib Babax keldi. Yoshi elliklar chamasidagi novchadan kelgan bu abjir odam Xoriennning

yaqin kishisi. Uning tayimli bir vazifasi yo'q, lekin xo'jayini nima ish buyursa, bajonidil o'rinlatib keladi, odamlardan gap oladi, o'lgudek ayyor odam. Aftidan vaqti kelib o'z manfaatiga xalal beradigan bo'lsa otasimi ham sotib yuborishdan toymaydigan ko'rinadi.

– Mana bu musallasdan bir ichib ko'ringlar-a, o'z qo'lim bilan tayyorlaganman, Navro'z kuni ochaman deb saqlab qo'ygandim, – dedi Babax xo'jayinga mulozimat ko'rsatib.

– Mendan ham yashiradigan narsang bormi, qachon ulgura qolgan eding, obbo mug'ambir-ey, menga aytmagan eding-ku, shunaqa musallas solganman deb, – dedi Xorien kesatganday.

– Kechiring meni, bu unchalik sirli narsa emas-ku, – dedi Babax uzr so'raganday.

– Nega sirli bo'lmasin, axir uni ichsang, dilingdagi hamma sir-asroringni tashqariga olib chiqadi-ku, – kuldi Oksiart.

Babax sopol kosalarga qirmizi rang sharobdan quydi-da, oldin Oksiartga, keyin xo'jayiniga uzatdi. So'ngra gapni boshqa yoqqa burish maqsadida so'z qotdi.

– Spitamen erta tongda kelar emish, chopar yaqinda qaytib keldi, avvaliga qo'ylar qo'zilyaydigan, yilqilar qulunlaydigan vaqt, bormayman, degan ekan, keyin rozi bo'libdi, – dedi Babax.

– Kelmasa mayli, zo'rimiz yo'q, – dedi Xorien kesatibroq.

– Qaynotasining mazasi yo'q, ular Maroqand hokimi bilan juda apoq-chapoq, Spitamenni ham o'sha yoqqa tortib turadi, – dedi Babax.

Oksiart Xorienga ma'noli qaradi, «Bu odam butun dunyo voqealaridan boxabar ekan-ku, – deb xayolidan o'tkazdi, bo'lmasa ular o'rtasidagi gaplarga xizmatkorning mima aloqasi bor.

Babax ketgach Oksiart do'stidan so'radi:

– Bu xizmatkorni qayerdan topgansan?

– Bu odam asli Ushrushonadan bo'ladi, dunyo kezib savdo ishlari bilan ko'p shug'ullangan, yo'qdan bor qiladi, epchil, har holda zarur odam.

– Shunaqaga o'xshab turibdi, ammo, – Oksiart to'xtab qoldi.

- Nima, gapir dilingdagini?
- Ha, mayli, bir narsa ko'nglimga keldi-yu... Yo'q-yo'q o'zimcha xayolga boribman...
- Menga uni Bessning do'sti Kobar tavsiya etgandi.
- Kobar ancha olim odam-ku, - dedi Oksiart yodiga tushib.
- Bir oz mijg'ovroq bo'lsa ham har holda Bess u bilan maslahatlashib turadi, - dedi Xorien.

Ular musallasxo'rlik qilib uzoq o'tirishdi. Vaqt yarim kechadan og'ib qolganda, qoya tepasida yana nog'ora sadosi yangray boshladi. Navro'z, yangi yil kirdi. 329-yil Sug'diyonaga quvonch olib keladimi, tashvishmi, buni hali hech kim bilmasdi...

MUHABBAT MA'BUDASI

Ravshanak Navro'z tongida tulporini egarladi-yu, qal'adan pastga tushib ketdi. Ota-onasi ham, dugonalari ham uning saharlab yolg'iz o'zi cho'milish odatimi hilganlari uchun qizga hech narsa deyishmasdi, ko'plar uning bu ishiga havas bilan qarashardi. Hozir atrofi tog'lar bilan to'silgan «Xorien qoyasi» yonidagi bu oromgoh joyda bahorning iliq-issiq kunlari boshlanganligi uchun bemalol cho'milsa bo'lardi, lekin Ravshanak kun ancha sovuqroq vaqtlarda ham o'z odatimi tark etmaydi.

Mana, qiz tog' daryosining daraxtlar bilan o'ralib ketgan joyiga borib otidan tushdi. Haftada bir marta o'zi doimiy o'rganib qolgan shu joyga kelib to'xtaydi. Otining egar-jabduqlarini olib, o't ustiga qo'ydi-da, u yoq-bu yoqqa nazar soldi. Hech kim yo'qligiga ishyunch hosil etgach, kiyim-kechaklarini yecha boshladi. Tulpori bo'lsa egasining cho'milishiga o'rganib qolganligi boisidan bo'lsa kerak, qarshisida ust-boshlarini yechib balog'at go'zalligini namoyon qilayotgan sarviqomat qizga e'tibor ham qilmay, beparvolik bilan shudringda yuvilgan toza va shirin ko'katlarni chimdiy boshladi. Ravshanak yelkasi bilan bitta qora sochlarini qizil chilvir bilan bog'lab, bir oz badantarbiya bilan shug'ullandi, qo'llarini qayrag'ochga qo'yib, oyoqlari bilan turli mashqlar bajardi. Keyin kamon olib huv

anavi katta chinor tagiga qo'yilgan mo'ljalga o'q otdi. Hamma o'qi mo'ljalga bexato tegdi. Keyin chaqqonlik bilan tulporiga mindi-da suvga tushib ketdi. Tog' daryosi juda tez oqsa ham, uncha chuqur emasdi, otning belidan kelardi. Ravshanak suv o'rtasida otdan tushib, muzdek shifobaxsh suvda maza qilib cho'mila boshladi. Qiz daryo bilan o'ynashgandek hamma yoqqa suv sachratib guldek ochilib ketgan yuzlarini yuvardi. Bu ajib cho'milish manzarasining yakka-yu yagona guvohi bo'lgan bulutdek oq tulpor vafodor do'stdek o'z malikasini qo'riqlab turardi.

Bir necha daqiqalik cho'milish tugadi, Ravshanak otiga minib, daryo suvini shaloplatgancha kiyimlari yechib qo'yilgan daraxtzor ichiga kirdi. Tulporini o'tloqqa qo'yib yuborib, artina boshladi. Chilvirni yechib ho'l sochlarini artdi, ammo qalin va haquvvat sochlarini qancha artmasin, hali-beri quriydigan emasdi. Tundek zulfini taroqlab, chigillarini yechmoqchi bo'ldi. Qani endi bu sochlarga taroq qurg'ur o'tsa...

Ravshanak o'zi bilan olib tushgan kichik namatchani o't ustiga to'shadi-da, echki terisidan tikilgan yopqich nimchasini ustiga tashlab, butun vujudini hamrab olgan ajib bir iliq hissiyot og'ushida o'zini ko'katlar ustiga tashladi.

Bunday orombaxsh kezlarda tabiat quchog'ida yolgiz xayol daryosiga cho'mib tin olishning ham jismoniy, ham ruhiy lazzati bo'ladi. Ba'zan soatlab shunday holatda o't ustida xayolga cho'mib yotardi. Ravshanak bunga o'rganib qolgan, agar shunday qilmasa hiror narsasini yo'qotgandek bo'ladi.

Ravshanak tabiatning shaydosi, xushmanzara ko'kalamzorlarni sevadi. Yilning hamma faslida ham shu jannatsimon o'lkaning tog'larida, bog'-rog'larida, tezoqar daryolari bo'yida yurib, tabiat go'zalliklaridan bahra oladi. Bu xushmanzara go'shada tong sahardan chug'urlashib sayrayotgan qushlar navosi kimmi maftun qilmaydi. Balki anavi osmon bilan o'pishgan azim chinorlar, ko'm-ko'k sarviqomat qayinlar va archalar qiz husni jamoliga mahliyo bo'lgancha sukut saqlab turgandirlar. Ravshanak bo'lsa tabiat og'ushida ko'zlarini yumgancha hayot go'zalligini butun vujudi bilan shimirardi.

Qiz bolaning ishi qiyin, balogʻat yoshiga yetdimi, kuyovga tegib oʻz uyasidan parvoz qilishi shart, bu tabiatning azaliy qonuni. Bir umr oʻz uyasida ota-ona mehridan bahramand boʻlgan qiz oʻzga, butunlay begona qavm, qabila, urugʻlarga borib oʻziga yangi oshyon quradi.

Mana shu bugun, Navroʻz kunida Ravshanakka sovchi keladi, hamma narsa hal boʻlgan, kelishilgan. Navroʻz Ravshanak uchun shunday boshlanadi... qizning xayoli ana shu fikrlar bilan band edi.

Shu vaqt daryo yoqasidagi keng oʻtloqdan zulukdek qora ot mingan suvoriy qalʼa tomonga qarab kela boshladi. Ravshanak ot tuyogʻi tovushini eshitdi-yu, shosha-pisha kiyinib, otini egarladi. Axir, xavf-xatarga toʻla bu dunyoda hamma narsaga tayyor boʻlib turmoq darkor. Birorta aygʻoqchi yoki togʻliq qiz oʻgʻrisi boʻlmasin. Ravshanak daraxtlar orasidan suvoriy kelayotgan yoʻlni kuzatib turdi. Ana, u yaqinlashib qoldi. «Iya, Spitamen-ku, chehrasi yonib, yuragi oʻynab ketdi qizning. Ravshanak Spitamenmi yaqindan tanimaydi. Ilgari biror marta gaplashgan emas, faqat turli marosimlarda bir-ikki bor koʻrgan, gʻoyibdan boʻlsa ham unga hurmati cheksiz. Oʻzi Spitamenning el-yurtda eʼtiborli, badavlat odamligini, botir ovchiligini bilardi. Bir marta Hisor togʻlarida yolgʻiz oʻzi yoʻlbars bilan olishib, uni yengganligi haqidagi xabar qulogʻiga chalingan, Spitamenning Qorasoch degan vafodor oti toʻgʻrisidagi rivoyatlarni ham eshitgan.

Otliq qalʼa tomon tez oʻtib ketdi. Qiz uni to koʻzdan gʻoyib boʻlgunga qadar kuzatib turdi. «Otda ketishini qara-ya, egarga quyib qoʻygandek», oʻyladi, yuragi «shigʻ» etib.

Quyosh koʻtarila boshladi, nogʻoralarning «taka-tumi yangradi, unga surnay qoʻshildi, atrofni odamlarning qiy-chuvi, baqiriq-chaqiriqlari tutib ketdi. Goʻyo Quyoshning chiqishi ham, hamma tantanalar ham Spitamenning kelishini kutib turgandek tuyuldi Ravshanakka.

Ravshanak ham Quyosh chiqayotgan tomonga qarab tiz choʻkdi-da, koʻzlarini yumib toat-ibodatga oʻtirdi, nimalardir deb pichirladi, ikki tomchi yosh koʻzlaridan yumalab tushdi...

Qiz yo'l-yo'lakay xayol daryosiga cho'mib, yer sathidan qaynab chiqqandek osmon sari yuksalgan «Xorien qoyasi» tomon ketaverdi. Uning qizaloqlik yillari mana shu go'zal vodiya o'tdi. Qal'aning har bir toshi, yakkapoy yo'llari, sharsharalari, tiniq buloqlari – hammasi unga qadrdon. Shu bog'-rog'larda kapalaklar tutib, qushlar bilan tiilashib, olmaxonlar bilan o'ynashib yurgan ham shu Ravshanak edi. Anavi osmono'par chinorlar-chi, har kuni erta bilan turganda ana shu chinorlarga, qadrdon qoyaga salom beradi, olqishlaydi ularni!

Endi bo'lsa balog'atga yetib, o'z bolaligi bilan xayrlashadi, uni nimalar kutyapti, bu hech kimga ayon emas. Baxtli bo'lib ketadimi, yo'qmi? Bo'lajak kuyovning joylari bepoyon, yerlarining bir chekkasi daryoga tutashib ketgan. U yerda bunaqangi qoya ham, tez oqar daryo ham yo'q. «Xorien qoyasi»dek muqaddas joyni Ravshanak hech qayerga almashtirmaydi. Qarang, quyuq daraxtlar orasidan qoyaga ko'tariladigan va hech kimga ko'rinmaydigan yakkaoyoq yo'l bor. Shu yo'l orqali qoyaning eng tepasiga chiqsa bo'ladi. Qoya tepasidan qaynar buloqlardan hosil bo'lgan irmoq o'tadi. U tog'-toshlar orasidan shitob bilan pastga qarab otiladi. Agar biror joyda «Xorien qoyasi» haqida hikoya qilib bersangiz, odamlar ertak eshitgandek hayratda qolishadi. Ayniqsa, yoz fasllarida bu yerda bo'lsangiz, dunyoda bundan ham go'zal, bundan ham serfayz joy bo'lmasa kerak deb o'ylaysiz.

Irmoq suvi pastga tushib, kichik daryo hosil etadi va qoya atrofini hir aylanadi-da, keng past tekisliklar oralab ketadi. Bu tahiya yaratgan mo'jiza. Qoyaga chiqish uchun faqat bittagina yo'l borligi, atrofi tabiiy xandaq bilan o'ralganligi bu joyni mustahkam mudofaa istehkomiga aylantirgan. Qoya ustidan turib, bir necha farsax narida kelayotgan odamni bemalol ko'rish mumkin. Xorien ham, Oksiart ham o'z oilasi, behisob mulozimlari bilan ana shu qoyaga joylashib olganligining boisi shunda.

Qoyaning eng tepasidagi ana shu qaynar buloq atrofi tekislanib, kichik bir maydon hosil etilgan. Atrofiga o'tirish uchun katta-katta qizg'ish marmar toshlar qo'yilgan. Atrof-tevarakni kuzatish uchun maxsus joy bor.

Katta xarsang yonidagi kichik eshikdan bir necha zinadan iborat yer osti uyiga tushiladi. Qishning sovuq kechalarida qoyadagilar o'z oilalari, bolalari bilan yer osti uyida istiqomat qilishadi, imtiyozli kishilar, pahlavonlar, lashkarboshilar uchun alohida xonalar ajratilgan. Yemak, ichmak uchun zarur bo'lgan oziq-ovqatlar, quritilgan mevalar uchun ham xonalar ichida. Qoyaning egasi – Xorien, shu boisdan qoya uning nomi bilan ataladi.

Qoya etagidagi katta, osmono'par chinor tagi tekislangan, alohida joy hozirlangan. Tinch-xatarsiz vaqtlarda qoyaliklar ana shu xushmanzara joylarga tushib istiqomat qilishadi. Kechadan beri boshlangan Navro'z bayrami ham shu yerda kutib olinmoqda. Mana endi o'rtadagi yaydoq joyga o'tin qalab gulxan hozirlashmoqda.

Bugun Navro'z kirdi. Sug'diyona bo'ylab yangi yil kezmoqda. Hamma joyda Navro'z bayrami tantanalari o'tmoqda. Qoyaliklar tong bilan yangi yil Quyoshini kutib olishdi. An'ana boshida Xorienning o'zi turibdi. U bayramdagidek kiyinib olgan. Egnida ixcham yoqasiz ko'ylak, boshida samorang kuloh, oyog'ida uchi dayrilma, qizil etik. Qulog'idagi yarim oyga o'xshash kumush sirg'asi o'ziga yarashib tushgan. Belbog'iga kumush qimli, dastasi dandon suyakdan yasalgan xanjar taqqan.

Cholvorini etik ustidan chiroyli qilib tushirib qo'yibdi. Hali gulxan yoqilmagan bo'lsa ham, uning atrofida tongga yaqin bir oz mizg'ib olib, yana ishga kirishib ketgan yosh-yalanglar, ayniqsa, bolalar ko'p. Dariyod shu yerda tong mahali paydo bo'lib qoldi. U hammani og'ziga qaratib qiziq rivoyatlar so'zlab bermoqda. Gulxan tayyorlayotgan qullar, navkarlar ham o'z ishlarini to'xtatib, Dariyod hikoyatlarini tinglashmoqda.

– Panjkientlik zodagon bozorga borib, bir kunlik xizmat uchun mardikor yollamoqchi bo'libdi. Xizmat haqi kelishib olingach, zodagon uni o'z uyiga olib kelibdi. Xizmat tugagach, ular o'rtasida janjal bo'lib, oqibat-natijada urug' oqsoqoli yomiga boribdi. Mardikor yollagan zodagon shikoyat qila boshiabdi:

– Janobi oliylari, men bu odamni bir kunga yuz dinorga yollagandim, u meming marvaridlarimni terib berishi kerak edi,

amino qilinadigan ishni bajarmagan bo'lsa ham, haqqim bor, deb, janjal chiqaryapti.

Zodagon so'zini davom ettirmay to'xtab qoldi.

– Xo'sh, keyin-chi? – so'rabdi oqsoqol.

– Bu yog'ini men so'zlay, – debdi mardikor.

Oqsoqol so'zni unga beribdi. Shunda haligi mardikor oqsoqolga murojaat qilib:

– Bu olijanob odam meni bozorda ko'rib: «qanday ish qo'lingdan keladi», – deb so'radi. Men «Taqsir, siz qaysi ishni buyursangiz hammasini ham bajarish qo'limdan keladi», dedim. Keyin bu odam meni uyiga olib ketdi. Bir oz o'tirgandan keyin menga changda birorta chiroyli kuy chalib berishni iltimos qildi. Qorong'i tushguncha xo'jayinning taklifiga binoan kuy chaldim. Kechqurun haqqimni so'rasam, marvaridlarimni terib bermading-ku, senga nega pul berar ekanman, deb ish haqqimni bermadi.

Shunda oqsoqol aytibdi:

– Sen bu odamni o'z ishingni qildirish uchun yuz dinorga yollagansan. Xo'sh, nega unga marvaridinida terdirmay, o'rmiga changda kuy chalishga majbur qilding. Shuning uchun bu odamga hamma haqini berishing darkor. Agar marvaridingni terib berish zarur bo'lsa, unda yana yuz dinor berasan, ertasi kuni bu ishingni ham qilib bera qoladi.

Shunday qilib, marvarid egasi yuz dinor oltin berishga majbur bo'libdi.

Dariyod hikoyatni so'zlab, osmonga tikilgancha xayol surib ketdi, Keyin qo'llarini ko'ksiga qo'yib ishtiyoq bilan tinglayotganlarga o'z mushohadalarini so'zlay ketdi.

Mana, o'ylang, yaxshi hunarmand, hamma narsani biladigan odamni biz bir vujud deb olsak, masalan, ya'ni marvarid teruvchi bu bir vujud, yuz dinor bo'lsa yuz yillik umr. Marvarid egasi qalb, marvaridni terish esa olijanoblik!²¹

Dariyod hikoyatni aytdi-yu, odamlarning ko'zlariga tikildi. Atrofda turganlar uning xulosasini yaxshi tushunolmadilar. Shunda Dariyod yana gapira ketdi:

²¹ Mazkur parcha «Avesto»dan olindi. Bu hikoyat Sug'diyonada keng tarqalgan.

- Bilasizlarmi, inson degan ulug' zot hamisha pok bo'lishi kerak. Pul, mol, dunyo bu - bevafo, ammo topiladigan narsa. Lekin inson dunyoga bir keladi. U bugun bor, ertasiqa yo'q. Dunyo bir karvonsaroyga o'xshaydi. Odanilar keladi, ketadi. Umr bu eshikdan kirib, narigi eshikdan chiqib ketgandek gap. Tug'ilasan, o'lasan. Bas, shunday ekan, nizolar nechun, janjal-to'polon, g'iybat nechun? Quyosh haqqi sizlarga aytamanki, insondan faqat yaxshilik qoladi. Mana, eshitinglar:

- Bir ko'l bor edi. Unda uchta baliq yashardi. Baliqlarning bittasi bir aqlga, ikkinchisi yuz aqlga, uchinchisi esa ming aqlga ega edi. Bir kun baliqchi kelib ko'lga to'r tashiadi-da, baliqlardan ikkitasini ushladi, ulardan biri yuz aqlga, ikkinchisi ming aqlga ega baliqlar edi. Ammo baliqchi bir aqlga ega bo'lgan baliqni ushiolmadi. Ana ko'rdingizmi, dunyoning ishlari ana shunaqa qiziq.²²

Hamma kulib yubordi.

- Mana, bunisini tinglanglar:

Bir zodagon bir e'tiborli avliyoni uyiga mehmon bo'lishni taklif etibdi. Avliyo uning uyiga borishga rozi bo'libdi.

Zodagon uyiga kelib o'sha belgilangan kunda katta dasturxon tayyorlab mehmonni kutibdi, ammo undan darak bo'lmabdi. Kechga tomon bir yupun, kambag'al odam eshik qoqib zodagonga ochligini aytib, ovqat so'rabdi. Zodagon uni haydab yuboribdi.

Ertasi kuni zodagon yana avliyoning dargohiga boribdi. Mehmonga kelmaganligi uchun xafa bo'libdi. Shunda avliyo:

- Uyingga eshik qoqib borgan edim, meni tanimading, - debdi.

Zodagon mulzam bo'lib qolgan ekan.

Narigi tomondagi yaydoq joyda bo'lsa bir qancha yigitlar ko'm-ko'k chim ustida davra qurishib, kurash musobaqasi qilishmoqda. Ularning hayqiriq, baqiriqlari kurashning naqadar qizg'in, hayajonli o'tayotganligidan darak berardi.

Qorachadan kelgan, abjir bir yigit davra o'rtasida tomoshabinlarga qarab ko'kragini kerib, qo'llarining muskullar-

²² Bu ham «Avesto»dan olindi.

ini ko'z-ko'z qilardi. Yigitning soqol-mo'ylovi qop-qora, sochi qalin va uzun edi.

– Qani, talabgor bormi, zo'ring bo'lsa o'rtaga chiq, – dedi yigit atrofini o'rab olganlarga murojaat qilib.

– Mendan yiqilsang nima bo'ladi, – so'radi olomon ichidan bir yigit oldinga chiqib.

– Un dinor olasan, yiqilsang, aksincha, o'n dinor berasan, – dedi o'rtada turgan yigit.

– Mayli roziman, faqat pulni naqd berasan, – dedi haligi semizdan kelgan bo'yi past yigit.

– Bo'pti, naqd berish, xohlasang pulni bir chekkaga ajratib qo'yamiz, – dedi va hamyonidan o'n dinor olib, o't ustiga tashladi.

Kurashmoqchi bo'lgan ikkinchi yigit ham xaltachadan o'n dinor pulini olib qo'ydi-da, keyin o't ustiga cho'kkalagancha kiyim-boshlarini yecha boshiadi. Avval oyog'idagi uchli qora etikni yechib, paytavalari ichiga shoshmasdan tiqib qo'ydi, ustidagi oq qo'y terisidan tikilgan mimchasini, boshidagi bir yog'i yirtiq eskiroq kulohini, ko'ylaklarini yechib bir chekkaga taxladi, yalang'och bo'lib, faqat uzun qizg'ishrang cholvorda o'rtaga tushdi.

Ikki raqib bir-birlariga ro'baro' bo'lib, bir oz tikilgancha turishdi.

– Tag'in bevaqt narigi dunyoga ketib qolsang, ismingni bilmay qolmaylik, aytib qo'y, isming nima?

– Mening ismim Tariq, seniki-chi?

– Meni Zo'rtosh deyдилar, eshitmaganmisan?

– Oho, o'zingcha nomdor ekansan-da, ehtiyot bo'l, beling sinib ketmasin, – dedi Tariq hazilomuz.

– Mahmadona, maqtanchoq ekansan, bo'yingni uzib qo'ymay tag'in. Xotining bormi yoki qallig'ingdan yiqilib hozirgacha uylanolmay yurihsanmi?

– Xotinim bor, yiqitib olganman. Tumshug'ing to'ng'iz-nikiga o'xshar ekan, hamma yerga burningni tiqaverma, galvars.

– Ko'ppakka o'xshab akillayverma, dumingni qisib qo'ymay, qani kuchingni ko'rsat, – dedi Zo'rtosh.

Ular bir-birlariga yopishib ketishdi. Ikki polvon o'rtasidagi asabga tegish maqsadida qilingan dahanaki jangni hozirgina kelib, chetdan kuzatib turgan Spitamen odamlar doirasini yorib oldinga o'tdi.

Zo'rtosh bir-ikki chang solgan edi, Tariq unga chap berdi, polvon yigitning jahli chiqib, u yoq-bu yoqqa tipirchillab o'zini olib qochayotgan raqibining bo'ynidan ushlab, kuchli qo'llari bilan bir tortgan edi, nimadir qars etib ketdi. Tariq sekin-asta bo'shashib yerga o'tirib qoldi. Olomon chapak chalib, qiy-chuv ko'tardi. Zo'rtosh raqibining tepasiga kelib, uning turishini poyladi. Ammo Tariq o'tirgan joyida bo'ynini ushlab so'kinardi...

- Turasanmi yo bo'ldimi? - dedi Zo'rtosh.

- Bo'yinni yeding, ablah, - dedi Tariq g'azablanib.

- Haqorat qilma, yigit bo'lsang chida, mard bo'l, bo'lmasa boshingdan ham ajralasan, - dedi Zo'rtosh.

- Bir oz o'z holimga qo'y, qahring o'lgudek qattiq ekan, - dedi Tariq.

- Bo'lmasa o'n dinorni uzat-da, tuyog'ingni shiqillatib qol, - dedi Zo'rtosh.

- Pul joningni olsin, ana o't ustida yotibdi, - dedi Tariq hamyonni ko'rsatib. Keyin bir amallab o'rnidan turdi-da, bo'ynini ushlagancha davradan chiqib ketdi. Hamma qiyqirib, hushtak bilan Zo'rtoshni tabriklardi.

Shu vaqt boshang klyingan, yoshi o'ttizlar chamasidagi qoramag'iz, yelkador bir yigit o'rtaga tushdi-da, qo'lidagi qamchisini o'ynab turib so'zlay ketdi:

- Hoy juvonmard, ko'p maqtanaverma, polvon odam unaqa bo'lmaydi, mana menga kuchingni ko'rsat, - dedi mag'rurlik bilan.

- Sen ham maqtancholikda boshqalardan qolish-maydiganga o'xshaysan, pulni oldin berasanmi yoki yiqilganingdan keyinmi, tag'in narigi dunyoga ketib qolsang bu yog'i nasiya bo'lmasin, qarz bilan ketish gunoh-ku!

Hamma qiyqirib yubordi, Spitamen ham o'zini tutolmay jilmaydi.

- Mana, ishonmasang pulingni oldindan berib qo'ya qolay, - haligi odam ham xaltachadagi dinorlarni Zo'rtoshga o'tgan edi, u chaqqonlik bilan ilib oldi-da, kiyimlari oldida turgan kulohiga tashladi.

- Ammo, sen ham ajaling yetib o'lib qolsang, mana shu odamlar oldida vasiyat qilib qo'y, menga yigirma dinor qilib qaytarib berishingni!

Yana kulgi, qiyqiriq ko'tarildi.

Zo'rtoshning raqibi davraning bir chekkasiga borib kamarini yechib, qurollarini o't ustiga tashladi. Keyin o'ziga moslab tikilgan olcharang duxoba chakmonini, kulohini ehtiyotlab taxlab, narsalari ustiga qo'ydi. Oq shoxidan tikilgan ichki ko'ylagini, keyin etigini yechib, mag'rur o'rtaga tushdi. Hammaning diqqat-e'tibori bu basavlat, zodagon yigitda edi. Spitamen ham shu oddiy sug'dlar orasida paydo bo'lib qolgan qad-basti kelishgan yigitga havas bilan qarab gurardi. Agar anavi Zo'rtosh mana shu odamga biror zarar yetkazgudek bo'lsa qutqarib qolishni ham ko'nglidan o'tkazib, ehtiyotkorlik bilan hozir-nozir bo'lib turardi.

- Qani, kuchingni ko'rsat, - dedi haligi zodagon yigit.

- Xo'sh, ism-shariflari nima, bilib qo'ysak bo'ladimi, tag'in siz ham bo'yingizni ushlagancha davradan «chuv» chiqib ketmang, - dedi Zo'rtosh masxaraomuz.

- Pulni naqd berib qo'ydik-ku, endi menda enangizni ham haqi qolmadi, «ko'p gap, eshakka yuk», - deganlar, - dedi zodagon.

- Ancha e'tiborli odamga o'xshaysiz, yaxshisi sharmanda bo'lmay davradan chiqib keta qoling, ruxsat beraman, faqat pulni menga tashlab ketsangiz bo'lgani, - dedi Zo'rtosh yana maqtanib.

Zo'rtosh polvonlarga xos lapanglab kelib, xuddi avvalgidek zodagon yigitning bo'yniga qo'l tashlamoqchl bo'lgandi, u chaqqonlik bilan ko'krigiga musht bilan urdi. Zo'rtosh oyog'i chalishib gandaraklagancha orqaga surilib ketdi-da, keyin ba-zo'r o'zini to'xtatib qoldi, Endi uning qahr-g'azabi toshib, qar-shisida kulimsirab turgan muxolifiga xuddi o'z o'ljasiga tash-lanmoqchl bo'lgan yo'lbarsdek otildi. Bu safar uning belidan

ikki qo'lini o'tkazib qattiq siqmoqchi bo'lgan edi, zodagon yigitning kuchli gavdasi sirg'alib chiqib ketdi. Shunda zodagonning baquvvat qo'llari Zo'rtoshning bellariga mahkam chirmashdi. Endi bu po'latdek mustahkam qo'llar pahlavonning beliga zanjirdek bog'lanib qolgan edi. U qancha harakat qilmasin, zodagon shuni kutib turgandek borgan sari mahkamroq siqardi. Zo'rtosh qopqonga ilinib qolgan qoplonddek bor kuchi bilan talpimar, ammo qancha harakat qilmasin, foydasiz edi. Qarshisida turgan xushmo'ylov, chayir zodagon yigit o'zidan ancha kuchli ekanligini tushundi, peshonasidan ter oqib, ko'z o'ngi xiralashdi. Zodagon muxolifining bo'shashib qolganligini sezdi shekilli, baland ovoz bilan na'ra tortdi-yu, Zo'rtoshni dast ko'tarib yerga urdi. Hammayoq larzaga kelib, go'yo yer qimirlab ketgandek bo'ldi. Zo'rtosh nomus kuchidanmi, yoki yerga yonion tushganidanmi ko'zlarini yumgancha chim ustida jim yotardi.

Bu hayajonli damlarni jim, hatto nafas olmay kuzatgan xaloyiq Zo'rtoshning ayanchli ahvoliga bir oz achingansimon qarar, o'rtada mag'rur turgan g'olib zodagon yigitga chapak chalishni ham, qiyqirishni ham bilishmasdi.

– Balli, polvon, balli azamat yigit, – dedi oldinda turgan Spitamen o'rtaga tushib va zodagon yigitning yelkasiga qo'lini qo'ydi. Tomoshabinlar birdan shovqin solib qiyqirib yuborishdi.

Zodagon kelib yerparchin bo'lib yotgan Zo'rtoshni o'rnidan turg'azdi.

– Zo'r yigit ekansan, yaxshi jangchi bo'lasan, – dedi zodagon.

Boshini quyi solib turgan Zo'rtoshga bir oz qarab turdi-da so'radi:

– Menga navkar bo'lasanmi, ko'p mol, pul beraman.

– Mayli, aytganingizcha bo'lsin, sizday mard odamlarga jonimni beraman, – dedi Zo'rtosh.

– O'zing kimsan, qayerliksan? – gapga aralashdi Spitamen.

– Datafarn bo'laman, – o'zim navtakalikman, – dedi zodagon forschalab.

– Eshitganman sen haqingda, – dedi Spitamen ham forschalab, Datafarn Zo'rtoshni olib, oti tomon yurdi Spitamen ularning orqasidan qarab qoldi. Shu vaqt zodagon otga minmoqchi bo'ldi-yu, birdaniga hovliqqancha Spitamen tomonga yugurib keldi:

– Sen Spitamen bo‘lasanmi?

– Ha, shunday.

– Nega oldin o‘zingni tamitmading?

– Mana hali ham kech emas, endi tanishib oldik chamamda.

– Azizim, seni Axuramazdaning o‘zi yetkazdi, axir sen bilan ko‘rishish orzusida yurardim. Taqdirga ming qatla shukr, seni menga yetkazdi, kel, bir quchoqlashib ko‘rishaylik!

Datafarn quchoq ochib Spitamen bilan ko‘rishdi.

– Endi bu yoqqa yur, bayramni birga o‘tkazamiz, – dedi Spitamen Datafarnni sudrab.

Datafarn rozi bo‘ldi, ular otlarini yetaklab «Xorien qoyasi» tomon yurishdi.

– Bugun bu yerda bayram, ham nikoh to‘y. Oksiart degan qadrdon do‘stimiz qizini uzatyapti. Meni ham shu marosimga taklif etgan, – dedi Spitamen.

Sug‘diyona odati bo‘yicha bugun bu yerda kelin bilan kuyovning hal etuvchi uchrashuvi bo‘ladi. Bu marosim odat bo‘yicha qiz va yigitning kurash tushishi shaklida o‘tadi, ya‘ni kuyov bilan kelinning yer osti uyida bellashuv bo‘ladi. Agar yigit bu kurashda yengib chiqsa, qiz umrbod uning asirasi bo‘lib qoladi va aksincha, yigit yengilsa, unda ish boshqacha hal bo‘ladi: qizga uylana olmaydi.²³

Oksiartning qudasi aslida kiresxatlik zodagonlardan. Bo‘lajak kuyovning sohibjamol Ravshanakka uylanayotganidan og‘zi qulog‘ida, mayda-chuyda ishlarga bermalol aralashib yuribdi. Navro‘z arafasida xorienliklar xudolarga katta qurbonlik qilishdi, o‘nga yaqin qo‘y-echki, ikkita ho‘kiz, bitta tuya so‘yildi. Katta doshqozonlarda kechadan beri go‘sht qaynamoqda. Mana hozir Oksiart bo‘lajak qudasi bilan chaqchaqlashib o‘tirishibdi. Oldi-berdi ishlar kelishib olindi. Xorien, Spitamen va uning aziz mehmomi Datafarn ham shu yerda.

Spitamen ilgari Ravshanakni ko‘rmagandi, lekin Oksiartning shunday go‘zal qizi borligini eshitgan, ammo uning bunchalik dilbar, bunchalik kelishganligini ko‘z oldiga keltirmagan ekan.

²³ Bu odat Sug‘diyona tarkib topgan bo‘lib, bunday tadbir ularga nikohning mustahkam bo‘lishiga asos bo‘lar emish.

Choshgohga yaqin o'rtaga katta gulxan yoqib yuborildi. Quruq o'tin qasir-qusur qilib gurullab yonib ketdi.

Qariyalar, yosh-yalanglar, hamnia olov atrofida cho'nqayib yerga bosh qo'ydilar. Ustiga qizil matodan yoping'ich solib olgan kekxa vag'npat olovga qarab siniq ovoz bilan duo o'qiy boshladi. Uning yoniga ikki yosh vag'npat cho'qqayib o'tirdida, duoga jo'r bo'ldi. Yosh vag'npatlarning ham sochlari taqir qilib qirilgan. Har ikkala vag'npatning ustida bir xil qizg'ish rang yopimchiq bor. Vag'npatlar oyoqyalang edilar. Duo-ibodat tugadi. Kekxa vag'npat samoga qaragancha pichirlab duo o'qiy boshladi, hamma undan ko'zini uzmay qarab turdi. Gulxanning bir chekkasida cho'kkalab o'tirgan Spitamen ayollar orasidan qidirib, Ravshanakni topdi. Qizning nigohi Spitamenning ko'zlari bilan to'qnashdi. Bu holatdan, negadir, o'zi ham bilmay, nozikkina jilmaydi, Go'yo ular vag'npatning samoviy duolari asnosida bir-birlariga yaqinlashib, dillashib qolganday edi.

Vag'npatning duo o'qishi tugadi. Hamma bir-biri bilan ko'risha boshlashdi, qarindosh-urug'lar yalab-yulqishib ketishdi. Hayqirishlar, qiyqirishlar boshlandi, surnay navosi yangradi, childirma gumbirladi. Jangchi yigitlar gulxan ustidan sakrab raqsga tusha boshladi. Yana do'mbira ovozi yangradi. Kimdir qo'shiq boshlab yubordi, boshqalar unga jo'r bo'llshdi.

Shunday qilib, yangi yil tantanalari boshlanib ketdi. Gulxan obdon yonib, avjiga mingach, atrofda o'tirgan odamlar gulxan atrofiga tiz cho'kib, savatlarga qo'yilgan mevalarni bittabittadan olovga itqita boshladilar. Mevalar o'tda yongach, qandaydir kishimi mast qiluvchi hid hammayoqni tutib ketdi. Hammaga Xauma²⁴ suvi tarqatildi. Yana qo'shliq, yana o'yin boshlandi. Qo'shiqni Ravshanak boshlab berdi. Uning mayin, shirali ovozi hammamni maftun etardi. Bir chekkada gulxanga qaragancha o'tirgan Spitamen Ravshanakning qushig'iga mast bo'lib xayol daryosiga cho'mib ketgandi.

- Ha, dunyoda shunday go'zallar bor ekan, tabiat nimalarni yaratmaydi. Mana, Maroqanddagi suratkash yaxshi ko'rib

²⁴ Xauma suvi Sug'diyonada sutga qo'shib ichilib, kayf beruvchi xususiyatga ega bo'lgan.

qolgan o'sha go'zal, malikayi Turona, yetti iqlimni qidirsang ham bundayini topolmaysan. Ammo u musavvir yigitga nasib etmaydi. Hokim o'lsa ham qizini sahroyiga bermas. Ammo suratlashni qanday qilib bo'lsa ham u yerdan olib ketish kerak, hokimning qahri qattiq, o'ldirib yuborishdan ham toymaydi. Axir yigit noyob hunar egasi, uni saqlash darkor. Ravshanak-chi, go'zallikda hammasidan o'tadi. Bundaqasi dunyoga bir keladi, afsuski, bu qiz Sitonga nasib etibdi. Ammo bo'lajak qallig'ini sevarmikan... Qizning qarashlaridan, uning o'zini tutishidan hech narsa bilib bo'lmaydi.

Spitamen ana shu xayollar bilan Datafarnning yelkasiga qo'lini qo'yganicha Ravshanakka ko'z tashladi, g'oyat yoqimtoy. Negadir unga qaramay desa ham qaragisi kelar, yuragning allaqayerida o'zi bilmagan iliq hissiyot xuruj qilardi. Shu vaqt mulozimlardan kimdir bir chekkada bashang kiyinib tugan Sitonning yoniga kelib, qo'lidan ushiadi, Siton nima gap ekanligini tushundi-yu, tepaga chiqadigan yakkapoy yo'ldan lapanglaganicha ko'tarildi. Keyin qizlar davrasida turgan go'zal Ravshanak ham g'oyib bo'lib qoldi.

«Xorien qoyasi»ga chiqa berishda maxsus yerto'la uy bor. Uyning sathi ancha katta, o'n besh-yigirma arshin keladigan to'rt burchakli xona. Qahraton qish kezlarida o'rtaga katta gulxan yoqiladi-yu, uning atrofida turli marosimlar, tantanalar o'tkaziladi. Yoz fasllarida bo'lsa xona juda salqin, jazirama issiqdan qochib ana shu salqin uyda hordiq chiqarishadi. Uyning to'rt chekkasiga mash'ala yoqish uchun maxsus joylar qilingan. Gulxan tutumi ketishi uchun mo'ri ham bor. Mana bugun bo'lsa bu xona yasatilib, kigizlar to'shalib, kuch sinashish uchun bo'lajak kelin-kuyovlar ixtiyoriga berilgan.

Balog'at yoshidagi qiz samodagi yangi oyday bo'lib o'ktam xayollarga to'lib turardi. Uning qalbida yashiringan, izlagan sohibiga intizor etgan pokiza, ma'sum tuyg'ular asta shivirlagandek bo'ldi qizga.

– Sohibam, azizam, muhabbat ma'budasiga sig'in, agar shunday qilsang sevging bilan keng samolarga, sayyoralarga uchgaysan. Sen bepoyon kengliklarni quchib o'sgan, oppoq harir tumanlarning nafasi ufurgan ulkaya qoyalarning go'zal

ohusisan, dilbandisan. Muhabbat uchun yaratilgan qaynoq qalb, o'tli siynasan, Axuramazdaga sig'in, ishon, suyan, shunda sen adashmaysan!..

Ravshanakning yuragi gupillab ura boshladi, ich-ichidan xo'rsinish kelib, tangridan madad tiladi bokira qiz.

Tug'yonlar yana qizning yo'lini to'sishdi. Yurak sadolari, yo'q-yo'q iltijolari eshitilgandek bo'ladi. O'zing o'tib kelgan xomush so'qmoqlarga qara, sabolarni bag'rida allalab uxlatib, o'zing cho'milgan muzdek, pokiza daryolar kokillarimi tarab, senga nigohini tikib turgan muazzam tabiatga bir boq, muhabbatga, ha muhabbatga sig'in deydilar ular ham. Tuyg'ular jangi qarshisida garang edi qiz.

Ey Nohid, bor quvonchlarimni, bokira hislarimni oyog'ing ostiga tashlay, evaziga muhabbat so'rayman, rahm-shafqat qil qulingga!

Ravshanak ko'ngliga nelarnidir tugdi, kurashga shaylanib turgan raqibini kuch bilan yengmoq mushkuldir. Muhabbat va sadoqat-chi, uni kim yenga oladi, oyoq osti qilib bo'lmaydi-ku, noyob tuyg'ularni!

Kurash hali boshlangani yo'q, ammo hozir qalblar g'alayoni, nigohlar uchrashuvi boshlangandi. «O, muhabbat ma'budasi, o Nohid, qaydasan, madad ber, shafqating og'ushiga ol meni». Ravshanakning o'tli diydasida yosh ko'rindi...

Qiz asta yechinmoqqa boshladi: yo'lbars terisidan maxsus, ixcham nimcha, sariq shohidan o'ziga moslab tikilgan chalvor. Nimchasi shunday bichilgan ediki, uning tugmachalari so'linganda qizning qo'sh kabutardek entikib turgan ko'kraklari ozgina ko'rinib turardi... Sitonning ko'zlari charaqlab, hirslari uyg'ongandek ko'z oldi xiralashdi. Ravshanak yelkasi bilan bit-ta bo'lib yoyilib yotgan sochlarini yig'ib, chilvir bilan chiroyli qilib bog'ladi. Jangchilarnikidek anjomi Ravshanakning kelishgan qaddi-qomatiga shunday yarashgan ediki, Siton turgan joyida haykaldek qotib qoldi.

– Xo'sh, nega angrayib qolding, qani boshlayver, – dedi qiz dadil.

Bu nidodan Sitonning go'yo es-hushi joyiga kelgandek bo'ldi, yigit ustidagi echki terisidan tikilgan nimchasini bir

chekkaga tashladi, oq jujinchi ko'ylagida qoldi. Uning bo'yi Ravshanaknikidan ancha past, lekin o'zi yo'g'ondan kelgan, ancha baquvvat ko'rinardi. Semiz bo'lganligi uchun bo'lsa kerak, ko'kraklari osilib turardi. Ravshanak uning ko'rinishiga qarab kulimsirab qo'ydi.

Siton yuragining duk-duki tinmay, qizning guldek ochilib ketgan go'zal chehrasiga suqlanib qarab turdi, nafasi qisilib go'yo oyoq-qo'lidan darmon ketib qolganday tuyuldi. Ot chopishda, o'q-yoy otishda, turli musobaqalarda erkaklardan qolishmaydigan bu qizning ta'rifini ko'p eshitgan. Endi bo'lsa, qon-qardoshlari, hurmatli urug' oqsoqollarini o'rtaga qo'yib, qanchadan-qancha mol-dunyo, qo'tan-qo'tan qo'y, ot, tuya va'da qilib, qizning otasi Oksiartni ko'ndirishgandi.

Ravshanak Sitonni yoqtirmasdi, ammo ota-onasining, qolaversa hurmatli qabila oqsoqollarining ra'yiga qarshi borib bo'lmasdi. Buning ustiga, Sitonning otasi el-yurtda obro'-e'tiborli kishilardan edi. Uning chorvasi ham, mol-dunyosi ham ko'p.

Ammo Ravshanak o'zini hali ham yosh deb hisoblar, o'z uyasidan hech qayerga borishni xohlamasdi. Shu haqda so'z ketganda: «o'z uyimga sig'may qoldimmi», deb ota-onasidan bir oz xafa bo'lardi, u hamon hayron, otasi Oksiart nega shunday qildi ekan deb, axir Sug'diyonada Gavshanakka yoqadigan zodagon yigitlar topilmasmidi? Hammasiga qal'a xo'jayini Xorien sababchi bo'ldi, chunki u Kiresxataga savdo-sotiq bilan borganda Sitonning otasi bilan yaqindan do'stlashib qolgan, o'sha yerda don, turli matolar xarid qilib, mol ayirboshlash bo'lganda Siton uni o'z mulozimlari bilan qal'agacha olib kelib qo'yib ketardi. Ana shu munosabatlar asosida Xorien o'z qarindoshi Oksiartning go'zal qizini Sitonga va'da qilib yubordi. Hamma ish ana shundan boshlangandi. Oksiart ham balog'atga yetgan, ko'zga yaqin qizini uzoq saqlab tura olmasdi, buning ustiga Ravshanak sho'x, yigitlardek jasur, butun olam nari-beri bo'lib turgan, makedoniyalik Iskandarning bu yoqlarga ham qadami yetib kolishni haqida turli shum xabarlar tarqatan og'ir zamonada hirortasi o'g'irlab, uzoq mamlakatlarga olib borib sotib yuborsa nima bo'ladi. Bunday voqealar Sug'diyonada goho-goho bo'lib turardi. Oksiart ham, qizning onasi Sarvinoz

ham ana shu mulohazalar bilan sevimli qizlarini berishga rozi bo'lishdi.

Qiziq, qiz bola bo'lgandan keyin har xil xayollarga borar ekan, «Qani anavi Spitamendek yigit bo'lsa», deb o'yladi, hatto uning «ukasi yo'qmikm» deb ham xayolidan o'tkazdi. Bugun erta bilan daryoga cho'milgani tushganda, keyin vag'npat gulxan yonida duoga qo'l ochganda unga ko'zi tushdi-yu, yuragi yomib ketdi. Ichidan bir narsa uzilib ketgandek tuyuldi. Spitamen ham undan ko'zini uzmadi, uning o'tli qarashlarida bir dunyo ma'no bor edi. Ravshanak uni ko'rganda ich-ichidan yonib, olamni yaratganga shak keltirib, ko'nglidan ko'p gaplarni o'tkazdi. Qam' endi, Sitonning o'rnida Spitamen bo'lsa, uning bag'riga o'zini tashlardi-da, oyog'iga yiqilib umrbod uning asirasi bo'lib qolardi. Uning xotini bo'lsa ham mayli edi, faqat Spitamenning yonida bo'lsa, u bilan birga, bir gulxan atrofida bitta dargohda, bitta yaylovda, hatto kimsasiz cho'lda ham yashashga tayyor edi.

Dunyoning ishi qiziq ekan. Nega axir ko'ngli tushgan odamlar bir-biriga hech qachon yetisha olmaydi. Men uni jon-dildan sevsam, nega inson o'z xohishiga yeta olmaydi, ko'pmcha unga qarshi boradi.

Mana, endi qarabsizki, Ravshanakning yulduzi Sitonga tushibdi. Qizning bu ko'ngilsiz nikohdan qutulishi uchun faqat bittagina yo'li bor, musobaqada yengib chiqishi kerak... Bo'lmasa, umrbod ko'ngilsizlik quli bo'lib qolishi, mazmunsiz hayot asirasiga aylanishi mumkin. Bunday ko'ngilsiz mashaqqatli istiqbol Ravshanakka iroda, yengish uchun ishonch, kuch bag'ishlashi mumkin edi. Zero, bu yerda hayot-mamot masalasi, sevgi bilan nafratning, yorug'lik bilan qorong'ilikning tantanasl» masalasi inson taqdiri bilan bog'lab qo'yilgandi. Axuramazdaning ikki ukasi – Angra-maynyu²⁵ va Spantamaynyu²⁶ o'rtasidagi kurashdek.

Siton hirslari o'n barobar oshib, o'z o'ljasiga tashlandi, ammo qizning ustalik bilan bergan qattiq zarbasidan qornini

²⁵ Angra-maynyu – yomonlik ma'budasi.

²⁶ Spanta-maynyu – yaxshilik ma'budasi.

ushlab qoldi. Bir oz o'zini o'nglab, qizning belidan mahkam siqib yerga yiqitmoqchi bo'ldi, ammo Ravshanak bo'sh kelmadi, payt poylab yigitning oyog'ini chalib yuborgandi, qizga mahliyo turgan Siton chalqanchasiga gursillab yiqildi, Ravshanak chaqqonlik bilan hali semiz gavdasini o'nglay olmay chalqanchasiga yotgan Sitonning tepasiga kelib bir oyog'ini uning ko'kragiga qo'ydi.

– Qimir etma endi, mendan yiqilding, – dedi qat'iylik bilan qiz.

Siton Ravshanakning yulduzdek yonib turgan jon ofati ko'zlariga yolvorgandek tikildi.

– Mayli, jonim, sen istagancha bo'lsin, hammasiga tayyor-man, endi meni qiynamay tegaqol, – dedi va ko'kragini bosib turgan chiroyli oyoqlarini bag'riga bosdi.

– Yo'q, sen nomardga hech qachon tegmayman, hozir pastga tushib, el-ulus oidida yiqilganingni tan ol! – dedi Ravshanak.

Sitonning ko'zlari bejo bo'lib, g'azahi qo'zg'aldi, qizning oyoqlarini itarib yubordi-da, o'rnidan turib ketdi. Keyin xuddi o'ljasi qo'lidan chiqib ketayotgan yirtqichdek bir chekkada o'zini himoya qilib, hujumga shay turgan Ravshanakka tashlandi.

– Axir yiqilding-ku, nega yana menga yopishasan? – zorlandi Ravshanak.

– Sen bilan mana endi kurashaman, oyqiz, – asabiylandi Siton.

– Nomard ekansan!

– Menga tegasan, ha, xotin bo'lasan.

Endi yigitning asabi buzilib, qo'qqisdan cho'kka tushib o'tirdi-da, qizning ikki oyog'ini mahkam qisib yerga ag'darmoqchi bo'lgandi, qiz qo'llari bilan Sitonning ikki tomonga osilib turgan uzun sochlaridan qattiq ushlab jon-jahd bilan torta boshiadi. Yigit og'riqqa chiday olmay, qizning silliq oyoqlarini qo'yib yubordi. Ravshanak endi bo'sh kelmadi, bo'yniga mahkam yopishgancha bor kuchi bilan bo'g'a boshladi. Siton nafasi qisilib dovdirab qoldi, jon achchig'ida Ravshanakni qo'qqisdan itarib yuborgandi, qiz chalqanchasiga yiqildi, Siton bo'lsa shu imkoniyatdan foydalanib, o'zining og'ir gavdasi bilan

qizning ustiga tashlandi. Ravshanakning ikki qo'lini mahkam bosib, uning lablaridan o'pmoqchi bo'ldi.

«Mana, endi orzumga erishdim, – deb o'yladi yigit, – Ravshanak mening qo'limda». Ko'z o'ngiga o'z uyidagi alohida xonada, shohi ko'rpachalar ustida Ravshanakning og'ushida yotgandek his etdi o'zini. Mana, uning oq marmardek oyoqlarini silab orom olyapti, qizning yostiqlik bilan bitta qop-qora tundek sochini bo'ylari dimog'iga uradi. Qanday baxt bu o'zi, tabiatning menga qilgan noyob in'omi bu, qancha-qancha yigitlar unga yetishish uchun butun bor-yo'g'ini berishga ham tayyor edi. «Mana, odamlar ham oq fotiha berishdi, Ravshanak meniki! Bebaho gavharni qo'lga kiritdim, endi uni abadulabad o'zimniki qilib olishim kerak». Sitonning yuragi yana bezovtalandi, Ravshanakning ustida uning qo'llarini mahkam bosib yotibdi-yu, yuragi qinidan chiqib ketayotganday, nafasi tomog'iga tiqilib:

– Endi mening sevgilim bo'laqol, jonim, xo'p deyaqol, – Siton qizni chalpillatib o'pa boshladi...

– Xo'p deyaqol... jonim Ravshanak... – Yigit beixtiyor qizning qo'llarini qo'yib yuborib, ko'kragini g'ijimladi. Ikki juft ko'zlar uchrashdilar, birinchi juft ko'zlarda hirs, alam, o'kinch, ikkinchisida esa afsus, nadomat, g'azab.

Sitonning hirsini uyg'omb negadir bo'shashib ketdi. Ravshanakning g'azabi qo'zg'ab, qandaydir iroda kuchi kelib, jon-jahdi bilan ustidan Sitonni uloqtirib o'rnidan turib oldi.

– Yigitman deb yuribsanmi, uyatsiz, – deb chopganча yerto'ladan chiqib ketdi.

Ha, hirsning tog'day qomatini muhabbatning qilday quvvati chilvir bilan bog'lab, baland adolat qoyasidan uloqtirib tashiadi.

Qiz samoga qo'lini ko'tarib yurak ohi bilan:

– O, muhabbat ma'budasi, senga umrbod sajda qilaman, – deb nido qildi.

Qal'aning pastida bo'lsa o'yin-kulgi, bayram davom etayotgan edi. Kayfi chog', Navro'z gashtidan mast bo'lgan odamlar ko'ngliga kelgan ishni qillshardi: birov o'ynar, kimdir qo'shiq aytar, qolganlar jo'r bo'lardi. Sochlari parishon yoyillib ketgan Ravshanak qal'adan tushib kela boshladi. Qal'a xo'jayini Xorien voqeaga

tushunib, boshini xam qilib yerga qaradi. Oksiart o'rnidan turib, rangi bo'zdek oqarib, qizi tomon yurdi. Ravshanak bo'lsa odamlarga tik qaragancha dadil yurib pastga tushdi-yu, chekkada bog'liq turgan zulukdek qora otga chaqqonlik bilan mindi-da qamchin bosdi. Ot ham go'yo shuni kutib turgandek tez oqar daryo qirg'og'idagi ko'm-ko'k yaylovlar tomon uchib ketdi.

Hamma hang-mang bo'lib qoldi.

Ravshanak mingan ot Spitamenning «Qorasoch»i edi. Spitamen ham hayratdan lol qoldi, axir uning tulpori begonani mindirmas edi-ku, nega egasidan «so'roqsiz» anavi qizni uchirib ketdi, endi nima qilish kerak.

– Odamlar, qizimni ot olib qochdi, yiqiladi, uni qutqarish kerak. Hoy, Spitamen, axir u sening «Qorasoch»ing-ku, – dedi Oksiart yolvorib.

– Spitamen, nega qarab turibsan, qizim halok bo'ladi, – bu onasi Sarvinozning ovozi edi.

Spitamenga jon kirdi, chaqqonlik bilan duch kelgan bir otga mindi-yu, qamchi bosdi.

Spitamen qiz ketidan tezoqar tog' daryosi qirg'og'i bo'ylab shamoldek yelib borardi, bunday holatdan uning ham boshi aylangan, ich-ichidan ulug' Axuramazdaga shak keltirib borardi. Mana, uning oti qizga yaqinlashdi, ammo chavandoz qiz Spitamenga e'tibor ham qilmay, g'azab bilan otga qamchi urdi.

Spitamen mingan tulpor ham uchqur edi, lekin Qorasochga tenglasholmasdi. Spitamen buni juda yaxshi bilganligi boisidan Ravshanakni quvib yetish uchun biror yo'l topish kerak. Qizdan ko'ngli to'q; xuddi usta chavandozdek otga yopishib tushgan. Qorasoch qurg'ur ustidagi farishtasurat sohibjamol qizni jon-jon deb ehtiyotlab olib uchayotgandek tuyuldi. Spitamen: «Bu Axuramazdaning inoyati», deb o'yladi. Endi Qorasochni to'xtatish uchun nima qilish kerak? U o'zining qadrdoni, vafodori-ku, nahotki egasiga bo'ysunmay Ravshanakni olib qochib ketaversa.

Spitamen otga bir-ikki qattiq qamchin bosdi, tulporning jahli chiqdi shekilli, quloqlarini tik qilgancha oldidagi o'zidan kuchli, chopqir otga yetib olishga harakat qilib qoldi. Spitamen ham unga yordam berdi.

– Qorasoch, hoy Qorasoch, senga aytyapman, to'xta deya-
man! – baqirdi Spitamen.

Ot egasining tovushini eshitdi, shekilli, hir oz sekinlashdi, boshini u yoq-bu yoqqa qilib bezovtalandi. Bechora Qorasoch, orqasidan quvib unga murojaat qilayotgan xo'jasiga bo'ysun-
sinmi, yoki tepasida o'tirib ich-ichidan yig'layotgan va o'ziga
hamdard izlab olg'a siljishga undayotgan sarviqomat qizga
bo'ysunsinmi!

– Qorasoch, senga nima bo'ldi, – yana murojaat qildi Spita-
men.

Sadoqat ustunlik qildi, ot asabiylashib, ustidagi
sohibjamolga bo'ysunmay boshini sarak-sarak qildi-yu, taqqa
to'xtab qoldi.

Ikki daryoning tutashgan joyida Spitamen Ravshanakka
yetib oldi.

– Nima bo'ldi! Hoy, qiz, yov quvdimi seni, namuncha qoch-
masang?

Ravshanak Spitamenning ovozi tamib, uyalgancha yerga
qaradi. Qorasoch ham Spitamen tomoniga burilib, egasiga
qarab negadir kishnab yubordi.

– Ha, nima bo'ldi? Kuyov qani? – so'radi Spitamen.

– So'rab nima qilasan? – dedi Ravshanak g'amgin.

– Shunchaki o'zim, – dedi Spitamen.

– Sen nima deb o'ylagan eding? – Ravshanak xomushgina
kulimsiradi.

– Sening yengishingga ishongandim...

– Qiziq ekansan-ku! – endi samimiy jilmaydi Ravshanak.

– Rostini ayt, sevmasmiding uni?

– Sevsam, yiqilmasmidim, – yer ostidan o'tli qarash qildi
Ravshanak.

– Men bilan kurashasanmi? – so'radi Spitamen.

– Kurashmayman, – qat'iy dedi Ravshanak.

– Nega? – so'radi Spitamen.

– Sendan baribir yengilaman, – yerga qaradi qiz.

– Bo'lmasa, menga xotin bo'li!

– Tentak, axir xotining bor-ku! Bolalaring-chi? Go'zal
Odatida mima deydi?

Spitamén indamay qoldi. Qizning savoliga javob berolmadi, bera olmasdi ham, Ravshanak qo'lidagi qamchin bilan yer chizib turdi-da, keyin Spitamenga o'tli nigoh bilan qarab:

– Sen pahlavon yigitsan, seni sevaman, ammo senga tegmayman. Rost gap shu, seni g'oyibdan sevardim, hozir ham...

Ular otlarini yetaklagancha biroz jim ketishdi. Ravshanakning so'zlaridan Spitamenning tili lol. O'z fikrlari chuvalashib ketgan, qancha o'ylamasin, urinmasin aqlni peshiaydigan birorta ham gap topolmasdi. Qorasochga qaradi, vafodor oti Ravshanakka «sotilib ketgandek» tuyuldi, pishqirib, begonani o'ziga hatto yaqin keltirmaydigan ot jilovini boshqaga berib, xo'jasiga e'tiborsizdek qizga itoatkorona bosh egib borardi.

– Oting juda zo'r ekan, qaytib minib ketsam maylimi? – so'radi Ravshanak.

– Ixtiyor o'zingda, o'zi ham seni yaxshi ko'rib qolibdi, bo'lmasa... – Spitamen miyig'ida kulib qo'ydi.

– Nega u yog'ini aytmading?

– Shunchaki o'zim...

– Ot ham sevadimi?

– Hech kimni ustiga mindirmasdi, sevgani rost...

– Kim?

– Qorasoch.

– Ismi ham chiroyli ekan. Men ham sevib qoldim...

– Kimni?

– Mana bu Qorasochni, – dedi Ravshanak va otning bo'yniga asta shapatilab qo'ydi.

Spitamén ham, Ravshanak ham otlarining jilovidan ushlagancha o'z xayollari bilan band edilar.

Ravshanak hayron, o'zi mima bo'lyapti, kuyov ham yengildi, nikoh buzildi, endi erga tegmaydi, bu yog'i mima bo'ladi? Endi, otasi-onasi qon-qarindoshlar oldida nima deydi. Oq fotiha bergan oqsoqollar-chi? Balki bular hammasi yaxshilikkadir. Spitamen qayerdan kelib qoldi, nega beruxsat qalbiga yo'l olmoqchi? Sug'diyonada barchaga ma'lum bo'lgan bu pahlavonning unga yoqib qolganligi qiziq bo'ldi. Balki bu shunchaki o'tkinchi havasdir. Agar boshqacha bo'lsa-chi, Ravshanakning jon-jahdi bilan tangriga yolvorganligi Axuramazdaga borib yetib, Spita-

menmi uning qoshiga yuborgandir, demak, bu tangrining moyati bo'lsa-chi? Afsus, ming afsuski, Spitamenning sevikli xotini bor. Bir yurakka ikki muhabbat sig'maydi...

Spitamenning bo'lsa hozirgi yuz bergan vaziyat oldida aql-mulohazalari chuvalashib ketgandi. Ravshanak uning uchun go'yo yangi kashfiyot. Yigitning yuragi ich-ichidan yonmoqda, sevib qolgani rost, animo bu mumkin emas. Qiziq, bu shunday muhabbatki, unga yaqinlashib ham bo'lmaydi, ajralib qolish ham mumkin emas. Xullas, ikkalasi ham davosiz dardga yo'liqtirgan.

– Ruxsat etsang, men boray. – Ravshanak uzangiga oyog'ini qo'ydi-yu, lip etib otga minib oldi. Spitamen Qorasochga qaradi, uning ko'zlari negadir yonardi. Ravshanak «chuh» degan edi, tulpor shuni kutib turgan ekanmi, yeldek uchib ketdi.

Spitamen o'zi minib kelgan otning jilovidan tutib, ming xil xayollar, tuyg'ular bilan Ravshanak aytgan so'zlarning mag'zini chaqib borardi. «Seni g'oyibdan sevardim, hozir ham sevaman». Obbo, qiz tushmagur-ey, tag'in «senga tegmayman», deb dangal aytdi-ya. Spitamenning hayajonlari cheksiz. Go'yo Ravshanak uning hayotiga kirib qolgan, yo'qotib, umr bo'yi izlab yurgan noyob narsasini topib olgandek. Haqiqatan ham o'ylab qarasa, Spitamen endi Ravshanaksiz yashay olmaydi. Xuddi shu qiz tangri tomonidan unga atalgan. O'ylagani, qidirgani, sevgani shu. Boshqa gap yo'q.

– O, Axuramazda, o'zingga ming bor shukr, uzoq yillar izlab-izlab o'z sevgimni topib oldim...

– Spitamen, Spitamen!

Kimdir chaqiryapti. Xayol surib ketayotgan Spitamenning fikri bo'lindi. Qarshisida sochlari to'zg'ib ketgan Siton turar, yuzlarida hayajon va iztirob.

– Ha, senmisan, kel, – dedi Spitamen.

– Menga shafqat qil, sen mard odamsan, hammaga mehribonsan, Ravshanaksiz yashay olmayman, – dedi Siton yolvorib.

– Meni to'g'ri tushun, bu ishda senga yordam berolmayman, – dedi ma'yuslik bilan Spitamen.

– Agar sen aytsang ko'nadi, men bilaman, – yana yolvordi.

– Bu senga bozorda tuya sotib olish emas, qalb savdosi, – dedi Spitamen.

– Senga otarimdan qancha qo'y, mol desang beraman.

Sitonning judayam past ketganligiga Spitamenning jahli chiqib ketdi, bir ko'ngli adabimi berib qo'ymoqchi ham bo'ldi-yu, ammo fikridan qaytdi.

– Yo'qol ko'zimdan, bo'lmasa, – dedi Spitamen jahl bilan. Siton qo'rqib ketdi, chekkaga chiqib Spitamenga yo'l bo'shatdi, Spitamen chaqqonlik bilan, otiga minib, qal'a tomon jo'nadi.

– Shoshmay tur, men ham anoyi emasman, Ravshanakni mendan tortib olding, senga ham boqqan balo bordir, seni Ayshmaning o'zi jazolasin, bilib qo'y, sendan qasd olmasam, Siton nomimni boshqa qo'yaman...

ISKANDARNING AYG'OQCHISI

Tun qorong'usida samodagi sayyoralar yana ham yorqin chaqnaydi. Ana, somon yo'liga qarang, go'yo bepoyon osmonga tuyadan dur-u javohirlar to'kilib qolganday. Ammo bu mayda javohirlar olam yaratilgandgi beri charaqlab turadi, jonsiz qum sahrolari bo'ylab xavf-xatardan yuragini hovuchiab ketayotgan yo'lovchilar unga qarab o'z yo'llari, boradigan manzillarini belgilab oladilar. Agar aql-idrok bilan ish tutmasang bu poyonsiz, kimsasiz cho'llarda adashib, tashnalikdan xor-zor bo'lib o'lib ketish hech gap emas.

Oysiz qora tunda cho'l ayniqsa qo'rqinchli, go'yo yutib yuboradigandek. Qurib qolgan beso'naqay saksovullar tun qorong'usida ajdahodek bahaybat ko'rinadi. Shamol hushtak chalib qum tuzonlarini olib kelib, ko'zga sanchadi. Eh-he, bu bepoyon dasht biyobonlarning so'nggi ham, boshlanishi ham yo'qdek. Ming-ming yillardan beri hayotsiz, jonsiz, o'lik tanadek cho'zilib yotibdi. Kimlarga makon-u kimlarga go'r bu sahrolar, qum barxanlari...

Cho'l bo'ylab ikki otliq qaygadir shoshilib ketmoqda. Ularning bittasi harbiychasiga kiyinib olgan. Boshidagi dubulg'asi, belidagi uzun qilichi qorong'ida ham ko'zga tashlanadi. Ikkinchi otliq bo'lsa oddiy kiyingan. Uning boshida

dubulg'asi yo'q. Lekin otda o'zini tutishi xuddi chavandozlardek. Qaddi-basti kelishgan, keng yag'rinli, savlati yonidagi hamrohidan qolishmaydi.

Cho'lning ikkinchi tomonidan yana uch otliq bularga qarama-qarshi kela boshladi. Uzoqdan kuzatib turgan odamga har ikkala tomon ham bir-birlari tomon shoshilayotgandek tuyulardi. Mana, ular yaqinlashib, to'qnashdilar. Otlar sapchib, oyoqlarini ko'tarib kishdab yubordi, Birdaniga qorong'uda qilichlarning sharaqlashi cho'l tinchligini buzib yubordi. Qilichlardan sachragan uchqunlar xuddi mayda-mayda yulduz zarrachalaridek har tomonga uchdi. Daqiqa o'tmasdanoq uch otliqdan biri fig'on chekib yerga ag'darildi. Keyin ikkinchisi otidan uchib ketdi, uchinchisi qochmoqchi bo'lgandi, raqibining epchillik bilan tashlagan sirtmog'iga bo'ynidan ilindi-yu, otidan ag'darilib tushdi.

– Bog'la! Qattiqroq bog'la, bu itvachchani!

Ikkinchi suvoriy otdan tushib ag'darilgan jangchini bog'lay boshladi.

– Bog'lamay tur, oldim otga mingashtir, keyin arqonni otning qornidan o'tqazib, oyog'iga tortib bog'la!

– Hozir, hozir bog'layman, – dedi ikkinchi yo'lovchi.

– Endi anavi yotganlarning qurollarini ol, kerak bo'ladi, otlarni bir-biriga bog'la, orqamizdan ketaveradi.

Dashti biyobonda bo'layotgan tungi jang qahramoni Spita-men, ikkinchi suvoriy bo'lsa o'sha musavvir sahroyi yigit Sher-dor edi.

Suvoriylar asirni otga mingashtirib, cho'l ichkarisiga qarab ketishdi. Qorong'iga o'rganib qolgan ko'zlar taqir biyobonda manzilni to'g'ri belgilab borardi. Vaqt yarim kedadan og'ib qolganligi uchun kuni bilan qizib yotgan cho'l endi sovigandek. G'ir-g'ir esayotgan iliq shabada kishiga orom baxsh etadi. Otlar ham kun bo'yi issiqda qiynalib, endi maza qilib yo'rg'alagancha manzilga dadil ketishardi.

– Anavi otdan tushib qolmasin tag'im, yaxshi bog'laganmi-ding, – dedi oldinda ketayotgan Spitamen Sherdorga o'girilib.

– Tushib qolsa ham bu cho'ldan omon chiqib ketolmaydi.

– Ehtiyot bo'l, u hali bizga kerak, – dedi Spitamen.

Asir bo'lsa nimadir deb so'g'dcha do'ng'illadi. Spitamen orqasiga o'girildi.

– Sug'dcha bilasanmi? – so'radi asirdan.

– Bilaman, menga bir qultum suv ber, – yolvordi asir.

– O'zimizga yo'q suvni senga qayerdan topib beramiz, – dedi Spitamen.

– Vahshiylar deganicha bor senlarmi, tuyaga o'xshab qirq kunlab suvsiz yuraverasizlar, otimning xurjunida suv bor, – dedi norozi bo'lib asir.

Sherdor tushib asir mingan otning xurjunini titkilay ketdi. Unda suvdan tashqari yemoq-ichmoq uchun ba'zi bir taomlar ham bor ekan.

– Suv bor ekan, – dedi Sherdor Spitamenga.

– Unga berma, zaharmi ichsm, vahshiyeligimizni bir ko'rsatib qo'yaylik, – dedi Spitamen.

– Mayli, xafa bo'lmayman, xafa bo'lmayman, o'zlaring ichaveringlar, – dedi asir.

– Odamgarchiliging durust-ku, – dedi Spitamen zaharxanda qilib.

Tong yorisha boshlaganda yo'lovchilar o'z asirlari bilan daryo chekkasiga yetib kelishdi. Bu yerga Spitamenning qarorgohi joylashgan. Qorovullar kelayotgan Spitamen ekanligini bilib, baralla salom berishdi. Birpasda qiy-chuv boshlandi, hamma uyg'onib, o'tovlardan birma-bir chiqib kela boshladi.

– Tamishib qo'yinglar, bu Sherdor, mening do'stim, Maroqanddan zo'r-bazo'r olib keldim, – dedi Spitamen o'z odamlariga yuzlamib.

Sherdor otdan tushib, yig'ilganlarga salom berdi.

– Bu bo'lsa, ayg'oqchi, ha, Iskandarning ayg'oqchisi, qamab qo'yinglar, tag'in qochib ketmasm. – Shirin uyqudan turib, ertalabki salqin havoda ichki ko'ylakda junjikib turganlar Iskandarning ayg'oqchisini ko'rib hang-mang bo'lib qolishdi. Hammalari uning atrofida aylanib, uzun sochiariga, ust-boshiga, ko'm-ko'k ko'zlariga hayratlanib qarashardi. Go'yo bu odam ularga osmondan tushgandek tuyulardi. Iskandar Zulqarnaynning janglari haqida hangomalar, hikoyatlar eshitishgan-

di, endi bo'lsa Iskandarning ayg'oqchisi shu yerda to'satdan paydo bo'lib qolganligi ularga juda-juda g'alati tuyulardi. Lekin bo'y-basti pastakkma, sug'dlardan farq qilmaydigan bu odamni ko'rib, Iskandar odamlari devdek bo'ladi, deb eshitgandik, ular ham o'zimizga o'xshar ekan-ku, deb taajjublanishardi. Ayg'oqchining u yoq-bu yog'idan o'tib, bunaqa odamni endi ko'ra-yotgandek qiziqsinib qarayotgan sug'dlar uni o'rab olishgan. Ayollar yosh bolalarini ko'tarishib bir chekkaga cho'kka tushib o'tirishibdi. Bolalar bo'lsa qiy-chuv bilan, ba'zilar qo'llaridagi uzun yog'och hilan u yoq-bu yog'iga tegishar, ba'zilar yerdan tuproq olib yuz-ko'zlariga sochishardi. Go'yo asir samodan begona bir sayyoraga tushib qolgandek. Ayg'oqchi bu yovvoyilar orasida o'zining tomosha bo'layotganidan o'ng'ansizlanar, taqdirga tan berib qo'llari kishanlangan holda tuproq ustida ko'zlarini yumgancha jim yotardi.

Bir ozdan so'ng Spitamenning qo'riqchilari asirni haydab olib ketishdi. Bolalar uning orqasidan qiy-chuv bilan ergashib, qo'llariga tushgan narsani asirga otishar, hir-birlariga nimalarnidir tushuntirishar edi. Spitamen ularga bir oz qarab turgach, miyig'ida kulib qo'ydi-da, Sherdor bilan birga qarorgohi tomon yo'l oldi. Qarorgohda Spitamenning xotini Odatidadan boshqa hech kim yo'q edi. Odatida eri Maroqandga ketganligi uchun uchala o'g'lini ham olib bu kecha o'z yotog'ida yotmay, Spitamenning qarorgohida tunagandi.

Odatida ularga salom berdi-yu, erining notanish mehmon bilan kelganligi uchun uxlab yotgan bolalarini tezda turg'azib, uyquli ko'zlari bilan o'z xonasiga olib borib qo'ydi va tezda qaytib chiqdi. Xizmatkor qullar hammayoqni birpasda tartibga solishdi, ko'zachada qumron, kosalarga qimiz quyib kelishdi, dasturxonga pishloq bilan yaxna go'shtdan nonushta qo'ydi.

Nonushtadan so'ng mulozimlar kirishdi, hal etilishi zarur masalalar haqida uzoq fikrlashildi. Keyin Spitamen asirni huzuriga olib kirishni buyurdi.

Asir Spitamen qarorgohiga kirib, bir chekkaga cho'kkaladi.

– Xo'sh, menga ayt-chi, isming nima, qayerdan kelding, bu yerlarda nima istab yuribsan?

Asir indamadi. Spitamenga boshdan-oyoq sinovchan ko'zlari bilan qarab chiqdi.

– Ovora bo'lma, baribir hech nima aytmayman.

– Sheriklaring kim edi?

– Bilmayman, ammo o'lib ketdi bechoralar, sirni tuproqqa olib ketdilar, – dedi yunon asiri.

– Ayg'oqchining jazosi shu, – dedi Spitamen jiddiy.

– Vatan oldidagi o'z burchlarini ado etdilar sho'rliklar, joylari jannatda bo'lsin, – dedi asir ma'yus.

– Qanday burch?

– Jahonga hokim bo'lamiz. Ulug' Aleksandrni hech kim yenga olmaydi, – dedi asir.

Spitamen sinovchan ko'zlari bilan asirga qarab turdi, Uning o'limdan ham qo'rqmasdan dadil so'zlashi sarkardaning asabiga tegdi, o'zicha-o'zi fikr yuritdi: «namuncha katta ketyapti, nimasiga ishonmoqda bu ablah?»

– Isming nima? – so'radi Spitamen yana bir bor.

– ...

– Bizda indamaslarni sug'dchasiga gapirtirish yo'llari bor. Xo'sh, ismingni aytasanmi, yo'qmi?

– Ismimni senga nima keragi bor, o'ldirsang anavi sheriklarimdek nomsiz ketay.

– Shuni bilki, seni osonlikcha o'ldirmaymiz, – dedi Spitamen.

Asir indamay boshini quyi solib o'tirar, aftidan o'limiga allaqachon rozi bo'lgandi.

– Mayli, faqat bitta savollmga javob ber, sen Sug'diyonaga nega kelding?

– Bilmayman, hech narsa aytmayman...

– Agar sen Iskandar qo'shinlari, qurollari xususida ma'lumot bersang, o'ldirmaymiz, ozod qilib yuboramiz, istagan tomoningga ketaverasan, – dedi Spitamen qat'iy.

– Men sotqin emasman, jahon podshohiga xiyonat qilmayman. Aleksandr ulug' odam, butun dunyoni zabt qilg'usi. Biz uning poyiga bosh egurmiz, siz yovvoyilardan ham shuni talab qilamiz.

– Shuni bilgilki, jahonga hech kim hokim bo'la olmas, yolg'iz Quyoshning o'zidan boshqa, – dedi Spitamen g'azablanib.

- Aleksandr Quyosh farzandi.

- Yo'q. Iskandarning qo'li qon, ming-minglab gunohsizlar qirilib ketdi. Endi yana qaysi ellar qonini so'rmoqchi! Tag'in Quyosh farzandi deysan uni!

Spitamennning jahli chiqib ketdi. Ayniqsa, ayg'oqchining «sen yovvoyilardan ham shuni talab qilamiz», degan so'zlari unga qattiq botdi.

- Sen aytib bermasang ham biz hammasidan voqifmiz, Iskandarning qancha otliq, qancha piyoda jangchisi bor, ular qanday qurollar bilan ta'minlangan. Yana shuni bilki, biz qo'rqadiganlardan emasmiz, yolg'iz ham emasmiz.

Asir birdaniga qah-qah urib kulib yubordi. O'zini to'xtatolmay goh u yoqqa, goh bu yoqqa tashlab Spitamenni masxaralagandek qiliqlar qila boshladi.

- Haddingdan oshma, itdan tarqagan! - dedi Spitamen jahl bilan. Asir birdan kulishdan to'xtab jiddiylashdi.

- Ey, biz yolg'iz emasmiz deb, kimga shama qilyapsan, anavi xoin forslarni yordam beradi, deb o'ylayapsanmi yoki qadrdoning Bessni aytyapsanmi? Boshingga tashvish tushganda hammasi har tomonga qochib ketadi, o'z jonini o'ylab qoladi. Oksdan o'taylik, qabila boshliqlaringiz bo'lsa birini-biri g'ajib tashlashga tayyor. Aleksandr seni yaxshi biladi. Agar ular hammasi senga o'xshasa edi, unda gapingga ishongan bo'lardim. Mayli, meni o'ldir, roziman, mard odamning qo'lida o'lsang bearmon ketasan. Lekin senga bir haqiqatni aytishim mumkin. Aleksandr juda ham kuchli, yengaman deb o'vora bo'lma!

Spitamennning yuragi orziqib tushdi, asirning gapida jon bor, agar birlashmasak Iskandar bizlarni bo'lib-bo'lib yeydi, «ajraganni bo'ri yer» deganlaridek. Nahotki, biznikilar meni quvvatlashmasa, hammamiz bir yoqadan bosh chiqara olmasak. Iskandarning tutgan yo'li ham shunda, xalqlar, elatlarni birlashishga qo'ymay, bosib olmoqda birma-bir. Uning kuchi ham shunda bo'lsa kerak. Ayg'oqchi ham «sirni» aytib qo'ydi, uning maqsadi ham shu, kimning nimaga qodir ekanligini bilib olib, Iskandarga yetkazadi, bo'lmasa izg'ib shu tomonlarga kelarmidi?! Mana, o'ylab qarasang, Maroqand hokimi Namich o'sha kecha mening gaplarimga yaxshi e'tibor

qilmadi, loqaydlik yo'lini tutdi. Farasmandan nimani kutish mumkin. Oksiart, Xorien, Xamuk, Katan, boshqalar-chi? Biz hammamiz birlashsak hech kim yenga olmaydi.

Spitamen hamma sirni bilib olgandek yalt etib asirga qaradi.

- Sug'diyona pahlavonlarini hilmas ekansan. Kerak bo'lsa el-yurt uchun hammamiz hir tan bo'lib jonimizni beramiz, ammo bo'ysunmaymiz!

- Vatan uchun jonini berish yaxshi, gapingga ishonaman, ammo aytdim-ku senga, Aleksandrning kuchi ko'p, uni yengib bo'lmaydi deb. Sendoviyurak, jasur pahlavonsan, Sug'diyonadagi aqli raso zodagonlardansan. O'zinga berilgan vakolatdan foydalanib, senga maslahatim bor. Iskandarga xizmat qil, seni Sug'diyonaga podshoh qilib qoldiradi. Iskandar siz vahshiylar o'ylagancha zolim emas, u ham mard odamlarni yaxshi ko'radi.

Spitamen o'rnidan turib ketdi. Kumush kamariga osilgan xanjarining bandini ushiadi, qarshisdagi o'zini surbetlarcha tutayotgan asirni bo'g'ib tashlagisi keldi, lekin bosiqlik bilan dedi:

- Sen o'zingni aqli deb, hadeb bizga Iskandaringni maqtay berma, hech qachon unga bosh egib bormayman, sotqinlarni bo'lak joydan qidir. Bizning elimiz mardlar makom, hech narsaga muhtoj emas. Ko'rib turibsan, sero't yaylovlarimiz keng. Axuramazdaning inoyati bilan chorvamiz ham ko'p, mevalarimiz undan ham serob. Biz tinchlikni, osoyishta hayotni yaxshi ko'ramiz. Ammo o'z haqqimizni birovga ham bermaymiz.

- Bu gaplaringga ishonaman ham, ishonmayman ham, lekin mening taklifimni qabul etaver, elga ham, senga ham tinch bo'ladi, Aleksandrning adolatli podshoh ekanligiga keyin o'zing ham tan berasan.

- Sen ayt-chi, menga, ming-minglab begunoh odamlarni qirishni, dorga osishni, qariyalar, ayollar, go'daklarni ayovsiz o'ldirishni, butun-butun qishloqlar vayron bo'lishini, o'tda yonishini nima deb bilursan? Yirtqich hayvonni, ya'ni boshqalar hayotiga chang solganni yovvoyi deymiz. Kim yirtqichlik qilmoqda, senlarmi, yo biz. Hammasini eshitib, bilib turibmiz. Iskandar oyog'i yetgan ellarga qirg'in, vayronagarchilik keltirmoqda, buni butun olam biladi. Hamma

senlarni la'natlamoqda. Sug'diyonaga ham shu ofatlarni keltirmoqchimisanlar! Tag'in meni sotib olmoqchisan, Iskandarning oyog'ini yalashim kerakmi! Men sotqin emasman!

Spitamening jahli miyasiga urib ketgandek bo'ldi. O'zini tutdi, juda jahli chiqib ketganda ham, og'ir sharoitlarda ham aql-idrok kuchi bilan ish tutish Spitamening olijanob fazilati edi. Sug'diyonadagi barcha sarkardalardan u ana shu xususiyati bilan alohida ajralib turardi.

– Mayli, hozircha seni o'ldirmayman, qaysarliging boshingga yetadi. Lekin Iskandarning qanday qilib adabini berganimizni sen o'z ko'zlaring bilan ko'rishing lozim. Shuni bilki, Iskandarning mening go'zal Sug'diyonamda bir kecha ham tinch uxlay olmaydi. Mayli, sen o'ylagandek kuch-qudrati ko'p bo'lsin, ammo bu yerlarda hamisha qo'rquvda, hamisha xavotirda yashaydi. Buni har ikkala qulog'ing bilan eshitib ol. Ulug' Axuramazdaga qarab qasam ichaman, ha, shunday bo'ladi.

Spitamen mulozimlarini chaqirdi.

– Aqli kirmaguncha it azobini beringlar, ammo ehtiyot bo'linglar, tag'in o'lib qolmasin, hali bu ko'p narsalarni o'z ko'zi bilan ko'rishi kerak. Keyin vaqt-soati bilan o'zim so'zlashaman.

«OSIYO SHOHI»

Baqtriya urush tashvishi bilan erta uyg'ondi, hamma yoq betinch. Tong sahardan boshlab, sovut taqqan, qalqon tutgan piyoda, otliq lashkarlar shahar bo'ylab chopishadi, oyoq ostida o'ralashib ularning harakatiga xalal berayotgan aholiga do'q-po'pisa qilib o'tib ketishadi. Ko'ch-ko'ronlarini ot, eshak, tuyaga ortib sahardan boshi oqqan tomonlarga ko'chib ketayotganlar undan ham ko'p. Shahardagi, aholi yashaydigan bovlilar bo'shab qolgan. Turmush-turishidan boshqa hech narsasi yo'q och-yalang'ochlar e'tiborli kishilar, zodagonlar bo'shatib ketgan xonadonlarga kirib, qolgan-qutgan narsalar bilan tamaddi qilib yurardilar. Rastalardagi boqqolchilik do'konlari ham bo'm-bo'sh, savdo-sotiq to'xtagan. Faqat bu yerlardan bosh olib uzoqlarga ko'chib ketayotgan ba'zi odamlar og'irlik qilgan narsalarini arzon-garovga puilashmoqda.

– Juda bo'lmasa xizmatim evaziga mana shu otingni berib ket!
– Qora chaqa ham bermayman, men bilan birga ketsang, mayli bitta emas, ikkita ot olasan, – dedi zodagon xizmatkoriga.

– Haqqimni bermasang, zo'rlab olaman, – bo'sh kelmadi xizmatkor.

– Sen bilan janjallashishga vaqtim yo'q, yo'qol, itdan tarqagan, – xizmatkorini itarib, yubordi haligi zodagon.

Ammo xizmatkor unaqangi bo'sh keladiganlardan emasdi, xo'jayinming chakmoni yoqasidan ushlab bir siltagan edi, yirtilib ketdi. To'polon boshlandi, odamlar yig'ilishib, ikkovlarini kelishtirmoqchi bo'lishgandi, ko'nishmadi. Xo'jayin ham o'lgudek xasis, qaysar odam ekan, hech kimning so'ziga quloq bermadi. Bo'lmagach, xizmatkor xo'jayinini do'pposlashga tushdi. Bu mojaro ustiga tumonat yig'ildi.

– Bitta ot ekan, bera qolmaysanmi, hali o'zingga buyuradimi, yo'qmi, – dedi kimdir olomon ichidan.

– Bermayman dedim, bermayman, – dedi qat'iylik bilan zodagon.

– Pastkash!

– Nokas!

– O'ligingga yarasin topganlaring.

To'planganlarning g'azab-nafrati cheksiz edi.

Shu to'polon ustiga o'z suvoriylari bilan Spitamen kelib qoldi. To'planganlarni yorib o'tib, bir-birlarini bo'g'ishayotgan zodagon bilan xizmatkor tepasiga borib turdi. Datafarn Spitamenning qulog'iga bir narsa deb kuldi.

– Hoy, Zo'rtosh, qayerdasan, qadrdoning shu yerda ekan-ku, – dedi Spitamen hazillashib.

Orqada turgan Zo'rtosh Spitamen yomiga o'tib xo'jayini bilan yoqalashib kiyimlari yirtilib ketgan xizmatkorni tanib:

– Iya, bu Tariq-ku! – deb yubordi.

– O'sha, ha, o'sha – dedi Datafarn.

– Ha, polvon bo'yning tuzaldimi? – so'radi Spitamen.

Tariq suvoriylarni tanidi, uyalgancha hech narsa demay boshini egib turaverdi.

– Qani, xo'jayinimgning otini min, biz bilan ketasan, – dedi Spitamen qat'iy.

Tariq ham shuni kutib turgandek chaqqonlik bilan otga mindi-yu, suvoriylarga ergashdi.

Ular Bess saroyiga yetib borganlarida hamma kazo-kazolar yigilishgandi. Yovuzlarcha shakkoklik bilan o'z qarindoshi Doriyovushni o'ldirgan Bess o'zini «Osiyo shohi»²⁷ deb e'lon qilgan, shu munosabat bilan ota-bobolar udumiga ko'ra katta qurbonlik qilayotgandi. Bess obro'-e'tibor qozonish maqsadida o'ta saxiylik ko'rsatib, katta dasturxon yozdi. Axir ertagayoq Baqtriya tashlab ketadi, bugun ko'ngliga kelgan hamma ishni qila oladi.

Serhasham saroy mehmonlarga liq to'la. Bessning yaqinlari, Doriyovushni o'ldirishdan manfaatdor bo'lgan fitnachi sarkardalar, hammasi shu yerda «Osiyo shohi»ning panohiga kirib olishgan. Go'yo Bess Baqtriya, Sug'diyonadagi barcha kuchlarni birlashtirib, Iskandarga qarshi qat'iy kurashga o'tlanmoqchi.

– O, ulug' shoh, Iskandar ustidan, albatta, g'alaba qilasan, ziyofating sharobga serob bo'lsin, – kimdir mast bo'lib baqirdi.

Ziyofatda sharob shunchalik ko'p qo'yilgan ediki, mast odamlarning qahqahasi, o'zaro munozarasi, qiyqiriqlaridan na mashshoq chalayotgan kuy, na hofizning qo'shig'i eshitilardi. Kayfda uchib qolgan mast-alastlar esa anchagina bor edi.

– Ulug' shohim, siz ko'p ichmang, axir obro' saqlash kerak, – dedi midiyalik Kobar.

– Kayfiyatimni buzma, sen! – Bess ichida so'kinib qo'ydi.

– Bir narsa desang boshingdan ajralib qolasan, yaxshisi sen ham ichaver, – dedi Spitamen Kobarning qulog'iga.

– Spitamen, kel bu yoqqa, sen bilan hir ichishaylik, – Bessning ko'zi Spitamenga tushib qoldi. Bessning atrofidagi fors lashkarboshilari shohning Spitamenga alohida munosabatidan g'ashlari keldi. «Bu osiyolikka namuncha mulozimati ko'rsatmasa, tog'mi olib beribdimi». Kayf qilib olgan Baqtriya zodagonlari o'rtasida fisqu fasod boshlandi. «Chaqir, yoningga chaqir, ertaga joningga oro kiradi», dedi kimdir. Ammo g'ovur-g'uvur ichida uning gapiga hech kim e'tibor bermadi.

²⁷ Yunonchasiga Artakserks deyiladi.

Bess yana sharob buyurdi. Mulozimlar oltin ko'zachalarda birin-ketin sharob keltirishardi.

– Qami, Spitamen, ertagi katta safar uchun, g'alaba uchun ichamiz.

Bess kosani qo'lga olib o'rnidan turdi-da, Spitamenning yelkasiga qo'l tashlab gapira ketdi:

– Men sizlarga, ha, endi butun Osiyoga shohman... Iskandar buni... bilib qo'ysin. Ahmoniylar sulolasi hali o'lmaydi... yetti minglik lashkarlarim, pahiavonlarim shay turishibdi. Doriyovush kalabinlik qildi, lashkarlarimizni boshqarolmadi, Iskandar muzaffar bo'lib chiqdi... Essiz-essiz Ahmoniylar, o Ulug' Zevs, o'zing madadkor bo'l, men...

– Ulug' shoh, kishiga maslahat bergandan ko'ra, unga bo'yin egish afzalroq, chunki bo'yin eggan kishi ko'pchilik nima bo'lsa shu bo'ladi, – dedi midiyalik Kobar bosiqlik bilan.

Bess uning so'zlaridan xursand bo'lib qo'lidagi qadahni tutqazdi.

– Gapir dilingdagini so'zla, Kobar, – o'zi charchab taxtga o'tirdi.

Kobar qo'lga qadahni olib davom etdi:

– Inson tabiatan o'ziga o'zi bevafo, har kim nima topsa, o'zgadan emas, faqat o'zidan topadi. Dahshatga tushgan kishilarning qarori hatto o'ziga ham shubhali tuyuladi. Uchinchi bir kishiga esa tabiatan o'z g'oyalariga sodiqligi... Lekin, hech kim o'zidan jirkanmaydi. Buni sen o'zing ham sinab ko'rding, axir ming afsuski, har kim o'zi o'ylagan yo'lini yagona yo'l deb biladi... Sening boshingda hozir g'oyat og'ir yuk – shohlik toji turibdi. Uni faqat aql-idrok bilan kiyib yurmoq kerak, yo'qsa seni yanchib tashlaydilar. Hayotda faqat intilib yashashning o'zi yetmaydi, aql-idrok, fikr-mulohaza bilan ish tutmoq kerak. Balxda bir maqol bor: «Qo'rqoq it qopog'on itdan ko'ra ko'proq huradi» yoki «daryo qanchalik chuqur bo'lsa, shuncha sokin oqadi». Bu so'zlarning hamniasini senga dushman ham g'oyat kuchli va aqlli ekanligini eslatib qo'yish uchun aytyapman.

Kobar o'z so'zlari bilan tantana ahlining e'tiborini jalb etdi. Mast-alastlarning ham es-hushi joyiga kelib, Kobarga nima deyapti deb tikllib qolishdi. Bess avvaliga yaxshi gap aytsa

kerak, deb qo'lidagi qadahini unga tutqazgandi, endi qilgan ishiga pushaymon bo'ldi. Chunki Bess ilgaridan Kobarning aql-idrokliligiga tan berib yurar, shunday tantanali kechada shohlik lavozimi bilan tabriklab, o'zini ko'klarga ko'tarib maqtar, deb o'ylagandi.

– Sening saroying ostonasida o'zming kuch-qudrati, qat'iyati bilan dovrug' chiqargan jahongashga podshoh turibdi. Sen bo'lsang ziyofatda maqtanib o'tiribsan-u Iskandar lashkarlarini oyoqqa turg'izib bo'ldi. Senga maslahatim, ortiqcha harakat qilma. «Yaxshi ot uchun qamchining soyasi ham yetadi, yalqov otga temir uzangi muqov ham oz».

Bessning g'azabi qo'zg'ab o'rnidan turib ketdi, qilichini sug'urib, Kobarga tashiandi, unga yaqin turgan Spitamen Bessning qo'lini ushlab, to'xtatdi.

– Ablah, itdan tarqagan, yo'qol ko'zimdan!

Kobar bir zumdayoq chiqib ketdi, kayfdan o'zini boshqarolmay qolgan «Osiyo shohi» bo'lsa gandiraklagancha mulozimlar qurshovida saroyini tark etdi.

Bess erta bilanoq poytaxtni tashiab, o'zining sadoqatli lashkarboshilarini olib, Sug'diyonaga yo'l oldi. Ketish oididan saroyda biror narsa qoldirmadi, o't qo'yib saroyini yoqib yubordi, shaharni esa vayron qildi. Endi o'zining qolgan-qutgan qo'shinlari bilan tezroq daryodan eson-omon o'tib olsa bo'lgani. Ular horib-charchab qirg'oqqa yetib borganlarida u yerda odam juda ko'p edi. Daryoning kechib o'tadigan sayoz joyida asosan piyoda jangchilar, shahar vayron etilgach, uni tashiab ketayotgan baqtriyalik zodagonlar, savdogarlar, hunarmandlar, xullas, turli kasb egalari bor edi. Ular ot-aravalarga, tualarga yuklari, oila, bola-chaqalarini o'tqazib olishgan. Sollar, qayiqalar band bo'lganlari uchun daryo chekkasida gulxan yoqib, atrofida o'z bola-chaqalari bilan navbat kutib o'tirganlar ham oz emas. Hammasining yuzida horg'inlik, tashvish, «Iskandar Bessni quvib kelayotgan emish». «Hech kimga rahm-shafqat qilmas ekan, askarlarni daraxtlarga osib qo'yibdi, qishioqlarni yondirib yuboribdi» degan mish-mish gaplar, shum xabarlar odamlarning og'zidan tushmaydi.

– Yo'l bo'shatinglar, ulug' shoh kelyaptilar, – harbiycha kiyingan bir fors **to'riq** ot ustida turib daryo yoqasida narigi qirg'oqqa o'tmoqchi bo'lib turganlar orasidan yo'l ochdi.

Sohilda odam bilan liq to'la katta sol suzishga tayyor turardi, unda birorta ham ortiqcha joy qolmagandi.

– To'xtanglar, sol dardol bo'shatilsm, – qat'iy buyruq berdi ot mingan fors.

– Nega sen xo'jayinlik qilasan, – dedi suvoriylardan biri.

– Ko'rmaysanmi, axir Osiyoming ulug' shohi kelmoqda.

– Nima bo'пти, u ham biz qatori qochoq-da, – dedi baland bo'yli ustiga qizil chakmon kiygan bir zodagon.

Shu vaqt o'z odamlari hilan Spitamen yetib keldi.

– Qani, solni bo'shatinglar deyapman, – dedi haligi odam Spitamenni ko'rgach yana dadilroq bo'lib, keym suvning chetiga turib olib, solning arqoniga qo'l uzatmoqchi bo'lgandi, boshiga tushgan qamchi zarbidan otdan qulab tushdi. Arqon bo'shab, sol yurib ketdi. Keyin haligi odam shapir-shupur o'rmidan turib «kim urdi» degandek atrofiga qaradi. Qamchi urgan solni egallagan zodagon ekan. Shu mojaro ustiga o'z mulozimlari bilan Bess ham yetib keldi.

Kun isib ketganligi uchun shoh yupqa oq yaktak kiyib olgan, boshiga qimmatbaho toshiar qadalgan zarrin kuloh qo'ndirgandi. Gavdali, go'shtdor odam bo'lganligi uchun chetdan qaraganda otining qorni pastga tushib ketgandek tuyilardi. «Osiyo shohi» bezovta, uning ko'zi, daryoning narigi tomonida edi.

– To'xtatilsin, – dedi Bess qo'li bilan qirg'oqdan ancha nari ketgan solga ishora **qilib**.

Mulozimlar otdan tusha solib, solga tomon yugurishdi, ammo daryo bo'yida turgan bir to'da zodagon suvoriylar shohning gapiga e'tibor ham qilmasdan otlariga qamchi bosib, oilalarini himoya qilish maqsadida daryoga tushib ketishdi.

– Ablahlar, o'z shohlarini ham tanishmaydi, – g'azab bilan qilichimi sug'urdi Bess.

Bu yerda katta mojaro chiqib, o'zaro qon to'kilishi mumkinligi ayon bo'lib qolgandi. Bu manzarani kuzatib daryo yoqasida turgan qochoqlar, sug'diyonalik lashkarlar, shahardan qochgan oqsuyak zodagonlarning ham g'azabi to'lib-toshayotganini sez-

gan Spitamen ahvolni sezdi-yu, chaqqonlik bilan otini burib g'azabga to'lib turgan Bessning yoniga borib:

– Balo ursin, mayli Ayshmaning g'azabiga uchrasin ular, – dedi.

– Mayli o'tib olishsin, narigi tomonda gaplashaman ular bilan, – dedi Bess mushtini ko'rsatib.

Shoh va uning mulozimlari uchun keltirilgan qayiqlar suvga tushirildi. Bessning tuyalarga ortib kelingan asbob-anjomlari, qimmatbaho narsalar solingan qo'sha-qo'sha sandiqlar va anjomlar ikkinchi navbatda o'tadi, deb soqchilar bilan qirg'oqda qoldirildi.

Xuillas, ular daryodan o'tib olganlaridan so'ng, qolganlar qolib sol egasining yolvorishlariga qaramay daryoga oqizib, qayiqlar, yog'ochlar va boshqa keraksiz narsalarning hammasini o'rtaga qalab, yoqib yuborishdi.

Bess otiga mindi-da, o'sha yerda yig'ilganlarga murojaat qildi.

– Hamma amaldorlar, sarkardalar, boshliqlar, lashkarlar ham o'zlarining yuk anjomlarimi mening ko'z oldimda gulxanga olib kelib tashlasin! – Bess shunday dedi-yu, mulozimlariga o'zining hamma qimmatbaho narsalarini yonayotgan olovga tashlab kuydirib yuborishni aytdi. Boshqalar ham Chor-nochor undan o'rnak olishga majbur bo'ldilar.

Hamma gulxan atrofiga tiz cho'kdi, keksa mo'ysafid chol titroq ovoz bilan duo o'qiy boshladi. Kimdir yig'lar, kimdir samoga qo'l ochib, o'zicha tangriga sig'inardi. Bu alanga molidunylari yonayotganlar uchun yana ham muqaddaslashib ketgandi. Marosim hir necha daqiqa davom etdi. Gulxan shu qadar katta bo'ldiki, uning shu'lasini bir necha farsax yerdan ko'rinib turardi.

– Ulug' shoh hamma narsadan voz kechdi-yu, – dedi Katan kulimsirab.

– Tojdan hammi? – so'radi Oksiart.

– Toj qolibdimi, undan allaqachon ajralgan, – dedi Spitamen va o'z mulozimlari qurshovida oldinda ketayotgan Bessga ishora qilib qo'ydi.

Bess ot ustida ko'zini yumgancha uxlab borardi. Baqtriya qo'ldan ketib, toj-taxti vayron bo'lgan bir vaziyatda yovvoyilar-

ga tayansa bo'ladimi, ular meni o'zlariga rahnamo deb qabul etadilarmi? Qarindoshi Doriyovush hayot vaqtida hech narsani o'ylamay, Baqtriya, Sug'diyonaga o'z hukmini o'tkazib, niyaza qilib aysh-ishratda yurgandi. Endi odamlar uning gunohlarini kechirarmikin?

Doriyovushning qomi uni biror-bir baloyi nogahonga yo'liqtirmasmikin? Endi boshiga og'ir kulfatlar tushib mana bu yovvoyilar o'rtasida o'zmi yakka-yu yagona his etgan, suyanadigan kishisi qolmagan bir sharoitda, boshi endi borib toshga tekkan-da qilgan gunohiarini eslab, tangri taolo deb qoldi. Essiz-essiz, o'zi suyamib turgan chinorni kesib tashlabdi-ya! Buning uchun uni hech kim kechirmaydi!

Kechagi ziyofatni esladi. Kobar ahmoq odam emasdi, ko'p o'qigan, Avestoning qonun-qoidalarini suv qilib ichib yuborgan, ko'p bilimdon odam edi. Shuncha mulozimlar o'rtasida uning obro'sini to'kdi. So'zga ham usta, zaboni o'tkir: «Sen Tanais sohildaridan qo'shin chaqirib dunyoni qurol bilan ushlab turmoqchisan. Go'yo o'zingcha dushman sening qayoqqa ketayotganingdan bexabar deb o'ylaysan. Lekin shuni bilginki, har ikkovingga ham umumiy bitta yo'l bor: bu – kim g'olib kelsa shunga nasib qiladi...

Dushman zo'r kelgach, undan marhamat so'rab, nechun chopib bormas ekansan? Nechun uning hokimligiga itoat qilmas ekansan? Dushmandan oldin o'zingga-o'zing munosib taqdir tanlamagin, deb qo'rqaman.

Sen osonlik bilan podshohlikni qo'lga olding, endi undan osongina voz kechishing ham mumkin. Agar podshohlikni berishga va olishga qudrati yetgan odam senga shafqat qilsa, balki qonuniy shoh bo'lib qolishing mumkin.

Kobarning bosiqlik bilan aytgan nasihatimiz so'zlari hamon qulog'i tagidan ketmasdi. Uning so'zlarida jon bor, agar Iskandarga bosh egib borsam balki, bu darbadarlikdan qutularman, shohlikni o'zinga qoldirar. Balki anavi sug'diyonaliklarning qosh-qovog'iga qarab yurmas edim. Yo'q, bunday qilsam o'z do'stlarim ham, dushmanlarim ham meni kechirmaydi. Doriyovushni o'ldirmaganimda boshqa gap bo'lardi, bu ishim

uchun hech kiin meni oqlamaydi. Endi Iskandarga qarshi kurashishdan boshqa yo'l yo'q. Kobar sotqin, olchoq, hammasiga aqlim yetadi. Meni tiriklayin Iskandar qo'lga topshirmoqchi. O'zi qayerga g'oyib bo'ldi.

- Hoy, Spitamen. Kobar qani, topdilaringmi uni?
- Kechasi g'oyib bo'lgancha badar ketdi, - dedi Spitamen.
- Uni bekor qo'ldan chiqaribsizlar, sotqin edi.
- Qidirdik, dom-daraksiz yo'qoldi, - dedi Spitamen beparvolik bilan.

Bess Spitamenga bir qarab qo'ydi, negadir uning loqayd javobi shohga yoqmadi, g'ashi keldi.

«Spitamen juda usta odam», - o'yladi Bess o'zicha. - Qarang, ot ustida mag'rur va dadil o'tiribdi. Osiyoning shohi go'yo o'zidek. Ketayotgan odamlarning hammasi Bessga emas, uning og'ziga qarab turishibdi, o'sha nima desa shu bo'ladi». Bess o'zicha, daryodan o'tgach, go'yo Spitamenga mute odamga o'xshab qoladigandek tuyuldi. Yuragi orqasiga tortib ketdi, nahotki shunday bo'lsa, yo'q, bunga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi, axir Ahmoniylar sulolasi qancha yillar davomida Osiyoga hukmronlik qilib keldi. Agar bu yovvoyilarga qo'yib bersang, ertaga boshingga chiqib olishadi. Marhum qarindoshi Doriyovush qattiqqo'l shoh edi, o'ziga bo'ysunmaganlarga hukmini o'tkazib qo'yardi. Shuni o'yladi-yu, Bessning yuragi yana orqaga tortib ketdi, go'yo uning ruhi Bessning orqasidan soyadek quvib yurgandek. Ortiga yalt etib qaradi, yana o'sha sahroyi zodagon Spitamenning keng yelkalarida shafaqrang bo'lib botayotgan quyosh yurib ketayotgandek ko'rindi. «Tavba, - dedi o'ziga-o'zi, - mening orqamdan kuzatib yurgan shoh Spitamen emasmikan?» Yana orqasiga o'girildi.

«Osiyo shohi» bezovta bo'lyaptimi, - so'radi Datafarn Spitamenga murojaat qilib.

- Doriyovushning toji unga og'irlik qilyapti, shekilli, - hazil qildi Spitamen.

Osiyo g'alva ichida turgan, Ahmoniylar taxti zil ketgan sharoitda Spitamen va uying do'stlariga ko'p narsa haqida o'ylab ko'rishga to'g'ri keldi.

- Mana Bess, «Osiyo shohi» men deb, baland dorga osilib qo'ydi. Uning bezovtaligi sababi ma'lum. Mana, bir necha kun Spitamen Bess bilan Doriyovush qo'l ostida Iskandarga qarshi jang qildi. Ha, urushganda ham mardlarcha, halol, sadoqat bilan kurashdi. Sug'diyonaliklar ham Datafarn, Oksiart, Xorien, Katan, skif jangchilari bilan Iskandar qo'shimalariga qiron keltirdilar. Makedoniyaliklar Osiyoda birinchi bor ana shunday qattiq qarshilikka duch kelishi edi. Ammo ular Doriyovush boshchiligidagi asosiy kuchlar saflarini yorib kirganlaridan so'ng forsalar qochib berdi. Buni dastlab Doriyovush bilan Bessning o'zi boshlab berdilar. Shundan keyin ahvol o'zgardi, shoh maydondan chiqib ketgach, bu yoqdagilarning ruhi tushib ketdi. Shundan keyin ular o'zlari uchun, jonlarini saqlab qolish uchun jang qilishdi. Yorib chiqqanlar qutulib qoldi, boshqalar esa jang maydonida mardonavor halok bo'ldi.

Qizigi shundaki, shunday qiron bo'lib turgan, birlashish, hamkorlikda jang qilish zarur vaqtda Doriyovushning o'ldirilishi juda ham sharmandali ish bo'ldi. Buning uchun Spitamen, uning do'stlari ham pushaymon. Avvaliga bu shunchaki bir tadbir deb o'ylashgan edi, Doriyovush o'lgach, uning yo'qligi sezilib qoldi.

Tag'in Bessning odamlarga qilayotgan dag'dag'asini ko'rsang, Baqtriyada o'zini «Osiyo shohi» deb tantanavor e'lon qilganida uni hech kim taniyolmay qoldi, ilgorigi kibrililigi ustiga maqtanchoqlik qo'shilib. «Donolar donosi, tadbirkor shoh, Doriyovush qilolmagan ishini Bess oxiriga yetkazadi» degan gaplar ham paydo bo'lib qoldi. Sug'diyonaliklarni, ba'zi qabila boshliqlarini bo'lsa oyoq uchida ko'rsatishgacha borib yetdi. Hozir daryoning bu tomoniga o'tgach «yuvosh» tortib qolgan bo'lsa ham, ammo «ulug' shoh» deb maqtaydigan laganbardorlar ko'payib qolsa bormi, ertasigayoq o'zgarib, to'nini teskari kiyib oladi, hatto o'zining tuqqan enasini ham tanimay qoladi.

Spitamen Bessning kimligini, nimalarga qodirligini bilganligi sababli o'y o'ylab oxiriga yeta olmasdi, nega endi shu olchoq odam bilan birga jang qildi, axir u bilan birga ovga ham borib bo'lmaydi-ku! Agar Bess bilan yaqinlik qilsa, sug'diyonaliklar Spitamenni ham yomon ko'rib qolishadi,

qabila boshliqlari, sarkardalar undan yuz o'girib ketishadi. Hech kimning Bess bilan birga jang qilgisi yo'q, Spitamen bir ot bo'lib ketayotgan Bessning qo'pol gavdasiga qarab turdi-da. shu «bir arava go'sht»ni narigi qirg'oqda qoldirib kelmaganiga pushaymon qildi. Lekin buning imkoniyati yo'q edi, albatta.

Ular Novtakaga ertasi kuni g'ira-shira tongda yetib kelishdi.

– Xush kelibsiz, ulug' shoh, qadamlaringizga hasanot...

Hokim shoh yonida shaharga kirib, Bessni to'ppa-to'g'ri saroyga boshladi. O'sha kuni o'nlab qo'y, echki, mol so'yib, qon chiqarishdi. Ziyofat-bazm ikki-uch kun davom etdi. Bess bunday izzat-ikrom oldida qiyinchiliklarni unutib, endi o'zini haqiqiy «Osiyo shohi»dek his qila boshlagandi.

Hokimning shohga ko'rsatgan navozishlari Bessga juda yoqib tushdi. «Sug'diyonadagi oliy tabaqa zodagonlar ichida bunaqa yaxshi odamlar ham bor ekan», deb unga bo'lajak Osiyo davlatidan hurmat-izzat topajagini bildirdi. Bunday va'dadan boshi ko'kka yetgan hokim hadeb Bessni ulug'lay berdi. Bess ham unga ko'p e'tibor, navozishlar ko'rsatar, benuqson, tadbirkor hokim deb, maqtayverdi. Bess ham jonlanib kayf ustida yana o'zining xizmatlari, qarindoshi Doriyovushning kamchiliklari haqida vaysaydigan bo'lib qoldi.

– Hadeb o'zingizni maqtayverish sizga yarashmas. Qarindoshingiz Doriyovushning odati yaxshi edi. U hech maqtanmasdi, boshqalar u bilan maqtanardi, – dedi Spitamen nihoyat chlday olmay.

– Hoy Spitamen, tilingga ehtiyot bo'l, – dedi Bess qizishib.

– Kechirasiz, noto'g'ri so'zlagan bo'lsam, – dedi kesatibroq Spitamen.

Spitamen birinchi bor Bessga ochiq va qattiq gapirdi Bess ulug' «Osiyo shohi»ga tik qarab so'zlayotgan «yovvoyilar sarkardasi»ning xulq-atvoriga tushunolmadi. Afsuski, hozir taxti tebranib turibdi, agar Spitamenga qattiqroq muomala qilgudek bo'lsa, «bor-ey», deb tashlab ketib qolishi, hatto Iskandar Zulqarnayn bilan ahd-paymonga borishi ham mumkin, deb o'zicha xavotirlanardi. Shu boisdan unga qattiq gapirmadi, Pastroq tushib:

– Endi do'stlarim, sizlar menga «Osiyo shohi» degan oliy unvon berdinglar, endi men ham yaxshiligimni sizlardan ayamayman, – dedi Bess.

Bessning bunday past tushib, ularni birinchi marta «do'stlarim» deb murojaat etganligi Spitamenga erish tuyuldi. «Ha, hammasi yolg'on, ayyor tulki bizni aldamoqchi, shu yo'l bilan qalbimizga yo'l topmoqchi, yo'q, unga ishonib bo'lmaydi», deb xayolidan o'tkazdi.

SOG'INISH

Odatida chodirdan chiqib hammayoqni shafaq rangga bo'yab cho'lning hov anavi chekkasiga barkashdek qizarib botayotgan Quyoshga tomon yurdi. Uning tundek qop-qora yoyilib ketgan sochlari, alifdek qaddi-qomati quyosh yog'dusida ajib bir tasvir kashf etardi. Go'yo Quyosh og'ushida turgandek egnidagi samo anvari hadya etgan harir ko'ylakda qizg'ish nur qo'ynida cho'milayotgandek. Odatida quyoshga boqqancha qo'llarini baland ko'tarib yuragidagi dard-alamlarini, iztiroblarini tangrisiga izhor etib, undan madad so'ramoqda. Qam endi, shu bevafo, qo'rqinchii, vahimalarga to'la dunyoni yaratgan tangri taolo unga yordam bera qolsa! Ammo tangrining qulog'i kar, ko'zi ko'r. U hech narsani ko'rmaydi, arz-dodini eshitmaydi.

Odatida uch bolaning onasi. Ko'rgan odam uni bolali ayol demaydi, o'n gulidan bir guli ham ochilmagandek. Xayolparast, uning so'zlarini tinglagan odam yo ovsar, yo bo'lmasa o'ta aqlli deb qo'yadi. Qiziq, atrof-muhit, barcha narsalarni o'z fikr doirasi qolipiga solib o'ylaydi... Odatida Quyoshga qarab, o'ziga-o'zi: «Qiziq, quyosh juda yaqin joyga botar ekan-a? Botgach, qayerga ketarkan? Nega Quyosh botgandan keyin darhol qoyung'ulik tushadi? Oy qanday yaratilgan yulduzlar-chi? Ko'k yuzini marjondek qoplab olgan bu yulduzlar namuncha ko'p, son-sanog'i yo'q... Quyosh bilan oy nega uchrashmaydi? Ba'zan nega Quyosh chiqqanda oy ham osmonda botmay qolib ketadi?

– Ey sen ulug' tabiat, menga haq gapni ayta qolsang-chi, o Axuramazda, uyqu va uyg'omish qaydan o'zi?

Odatida ana shu savollarni o'zicha-o'zi hal etgandek bo'ladi, lekin bu jumboqlarga to'g'ri javob topa olmaganidan xayolga cho'mib ketadi. Keyin dunyo o'zi shunday yaratilgan, deb qo'ya qoladi.

Mana u Spitamenni ko'rmaganiga bir oydan ham oshib ketdi. U el-yurt tashvishi bilan qayerlarda yuribdi ekan. Nega meni shuncha zor qilmasa, nahotki ko'rgisi kelmasa! Bolalarim sho'rlikning sog'inganini aytmay sizmi, O, bu cho'l hayoti, darbadarliklar Odatidaning joniga tegib ketdi. Nega bu foniylar dunyoda hamma vaqt xavf-xatarda, tashvishda yashash kerak. Bu urushlar, qirg'inlar, janjallar kimga kerak! Bu sho'rliklarda nima ayb, tinchligimiz yo'q. Nega hayotning qahri bunchalik qattiq. O, Axura, rahming kelsa-chi, nega menga shuncha azob berasan? Dard-u hasratimni kimga aytay, senga aytmasam.

Nega Spanta kelmayapti, dunyoda mening undan boshqa kimim bor o'zi? Men uni jonimdan ham ortiq ko'raman. Usiz hayot yo'q menga, hozir qayerda ekan u yigitlar sultoni. Yuragim kuyib, ezilib, jonim halqumimga kelyapti. U yo'q bo'lsa qo'llarim bo'sh, yo'q, qo'llarim emas, yuragim bo'm-bo'sh... Ey, Axura, nega sen uni menga ravo ko'rmaysan, uch o'g'lim hurmati, Spantani menga yetkaz, iltijoyim shu, faqat undan meni judo qilma, men uming quliman, o'la-o'lguncha o'shani deynman. Faqat undan ayrilib qolishdan qo'rqaman. O'zing asra uni, ey Axura, o'z panohingga ol!

Yoshlikning ilk bahori – Spitamenga turmushga chiqqan kezlari ko'z o'ngida namoyon bo'ldi. O'shanda Odatida o'n olti yoshga qadam qo'ygandi. Bahor kezlari bo'lganligi uchun ular har kuni saharlab ot minib, Quyoshni qarshilash uchun «Sug'd qoyalari» tomon ketishardi. Qoyaning baland joyiga chiqib, Quyoshning olam-jahonni yoritib tantanavor ko'tarilishini tomosha qilishardi. Keyin bahor chechaklar ochib yotgan vodiylarda muhabbatning ilk lazzatlaridan bahramand bo'lishardi.

Menga qara, Spanta, esingda bormi, to'ydan oldin bir-birimiz bilan ko'rishganimizda senga birpasda yiqilib berganman-a?

Shunday degin, men bo'lsamo'zim yiqitdim deb mag'rurlanib yuribman, – dedi Spitamen hazilomuz Odatidaning burnini harmog'i bilan bosib.

– Endi sen bilan kurashsam, albatta yiqitaman, – dedi Odatida hazillashib.

– Qani, kuchingni ko'rsat, bo'lmasa, – dedi Spitamen ustidagi ko'ylaginiyechib.

Ular ko'rpadek ko'm-ko'k maysalar ustida bir-birlarining bellaridan mahkam quchoqlashib uzoq olishdilar. Spitamen bo'lsa, jo'rttaga o'zini qiynalayotgan qilib ko'rsatar, yiqilmoqchi bo'lib toyibi ketar, keyin yana kelib Odatidaga yopishardi. Odatida Spitamenning xatti-harakatiga tinmay kular, keyin uning bo'ymlariga qo'llarini zanjir qilib yiqitmoqchi bo'lardi. Nihoyat, Spitamen yolg'ondakasiga Odatidaning oyog'idan chalmiqchi bo'ldi-da, kuchi yetmay chalqanchasiga yiqildi. Odatida uning ustiga yotib oldi-da:

– Ana aytmadimmi, o'shanda yiqilib bermasam, menga uylana olmagan bo'larding, – dedi.

– To'g'ri, jonginam, sening dilbar qarashlaringga bardosh bera olmay qolganman. Mana endi umr bo'yi asiringman.... jonimdan ortiq sevaman...

– Inson bir-birini juda ham yaxshi ko'rib bo'lmaydi, bilasanmi, Spanta, goho-goho men o'z sevgimdan qo'rqaman...

Odatida ana shu baxtiyor damlarni eslab yuragi ezildi, qo'liarimi osmonga ko'tarib nimalardir deb pichirladi, keyin qum ustiga o'zini tashladi.

Yana xayolan yoshlikka qaytdi... Yozning iliq-issiq kunlaridan birida ular tong bilan turib nima sababdandir ikkinchi otni olmay, Qorasochga mingashib qoya tomon kelishdi. Tog'daryosida maza qilib cho'milishdi. Bunda Qorasoch ham daryoga tushib cho'mildi-da, Spitamen bilan birga qaytib chiqdi. Odatida kelib Spitamenning bo'yniga osilgancha erkalana boshladi. Spitamen Odatidaning qop-qora sochlarini silar, qizning olmadek qizarib ketgan yonoqlaridan o'pard. Shunda Qorasoch ham kelib Spitamenga surkalardi. Oxiri esa otiga e'tibor qilmagach, Qorasoch arazlagandek qayergadir ketib qoldi.

– Spanta, Spanta, qara, Qorasoch ketib qoldi, voy o'lmasam, seni menga rashk qilyapti, bilasanmi?

– Yo'q, jonginam Odatida, Qorasoch mening do'stim, ishonsang. Aksincha, seni unga rashk qilaman.

Odatida miyig'ida kuldi, keyin Spitamenga qarab:

– Sen uni sevasan, mendan ham ko'proq Qorasoch bilan bo'lasan, bu yoqdagi Qorasoch ko'pincha yodingdan ko'tarilib ketadi...

– Mening asl qarosochim sen, ha, sen...

Ular muhabbat og'ushida kechqurungacha tog' daryosi bo'yida qolishdi.

Ot esa baribir kechga tomon ular yo'lga chiqishmoqchi bo'lganda, qaydandir paydo bo'ldi-da, o'zining noo'rin «qilig'i» uchun oshiq-ma'shuqlardan uzr so'ragandek boshini xam qilib turdi.

Odatidaning yoshligi ana shunday baxtiyor, kech qaytarilmas, tuyg'ularga boy, mazmunli o'tgan. O'sha muhabbatli kunlarning har bir daqiqasini bir umrga almashib bo'lmaydi. Bu sahro go'zalining xayollari edi...

Mana bu voqea bo'lsa qish kezlarda ro'y bergandi. Vodiyni qattiq qor bosdi. Sovuq shunday shiddatli bo'ldiki, agar o'shanda tuflasang, tufuging yerga yax bo'lib tushardi. Tog'larga qor qalin tushgani uchun och qolgan hayvonlar ham, qushlar ham odamlar orasidan o'zlariga rizq-ro'z qidirishadi. Kakliklar galasi molxonalarga o'zini urar, qolgan-qutgan narsalarni terib yeb tirikchilik qilishar, mollarning ovqatiga sherik bo'lishardi. Spitamenning xizmatkor qullari bo'lsa tabiat oidida nochor qolgan ana shu jonivorlarni tutib olib pishirib yeya boshlashdi. Odatida o'sha kezlarda erta-yu kech uyda. Spitamen bo'lsa savdo-sotiq ishlari bilan band edi.

Kechqurun Spitamen keldi, xamir orasiga olib qo'rga ko'milgan qo'y go'shti g'oyat lazzatli pishgandi. Kaklik sho'rva undan ham shirin tuyuldi.

– Kaklik qayerdan kelib qoldi? – deb so'radi Spitamen.

– E-he, hammayoqmi bosib ketdi, molxonalar to'la qush...

– Aytganday, toqqa qor qalin tushdi, bechoralar ochlikdan senlarga jish bo'libdi-da!

- Ha, xizmatkorlar ko'plab tutib olishmoqda...

- Ayt, endi ularga ozor berishmasin, bu nomardlik, mard ovchi bunday qilmaydi, - dedi Spitamen tovoqdagi sho'rvani itarib qo'yib.

- Mayli, aytaman, ko'ngling buzilmasin, jonim...

Spitamen ko'zachadagi musallasmi tovoqqa quydi-da, shimirib yubordi.

- Spanta, bilasanmi, azizim, sendan suyunchi olmoqchiman...

- Xo'sh, nega, nima sababdan suyunchi?

- O'zing top...

- Men qaydan bilay, sen jonim, yana nimalarni o'ylab topmaysan, - dedi Spitamen xotinini erkalab.

- Farzand ko'radigan bo'ldik, - dedi mayingina qilib Odatida.

Spitamen xotiniga tikilgancha nima deyishini bilmay qoldi. Kutilmagan bu xushxabar oldida tili lol edi.

- Rostdanmi... - dedi nihoyat quvonib Spitamen.

- Goho-goho qornimda bir narsa qimirlayapti, - Odatida Spitamenning qo'limi qorniga bosdi.

Spitamen Odatidaning yuzlaridan, sochlaridan, qo'llaridan o'par, o'z quvonchini qanday izhor etishni bilmasdi.

- Ismini nima qo'yamiz? - deb so'radi Spitamen.

- Yolg'iz hukmdorim sensan. Bolaga ismni farzandning otasi qo'yadi, jonim, - dedi Odatida erkalamib.

- Bobolarimiz nomini beramiz, ha Siyovush, ha Siyovush yoki Afrosiyob bo'ladi.

- Qiz bo'lsa-chi?

Spitamen o'ylamib qoldi, bunday fikr uning xayoliga ham kelmagan edi.

- Ey, unday dema, jonginam ko'zlaring aytib turibdi, mening farzandim albatta o'g'il bo'ladi, o'g'il, - deya Spitamen suyunganidan ko'zachadagi musailasmi bir shimirishda ichib yubordi...

Shu voqealardan beri qancha yillar o'tib ketdi. Qancha suvlar oqib o'tdi, bahor, yoz, kuz, qish keldi, fasllar o'rnini fasllar egalladi. Odatida farzandlarining uchalasi ham o'g'il, ha, hammasi o'g'il bo'ldi.

Sevgi yillari go'yo tongi tumandek o'tib ketdi. Mana, endi shirin daqiqalarning lazzati bilan yashaysan. Cho'ldan esayotgan mayin, iliq shabada mast qiluvchi muattar bo'ylarni olib kelib dimoqqa uradi. Odatida ham hayot nashidasi bilan mast edi. U erini juda ham sog'ingan, ayollik hissiyoti uyg'onib, o'zini qayga qo'yishni bilmay, o'z dardiga najot istab, biydek cho'l qo'yniga o'zini tashlagandi. Atrofda zog' ham ko'rinmaydi. U ustidagi kiyim-boshlarini yechib, vujudini qizdirayotgan sog'inish dardlarini yerga singdirayotgandek qum ustiga o'zini tashladi. Yer ham tabiatning bu ajib, g'oyat go'zal mavjudotini bag'riga bosib, olam-olam lazzat olayotgandek. Odatida yotgan yerida bezovtalanar, kuchli qo'llari bilan ko'kraklarini g'ijimlar, betoqat bo'lardi. Nihoyat o'pkasini tutolmay ho'ngrab yig'lab yubordi. Shu yig'lagancha uzoq yotdi, nihoyat yuragini bo'shatib olgandek o'rnidan turib qorong'i tushib kelayotgan cho'lga qaragancha sochlarini yoyib uzoq o'tirdi...

Shu vaqt cho'l chekkasidagi barxanlar ustida bir otliq ko'rindi. U shoshilardi. Ana, shu tomonga burildi, xuddi shu yoqqa oshiqyapti. Tagidagi oti ham egasining shoshilayotganini bilgandek olg'a intiladi, manzilga tezroq yetib ol-sam deb kishnaydi. Mana, yaqinlashib qoldi. Odatida yuragi bezovtalanib, bir narsa sezgandek bo'ldi...

- O, Axura, nolishim senga yetdi, shekilli. Mening Spantam kelyapti, jonim kelyapti...

Suvoriy qushdek uchib keldi-yu, shoshilgancha chodir tomon o'tib ketdi.

- Yo'q, yo'q. Bu Spanta emas, boshqa. Ey, tangrim, nega meni aldaysan, nega meni qiynaysan, nega mening sevgilimni yubormaysan.

Odatidaning yuragiga g'ashlik tushdi, balki bu otliq shumxabar keltirayotgandir, balki Spanta hiror dardga chalingandir. Shu xayollar bilan tezda kiyinib oldi-yu, o'rnidan sakrab turib, shoshgancha chodir tomon ketdi.

Haligi suvoriy chodir yaqinida otdan tushib, o'qdek ichkariga kirib ketdi.

Odatida ichkariga kirishga yuragi dov bermay o'tov eshigi yoniga borib xonaga qaradi. O'rtada basavlat, sovut kiygan, beliga shamshir taqqan chopar turardi.

Massagetlar ulusining boshlig'i Xamuk choparga yaxshi mulozamat ko'rsatib, savol nazari bilan qaradi.

Chopar boshidan dubulg'asini olib, Xamukka qarab so'ylay ketdi.

- Meni Spitamen yubordi. U yerda hamma oqsoqollar yig'ilishyapti, muhim masala yuzasidan maslahat bo'larmish. «Osiyo shohi» Bessning o'zi ham o'sha yerda.

Xamuk bir oz o'ylanib qoldi. Negadir choparning keltirgan xabari unga yoqinqiramadi. Ikkilamchi, Bessning o'sha yerdaligini eshitib yuragi g'ash bo'ldi.

- Mayli, sen ketaver, orqangdan yetib boraman, - dedi Xamuk.

Chopar Xamukka ta'zim qildi-yu, tashqariga chiqib, chodir yonidagi ustunga bog'lab qo'yilgan otini yecha boshladi.

Odatida chopar yoniga keldi.

- Spanta omonmi? O'zi qachon keladi? - so'radi shoshapisha.

Chopar sochlari yoyilgan, qaddi-basti kelishgan bu go'zal ayolga bir oz qarab turdi-da, Spitamenning xotini ekanligini angladi.

- Ha, soginib qoldingmi, oyimcha? - Otga mina turib hazillashdi chopar.

Odatidaning jahli chiqdi. Yerda yotgan katta gavronni oldida, choparga tashlandi. Hurkib ketgan ot ikki oyog'ini osmonga ko'tarib oldinga sapchldi, egasini ag'darib cho'lga tomon qochdi. Odatida chekkada bog'liq turgan tulporiga chaqqonlik bilan mindi-yu, choparning otiga yetib olib birpasda egasiga keltirib tutqazdi.

- Mana, otingni ushla, bundan keyin bunaqa bema'ni hazilimgni boshqaga qil, - dedi.

Chopar g'ira-shirada ayolning xuddi farishtalarnikidek yoyilib ketgan sochlariga, yulduzdek yonib turgan ko'zlariga tikilgancha lom-mim deya olmay qoldi. Keyin otiga chaqqonlik bilan mindi-da, Odatidaga yuzlanib:

- Spitamenga mos ekansan, ha, seni bekorga jasur yigit xotin qilmagan ekan, balo ekansan, - dedi va otiga qamchi bosdi.

Chopar mingan ot qorong'ulikka kirib birpasda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Odatida zim-ziyos cho'l tomonga bir oz qarab turdi-da, yuragi to'lib, ichidan bir narsa bosib kelganday o'zini tutolmay ho'ng-ho'ng yig'lab yubordi...

DORIYOVUSHNING UZUGI

Navtaka shahri yaqinidagi o'tloqda ko'pdan-ko'p chodirlar tikilgan. Turonning ko'p shaharlaridan turli elatlarga, qabilalarga mansub bo'lgan boshliqlar, sarkardalar makedoniyalik Iskandarga qarshi jang qilishga o'z ixtiyorlari bilan yo'l olgan yigitlar, pahlavonlar Navtaka qayerdasan deb shu tomonga kela bergan. «Osiyo shohi» Bess mana bir hafta bo'ldiki, o'z mulozimlari, yaqinlari bilan hokimning saroyiga joylashib olgan. Narigi tomondan qochib o'tgan va ularga har kuni yana qo'shilib turgan Bessning yuzlab lashkarlari ochiq yaylovda to'zg'ib yotishibdi. Ular orasida forslar, daxlar, saklar va boshqa qabilalarga mansub jangchilar, Iskandar bilan oxirgi jangda yengilib, zarbaga uchrab bezillab qolgan qochoqlar. Ertaga Navtaka hokimining saroyida yig'in bo'ladi. Spitamenning yaqin yelkadoshlari Oksiart, Datafarn, Xorien, Katan, Oripiy, Xamuk ham shu yerda. Maroqand podshohi bu yig'inga kelishdan bosh tortdi, nega kelmasligi sabahini aytmadi ham. Xorazm shohga yuborilgan chopardan haligacha xabar yo'q. Bess go'yo bu kengashning tashabbuskori. Lekin hamma gap Spitamenda, agar bu ishga bosh qo'shmaganda albatta So'g'diyonadagi katta-katta qabilalarning boshliqlari bu yerga kelishmagan bo'lardi. Buni Bessning o'zi ham yaxshi biladi. Bess shahar hokimining saroyini egallab, o'ziga xuddi avvalgidek shohona sharoit yaratib olgan. Bu yerga yetib kelayotgan uzunquloq gaplarga qaraganda Iskandar Bessning ketiga tushib, qanday qilib bo'lsa ham «Osiyo shohi»ni tutib olib, el-yurt oldida sharmanda-yu sharmisor qilmoqchi. O'z shohiga, o'z qarindoshiga xiyonat qilgan bu nomard el-yurt oldida javob berishi kerak emish. Hatto Bessning lashkarlari o'rtasida ham shu fikrlar yuribdi.

Bess qattiq tashvishda, ba'zan o'sha shohona bazm kechalarida xushchaqchqlik bilan ko'ngil ochib o'tirganda

ham birdan yodiga ana shu fikrlar kelib yuragi orqasiga tortib ketadi. Shu boisdan uning yurish-turishida ham, uyqusida ham halovat yo'q. Bemalol, hech narsaning tashvishini qilmay ayshishratda yurgan davrlari qanday yaxshi edi. Hamma narsa o'z ixtiyorida, qay yerga qo'lini uzatsa yetardi. Unga nima kamlik qilgan ekan, ulug' shohning yaqin qarindoshi bo'lgandan keyin davr-u davron surib yuraversa bo'lmasmidi? Endi bo'lsa butun toj-taxt tashvishi, el-yurt tashvishi, unga umid bog'lab yurgan ko'pming kishilik lashkar tashvishi, o'ziga vassal bo'lgan butun Turon elining tashvishi – hammasi Bessning boshida. Bir vaqtlar dunyoni larzaga solgan qudratli Ahmoniylar sulolasini endi «Osiyo shohi» saqlab qola olarmidi. Ammo bunday ulkan davlatni boshqarish uchun kuchli iroda, quvvat, obro' kerak, bular Bessda bormi?

Saroyning o'rtasiga qo'yilgan taxtda Bess o'tiribdi, Boshida Doriyovush Qodomanning oltin toji, go'yo hech narsa bo'lmagandek, hamma narsa joy-joyida turibdi. U hamma qabila boshliqlari bilan takabburona kallasini qimirlatib, imoishora bilan salomlashardi.

Baqtriyalik lashkarboshi Oksiart Xorien yoniga yaqinlashib uning qulog'iga nimadir aytmoqchi bo'lgandi, birdaniga Bess ularga:

– Ha, yana nima gap? Pichirlashib qoldilaring! – deb kesatib qo'ydi.

Qiziqqon Oksiart shohning gumonsirashidan biroz ranjidi.

– Bizga ishonmaysizmi, bo'lmasa ruxsat bering, o'z yo'limizga ketaylik, Iskandar bilan urushamiz deb turganimiz yo'q...

Hamma jim bo'lib qoldi, Spitamen ham, boshqa qabila boshliqlari ham nima qilishni bilmay turishardi. Bundan Bessning peshonasi tirishib, bir oz o'ng'aysizlandi. Atrofdagilar bo'lsa lom-mim demay jim turishardi. Bessning atrofidagi laganbardor mulozimlari Oksiartning bunday munosabatidan hayratda edilar.

– Bunchalik qizishish yaramasdi. Oksiart bir oz qiziqqonlik qildi, ulug' shoh, biz bu yerga hir maqsad uchun yig'ilganmiz. Ko'rib turibsiz, Iskandar daryodan kechib o'tishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Bugun-erta Sug'diyonaga yetib kelishi mumkin.

Shunday bo'lgach, bizning oramizdagi nifoq dushmanga qo'l keladi.

Spitamen bosiqlik bilan shunday dedi-yu, o'zi atrofdagilarga nazar tashladi.

Oksiart fe'li aynib tajang bo'lib o'tirar, Spitamenning hozirgi murosa-madorali, yumshoq so'zlaridan norozidek edi. Bessga bir oz jon kirdi. Qabila boshliqlariga sinash uchun bir nazar tashlab oldi.

– Ulug' shohga bunchalik so'zlar aytishga qanday tiling bordi, Oksiart, sen mendan kichkimasan, qayerga ketib qolmoqchisan o'zi? – dedi shu vaqtgacha munozaraga iralashmay turgan shahar hokimi Sisimifr.

– Hamma gapirsa ham sen jim o'tir, – dedi hokimga qarab Oksiart.

Bess dadillashdi, endi Oksiartni joyiga o'tqazib qo'yish vaqti keldi, agar hozir ularni bosib olmasa hamma ish chappasiga ketishi mumkin.

Bessning yomon kayfiyatini sezgan Spitamen o'rnidan turdi-da, vazminlik bilan tushuntirdi:

– Aziz do'stlar, biz tangrining inoyati bilan bu yerga yig'ildik, hammamiz qondoshlarmiz, muqaddas tuproqning xuddi chumolidek jafokash mehnatkashlarimiz, xo'sh shunday ekan, nega bir-birimizni behurmat qilib o'tiribmiz. Yoki kelinglar, bir yoqa bo'g'ishaylik, zabonimiz uzilguncha baqirib, haqorat qilishaylik. Shamshir olib xunrezlikka o'taylik bo'lmasa! Aka-ukalar yoqalashib, qir-pichoq bo'laversin-u Iskandar kelib yaylovlarimizga xo'jayin bo'lib olsin! Shunday bo'lganda chapak chalib qolaverasizlar, yo noto'g'ri so'zlayapmanmi?

Shundan keyin g'ovur-g'uvur bo'lib ketdi, qabila boshliqlari o'rtasida Iskandarga munosabat masalasida ikki xil fikr tug'ildi. Dasht skiflarining sardori o'zidan-o'zi o'rnidan turib masalani tinch yo'l bilan hal etish uchun Iskandarga bo'ysunish kerak, deb turib oldi. Oksiart bilan Horien ham ikkilanib turishdi, faqat Datafarn bilan Katan Spitamenga qo'shildi. Bess endi gapga aralashmay ularning fikrini eshitib turdi. Spitamen o'z safdoshlariga, qabila va urug' boshliqlariga bir butun bo'lib birlashmoq, har birimiz bir yoqadan bosh chiqarib butun

ulusni, butun elni jangga otlantirsak, albatta yenganiiz, deb qat'iy fikr bildirdi. Spitamenning qarori shunday, Iskandardan ro'shnolik kutib bo'lmaydi.

– Baqtriya lashkarlarining fikr-zikri Ahmoniylar sharafigi saqlashdir. Sizlarning mulohazalaringiz, janjallaringiz nanga yoqmadi. Forslar hech qachon boshqalarga mute bo'lib yashamagan. Buni sug'diyonaliklar, skiflar, massagetlar, saklar, daxlar, hamma-hamma yaxshi biladi. Sizlar bizning qo'l ostimizda yashab yomonlik ko'rmadinglar.

– Ha, terimizni shilib oldi Ulug' Doriyovush, – dedi Oksiart Bessning so'zini yana bo'lib.

– Doriyovushning xatolari ko'p edi, Ahmoniylar sulolasi obro'-e'tiborini tushirdi mening qarindoshim, – dedi fursatdan foydalanib Bess.

– Hozir-chi, sulolaning tagiga battar suv ketdi, – dedi Oksiart.

Bess indamay qoldi, Oksiartga javob qaytarishni lozim ko'rmadi.

Xullas, munozara uzoq cho'zildi. Tushdan keyin kengash natijasiz tugab, hamma tarqaldi. Ammo Navtaka hokimi ba'zi bir muvozaralarga chek qo'yib, o'rtadagi sovuqchilikni bartaraf etish, qabila boshliqlarini «yarashtirish» maqsadida kechqurunga ziyofat tashkil etgan. Ertalabdan boshlab tayyorgarlik ketmoqda, taomlar pishirish uchun eng yaxshi oshpazlar olib kelindi. Sisimifrnning asosiy maqsadi Bessning ko'nglini olish bo'lsa kerak, uning obro'-e'tibori uchun hech narsani ayamadan erta-yu kech xizmatda edi. Aftidan Bess g'alabaga erishsa, unga katta lavozim va'da qilgan ko'rindi, chunki «Osiyo shohi» shunday yo'l bilan bo'lsa ham o'ziga yangi tarafdorlar axtarmoqda edi. Baqtriyada ham amal, hokimlik, boylik va'da qilib Midiyaning ayrim mansabdorlariga ta'sir o'tkazgan, hatto Doriyovushni qo'lga olishda ham ana shu sotqinlik Bessga qo'l kelgandi.

Spitamen shoh oldidan chiqqach, saroyning o'zi uchun maxsus ajratilgan xonasiga Datafarn bilan Katanni dklif etib, uzoq o'tirishdi. Aftidan bu yerda gap eng muhim va jiddiy masala ustida ketdi. Spitamen suhbatni tugatar ekan:

– Endi bunday, hugungi mojarolarni o‘z quloqlaring bilan eshitdinglar. Gapning ochig‘i biz qat’iy chora ko‘rishimiz zarurga o‘xshaydi. Tangri taolo Axuramazda yer, suvni yaratib, uni himoya qilish, kengaytirish orzusini bildirgan. Anaxita²⁸ yaylovlarimiz, yerlarimizni toshqimlardan saqlab, sut, go’sht, teri mo‘l bo‘lishini o‘ylagan. Buning uchun aqlsiz, befarosatlar hukm o‘tkazishini qoralab: «yurtimizni ahmoqlar emas, xayrli hokimlar boshqarishi kerak» deb aytgan. Xudolarimizga shakkoklik qilmay, haqiqat yo‘lida Bess kabi qonuniy shohning qotili, aql-farosatsiz shohga itoat etmaymiz.

– Haq so‘zni aytding Spanta, bu ishimiz Axuramazdaga ham ma‘qul bo‘lar, – dedi Datafarn uni quvvatlab.

Katan ham shunday fikrda ekanligini bildirdi.

Ular Bessni osongina shovqin-suronsiz, qon to‘kmay qo‘lga olish rejalarini tuzib chiqishdi.

Spitamen Bess qarorgohiga borib eshik oldida turgan mulozimdan shoh huzurida o‘z noziridan boshqa hech kim yo‘qligini bildi-da, «ayni muddao ekan», deb Bess huzuriga kirdi.

Bess Spitamenning bemavrid tashrifidan «biror voqea yuz berganga o‘xshaydi», deganday savol nazari bilan qarab turdi. Spitamen go‘yo muhim bir sir aytmoqchidek u yoq-bu yoqqa ko‘z tashladi. Xonada shohning ikki qo‘riqlovchisi-yu, vazirdan boshqa hech kim yo‘q edi.

– Ulug‘ shoh, sotqinlar qo‘lga tushdi, ularning anavi Kobar bilan tillari bir ekan...

– Kim ekan o‘sha ablahlar, – Bess o‘rnidan turib ketdi.

– Datafarn, Katan... boshqalar.

– Sotqinlar qayerda? – baqirdi g‘azab bilan Bess.

– Fitna ustida qo‘lga tushirdim, – dedi Spitamen.

– Darhol ollb kel ularni, o‘z qo‘lim bilan shu yerning o‘zidayoq bo‘g‘ib o‘ldiraman, – dedi Bess asabiylashib.

– Hozir olib kiraman, ulug‘ shoh, – Spitamen shoshgancha chiqib ketib bir daqiqa o‘tmasdanoq qo‘llari bog‘langan asirlarni

²⁸ A n a x i t a – farovonlik, hosildorlik ma‘budasi. Shuningdek, u podshoh hokimiyati himoyachisi hamdir.

olib kirdi. Bular Datafarn, Katan, Sherzod, Tariq, Zo'rtosh, yana fors, dax, sug'd jangchilari edi.

– Ablahlar, sotqinlar, ko'rnamaklar, ichimga bildirmay ilon bo'lib kirib olgan senlarmiding? – Bess taxtdan turib qilichini yalang'ochlagancha g'azab bilan o'rtaga tushdi:

Spitamen shu vaqtdan foydalanib, bir zarb bilan Bessning qo'lidagi qilichni urib tushirdi. Datafarn bilan Katan qo'llaridagi ilintirib qo'yilgan arqon bilan Bessning qo'llarini mahkam bog'lashdi. Ustidan Doriyovushning shohlik toji va zeb-u ziynatlarini yulib olishdi. Sherzod bilan Tariq soqchilarni bir yoqlik qilishdi. Vazir bo'lsa rangi bo'zdek oqarib, nima qilarini bilmay bir chekkada dag'-dag' titrab turardi.

– Bu Xanjamana²⁹ hukmi, – dedi Spitamen qat'iy.

– Shunday bo'lishini bilardim, kechasi aloq-chaloq tushlar ko'rgandim, rahmatli Doriyovush mendan yuz o'girib so'zlashmagandi.

– Ha, Doriyovushning arvohi seni urdi, – dedi Spitamen vazirga yuzlamib:

– Hozir biz Bessni olib chiqamiz, sen odamlarga Bessni Iskandar Zulqarnaynning buyrug'i bilan uning huzuriga olib ketyapmiz, kimki so'zimizga ishonmasa, uning ham jazosi shu, – deb jar solasan, tushunarlimi?

– Tushunarli, hammasi sen aytganday bo'ladi, – dedi vazir omon qolganiga xursand bo'lib.

Bess avvaliga baqirib o'z odamlarini yordamga chaqirmoqchi bo'ldi. Lekin keyin u ham o'ylab qoldi, haqiqatdan ham bu ishlar Iskandarning buyrug'i bilan bo'layotganga o'xshaydi, bo'lmasa Spitamen qanday jur'at etardi bunday xavfli ishga, deb ko'nglidan o'tkazdi.

Bessni bog'lab saroy oldida turgan aravaga o'tqazishdi, o'nta suvoriy soqchi yigit uni qo'riqlab borardi. Vazir bo'lsa yo'l-yo'lakay turli el, qabila, elatlarga mansub lashkarlarga Spitamen tushuntirgandan ham ortiq qilib jar solib borardi.

Hammayoq alg'ov-dalg'ov bo'lib, Navtaka hokimining ziyofati ziyofatda qoldi. Shahar tashqarisida kapa tikib yotgan

²⁹ X a n j a m a n a – oqsoqollar kengashi.

ming-minglab lashkarlar bu xabarni eshitib ba'zilar xursand, ba'zi birlari xafa bo'lishardi, Bess qo'lga tushgan bo'lsa, urush ham bo'lmaydi, hammamiz uy-uyimizga jo'naymiz», deb quvonganlar undan ham ko'p edi.

O'sha kuni Navtakaga Iskandar o'z lashkarlari bilan Amudaryo qirg'og'iga yetib, daryodan kechuv boshlaganligi haqida xabar keldi. Spitamen maslahat bilan Bessni Iskandarga topshirishga qaror qildi, o'zi bo'lsa yetti yuzga yaqin otliqni olib Sug'diyonaning noma'lum tomoniga jo'nadi, yo'l-yo'lakay Navtakadan o'n-o'n besh chaqirim naridagi mudofaasi ancha mustahkam Xamod degan qishloqqa kirib, Bessni qishloqning nufuzli odamlariga topshirdi. Keyin Iskandarga chopar yuborib, Bessni ana shu qishloqdan olib ketishni xabar qildi. Spitamenning buyrug'i bilan qishloq kattalari to Iskandar odamlari kelgunga qadar Bessni yerto'la uyga qamab qo'yishdi.

Qishloqdan hamma jo'nab ketgach, Bess bu ishlar Iskandarning buyrug'i emas, balki Spitamenning hiylasi ekanligini tushinib qoldi. Kuni-kecha arillab-darillab olamni titratib turgan «Osiyo shohi» endi yotgan joyida to'polon qila boshladi. Avvaliga «sen yovvoyilar meni qamashga haqlaring yo'q», deb rosa vaysadi. Bunga hech kim e'tibor bermagach, quturib ketdi. U ovozi boricha baqirib, Spitamen va uning do'stlarini «xomlar, sotqinlar» deb tinmay la'natlar, qo'lidagi kishan bilan zindon eshigini urar, so'ng holdan toyib tangri taolaga yolvorar, ho'ngrab-ho'ngrab yig'lardi.

– O, Ulug' Zevs meni ne kunlarga solding, o'zing rahm qil, gunohlarimni kechir..

Kechga borib Bess tinchib qoldi. Zindonni qo'riqlab turgan soqchilar ham noqobil asirning to'polonlaridan bir oz tin olishdi. Ammo bu uzoqqa cho'zilmadi, eshik yana taraqalay boshladi. Bess chanqab, suv so'radi. «Osiyo shohi»ni qo'riqlash uchun Spitamen tomonidan qo'yilgan Kamak degan tog'lik yigit Bessga rahmi kelib ko'zadagi suvni olib borib eshik tirqishidan sekingma ichkariga itarib qo'ydi. Shoh qo'lidagi kishanlarni sharaqlatib, ko'zadagi suvni go'yo hozir qaytarib olib qo'yadigandek shoshib-shoshib simirdi.

Bess suvni ichib bo'ldi-da, issiqda peshonasidan oqib tushayotgan terlarini bir amallab artdi, keyin Kamakka sinovchan nazar bilan qarab turdi-da:

– Hoy yigit, menga qara, – deb sekingina chaqirdi.

– Nima deysan? – so'radi Kamak.

– Shu yerlikmisan o'zing?

– Nima edi?

– Meni taniysanmi?

– Ilgari tanimas edim, mana endi bilib oldim, – dedi Kamak.

– Eshikni qiya qilib och, senga bir narsa ko'rsataman, – dedi Bess muhim gap ayg'ayotgandek.

– Kerak emas, jim yot endi, haddingdan oshma, suv dedim berdim, yana nima istaysan, bo'lmasa menga hech narsa berma deb buyruq berishgan, – dedi Kamak.

– Meni baribir o'ldirishadi, mana buni ol, eshikni ozgina qiya qilgin, ko'rsataman, – dedi Bees.

Kamak xavotirlanib u yoq-bu yoqqa qaradi, har tugul hammayoq tinch, sherigi bir chekkada uxlamoqda edi.

– Och eshikni, namuncha qo'rqmasang, axir qo'llarim kishanlangan-ku. Hech qayerga qochmayman, – dedi Bess zorlanib.

Kamak eshikni qiya ochdi. Bess qo'lidan uzukni chiqarib, yigitga uzatdi:

– Mana buni ol, bebaho boylik bu, yetti pushtingga yetadi, endi kambag'alchilikdan qutulding.

– Yo'q, kerak emas, – dedi Kamak eshikni yopib.

– Oldin bir ko'rsang-chi, qanaqasan o'zi, – xunobi oshdi Bessning.

Kamak uzukni qo'lga olib beparvolik bilan u yoq-bu yog'ini aylantirib ko'rdi. Uzuk ko'zidagi katta gavhar g'ira-shira qorong'ida xuddi yulduzdek miltillardi.

– Bilasanmi, buni yoruqqa solsang, unda kamalakning hamma rangini ko'rasan. Faqat senga aytaman bu sirni, ulug' Doriyovushning uzugi bu, uning bahosi yo'q, ola ber senga berdim, – dedi Bess tirqishdan qarab.

– Kerak emas dedim-ku, nima qilaman, o'zimniki yaxshi bundan, ko'zi bundan katta, – dedi Kamak Bessga qo'lidagi qandaydir qoratoshli kumush uzukni ko'rsatib.

– Ey, nodon, uzuging bir chaqaga ham arzimaydi, tushun-sang-chi, bunaqasi yetti iqlimda ham topilmaydi, evaziga hech narsa olmayman, talab ham qilmayman. Yana qaytaraman, endi u menga kerak emas, baribir meni o'ldirishadi, – dedi Bess si-niq ovoza.

– Bunaqasi kerak emas menga, o'zimniki yaxshi deyapman-ku, bu mening otamdan qolgan, bu o'zugingni nima qilaman... Tag'im Doriyovushniki deyapsan, birovning haqiga xiyonat qilmayman, uning o'ziga buyurmagan, menga buyurarmidi?!

– Tentak ekansan, axir bu uzukka butun bir podsholikni alishadi-ya! – dedi Bess kuyinib.

– Mendan podshoh chiqmaydi, istamayman, agar poshsholik shunday bo'lsa menga ne keragi bor.

– Kambag'alga davlat berilmagandek, aql ham berilmas ekan, sen osonlik bilan kelayotgan davlatdan qochyapsan, baxting bor ekan. Men sening qo'lingga tushib qolibman, sening o'rningda boshqa odam bo'lganida bormi, meni o'ldirib bu uzukni allaqachon olib qochgan bo'lardi, ulug' Doriyovush qayerdan olganligini bilmayman, ammo shu uzukni butun saroy ahli bir marta bo'lsa ham taqishni orzu qilardi. Shoh uni hech kinga ishonmasdi, yotganda ham qo'lidan olib qo'ymagan. Sen bo'lsang...

– Menga bunaqa xosiyatsiz... uzuk kerak emas, agar uni qo'limga taqsam ajal kecha-yu kunduz soyadek orqamdan ergashib yuradi... Rostini aytsam sen yomon odamsan, menga yaxshilik emas, baxtsizlik keltirmoqchisan.

– Unday dema, uzukni olmasang olmay qo'ya qol, ammo aqlingni joyiga qo'y, hozir meni qo'yib yubor-da, o'zing ham men bilan yur, noib qilib olay, sen ko'rganni hech kim ko'rmaydi, podshohiardek yashaysan, – dedi Bess eshik tirqishidan katta-katta ko'zlarini olaytirib.

– Gap bu yoqda degim, sen hali meni sotib olmoqchisan, shuning uchun mana bu uzukni tiqishtirayotgan edingmi, – dedi-yu qo'lida ushlab turgan Bessning uzugini zindon ichiga uloqtirib yubordi.

– Iya, ie, axir nima qilib qo'yding, yo'qolib qolsa nima bo'ladi. Senlar umr bo'yi yalang oyoqligingcha qolasanlar.

Bess javray-javray, Kamakni haqoratlab qo'lidagi kishanlarni sharaqlatgancha to'rt oyoqlab zindon ichida tuproq titib uzugini qidirardi.

– Axir ertaga seni qatl qilishsa, uzukni nega qidirypsansan, yo'qolsa yo'qolar, – dedi Kamak Bessmi mazax qilib.

– Sen buni tushunmaysan, inson umr bo'yi o'zi yemay yiqqan boylikning quliga aylanadi. Go'rga kirgunga qadar moldunyosini o'ylaydi...

– Yomon ekan bu dunyo ishlari...

Kamak qo'lini siltadi-yu, zindon eshigini qulflab nari ketdi.

Shundan so'ng «Osiyo shohi» bir oz tinchigandek bo'ldi-da, ko'p o'tmasdan yana eshikni taqillata boshladi.

– Yana mima kerak? – so'radi g'azablanib Kamak.

– Suv... suv... ber, – dedi bo'g'iq ovoz bilan Beso.

– Ko'zachada suv bor-ku, – dedi Kamak.

– Ich... ib bo'l... gandim...

Kamak eshik tirqishidan ko'zachani olib, meshkopdan unga suv to'ldirib Bessga uzatdi.

Shu vaqt navbatchi qorovul boshlig'i uyg'onib, chanqab uyquli ko'zlari bilan ko'zani qidira boshiadi. Qorovulboshi ancha yoshga borib qolgan shu qishloqlik Farad ismli mo'ysafid odam edi.

– Hoy Kamak, ko'za qani? – baqirdi u.

– Hozir, – dedi qo'rqa-pisa Kamak.

– Qayerga olib ketding ko'zani? – yana baqirdi Farad.

Kamak Bessdan ko'zachani tortib oldi-da, shosha-pisha qorovul boshlig'iga olib kelib tutqazdi.

– Anaviga suv berdingmi?

– Ha, so'ragandi, – dedi Kamak qo'rqa-pisa.

Qorovulboshi qo'lidagi ko'zachani Kamakka qarab otdi. Kamak chap berib qoldi-yu, ko'zacha borib devorga urilib chilparchin bo'ldi.

– O'sha sotqin ichgan ko'zadan suv ichib bo'ladimi? – tutoqdi chol.

Kamak indamasdan boshlig'i oldida gunohkorlarcha bosh egib turardi. Qorovulboshi yomidagi meshkopning og'zini ochdi-da, baralla ko'tarib ichdi, keyin Kamakka yuzlandi:

– Spitamen eshitsa, sendan emas, mendan xafa bo'ladi, shuni tushunasanmi o'zi?

– Tushunaman, meni kechiring, otaxon, – dedi Kamak gunohini bo'ymiga olib.

– Bunaqa sotqinlarga shafqat qilish kerak emas, mana hozir qo'yib yubor-chi, shu zahotiyuq seni ham, meni ham dorga osadi.

– Meni sotib olmoqchi bo'ldi, – dedi Kamak.

– Tillosi bor ekanmi? – so'radi Farad hovliqib.

– Yo'q, qo'lida qimmatbaho uzugi bor ekan, juda zo'r, deb menga rosa maqtadi, Doriyovushning uzugi emish...

– Nima deding, shohning uzugi dedingmi, voy nodon-ey, nega menga aytmading, – Farad hovliqib o'rnidan turib ketdi.

– Ey uzugi boshidan qolsin, nima qilaman men uni, – dedi Kamak beparvolik bilan.

– Voy befarosat sahroyi, uni darhol qo'lga olish kerak, agar sen olmasang Iskandarga qoladi. Axir u bebaho narsa bo'lishi kerak.

Qorovulboshi o'ylanib qoldi.

– Menga qara, Kamak, – dedi bosiqlik bilan. – Shundan bir balo qilib uzukni ol, yaxshi gapir, nima iltimos qilsa rozi bo'laver.

– Ie, nega rozi bo'laman?!

– Qiziq ekansan, mayli deyaver.

– Qo'yib yubor desa ham rozi bo'laymi, – so'radi taajjublanib Kamak.

– E, nodon ekansan, va'da beraver, – dedi Farad jahli chiqib...

– Iya, siz qiziq ekansiz, men unga chiqarib yuboraman, deb nega va'da berar ekanman, unday qilolmayman, – dedi Kamak.

– Sen aldab-suldab uzukni olgin, keyin u yog'ini gaplashamiz, – dedi bosiqlik bilan.

– O'z qo'li bilan berganda olmagan edim, endi qanday qilib so'rayman, – dedi Kamak.

– Voy sen tentag-ey, odamni g'alcha qilib yubording? Nima ish qilib qo'yganingmi bilasanmi, qanaqa anqovsan. Axir uzuk Iskandar qo'lga tushadi-yu, muncha sodda bo'lmasang, undan ko'ra sen va menday kambag'al bechoralarga qolsa yaxshi emasmi?

– Menga kerak emas, kambag'alligim yaxshi, qulog'im tinch, uyqum tinch, – dedi Kamak yana bo'sh kelmay.

– Bo'ldi gap bitta, sen uzukni ol, juda bo'lmasa Spitamenga beramiz.

– Shunday deng, – dedi bir oz bo'shashib Kamak.

Kamak zindon eshigi yomiga bordi-da, qulfi ochib eshik qiyasidan ichkariga qaradi. Bess osmonga qaragancha chalqancha yotib, xirillardi. Tepakal boshining ikki yonida parokanda bo'lib osilib yotgan oq oralagan sochlari unga shunday qo'rqinchli tus bergan ediki, Kamak sho'rlik turgan joyida rangi bo'zdek oqarib qotgancha qoldi. Uzoqdan uni kuzatib turgan Farad yugurgancha zindon eshigi yoniga keldi.

– Nima gap o'zi, – hovliqib so'radi qorovulboshi.

– Uxlayotanga o'xshaydi, – qo'rqib dedi Kamak.

– Qani, bu yoqqa tur-chi, Kamakni chetga surib, tirqishdan ichkariga qaradi.

Bess zindon o'rtasida osmonga qaragancha cho'zilib yotardi. Uning meshday katta qormi ko'tarilib-tushar, qo'rqinchli ovoz chiqarib forscha nimalardir deb xiriliardi.

Qorovulboshi o'zini ichkariga olib, Bessning tepasiga bordi. Shohning bosh-ko'zidan qaro ter quyib, qo'rqinchli ko'zlari kosasidan chiqib, to'lg'oq tutayotgan ayolga o'xshab yotardi. Bess cholni ko'rishi bilan qornimi ko'rsatdi, kuchli og'riqdan bo'lsa kerak, tishlarini g'ijirlatib, lablarini qattiq qimtib olgandi.

– Nima bo'ldi senga, qorning og'riyaptimi? – so'radi Farad astagina, mehribonlik ko'rsatganday.

– Suv..

– Voy-bo', jarga ag'daryapsanmi bergan suvni, – zaharxanda qildi chol va Kamakka yuzlanib:

– Suv olib kelgin-chi, – dedi.

Kamak meshdan sopol tovoqqa to'ldirib suv quydi-da, to'kilib ketmasin deb ehtiyotlab qorovulboshiga bermoqchi bo'ldi.

– Ichir o'zing, – dedi Farad.

Kamak suvni qanday ichirishga hayron bo'lib turgan edi. Bess qimirlab boshimi ko'tarmoqchi bo'ldi, lekin turolmadi. Farad engashdi-da, boshimi ko'tarib turdi. Bess suv ichdi, bir oz o'ziga kelgach, turib o'tirdi.

– O, Ulug' Zevs, meni qanday azoblarga qo'yding, undan ko'ra tezroq jonimni olib qo'ya qol, – dedi zorlanib.

– Mayli uzukni bera qoling, – dedi Kamak asirga qarab.

Bess bexosdan mug'ambirona kulib, do'ppayib turgan qorniga ishora qildi:

– Ey ahmoq, nodon, endi uzuk yo'q, xohlasang qornimni yorib ola qol, – dedi.

Qorovul boshlig'i ham, Kamak ham turgan joylarida hayron bo'lgancha dong qotib qolishdi.

– Bu ablah yolg'on gapiryapti, biror joyga berkitib qo'ygan, hammayog'ini qara, kiyimlarini yech, qip-yalang'och qil, – dedi Farad Kamakka qarab.

Kamak zindon ichiga kirib Bessni titkilay ketdi, ammo uzuk topilmadi.

– Hech narsa yo'q, – dedi Kamak.

– Qip-yalang'och qil deyapman-ku, galvars, – dedi Farad do'q qilib.

Bessni yechintirib, qip-yalang'och qilishdi, uzukni yutib yuborganligi rostga o'xshab qoldi. Bess bo'lsa Kamakni ham, Faradni ham bu qilmishlari uchun og'ziga kelgan so'z bilan haqoratlardi.

– Buni o'ldiramiz, – dedi Farad Kamakka.

– Iya, nima deyapsan o'zi, axir o'ldirsa Spitamen allaqachon o'ldirardi, – dedi Kamak.

– Spitamen bunda uzuk borligini bilmagan-da, agar xabardor bo'lganda boplardi-ya!

– Men bitta uzuk deb odam o'ldirmayman, Iskandarning odamlari kelsa nima deymiz, ular bizni dorga osishadi.

– O'ligini berib yuboramiz.

– Baribir men o'ldirmayman.

– O'ldirasan, qornini yorib uzukni olamiz, – dedi Farad qat'iylik bilan.

Xullas, Kamak rozi bo'lmadi. Faradning jahli chiqib bu nodon sahroyi yigitga dashnom bera boshladi. Agar shu vaqt tashqarida ot tuyog'ining dupuri kelmaganda bu janjal nima bilan tugashi ma'lum emasdi. G'ala-g'ovur boshlandi, qorovul-boshlig'i chopgancha tashqariga chiqdi. Bu Bessni olib ketish-

ga kelgan Ptolemey boshchiligidagi makedon suvoriylari edi. Darvozani qo'riqlab turgan soqchilar ularni ichkariga kiritmay turdilar. Iskandarning eng yaqin va atoqli sarkardasi o'ziga nisbatan bunday sovuq munosabatni ko'rib jahli chiqib ketdi.

– Menga Spitamenning o'zini chaqirib ber, – dedi u qorovulboshlig'iga do'q qilib.

– Spitamen kuni kecha bu yerdan ketib qolgan... Hozir u uzoqda, – dedi qorovulboshlig'i.

Ptolemey «nega bu osiyolik yovvoyi bizga chopar yuborib, o'zi ketib qoladi, shu qadar hurmatsizlik bo'ladimi», deb to'ng'illadi.

– Bess qayerda bo'lmasa? – g'azab bilan baqirdi Ptolemey.

– Zimdonda, uni sizga topshirish uchun saqlab turibmiz, – dedi qorovulboshlig'i.

– Bo'lmasa darvozanmi och, uni hoziroq olib ketaman! – dedi Ptolemey.

– Sabr qiling, – dedi qorovulboshlig'i va birpasda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Keyin darvozani ochdi-da, Ptolemeyga murojaat qildi.

– Siz kimsiz o'zi, – so'radi Farad.

– Men Ptolemey bo'laman. Qani, tezroq asirmi olib chiq, yo'qsa kekirdagingdan tuynuk ochib qo'yaman.

– Men seni tanimayman, Bessni Iskandarning o'ziga topshirishim kerak. Spitamen shunday degan. Agar sen sarkarda bo'lsang, harbiy qonunlarni yaxshi bilishing kerak. Tag'in Bessni boshqa odamga berib yuborsam, Iskandar xafa bo'lmaydimi-a?

Ptolemey o'zi ancha yoshga borib qolgan bo'lsa ham hali ancha tetik va baquvvat ko'ringan qorovulboshlig'iga sinovchan qarab turdi-da, keyin jahlidan tushdi.

– Soqoling oqi, haq gaping hurmati senga ozor bermayman, mayli endi yo'l boshla, Iskandar meni vakil qilgan.

Qorovulboshlig'i Ptolemey haqida ko'p eshitgandi. Darvozami ochib, ularni ichkariga kiritdi, keyin zindon qulfini ochib, yerda chalqancha yotgan Bessga murojaat qildi.

– Qani ulug' shoh, marhamat qilsinlar. Sizni Iskandar yo'qlayotgan emish, – dedi istehzo bilan.

Bess boshini ko'tardi. Zindon eshigi yonida sovut kiygan baland bo'yli Ptolemey turardi.

- «Osiyo shohi»ni rosa boplapsanlar-ku, - dedi zaharxanda bilan Ptolemey va mulozimlariga Bessni olib chiqishni buyurdi.

- Sotqinlar, ablahlar, yovvoyilar - Bess to aravaga chiqqunga qadar hammani la'natladi.

Makedoniyaliklar Bessning oyoq-qo'llarini kishanlab, aravaga yotqizishdi-yu, tezda jo'nab qolishdi.

Qorovulboshlig'i ularning orqasidan achingansimon qarab turdi-da, keyin yonida turgan Kamakka qarab:

- Ey nodon, Bess bilan butun bir davlat ketdi, hammasiga sen aybdorsan, - dedi.

- Men hech narsa bilmayman, - dedi Kamak.

- Bilmayman emish, xato barihir to'g'rilanishi kerak. Men uni go'rdan bo'lsa ham qazib olaman, - dedi Farad.

KARVON YO'LI

Odatida kenja o'g'li Ramtishni tuproq o'ynayverib hammayog'i kir-chir bo'lib ketganligidan nolib, qo'lidan mahkam tutdi-da, bormayman, deb janjal ko'tarishiga ham qaramay buloq boshiga sudradi. Katta xarsang ustiga o'tqazdi. Ko'zada suv olib, o'g'lining dodlaganiga e'tibor qilmay cho'miltira boshladi.

- Ertadan-kechgacha timiming yo'q, tizzangni ko'zi yara bo'lib ketibdi, senimi, hali otang kelsin, bir adabingni berib qo'yadi...

- Dadam-chi, uyishga ketdila, Iskandal bilan uyishadila, kuyashib yiqitadila, ha, meni dadam shunaqa katta polvonla-a?

- Bo'ldi, urushing ham, Iskandaring ham qurib ketsin, - zarda qildi Odatida.

- Neda unaqa deysiz, oyijon, man katta bo'yay, dadamla-chi, oyijon, Iskandalan yiqilsala-chi, o'zim yititaman... Endi ko'p-ko'p non yeyman, ko'p ovqat yesa polvon bo'ladi, xo'pmi... Siz bilmaysiz... Sheyzod amakim shunday dedila...

- Mayli o'g'lim, tezroq katta bo'laqol.

- Oyijon, endi sizni jovaytmayman, hamma ovqatni tez-tez yeb qo'yabeyaman...

Odatida ro'molcha bilan o'g'lining yuz-ko'zlarini artadi, peshonasidan o'pdi.

- Voy oyijon, nega yig'laysiz, axiy man boyman-ku.

- Yaxshiyam baxtinga senlar borsanlar, bo'taloqlarim, hech narsadan qo'rqmayman.

- Oyijon, oyijon, juda chiyoylisiz-a, - Ramtish erkalab onasining yuzlarini siladi.

Odatida o'g'lining u yoq-bu yog'ini tuzatdi-da, keyin bag'riga bosgancha o'tovga qaytdi.

Shu vaqt uzoqdan tuya qo'ng'irog'ining ovozlari eshitildi. Ko'chmanchilar yashab turgan bu qarorgohning odamlari hammasi qiy-chuv bilan karvonga chopishdi. Aslida shu qarorgoh joylashgan yerdan ilgari katta karvon yo'li o'tardi. Bu joy ancha tinch, atrofda oqar suv, buloq bo'lganligi uchun uzoq o'lkalardan savdo-sotiq bilan kelayotgan karvonlar shu yerga qo'nib o'tishardi. Ko'chmanchi elatlar karvon keldi, deguncha teri, mo'yna va boshqa narsalariga mol ayirboshlashardi. Ular tuyalardan yuklarini tushirishib, soylik bo'yidagi sayhonlikka o'tov tikishdi.

Qotmadan kelgan, abjir, ustiga oq shohidan yaktak kiygan o'rta yoshlar chamasidagi qirraborun, sersrqol odam xizmatchilarga qandaydir tilda allanima dedi.

Odatida o'g'lini yetaklab, karvon boshlig'ining yoniga kelib so'radi:

- Ey yaxshi odam, qayerdan kelyapsizlar, qay tomon yo'l olyapsizlar, sotadigan yaxshiroq matolaringiz bormi?

Karvon boshlig'i qarshisida turgan suluv ayolga biroz qarab turdi-da, kallasini qimirlatib «so'zlaringni tushunmayman» degandek qildi, bir chekkada osinonga qaragancha chalqancha yotib hordiq chiqarayotgan keng yag'rinli, pakanadan kelgan semiz odamga qarab:

- Babax, Babax! - deb chaqirdi.

Babax erinibgina o'rnidan qo'zg'alib, xujaymning yoniga keldi. Bolali ayolga yomon niyati bilan qaradi. Odatida o'z

maqsadini tushuntirgach, tilmoch erinibgima ayolning so'zlarini karvon boshlig'iga tarjima qilib berdi.

Karvon boshlig'i ancha sertikilluf odam ekan. Qarshisida shunday kelishgan nozanin turganligi uchunmi, judayam shirin so'z bo'lib ketdi.

– Siz uchun hamma narsa topiladi, Chinmochin shohisi deysizmi, baqtriya ro'mollarimi, arab surmasimi, Shosh baldog'larimi, Hindiston sarilari, xullas, hamma narsa bor.

Karvonboshi xizmatkor qullariga nimadir degandi, ular kovshanib yotgan tevalarning xurjunlaridan turli mollarni olib birpasda tosh ustiga yonib tashlashdi. Odatida mollarni birma-bir ko'rib, bir nechasini tanlab oldi.

– Bu matodar qancha turadi? – so'radi Odatida.

– Sizga o'z narxida sotaman, hammasiga o'n draxma bera qoling, – dedi boshliq tanlab olingan matolarni o'rar ekan.

Odatida hamyonidagi pullarni karvon boshlig'iga uzatib:

– Qancha zarur bo'lsa o'zingiz sanab oling, – dedi.

Karvon boshlig'i pullarni sanab olar ekan, ayolning tantiligiga ichidan ofarinlar o'qib, hamyondan ko'z uzmay turgan Babaxga nimalardir dedi.

– Xo'jayimim xo'jangiz kim deb so'rayapti, – dedi.

Odatida bir oz o'ylanib qoldi.

– Shart ekanmi shuni bilish. – Babax Odatidaning javob o'rnidagi so'rog'ini tarjima qilib berdi.

– Yo'q, yo'q, xafa bo'lmang, shunchaki so'ragan edim.

– Xafa bo'lmayman.

– So'rashim boisi, shunday ajoyib ayolning baxtga botgan qaylig'i kim ekan deb, o'sha baxtli insonning ismi sharifini bilgim keldi, – dedi karvonboshi.

Babax xo'jayiniga nimalarmidir tushuntirdi. Karvon boshlig'i uming so'zlariga kallasini likillatib kulib qo'ydi.

– Boshliq qaysi tilda so'zlayapti, – so'radi Odatida.

– Arab tilida, karvon Suriyadan kelyapti – dedi Babax.

– Qayga borar ekan?

– Chinmochinga.

– Xafa bo'lmasin, hech qanaqa siri yo'q, xo'jamning ismi Spi-tamen, Sug'diyona zodagonlaridan, – dedi Odatida mag'rurlamb.

Babaxning rangi quv o'chib ketdi. Boshliqqa tarjima qilib berdi-yu, o'zi Odatidaga tikilgancha qoldi.

Babax «Xorien qoyasi»dagi Navro'z bayramini esladi, o'shanda Spitamenni birinchi marta ko'rgandi. Uning xo'jayini Xorien ham, Oksiart ham Spitamenning yaqin do'stlari, buni Babax juda yahshi biladi. Babaxning do'sti Siton Ravshanakka uylana olmadi, bunga Spitamen xalal berganligi Babaxga ma'lum. Nega o'sha Navro'z kuni Ravshanak qal'adan tushib, o'z oti turganda Spitamenning qora tulporini minib ketdi. Bunda bir gap bor. Axir Ravshanakning ko'ngli Spitamepda bo'lmasa, Sitondan yiqilmasmidi? To'y buzilib ketdi, Siton sharmanda bo'ldi. O'sha kuni Spitamen Babaxga ham qattiq so'zladi, chunki u ha'zi noma'qul harakatlar qilgandi.

– Sen bilan bir gulxan atrofida o'tirmayman, – dedi Spitamen Babaxga.

Endi esladi, gulxan atrofida Spitamen Ravshanakdan ko'zini uzmadi, ular bir-birlari bilan so'zlashmasa ham, ko'zlari so'zlashar, o'rtalarida sirli bir nima bordek edi. Keyin Oksiart Spitamendan uyurdagi otlaridan yigirma-o'ttiztachasmi so'tishni iltimos qilganda bu safar negadir tantilik qilib yubordi. U Ravshanakni sevadi, qizning ham ko'ngli Spitamenda, har holda haddan oshyapti bu zodagon.

Shundan bir ish chiqadiganga o'xshaydi, endi maqsadimga erishadigan bo'ldim, chamamda. Anavi ahmoq Siton qizdan yiqilib, Spitamendan qasd olaman, o'ldiraman deb yuribdi. Uning kaliti mana bu yerda ekan-ku! Kumi kecha ular Siton bilan ikkovi «do'stlari»ni yo'qlashganda hammasi qaydagi bo'lmagan fikrlar bildirishdi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatishdi, hatto Spitamenni bir yo'lini topib yo'q qilish kerak, deb aql o'rgatishdi. Baxtim kelgan yigit ekanman, «qalovini topsang qor ham yonadi», shunday ish qilayki, qor emas cho'ldagi qumlar yonsin!.. Ipning uchini topib oldim, endi uni shunday aylantirayki, Spitamen borarga yo'l topolmay qolsin.

Babax shu yo'l bilan toza suvni loyqalatib o'zining qora miyatiga yetish yo'lini izlay boshladi.

– Spitamenning sendan boshqa xotini ham bormi? – deb so‘radi tasmollagandek.

– Bu nima deganing?

– Sen bu yerda o‘tirib, hech narsani bilmaysan chogi, U Oksiartning go‘zal qizi Ravshanakmi sevadi-ku! Xorien qal’asida bo‘lganimda shunday deb eshitgandim...

– Sen yomon niyatli odamga o‘xshaysan, bu yerdan tez ket, bo‘lmasa sipohlarni chaqiraman, – dedi Odatida g‘azabi kelib.

– Mayli chaqira qol, nima ham derdim, bor gapni aytdim qo‘ydim-da, ishonmasang o‘zing bilasan.

– Yo‘q, unday emas, yolg‘on! – yig‘lamsiradi Odatida.

– Ravshanakni ko‘rmagan ekansan. Men uni bilaman, menga tegsa butun borlig‘imni hadya etardim unga. Sug‘diyonada ham, Baqtriyada ham bunaqa go‘zal bo‘lmasa kerak, – dedi Babax Odatidaning yuragiga olov yoqib.

– Hammasi yolg‘on, yolg‘on!

– Nega ishonmaysan, sodda ayol ekansan, yaxshisi senga boshdan so‘zlab bera qolay. Navro‘z kuni «Xorien qoyasi»da yangi yil bayramimi kutdik. Men ham o‘sha yerda edim, aslida Xorien mening xo‘jayinim bo‘ladi Anavi o‘nta tuyadagi mollar o‘shaniki, men uning mollarini sotib kelish uchun anavi savdogar bilan Chinmochinga ketmoqdaman. U yerdan yaxshi matolar, chinni asboblarni keltiraman. Xullas, o‘sha kuni Ravshanak Siton degan zodagon yigitga unashilishi, keyin to‘y bo‘lishi kerak edi. Qizig‘i shundaki, ular kurashganda Ravshanak yengib chiqdi.

– Juda yaxshi, demak qiz yigitni sevmas ekan-da! – dedi Odatida.

– Sen yaxshilab eshit, darhol xulosa chiqarma, axir Ravshanak nega yiqilib bermadi?

– Yigitni sevmaydi-da – dedi Odatida hozirjavoblik bilan.

– Ey, to‘xtasang-chi, sababi shundaki, o‘sha kezda Spitamen pastda uni kutib turgan edi.

– Nega kutib turarkan?

– Gap ana shunda, Ravshanak qal’adan tushdi-yu, Spitamenning otini mina solib uchib ketdi, ketidan bo‘lsa sening suyuqli ering jo‘nadi.

– Qorasochni mindimi, – bir oz asabiylashdi Odatida.

– Ha, xuddi o'sha ot. Egasidan boshqa hech kimni mindirmaydi, deb eshitgandim, Ravshanakni bo'lsa bemalol olib ketdi...

– Xo'sh, u yog'i nima bo'ldi? – taajjublanib so'radi Odatida.

– Siton bilan Ravshanakning to'yi bo'lmadi, nikoh buzildi.

– Menga qara, agar Sug'diyonada ham, Baqtriyada ham eng go'zal qiz mening suyukli Spitamenimni sevib qolgan bo'lsa, bunga tan berish kerak, mayli roziman, Nohidga qasamyod etamanki, Spanta shunga loyiq, u boshqam yaxshi ko'rsa ham, men unga sodiqman, uni sevaman. Ammo sen, sen... to'g'risini aytsam, abiah ekansan...

Odatida yig'lamoqdan beri bo'lib qo'lidagi narsalarini ham, hamyondagi draxmalarini ham olmay Ramtishni yetaklagan-cha qarorgohga jo'nab qoldi. Karvonboshi hayron bo'lgan-cha yelkasini qisib, Babaxga «nima deding, nega umi xafa qilib qo'yding», degandek qaradi. Babaxni arabchalab mimalardir deb koyigan bo'ldi. Babax bo'lsa o'zicha «Bu gaplarga tushunmaysan, jim o'tiraver, bizning hisob-kitobimiz bor, mana endi men ham Spitamenga ko'rsatib qo'yaman, Oksiartni ham, Xorienni ham undan ajratib yuboraman, hali u Babaxni bilmas ekan», deb ko'nglidan o'tkazdi. Karvon boshlig'i Babaxga yana allanarsalar dedi-da xizmatkorlaridan birini chaqirib, Odatidaning xarid qilgan mollari, hamyondagi pullarini kiritib yubordi.

Odatida qarorgohga qanday yetib borganimi bilmadi. Yo'l-yo'lakay dunyoda shunaqa ham pastkash, ig'vogar odamlar ham bo'lar ekan, ularning jazosini Ayshmaning o'zi bersin, nega shunday insonlar dunyoda tug'ilarkan deb, g'azablanardi. Yuragi yomib, ko'zacha ustida turgan kosani oldi-da, limmo-lim qilib qumron ichdi. O'gli «men ham ichaman» deb xarxasha qildi.

– Ichging kelmasa ham hadeb to'polon qilaveragan, – deb Ramtishni koyib-koyib, kosani yarimroq qilib qumron quyib berdi. O'g'li ham onasiga o'zining qumron ichkisi kelayotganligini isbot qilish uchun entikib-entikib bo'lsa ham kosani birpasda bo'shatib «ma» deb onasiga uzatdi.

Odatidaming xayoli Babaxda edi. Juda mayda gap odam ekan. Ayollar ham uning yonida ip esholmaydi, tavba, birpasda qancha yolg'onni to'qib tashladi-ya! Obbo, tiling kesilgur-ey, Spitamenda nima qasdi bor ekan, yo bo'lmasa bir nomard ig'vogarmi, kimgadir yollangan ayg'oqchimi? Mulozimlarga aytammikan, balki to Spitamen kelgunga qadar ushlab turish lozimdir.

– Ena, hoy enajon, xafa bo'ldizmi? – so'radi Ramtish hadeb bezovta bo'layotgan onasining hozirgi asabiy holatini bilganday.

– Bor, anavi Antikni chaqir!

Ramtish chopgancha mulozimni chaqirib keldi.

– Uncha-muncha xarid qilgandim, narsalar ham, hanıyonim ham karvonboshi yonida qolib ketibdi, borib, olib kel!

Antik chiqib ketmoqchi bo'lgandi, Odatida uni to'xtatdi.

– To'xta-to'xta... aytmoqchi – Odatida bir oz o'ylanib qoldi.

– Yana biror narsa esdan chiqibdimi? – so'radi mulozim.

– Ha, o'sha yerda bir odam bor – Odatida yana o'ylamib qoldi.

– Nima demoqchi edingiz, bekam, – Odatidani hech qachon shunchalik bezovta va beqaror ko'rmagan edi mulozim.

– Mayli, narsalarni olib kelsang bo'lgami...

Xizmatkor shoshilib chiqib ketdi.

Odatidaning yodiga bir narsa tushgandek bo'ldi. O'sha birinchi homilador bo'lgan kezlari ko'zi yorishishiga bir oycha qolganda Spitamen savdo ishlari bilan Maroqandga borgandi. O'shanda bir haftacha qolib ketdi. Ilgari yo'lga ketadigan bo'lsa qachon kelishini aytardi. Ko'pincha yumushlarini bitirgach, tezroq qaytib kelishga harakat qilar va eshikdan kirishi bilan: «Seni juda sog'mib ketdim, jonginam» deb qaylig'ini erkaldirdi. O'shanda birinchi marta Spitamen uch kuncha deb ketdi-yu, bir hafta yurdi. Odatidaning ko'zi qish chillasida yorigandi. Birdaniga ikki o'g'il tug'di. Spitamen xuddi bolalardek osmonga sakrab quvongandi. O'ntalab qo'y, mol so'yib, qurbonlik berib, el-yurtga to'y qilgandi. Ammo Odatida juda qiynalgandi. Ikkita norg'ildek o'g'ilni tarbiyalashning o'zi bo'ladimi! U bolalari bilan o'ralashib qolib, Spitamen besh-o'n kunlab yo'q bo'lib ketar, qaytgach ko'proq shirin-shakar o'g'illari bilan band bo'lardi.

- Spanta, meni unutib qo'ydingmi? - so'rardi Odatida.
- Jonginam, seni unutib bo'ladimi, yakka-yu yagona suyganimsan, - deb erkalandi xotinini.
- Yuragim uzilib ketay dedi-ya, sen shuni bilasanmi, - erkalandi Odatida.
- Sen ham bolalaring bilan ovorasan, muhabbatingni o'shalarga berding chamamda, - dedi Spitamen.
- Unday dema, sensiz mening hayotim ham, xayolim ham yo'q.

Nega Odatidaning yodiga hozir shu voqea tushdi, o'zi ham bilmaydi. Navro'z kiradigan kuni Spitamen yaylovdan kela solib bormasam bo'lmaydi, deb shosha-pisha «Xorien qoyasi»ga jo'nab ketdi. Yuragiga olov tushdi sho'rlik ayolning. Ig'vogar nahotki rost so'zlayotgan bo'lsa?! Qorasochga mima balo urdi, aynib qolibdimi vafodor tulpor?! U hatto Odatidaga ham jilovni bermasdi, Spitamen bilangina mingashib ketishgandi bir marta. Anavi iblisga ishonmas edi, ot-chi, unga ne balo urdi, buloq suvidek beg'ubor, sof edi-ku! Nega Qorasoch indamasdan Ravshanakni o'z ustiga mindirihdi? Demak, yerda bir gap bor, ilgari ham o'sha qizni mindirgan. «Hammasiga ishonmasdim, ammo Qorasochning qilg'ilig'i yuragimda shubha tug'dirdi», o'ylali Odatida. Inson aldashn mumkin, ammo ot aldamaydi.

II qism

TOG'DAGI GULXANLAR

DARYODAN KECHISH

Amudaryo... Uning o'zi bir dunyo. Sersuv, serhasham, shio'x, yilning har bir faslida o'zgacha ohangga, rangga kirib turlanadi, jilolanadi. Ayniqsa bahor kezlarida xuddi hurkovich otdek eplab bo'lmaydi, o'zanidan chiqib, qirg'oqning bo'sh joylarini urib, ag'darib, kengliklarga tarqaladi, hancha-qancha o'tloqlar, ekmzorlar suv ostida qolib ketadi. Qani endi uni epga keltirib bo'lsa, o'zaniga sig'may, quturib, qirg'oqlarni yeb, yalab, o'ziga yo'l axtaradi, makedoniyalik Iskandar Sug'diyona yerlarimi o'z jo'shqinligi bilan mudofaa qilib turgan bu ulkan daryo bo'yiga yetib kelganda, ayni issiq bahor kunlari boshlangan payt edi. Katta qo'shin, og'ir qurol-aslahalar va ot-ulovlarni daryodan o'tkazish g'oyat mashaqqatli bo'lib, sollar, qayiqalar yasash uchun atrofda dov-daraxtlar mutlaqo yo'q edi.

329-yilning bahori. Iskandarning yetti yuz minglik qo'shini cho'ldan Amu bo'yiga yorib chiqqanda go'yo ob-hayotga erishgandek o'zlarini daryoga urdilar, hanımayoq qiy-chuv, to'polon bo'lib ketdi. Qarabsizki, taqir cho'l suvsizligidan azob chekkanlar hech narsaga qaramasdan daryo suvini olib bir-birlariga sepishar, boshlaridan quyishar, terlab, sho'r bosib ketgan kiyim-kechaklarini yuvishardi. Ba'zilar bo'lsa o'zlarini daryoga tashlab cho'mila boshladilar. Bunday betartiblik oqibatida suvga oqib ketganlar ham bo'ldi, askarlar o'rtasida qattiq shamollab qolib, turli qasalliklarga yo'liqqanlar undan ko'p edi. Dastlab Iskandar cho'l azobini chekkan askarlarini o'z holiga qo'yib berdi, keyin qattiq buyruq chiqarib, hanıma boshboshdoqsizliklarga chek qo'ydi. Endi katta qo'shinni sho'x daryodan qanday qilib olib o'tish haqida o'ylash kerak. Bu haqda o'z maslahatchilari, tajribali sarkardalari bilan fikrlashdi. Daryoning sayozroq, torroq joyini topish kerak edi. Lekin har ikkala imkoniyat hanı yo'q, sayoz joyda daryo yanada kengayib ketgandi. Hozirgi Iskandar qo'shinlari yorib chiqqan

joyda daryoning kengligi olti chaqirini bo'lib, narigi qirg'oq past bo'lganligi uchun daryoning. suvi butun kengliklarga yoyilib ketgandi. Oxiri qidirib-qidirib Taxtaqora³⁰ degan joyni tanlashdi. Bu yerda suvning oqimi tez bo'lsa ham, animo qirg'oq ancha yaqin va mustahkam edi. Iskandarning buyrug'i bilan hamma terilar yig'ib olimb, ichiga xas-xashak, somon tiqildi. Daryo qirg'oqlarida qalin qamishzorlar bor edi. Bu ularga juda qo'l keldi, qamishlarni bir-biriga bog'lab, o'ndan sollar tayyorlashdi. Qariyalar, kasailar, yaradorlar shu yerning o'zidayoq Vatanlariga qaytarib yuborildi.

Hamma tayyorgarlik ishlari tugagach, kechish boshlandi. Daryodan o'tish g'oyat mashaqqatli bo'lib, ancha kuch, iroda, shijoat talab etardi. Suzishni yaxshi biladiganlar narigi tomonga o'tib, og'ir qurollar ortilgan qalin sollarni qabul etib olishiari kerak edi. Ular jun arqonlarni bir-biriga ulab ana shu og'ir yukli sollarni tortib olishar, keyin yuklardan bo'shagach, yana orqa qirg'oqqa qaytarishardi. Shu alpozda bu jarayon uzoq davom etar, somon tiqilgan teri qop ustiga ikkita-ikkita bo'lib chiqib olgan getayralar nayza, qilich-qalqonlarini ehtiyotlab, qirg'oqqa o'tib olishlari bilan besh-oltita qopni bir-biriga bog'lab, iziga jo'natib turishardi. Animo tezoqar daryo o'zming jayxunligini ko'rsatardi. Mana, manjanaq ortilgan solning arqoni uzilib ketib, oqim bo'ylab qalqib keta boshladi. Lashkarlar qiy-chuv qilib baqira boshiadilar. Sol tezoqar suv kuchi bilan birdamiga og'ib ketdi-yu, manjanaq umi ushiab kelayotgan ikki jangchi bilan suvga ag'darilgan...

- Oqimga qarab suz, oqimga! - baqirdi qirg'oqdagilar. Jangchilarning biri apcha joygacha oqib borib, zo'r-bazo'r chiqib oldi, ikkinchisi bo'lsa suzishni bilmaganligi uchun daryo oqimiga qarab bir oz shapir-shupur qildi-yu, keyin kiyimlarining og'irligidan suv tagiga g'oyib bo'ldi.

Buning ustiga getayralar chiqib olgan teri qop tikilgan joyidan so'kilib, ichidagi butun somon suv yuziga chiqib ketdi, qop ustidagi yuklarni ko'tarolmay cho'ka boshladi. Hartugul

³⁰ Qadimgi yunon tarixchilarining yozishicha, Taxtaqora Termiz yaqinida bo'lgan. Lekin boshqa tarixiy manbalarda Iskandar qo'shinlari Kalif degan joydan kechib o'tgan degan fikr ham bor.

qirg'oqqa yaqin qolgan edi, ikkala getayra ham qopni qo'yib yubormay unga tirmashganlaricha bir amallab suzib o'tdi. Ivib, zildek bo'lib ketgan teri qopni zo'rg'a chiqarib olishdi.

– Bu buzoq terisi-ku, qayerdan olgan eding Gerakl, – dedi sherigi.

– Esingdami, hu Istahrni olganimizda shunday terilarni yondirishgandi?

– Ha, ha, rosa gulxan bo'lgandi, – dedi Gerakl.

– Ferik, hoy Ferik, sen shayton, qanday qilib olib qolding bildirmay?

– Yoqayotgan o'zimizning frakiyalik tanishim Roma edi, qarasam judayam yaxshilab osblangan ekan, kerak bo'lib qolar deb olgandim, mana kunimizga yaradi.

– Yaramay qursin, oqib ketishimizga oz qoldi-ku, – dedi Gerakl hazilomuz.

– Qara, chindan ham undagi muqaddas yozuvlar sen bilan meni o'limdan saqlaganga o'xshaydi.

– Ey, qiziq ekansan, o'lay-o'lay deb suzib chiqdigi-u, sen bo'lsang muqaddas yozuvlar qutqardi, deysan.

– Men to'g'risini aytdim, axir Iskandar shu yozuvlarni o'qiy oladigan odamni topib kelib, uning ba'zi joylarini ko'chirtirib oldi-yu, sen bo'lsang... Iskandar bir narsani bilsa kerak...

Shundan keyin ikkoatari ham indamay qolishdi.

Ana qarang, o'nta qalqondor g'uj bo'lib o'tirib olgan bir katta solni daryo oqizib ketdi. Solning arqoni bu safar daryoning o'rtasiga borganda shart uzildi-yu, keyin lapanglagancha oqib borib, bir chekkasi qiyshaydi-da, hamma qalqondorlar baravariga ag'darilibdi. Qirg'oqning ikki tomonida turganlar qiyqirib hushtak chalishar, kimdir bo'ralab-bo'ralab so'kinardi. Qalqondorlarning ustlaridagi harbiy kiyimlari og'ir bo'lganligi uchun faqat ikki kishigina bir amallab omon qoldi, qolganlari toshdek cho'kib ketdi.

– Ko'rdimgmi Gerakl, bizni muqaddas kitob saqlab qolganligi haq, – dedi Ferik, yana o'sha mavzuga qaytib.

– Nahotki shunday bo'lsa, menga qara, haligi frakiyalik do'sting qayerda, juda bilimli odam ekan-da, shu yozuvlarni o'qigan bo'lsa, – dedi Gerakl.

– Nima qilasan uni? – so'radi Ferik.

– Chaqirib kelsang mana bu yozuvlarni o'qib berardi.

– To'xta, hozir aytib kelaman, u daryodan allaqachon o'tgandi.

Ferik teri qopni bir chekkaga olib qo'ydi-da, frakiyalik Romani qidirib ketdi. Bir ozdan keyin og'zi qulog'ida ikkovlashib kelib qolishdi.

– Qiziq ekansizlar, nima kerak senlarga o'zi, eson-omon o'tib olgan bo'lsalaring, endi, yaxshisi, tangridan o'lmay tezroq uyga qaytib ketishni iltijo qillaring, – dedi frakiyalik.

– Aytganing kelsin do'stim, ammo mana bu Gerakl hech ishonmayapti, buni o'qib bera qol, – dedi Ferik yerda ivib yotgan teri qopni Romaga ko'rsatib.

Frakiyalik teri qopning yozuv bitilgan ichki qismini ag'darib qaradi. Harflar suvga tekkach negadir yana ham ravshan tortib ketgandi.

Roma qarshisida yozuvlar nima haqda ekan, deb qiziqib turgan getayralarga tushuntira ketdi:

– Bu haqiqatdan ham Avestoning³¹ bir varag'i, o'n ikki ming buzoq terisiga bitilgan, aytishlaricha o'n ikki million satrdan iborat.

– Qani, agar tushunsang mana bu yozuvlarni ham o'qib berchi, – dedi Ferik hovliqib.

– Mayli, mana eshitinglar. Bu she'riy parcha «Spatnta maynu», ya'ni Avestoning adabiy qismidan, o'zi juda chiroyli yozilgan.

³¹ Qadimgi dunyo tarixchilaridan Pliniy yunon avtor'i Gernippning (Ptolemeining zamondoshi, eramizdan oldingi 247–222 yillar) yozuvlariga asoslanib, Avesto ikki million she'riy misradan iborat deb ma'lumot beradi. Arda Vtraf-namaking (eramizning IX asri) yozishicha Avesto o'n ikki ming buzoq terisiga oltin harflar bilan bitilgan, hamda Istahrdan saqlangan va makedoniyalik Iskandar tomonidan yondirib yuborilgan.

«Tabariston podshosiga yozilgan xatlar» (eramizning VI asri)da «Bilib qo'y, Iskandar o'n ikki ming teriga bitilgan bizning kitobimiz Istahrdan yozib yubordi», deyilgan. Arab tarixchisi Mas'udiy «Murch uz-zahab»da yozishicha, «Iskandar Zulqarnayn Istahr shahrini bosib olgach, Avestonig meditsina, falsafa, astrologiyaga doir qismlarini ko'chirtirib olgach, o'zini yondirib yubordi, Avesto o'n ikki ming taxtaga oltin harflar bilan yozilgandi». Avestoning 1934-yildagi bizgacha yetib kelgan eng qadimiy qo'lyozmasi Kopengagen shahrida saqlanmoqda.

*Tangrim, iltijo sendan,
So'zla haqiqatni, o, Axura!
Adolat ibtidosin peshvosi kim o'zi?
Quyosh-u sitoralarga yo'l solganlar kim...
Mazda, bilishmi istayman, shukaru yana boshqalar haqda.*

Gerakl sukunatga cho'kdi, she'riy satrlarning mazmuni, ma'nosi uni ancha o'ylatib qo'ygandi. Daryodan o'tayotganlarning qiy-chuvlari ham getayralarning qulog'iga kirmasdi.

– Ehe, shunaqa degim, juda ajoyib-ku, – dedi Gerakl tupugini yutib.

– Nega yoqibdi bu kitobni? – hayratlandi Ferik.

Bu insonning noyob tuyg'ulariga haqorat-ku, biz olamga madaniyat tarqatuvchi xalqmiz, deydi. Iskandar, bo'lmasa nega zakovat durdonalari yoqib yuborildi? – dedi Gerakl.

– Bu gapga chek qo'yish kerak, agar Iskandar eshitib qolsa naq teringga xuddi mana shu meshga o'xshatib somon tiqadi-da, daryodan o'tadi, – dedi Roma ularning yuragiga vahma solib.

– Sen shunchalik bilimdon ekansan, nima qilib oddiy jangchi bo'lib yuribsan? – so'radi Gerakl Romadan.

– Ey oshna, agar bilsang, jangchilar ichida mendan ham o'tadigan aqlli odamlar bor, bu yerda hammasi hor-zor bo'lib yuribdi.

Yana bir baxtsizlik yuz berdi, qirg'oqdagilarning baqiriqlari eshitildi. Qamish solga keragidan ortiqcha odamlar chiqishgan ekan, ikkita sipoh suvga ag'darilib tushdi. Og'ir qurollari bilan ikkalasi ham cho'kib ketdi.

– Biz o'shanda qatnashmagandik, ayt-chi, Ferik kitobni qanday qilib yoqqan edilaring? – so'radi Gerakl.

– Eh-he, bizga Aleksandrning buyrug'i deb aytishdi. Istahrdagi bir baland toqqa bordik. Qarasak, katta g'or ichida marmar toshdan yasalgan sandiqlar turibdi. Agar sen o'sha sandiqlarni ko'rganingda edi, hayron qolarding; shunday naqshlar, suratlar solib ishlanganki, aqling bovar qilmaydi.

Qopqog'ini o'n kishi zo'rg'a ko'tardik, biz xazina bo'lsa kerak, deb o'ylagandik, suyinib ketdik, axir biz ham biror narsalik bo'lib qolardik-da! Keyin qarasak, mana shu teriga yozilgan kitob varaqlari ekan, xafa bo'lib ketdik, shunchalik ham bo'larkanmi deb. Keyin hammasini eshakka ortib tog'dan pastga; katta sayhonlikka tashib tushdik-da, bir-birining ustiga qo'yib taxladik. Terilar shunchalik ko'p ediki, ularni ustma-ust qo'ygandan keyin tog' bo'lib ketdi.

Kechga tomon Iskandarning o'zi tashrif buyurdi. Keyin yoqib yuborishdi.

– Qaysi tog' ekan, – so'radi Ferik.

– Nifisht³² tog'i der ekanlar...

– Muqaddas kitob varag'ini endi nima qilasan, – dedi frakialik Ferikka.

– Biz Nifisht tog'ida xazina topmadik, deb xafa bo'lgandik, taqdirni qarangki, shu kitobning bir sahifasi daryodan o'tishda qo'l keldi, menimcha birorta jonliq topib qurbonlik qilish kerak – dedi Ferik.

– To'g'ri, men ham shuni o'ylab turuvdim, – dedi Gerakl.

– Men borib hiron jonliq topib kelay bo'lmasa, – dedi Ferik, qurol-yaroqlarini qo'lga olib.

– Terini daryoga tashiab yuboraymi, – dedi Gerakd Ferikka murojaat qilib.

– Yo'q-yo'q, mima deyapsan, o'zing, men uni kechalari tagimga solib yotaman, sovuqda ustimga tashiab olaman, agar eson-omon-u o'lmay o'z vatanimga yetib olsam, uyim to'riga ilib qo'yaman, – dedi Ferik.

Shunday qilib, daryodan kechish besh kun davom etdi» suvga cho'kib, oqib, o'lganlar juda ko'p bo'ldi.³³ Qancha qurol-yarog'lar, ot-ulovlar daryo tubiga tushib ketdi.

Daryodan o'tilgandan keyin aholi yashaydigan qishloqlarga yetib borish uchun hali uzoq yo'l yurish kerak edi. Iskandar

³² Ibn Balxiyning «Forsnoma»sida Istahrdagi Nifisht tog'ida «Zind» (Avesto) kitobi marmar sandiqlarda saqlanganligi haqida ma'lumot beriladi.

³³ Qadimgi yunon tarixchilarning bergan ma'lumotlariga qaraganda Oks (Amudaryo) dan kechib o'tish vaqtida katta janglarda halok bo'lganlardan ham ko'p odam suvga cho'kib, oqib o'lgan. (Arianning «Iskandar yurishlari» kitobi).

daryodan o'tgach, o'sha kuniyoq yo'lga chiqdi, yo'l-yo'lakay bir oz dam olib, qo'shnlarni tartibga keltirib olish uchun qulayroq joy axtardi. Kechga tomon yam-yashil daraxtlar bilan qoplangan, ariqlarida sharqirah suv oqib yotgan bir heshaga yotib keldi. Bu joyning ob-havosi yoqib qolganligi uchun to qo'shnlarning barchasi yetib kelgunga qadar shu yerda bargoh tikib, dam olishga qaror qildi.

Kechga tomon Ptolomeydan chopar keldi. U Bess qo'lga olinganligini Iskandarga xabar qilib, «Osiyo shohi»ni uning huzuriga qanday holatda olib horishni so'ragandi. Podshoh Bessni sharmandalarcha yalang'och holda olib kelishni, shu yerdayoq ko'pchilik oldida sud qilishga qaror qilganligini bildirdi.

Bessning qo'lga tushganligi, erta bilan shu yerga olib kelinajagi haqidagi xabar butun qo'shinlar orasida blrpasda tarqaldi. Chunki Doreyosni o'ldirib, o'z shohiga xiyonat qilgan shohni ko'rish, jazolanishini tomosha qilish barcha uchun juda qiziqarli edi. «Bessni Ptolemey o'zi ushlab kelibdi», «Qattiq jang bo'libdi», «Bess o'z ixtiyori bilan Iskandarga asir tushibdi», «Spitamen Bessni qo'lga olib, Iskandarga sovg'a qilibdi». «Spitamen bilan Oksiart tortishibdi», «Bessni Spitamen yashirin ravishda Iskandarga yuboribdi». Xullas, odamlar o'rtasida bunday mish-mishlar ko'p edi.

«Osiyo shohi» kelishini betoqatlik bilan kutishardi.

Ertasi choshgohga yaqin Ptolemey yetib keldi. Beso'naqay semiz ot ustida qip-yalang'och, sochlari alvastilarnikldek to'zg'ib hammayog'ini qoplab olgan Bess boshini quyi solgancha o'tirardi. Uning hozirgi ko'rinishi juda ham kulgili, ayanchli edi. Hammayoq qiy-chuv bo'lih ketdi. Keng o'tloq maydon atrofini sipohiylar o'rab olishdi. Kimdir eski tonuka tog'orachani Bessga qarab otgan edi, ot oyog'i tagiga taraqqlab tushdi. Bess mingashgan ot hurkib ketib, ozgma bo'lmasa u ag'darilib tushayozdi. Hamma qiyqirib yubordi. Ammo holdan toygan, o'limiga allaqachon rozi bo'lgan Bess uchun endi hammasi baribir edi, baqiriqlarga ham, haqoratlarga ham zarracha e'tibor qilmas, ko'zlarini yumib olib, hadeb lablarini qimirlatib, pichirlab, duo o'qirdi.

Ptolemeyning odamlari Bessni otdan zo'r-bazo'r tushirib, maydon o'rtasidagi katta maxsus yog'och ustunga bog'lab qo'yishdi. Endi hamma beriladigan jazoni kutardi.

Shu vaqt tantanali sadolar ostida maydon chekkasidagi qarorgohdan makedoniyalik Iskandar o'z lashkarboshilari bilan chiqib keldi. Hamma qiyqirib, ulug' podshohni qutlardi. Iskandar to'ppa-to'g'ri Bessning qarshisiga kelib to'xtadi. «Osiyo shohi»ni boshdan-oyoq kuzatib, «holing shumi», degandek qarab turdi. Hamma jim, o'rtaga sukunat cho'kdi.

– Senga bir savolim bor, javob ber, – dedi Iskandar qat'iy.

Bess nima savol degandek Iskandarga bir qarab qo'ydi.

– Savolim shuki, sen o'z qarindoshing Doreyosni nega o'ldirding?

– ...

– Ha, tiling yo'qmi, javob ber?

– Doriyovushni o'ldirgan birgina men emas, – duduqlandi Bess.

– Yolg'on gapirma, juda bo'lmasa o'liming oldida haq gapni so'zla!

– Haq gap shu. Doriyovushni faqat men o'ldirganim yo'q.

– Kim edi ular?

– Shohning atrofidagilar...

– Ular begona odamlar edilar, sen bo'lsang uning qarindoshi eding, qanday qilib qo'ling bordi, ablah!

– ...

– Javob ber.

– Hayajonda turgan qo'shinlar orasidan «javob ber», «javob ber» degan ovozlalar keldi. Bess endi qarshisida turgan jahongashta Iskandarga ham, uning savollariga ham javob bermay ko'zini yumgancha jim turaverdi.

Iskandarning jahli chiqib, o'rtadagi maxsus qo'yilgan taxta ustiga chiqib so'zlay ketdi.

– O'z shohiga xiyonat qilganligi, ulug' Doreyos Kodomanni o'ldirganligi, buning ustiga masxarabozlik qilib o'zini «Osiyo shohi» deb e'lon qilganligi uchun bunday go'rso'xta, nonko'r avvaliga erkaklik nomusidan mahrum etilib bichilsin, quloq-

burunlarining uchi kesilsin. Shundan keyin u el oldida sharmanda qilinib, Ekbatanga olib borib, fors va midiyalik aholi oldida qatl etilsin!

Butun qo'shinlar Iskandarning hukmni eshitib, uni baralla ma'qulladilar. Karnay-surnay sadolari yangradi. O'rtaga jallod tushib, qo'lidagi kichkinagina xurjunga ehtiyot qilib solingan maxsus asbob-uskunalarini chekkaga qo'ydi-da, ichidan nimadir oldi. Bu daqiqa maydonni o'rab turgan ming-minglab qo'shinlar go'yo qimir etsa hayotda bir bor bo'ladigan qiziq bir narsani ko'rolmay qoladigandek miq etmay, jim turishardi. Hammaning nigohi o'rtadagi jazoni amalga oshirayotgan jallod bilan Bessda edi. U o'z mahoratini ulug' podshoh oldida namoyish qilish uchun hech shoshilmasdan buyruqni mohirlik bilan bekam-u ko'st ado etdi. Bess bichilganning o'zidayoq hushidan ketib, quloq-burunlarining uchi kesib olinganini bilmadi ham...

KATTA JANGLAR ARAFASI

Spitamen Iskandarning daryodan o'tib Maroqandga yurish qilmoqchiligi haqidagi xabarni eshitgan kuniyoq o'zining do'stlari, mingga yaqin suvoriylari bilan poytaxtga jo'nadi. Bu yerda - asosiy gap Sug'diyona. Poytaxtining taqdiri haqida borardi. Namichning o'sha kundagi beqarorligi Spitamen va uning do'stlarini qattiq tashvishga solib qo'ygandi, Maroqand Iskandarga qarshilik ko'rsatishga qodirmi, yo'qmi? Agar Namich lashkar tortib, yunon-makedon qo'shinlariga qarshi chiqmoqchi bo'lsa, nega shu vaqtga hadar Spitamenni, Oksiartni yoki Xamukni yordamga chaqirmaydi. Dunyoda shuncha voqealar ro'y beryapti, Bess Iskandar qo'lga topshirildi, dushman Amudaryodan kechib o'tdi, Namichning bo'lsa parvoyi falak, go'yo dunyoni suv olib ketsa, to'pig'iga chiqmaydigandek poytaxtda tinchgina o'tiribdi. Bunday loqaydlik Spitamen va uning do'stlarini o'ylatib qo'ygandi. Shu boisdan to Iskandar Maroqandga yetib kelguncha Spitamen poytaxtga borib Namich bilan yaxshilab so'zlashib olmoqqa qaror qilgandi.

Ular bir qarorga kelgan kuni kechasiyoq yo'lga tushishdi. Bahorning issiq kunlari boshlanib, quyosh hamnayoqni tandirdek qizdiradigan shu kezlarda cho'l yo'llarida kechasi yurish ancha yengil bo'ladi, ikkinchi tomondan harbiy nuqtayi nazardan ham muhim: dushman ayg'oqchilari g'aflatda qolib, Iskandar qulog'iga yetmaydi.

Spitamen o'sha kuni Navtakadan chiqib, Bessni Hamod qishlog'ida qoldirgach, o'z odamlari bilan Sirdaryo bo'yidagi mudofaa ahamiyatiga molik bo'lgan kichik bir shaharchada tunab qolgandi. U yerda yotib qolishdan maqsad - Bessni Iskandar odamlariga topshirish tafsilotlarini batafsil bilib, keyin shunga qarab ish tutmoqchi edi. Hamod qishlog'iga mas'ul qilib qoldirilgan usrushonlik Kainak ertasigayot Bessni Ptolemey olib ketganligi tafsilotini Spitamenga so'zlab berdi. Ayniqsa, uzuk haqidagi hikoyatni eshitib, Spitamen kula-kula ichagi uzildi.

- Farad qayerda hozir? - so'radi Spitamen.

- Qayergadir ketdi, - dedi Kamak.

- Hali ham Bessning ketidan yuribdi degin, - kuldi Spitamen.

- Bilmadim, har holda g'oyib bo'lib qoldi.

Shunday qilib, Spitamen o'z lasbkarlari bilan cho'llarni orqada qoldirib, Maroqand sari silijib bormoqda edi. Cho'l bo'ylab yeigan mayin shabada yuzlarga uradi, oy yo'q, yulduzlarga charaqlab turibdi. Jimjit kechada qurol-yarog'larning sharaq-sho'rig'i, otlarning kishnashigina tinchlikni buzadi. Otlar orasida kimdir qo'shiq boshlaydi:

Nurafshon Yimaning shohlik zamoni,

Na sovuq bor edi va na bir issiq...

Ko'rmasdi kasallik odamlar joni,

Bo'lmasdi devlardan paydo bo'lgan suq.

Ahriman hujumga o'tgan bir choqda

Muqaddas Ashaning yaratganiga

Otlanib chiqdilar, qo'llar yaroqda

*Voxuman va Otar jang maydoniga.*³⁴

³⁴ «Avesto»ning Yasnasidan.

Muqaddas qo'shiq – yuraklarga dalda, halblarga orom.

– Hoy qo'shiqchi, qayerdasan, davom et, – dedi kimdir baland ovoz bilan.

Otlar tuyog'ining dupur-dupuri yer qa'rida kimdir qo'shiqqa jo'r bo'lib, do'mbira urayotgandek, qo'shiqchi to'xtagan bo'lsa ham do'mbiraning bir me'yorda urishi davom etayotgandek edi.

Spitamenga qo'shiq qattiq ta'sir etgandi, «kim aytyapti o'zi, muqaddas kitobning o'chmas sahifalaridan olingan bu ajib nido nega jimib qoldi», deb dilidan o'tkazdi.

– Aytaver, Ulug' Axuramazda senga xushovoz hadya etgan ekan, – dedi Spitamen.

*Muqaddas ruh deya tan oldim yana
Azalsan, yaxshisan, yomonga yomon,
Muqaddas ruh deya tan oldim seni
So'ragan chog'ingda: «Kimsan, kim tomon?»*

*Javob ushbudir: men Zardo'sht – imon menga tug',
Seni sharaflayman, dushmanim – durug'!
So'ragan chog'ingda: «Qaroring nedir?»
Olovga siginmoq uzra xayolim.³⁵*

Qo'shiq tindi, go'yo hamma o'z xayoli bilan band edi.

Qo'shiqchining mayin va sehrli ovozi ulug' maqsad yo'li-da bel bog'lagan dovyurak qahramonlar qalbiga ilhom baxsh etardi. Siyohdek qorong'i kechada odamlarning yuzidagi hayajonni bilib bo'lmasdi, ammo ot ustida o'y o'ylab bepoyon qorong'i bo'shliqda somon yo'lga ko'z tashlab dadil ketayotgan bu jasur kishilarning qalb urishi, yurak harorati, fikr-tuyg'ulari bir-birlariga ma'lum edi.

– Hoy qo'shiqchi, rahmat senga, qani bu yoqqa kel-chi, – chaqirdi Spitamen.

Suvoriy safdan chiqib Spitamenga tenglashdi.

– Bu senmiding Sherdor? – taajjublandi Spitamen.

– Ha, men...

³⁵ O'sha yerdan olindi.

– Seni suratkash desam, hali yaxshi qo‘shiqchi ham ekansan-ku!

– Shunchaki surat chizganda tog‘larda aytib yurardim...

Spitamen o‘sha kecha Namichning saroyidagi ziyofatdan chiqib, yo‘l-yo‘lakay qadrdon do‘sti Kasnikiga kirib o‘tganda Sherdor shu yerda ekan. Kas suratkash yigitni Spitamenga tamishtirib, uning boshiga tushgan ishq savdosini so‘zlab bergandi. Ma‘lum bo‘lishicha Kasning qizi Mohiyon Turonaning kanizagi bo‘lib xizmat qilar ekan, malikaga suratkash yigitning yurak dardini oqizmay-tomizmay aytib beribdi. Shunda malika otasiga aytib Sherdorni suratkash qilib saroyga ishga olibdi. Ammo keyinchalik Namich suratkashning niyatini sezib, uni saroydan haydab yuboribdi.

– Maydi, xafa bo‘lma, yigit, seni ishq dardingni Dariyoddan eshitganman, hozir men bilan ketasan, o‘zim vaqti kelib Namichga aytib ko‘raman, bir iloj qilarmiz, – dedi Spitamen Sherdorning ko‘nglini olib.

Spitamen, o‘shanda, yo‘l-yo‘lakay Maroqanddan qaytayotib cho‘lda Iskandar ayg‘oqchilari bilan olishib, bittasmi asir qilib olgan kechada Sherdorning mardligi, jasoratiga qoyil qolgandi. Endi bo‘lsa, bu so‘qqabosh tog‘lik yigit boz ustiga yaxshi qo‘shiqchi chiqib qoldi.

– Maroqandga borganda, agar Namich qarshilik ko‘rsatsa har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham malikani olib ketasan, – dedi Spitamen.

– Rozi bo‘lmasa, qanday bo‘larkim, – dedi xomush Sherdor.

– O‘zi seni sevadimi, – so‘radi Spitamen.

– Bilmayman.

– Yur, desang sen bilan ketarmikim?

– Qaydam...

Cho‘ldan chiqib Maroqandga o‘n chaqirimcha qolganda Spitamen suvoriylarga shu yerda to‘xtashga buyruq berdi. Endi tong g‘ira-shira yorisha boshlagandi. Spitamen do‘stlari bilan maslahatlashib, lashkarlarni shu yerda qoldirib, Maroqandga ozchilik bo‘lib yaqin safdoshlari bilan borishga qaror qildi. Oksiartni o‘z o‘rniga qoldirib, Datafarn, Katan, Xorien, Xamuk va boshqa qabila, boshliqlarini birga oldi. Sherdor, Zo‘rtosh,

Kamak, Tariqga o'xshash pahlavon yigitlardan o'n olti nafar jangchi Spitamen bilan birga poytaxtga boradigan bo'ldi.

Spitamen o'z do'stlari bilan choshgohga yaqin Maroqandga yetib bordi. Poytaxt darvozalari taqa-taq berkitilgan, go'yo qamal holatidek, shaharga biror odam kirmasdi ham, chiqmasdi ham.

Darvozaga borib taqillatishgan edi, ichkaridan soqchining ovozi keldi.

– Kimsan?

– Men Spitamen, och eshikni!

– Hozir.

Bir ozdan keyin darvoza ochilmay soqchilar boshlig'i tepadan turib Spitamenga muomala qildi.

– Shaharga hech kim qo'yilmaydi, hokimning farmonlari shu, – dedi.

– Bizni tanimayapsanmi? – bir oz asabiylashdi Spitamen.

– Tanib turibman, ulug' zot, nima qilay, men hokimga tobe odamman, – dedi soqchilar boshlig'i o'ng'aysizlanib.

– Bo'lmasa, Namichga borib ayt, Spitamen keldi deb. Mana bu ulug' zotlarni taniysanmi, bularni ham ayt!

Soqchilar boshlig'i «ma'qul» deganicha darvoza boshidan tushib ketdi. Bir necha daqiqadan keyin kelib «hokim faqat o'zingiznigina ko'rishga muntazir», dedi. Spitamenning jahli chiqdi. Namichning o'ta lanj odamligini, beqarorligini bilardi-yu, ammo shunchalik past ketishini, o'zini sharmandalarcha tutishini xayoliga ham keltirmagandi. «Nega o'zini bunday tutmoqda, Sug'diyonaning ko'zga ko'ringan, e'tiborli kishilari eshigi tagiga kelib tursa-yu, kiritmasa, bu qanaqasi bo'ldi? Namichga shunday katta yurakni kim berdi?» – o'z-o'zicha o'yladi Spitamen. Do'stlariga qaradi, hammasi hayron, nimalar bo'layotganiga tushunolmasdi.

– Datafarn, hammaga ayt, orqamdan yuraverishsin, kuch ishlatib bo'lsa ham kirib boramiz.

Soqchilar boshlig'i Spitamenni yaxshi tanir, g'oyat hurmat qilardi, har safar Maroqandga kelganida izzat-ikrom bilan qabul qilib olar va shunday e'tibor-la kuzatib qo'yardi. Endi bo'lsa, qarangki, «Katta arava qayerdan

yursa, kichkina ham o'sho yo'ldan ketadi», deb shuni aytadilar, o'yladi Spitamen.

– Mayli, eshikni och, – dedi Spitamen.

– Soqchilardan hiri darvozani qiya ochgandi, Spitamen tezlik bilan ichkariga kirdi-yu, uni zarb bilan urib ag'dardi-da, darvozani katta ochib yubordi. Suvoriylar ichkari kirib ketishdi, soqchilar boshlig'i Spitamenning bir so'zli va pahlavonligini yaxshi bilganligi, o'ziga ham biror shikast yetib qolmasligi uchun bir chekkaga chiqib turaverdi.

Spitamen do'stlari bilan to'ppa-to'g'ri saroyga kirib bordi. Izzat-hurmatni ham unutib so'rab-netib o'tirmay, Namichning yoniga bostirib kirdi. Hokim bunday tashrifdan shoshib qoldi, «Bularni kim qo'ydi» degandek atrofida buyruq kutib turgan sarkardalari, mulozimlariga qaradi...

– O'zi nima gap? – so'radi Namich Spitamenga yuzlanib.

– Yaxshisi biz senga beraylik shu savolni, yelkangga Ayshma chiqib oldimi? – g'azablanib so'radi Spitamen.

Namich bir oz o'ng'aysizlanib yerga qaradi.

– Saroyingdagi ziyofatlar shunchaki nodo'stlik alomati edimi? Qondoshligimiz qayda qoldi o'zi? Yo bo'lmasa boshqa harom qon tan-joningni buzdimi, ulug' zot? Oppoq sutimizga zahar-zaqqum aralashdimi, Xoumaga it suti aralashtirdingmi yo? Sug'diyona yaylovlari, bog'lariga devlarni taklif etmoqchimisani? Muqaddas kitobimizni o'tga yoqqanlarga sotilganmisan?

Spitamen g'azab bilan taxt tomon yurdi. Soqchilar uning yo'lini to'sishmoqchi bo'lgandi, ikkalasini ikki yoqqa itarib, hokimga yuzlandi:

– Qo'rqma, men o'z qavmimga shamshir uradigan olchoq emasman. Eshigim qondoshlarimga hammavaqt ochiq, do'stlarim yuziga oyoq tiramayman.

– Men ham, – dedi Namich sekingina.

– Sening darvozang hozir biz uchun yopiq edi, nomimiz aytilganda ham ochilmadi...

Spitamen do'stlariga qaradi:

– Biz ham katta bir o'lkaning hokimi, – dedi Xamuk.

– Taniyman...

– Men forslar sarkariman, – dedi Datafarn.

– Taniyman...

– Mening qal’amda ham mehmon bo’lgansan-a? – dedi Xorien.

Endi Spitamen asosiy gapga o’tdi:

– Qani ayt-chi, biz bilan birga Iskandarga qarshi borishga qodirmisan?

– Men Iskandar bilan urisha olmayman, – dedi Namich.

– Bo’lmasa aziz poytaxtimiz Maroqand nima bo’ladi?

– Darvozani ochib bermoqchimisiz? – so’radi Xamuk.

– Yaxshisi meni o’z holimga qo’yinglar, biz masalani tinchlik bilan hal etmoqchimiz, – dedi Namich.

– Kimlar bilan? «Biz» deganing kim? – so’radi Spitamen.

– O’z sarkardalarim, qabila boshliqlari, oqsoqollar bilan maslahatlashdik, sizlardan ham iltijo qilaman, agar bizning fikrimizga qo’shilmasangiz, unda xalaqit bermaganingiz ma’qul.

Spitamen turgan joyida qimir etmay jim qoldi, endi uning uchun Namich fikridan o’chgan, sotqin, yo’q odam edi. Xorienga qaradi, boshini quyi solib turibdi, Datafarn bo’lsa Namichni so’yib tashlagudek g’azabda, Kamak tishlarini tishlariga qo’ygan, Sherdor ma’yus... Zo’rtosh Tariqqa ur desa shu yerda turganlarning hammasini zum o’tmay biryoqlik qiladigan, qo’llari qilich dastasida. Hal qiluvchi so’z Spitamenda, u nima desa shu bo’ladi.

– La’natlar bo’lsin sendaqalarga, qam do’stlar, ketdik, – dedi Spitamen.

ISKANDAR VA DARIYOD

Iskandar Bessni jazolagandan so’ng ikki-uch kun shu yerda qoldi. O’z lashkarboshilarini qarorgohiga yig’ib, Sug’diyona poytaxtiga hujum rejasini kelishib oldi-da, ertasi kuni sahardan boshlab Maroqandga yurish boshlashga qaror qildi.

Iskandar qo’shinlarining Sug’diyona poytaxtiga yaqinlashib kelayotganligi haqidagi xabar tezda tarqalib ketdi. Butun Sug’diyonada notinchlik edi, avomni dahshatga soluvchi vahimali xabarlar el o’rtasida yurardi. Tiriklayin ko’milgan, osilgan odamlar, aholisi yoppasiga qirib tashlab, o’t qo’yilgan

va butunlay bo'shab qolgan qishloq va shaharlar, zo'rlangan ayollar, chavaqlab tashlangan qariyalar, bolalar... Odatda Iskandar o'zi zabt etmoqchi bo'lgan ellarga ayg'oqchilarini yuborib, turli mish-mishlar tarqatardi. Bu, albatta, Iskandarning odamlarni vahimaga solish usullaridan bo'lib, shu bilan aholini ma'naviy jihatdan bo'ysunishga tayyorlardi. O'zining qatl bilan bog'liq bo'lgan jazo choralarini ko'pincha ochiq maydonlarda mahalliy aholi ishtirokida o'tkazardi. Iskandar ayg'oqchilari qayerda, qachon bo'lishmasin Ulug' podshoh – makedoniyalik Iskandarning yengilmasligi, butun jahonni zabt etajagi haqidagi g'oyani singdirardi.

Iskandar Taxtaqora kechigidan to Maroqandga yetib borgunga qadar juda ko'p qishloqlar, shaharlarni bosib o'tdi. Uning oyog'i yetgan hamma joyda qattiq jazo choralari o'tkazildi. Ba'zan marhamati tutib, o'zining adolatli podshoh ekanligini ko'rsatish uchun aholi o'rtasida ayrim «saxovat»lar ko'rsatardi. O'z ixtiyori bilan, yaxshilikcha Iskandarga bo'ysunganlar Ulug' podshohdan «xayr ko'rishi» haqidagi gaplar el o'rtasida keng tarqalgandi.

Maroqand ko'chalari g'oyat gavjum edi, yosh-yalanglar, qari-qartanglar, hammasi shahar hokimining buyrug'i bilan Iskandar yo'lga chiqishdi. Rastalarda savdo to'xtagan, do'konlar yopilgan. Darvoza tepasiga qo'yilgan nog'ora, karnay, surnaylar ertalabdan beri tinmaydi. Namich o'z amaldorlari, sarkardalari bilan makedoniyalik Iskandarni shahardan tashqarida kutib olishmoqchi. Iskandarga hadya qillish uchun tayyorlangan oq ot chiroyli qilib, zarrin yopqichlar bilan bezatilgan. Bu tantanavor vaziyat Maroqandning ming-minglab aholisi kayfiyatiga ta'sir etmay qolmadi. Necha yillardan beri forslarning jabr-zulmidan jonlari halqumiga yetgan maroqandliklar Iskandar kelishi bilan bir oz ho'lsa ham erkinlik tegar, turli to'lov, jarima, bojlardan qutularmiz, deb o'ylashardi. Shahar bozorlarida ertayu kech hukmron bo'lgan fors amaldorlari Iskandar bostirib kirishi bilanoq in-iniga urib ketdi. Hatto hokim saroyida ertayu kech hamma narsaga tumshug'ini tiqib o'tirgan Nabarzan ham Midiyaga ketdim deganCHA g'oyib bo'ldi. Maroqandlik

zodagonlar ham, savdo ahli ham ana shu erkinlikni his etib, qandaydir mavhum umid bilan nimalardir kutishardi.

– Hoy Dariyod, menga qara, sen qayerga ketyapsan, Iskandarni kutishgami, ovora bo'lma, unga sening safsatalaring yoqmaydi, – dedi bir savdogar yigit.

Dariyod yigitga bir qarab qo'ydi-yu, nimadir demoqchi bo'ldi, lekin odamlarning «kelayotganga o'xshaydi, tezroq yuringlar», degan chaqiriqlarini eshitib, chopganча ketdi.

Namich o'z odamlari bilan Maroqanddan bir chaqirim joyga borchib Iskandarga peshvoz chiqdi. Hokim otdan tushib podshoh huzuriga bordi-da, chuqur ta'zim bajo keltirdi. Namichning sarkardalari, saroy amaldorlari ham hokimdan o'rnak olib Iskandarga ta'zim bajo keltirishdi. Jahongir podshoh bunday izzat-ikromdan ko'ngli erib ketib otdan tushib, hokim bilan ko'rishdi.

– Xush kelibsiz, ulug' podshoh, qadamlaringizga hasanot, – dedi Namich.

– Minnatdorman, e'tiqodingizni g'oyat qadrlayman, – dedi Iskandar.

Namich mulozimlarga ishora qilgandi, Iskandarga sovg'a qilish uchun yasatib keltirilgan bulutdek oq otni olib kelib jilovini podshohga tutqazishdi.

Iskandar otning yollarini siladi, oq ot uning uchun hamisha yaxshilik belgisi hisoblanardi. Shuning uchun ham Maroqand hokimining munosabatidan g'oyatda xursand buldi.

Iskandar choshgohdan keyin Sug'diyona poytaxtiga kirib keldi. Bu marosimda butun poytaxt aholisi qatnashdi. Maroqand hokimining sipohiylari Iskandarning saroyiga o'tadigan yo'lini betinch va betartib olomondan qo'riqlab turishdi. Jahongir shoh, shahar hokimining yonida saroy tomon yo'l olarkan, o'ziga «intilayotgan» boy-boyonlar, zodagonlar bilan va nihoyat avom xalq bilan mag'rur salomlashib qo'ydi. Ketidan ajoyib o'ynoqi otlarda sovut-qalqon kiygan sarkardalar borishardi. «Olov qasri» yonida bir to'da olomon o'rtasida baland bo'yli, soch-soqollari to'zg'ib ketgan Dariyod tepalik joyga chiqib olib o'z dunyoviy falsafasi bilan odamlarni og'ziga qaratib nimalarnidir so'zlardi. Iskandar otining jilovini tortdi-yu, Dari-

yod qarshisiga borib to'xtadi. Aftidan bu mo'ysafid chol o'zining ko'rinishi, vajohati va so'zlari bilan o'z vatanidagi notiqlik san'atiga ruju qo'ygan gapdon faylasuflarni eslatgandek bo'ldi. Dariyodning ko'rinishi Iskandarning ustozlari Arastuga bir oz o'xshab ketardi.

Dariyod nutqiga shu qadar berilib ketgan ediki, hatto qarshisida turgan jahongirga zarracha ham e'tibor qilmadi, go'yo hech narsa bo'lmagandek so'zlay berdi:

– Bu dunyoga kimlar kelib, kimlar ketmadi. Buyuk shohlar, sarkardalar, allomalar, payg'ambarlar... Afrosiyobdek, Siyovushdek jahon pahlavomi ham bir chaqmoqdek yonib o'chdi. Bu jahonga hokim bo'lib qolmoq istab qon to'kdilar, ko'p ellarni zabt etib, qishloqlarga, shaharlarga o't qo'ydilar. Xarobalar, kultepalar ichra yana inson zoti qad ko'tardi, ariq qazib suv keltirdi, daraxt ekdi, bog' yaratdi. Keyin yana yangi besha, yangi qishloq, shahar qurdi. Hayot yana o'zaniga tushib ketdi, shohlar bo'lsa gado bilan bab-baravar qaro go'rga tikildi-yu, nomsiz ketdi. Sarkardalar sovutlari qayda keldi, uni endi kim kiyibdi... shamshiri-chi? O'sha qilich yana kimning boshin kesar.

Ayo, do'stlar, birodarlar, ey, siz mening qondoshlarim, so'zingiz tinglang, men devonani biror kimsa chaqaga ham olmas... Ammo so'zingiz tinglang oz-moz, unda zarra bo'lsa hamki haqiqat bor. Dunyo uzra hamma narsa o'tkinchidir, murg'ak edim, bir parcha go'sht, o'sib undim, katta bo'ldim, kuchga to'ldim, hayot qurdim, shirin kunlar o'tdi-ketdi, mana endi, nazar tashlang, bir qari it, na kuchi-yu, na bichimi, na shuhrati, hech narsasi yo'qdir uning, na moli bor, na dunyosi, kimga kerak, ko'rgan odam irganadi, tezroq go'rga tiqilsaydi bu olchoq chol deb. Qani endi ajal kelib, jonim olib, shu tashvishli dunyo bilan xayrlashsam. Kel, ey ajal, jonimga bir aro kirgil, omonating olgil mendan! Qo'y, qiynama, azob berma hali axir u dunyoda do'zaxlaring bor-ku yana!

Keyin Dariyod qo'lga torini olib kuylay ketdi:

*Yillar o'tar asirlarga bo'shatib yo'lin,
Koshonalar, shoh saroylar huvillab qolgay.*

qo'qqisdan paydo bo'ladi-yu, «ovchilar»ni biryoqlik qiladi qo'yadi. Iskandar ana shu tomonlarini ham o'ylab har ehtimolga qarshi o'z lashkarlarining asosiy qismini Maroqanddan o'n-o'n besh chaqirim joyda jangovar holda saqlab to'rishga buyruq berdi.

Podshoh shikorga tong bilan ketdi. Iskandarning hech kimga bilmay ovga ketayotganini qay yo'l bilandir sezib qolgan Klit hammadan oldin uyg'onib ov anjomlari bilan allaqachon yo'lga chiqib turgandi. Podshoh Klitni ko'rdi-yu, hayron bo'ldi, «saharlab nima qidib turibdi, bu mug'ambir», deb savol alomati bilan Lisimaxga qaradi.

- Sezibdi-da, - dedi Lisimax.

- Yaxshi hid biladi, - dedi Iskandar hazilomuz.

Podshoh Klitni yaxshi ko'rardi. Bu jasur pahlavon Granikdagi jangda Iskandarni bir o'limdan saqlab qolgan. Klitning onasi Gellanika Iskandarni yoshligidan xuddi tuqqaniday tarbiyalagan. Klit o'ziga ishonganligi, podshohning «erkasi» bo'lganligi uchun ham hammadan maxfiy tutilgan bu «ko'ngil ochar» shikorga so'ramasdan qo'shilishga yuragi dov bergandi. Agar Klitning o'rnida boshqa odam bo'lganida, Iskandar nima qilishni o'zi bilardi; sirni bilganni ham, oshkor qilganni ham boshi ketardi. Shunda ham Iskandar bu gapni Klitga Lisimaxdan boshqa hech kim aytmaganligiga ishonchi komil edi. Shu boisdan Lisimaxga yuzlanib: «Agar Klitdan boshqa odam shu ishni qilganida o'zim bilardim mima qilishni», dedi. Klit jilmaygancha yo'rg'asida Iskandar yoniga yaqinlashib:

- Kechir meni, Aleksandr, meni ovga qanchalik ishqibozligimni bilsang edi, - dedi.

- Ko'ramiz, oldingdan yo'lbars chiqib qolsa qayerga qocharkansan, seni ham Lisimaxga³⁶ o'xshab seming yelkangni g'ajib tashlamasin, - dedi Iskandar hazillashib.

Shu bilan o'rtadagi tuman ko'tarildi, Lisimaxning ham ko'ngli taskin topdi.

³⁶ Lisimax Suriyada bo'lgan vaqtda ovga chiqqanda o'rmonda katta yo'lbars bilan to'qnashib qolgandi. Shunda yaralangan yo'lbars jon achchig'ida Lisimaxga tashlanib, bir yelkasini g'ajib tashlagan.

- Anavl sug'd juda usta ovchi, yo'lni ham yaxshi biladi, - dedi Klit Aspatni ko'rsatib.

- Sen qayerdan bilasan uni, - so'radi Iskandar taajjublanib. Lisimaxning rangi o'chdi, «mima qiladi o'z sirini o'zi ochib, jim ketavermaysanmi, Aspating ham qursm, endi Aleksandr meni ham hol-jonimga qo'ymaydi», deb yer ostidan Klitga qaradi. Chunki Klit Aspat bilan allaqachon topishib olib, Iskandarga yo'l boshlovchi qilishga ham o'zi sababchi bo'lgan. Bu yog'ini kavlasang Iskandarni ovga qiziqtirgan ham Klit edi. U Aspat orqali podshohga ta'sir ko'rsatgan, yuragida shikorga chiqishga havas uyg'otgandi. Keyin ovga chiqishga qadar ham chidami yetmay kechaning o'zidayoq uni o'rmonga yuborib bitta to'ng'iz, uch-to'rtta qirg'ovul ovlatis, Lisimax bilan kechasi allamahalgacha ulfatchilik qilishgandi. Endi sirni yashirishning hojati yo'q, baribir Iskandar bilib oladi, yaxshisi rostini aytib, podshohning ko'nglini tinchitgan durust. Iskandar faqat haq gapirsang kechiradi, agar biron narsani yashirsang oqibati yaxshilik bilan tugamaydi.

Lisimax tag'in Klit yolg'on so'zlab ishni buzib qo'ymasini, degandek, uning o'rniga javob berdi.

- Aleksandr, bizni kechir, men ham, Klit ham ovga juda ishqiboz odamlarmiz, anavi Aspat ov haqida ko'p narsa so'zlab berdi, shundan keyin o'zimizni tutib turolmadik, o'rmonga jo'nab qolishimizga oz qoldi, keyin o'zi ovga borib bitta to'ng'iz olib keldi.

- Qirg'ovullar-chi? - so'radi Iskandar. Lisimax ham, Klit ham hayron bo'lib qolishdi, «podshohning bu gaplardan xabari borga o'xshab qoldi-yu», deb o'ylashdi.

- Bekitib yeganlarning teshib chiqmasa mayli edi, - dedi Iskandar.

Aspat otining jilovini tortib to'xtatdi-da, Iskandarga qarab: - O'rmonga mana shu joydan kiramiz, - dedi.

Xullas, gap bo'lindi, Klit, Lisimax qutulib qolishdi. Yo'l boshlovchi Aspat hammaning vazifasini birma-bir tushuntirdi. Bir tomoni daryo yoqasidagi qamishzorlarga tutashib ketgan, ikkinchi yog'i bo'lsa changalzor, quyuq o'rmonlar bilan qoplangan bu joyda inson zoti ko'rinmas, faqat turli qushlarning

chirqirashi-yu, xavf-xatardan «o'rmon ahli»ni tinmay bezovta qiluvchi zag'izg'onning ovozi bu yerning tinchligini buzardi.

Otlarga soqchi tayinlab, chekkadagi o'tloqqa qo'yib yuborishdi. Iskandar o'z yaqinlari bilan o'rmonning boshqa chekkasidan, qolgan o'nta jangchi nariga qamishzor tomondan kirib, hayvonlarni bezovta qilib, bu tomonga haydashlari kerak.

– Qani endi hunaringni ko'rsat, Lisimax, ishqiboz ovchiman deganing-degan, yo'l boshla bo'lmasa, – dedi Iskandar.

Shu gapdan keyin Lisimax oldinga o'tdi-yu, orqama-orqa ichkarilab ketdi. O'rmonning boshlanishida katta daraxtlar bo'lganligi uchun yurish qiyin bo'lmadi, ammo ichkarilab borgan sari daraxtlar bir-biriga chirmashib, ayrim joylardan o'tib bo'lmas, tikanli daraxtlar ko'p bo'lganligi uchun kiyimlarni yirtib, qo'l-oyoqlarni tilib yuborardi. Shunday vaqtda oybolta bilan qilich beradi. Ba'zi joylarda daraxtlarni kesib, chimdib yo'l ochishga to'g'ri keldi. Iskandar ham qo'lga qilichini olib, go'yo daraxtlarga urush ochgandek shox, butalarni kesib, yo'l ochib borardi.

Shu vaqt narigi tomondan sur ovozi yangradi, hayvonlarni qo'rqitib kelayotgan ovchilarning «quv-quv» degan vahima tarqatuvchi ovozi o'rmon bo'ylab aks sado berar, osoyishta yurgan jonivorlar tinchligini buzardi. Maynalar galasi hurkib, tepadan uchib o'tdi, vahima bilan qayerdandir qirg'ovul ko'tarildi. Shu g'avg'o orasida hech kim kutmaganda Iskandar-ning to'g'risidan yo'lbars chiqib qoldi. Bu olachipor, jussasi odatdagidan nihoyatda katta Turon yo'lbarasi edi. Sug'dlar aytishadi, yo'lbars yirtqich bo'lgani bilan odamga hech qachon birinchi bo'lib tashlanmaydi, agar g'ashiga tegib, ozor bersang, shundagina hujumga o'tadi. Tabiatning mo'jizasini qarangki, jonivor yetilib ketganligi uchun terisining targ'il yo'llari juda chiroyli tovlanardi. O'ldirishga ham kishining qo'li bormaydi.

Yo'lbars Iskandarga qaragancha turgan joyida turib qoldi, podshoh ham qimir etmay yirtqichga ro'baro' bo'ldi. Ko'zlar ko'zlar bilan uchrashdi. Iskandar umri bunyod bo'lib, shuncha ov qilib, yirtqich bilan bunchaliq yaqin kelmagan va bunaqa ko'zni ko'rmagandi. Nega shunchalik beparvo, bamaylixotir, pisand qilmay turibdi. Aftidan umrida odam zotini ko'rmagan

bo'lsa kerak, Ha, insondan yomonlik kelmaydi, deb e'tiborsiz turgan bo'lsa ajabmas. Orqada turgan Lisimax Iskandarni himoya qilish maqsadida sekingina shamshirini sug'urib Iskandarning oldiga o'tmoqchi bo'lgan edi, yo'lbars irillab qattiq pishqirdi. Podshoh ham yo'lbarsni tinchitmoqchi bo'lib Lisimaxga yo'l bermadi va pichirlab:

«Sen aralashma, bu mening o'ljam», deb shamshirining dastasidan ushiab, yo'lbarsga tikilganча jim turaverdi.

Go'yo «o'rmon shohi» yer tozinmg podshohi bilan muhora-ba maydonida bir-biri bilan to'qnashib qolgandi.

«O'rmon shohi»ning ko'rinishida jang qilish niyati yo'q, «agar menga tegmasang, o'z yo'limga ketaveraman» degan ma'no bordek, ko'zlari beparvogina qarab turibdi. Yer yuzining podshohi bo'lsa jang qilmasa armondan chiqmaydigandek, urushgisi bor, ko'zlari o'z o'ljasiga birinchi bo'lib zarba berishni mo'ljallab turibdi.

Endi kim birinchi bo'lib jang boshlaydi, «o'rmon shohi»mi yoki podshohmi? Qani boshla, kuchingni ko'rsat, kim zo'r chiqarkin?

Yo'lbars qarshisida go'yo yemoqchi bo'lib turgan muxolifning niyatiga tushungandek tishlarini ko'rsatib, dahshat bilan iriiladi. Endi aloqa buzildi, kelishish yo'q, Demak, inson muzokaraga ko'nmadi. Chegaradan o'tib, o'ljasiga tomon bir qadam tashlagan ham ediki, yo'lbars orqa oyog'iga kuch berib chaqqonlik bilan Iskandar ustiga o'zini otdi. Podshoh tepasida go'yo uchib kelayotgan, hozir umi tilka-pora qilmoqchi bo'lgan yo'lbarsning bir qo'li bilan hiqildog'idan ushladi-yu, o'ziga yetkazmasdan osmonning o'zida zarb bilab shamshirini sanchdi.

Yo'lbars og'riqdan qattiq bo'kirdi-yu, yerga yiqildi, aftidan shamshir uning yuragini teshib o'tgandi... Iskandar mag'rurlik bilan yo'lbars ustiga borib, o'ljasini tomosha qila boshladi. Tilla rang, burnining ustida oqi bor, mo'ylablari uzun, oyoqlari yo'g'on, baquvvat, junlari uzun va chiroyli. O'lgandan keyin yana ham cho'zilib katta bo'lib ketgandi. Sho'rlik ko'zlarini yumib, xuddi kulganga o'xshab yotardi. Bir daqiqa ilgari kuchga to'lib, pishqirib, hammayoqni larzaga solib turgan «o'rmon shohi»

endi jonsiz mutlaqo zararsiz narsaga aylangandi. Iskandarning ko'ngli buzilib, negadir xayol surib qoldi, atrofida uning mahoratiga, epchilligiga ofarinlar aytayotgan Lisimaxning ham, Klitning ham so'zlarini eshitmasdi. Kim bilsin, Iskandar yo'lbarsning hozirgi ayanchli holatida balki o'zining taqdirini ko'rgandir...

Shu voqea ustiga yetib kelgan Aspat yerda uzun bo'lib cho'zilib yotgan o'rmon go'zaliga achingandek qarab turdi-da:

– Juda zo'rini ovlabsan ulug' podshoh, – deb qo'ydi.

– O'zi ham Aleksandrga yomon tashiandi, qo'rqib ketdim, – dedi Klit Iskandarga qarab.

– Bunaqasini hech ko'rmagandim, o'tgan yili Spitamenning ovlagani shunga o'xshardi-yu, lekin bundan sag'al kichikroq edi, – dedi Aspat.

Iskandar yalt etib Aspatga qaradi, demak Spitamen ham shu yerlarda ov qiladi, yovvoyi bu bilan nima demoqchi, o'zimikini maqtayapti chamamda, nima qilsa ham yon bosadi o'shalarga! Balki Spitamenning ayg'oqchisidir bu Aspat degani. Hammasiga anavi erkato'y Klit aybdor, o'ziga juda bino qo'yib yuborgan, izzat-ikromlar mening orqamdan, tag'im Lisimax bilan yaqinlashib ketishgan, og'iz-burun o'pishishadi, ikkovining sirli ishiari borgan o'xshaydi, mendan yashirinch, bekitib ish qildimi, vassalom, bunaqalarga ishonib bo'lmaydi, hir bo'lishib endi fisq-u fasod gaplar tarqatishdan ham toyishmaydi. Bularni ajratib yuborish kerak.

Iskandar o'rmon bo'ylab yana bir oz ov qildi, ularga to'ng'izlar to'dasi duch keldi, podshohning o'zi ikkitasini o'ldirdi. Keyin do'stlariga: «Sizlar ovni davom ettiraveringlar», deb Aspatni olib, o'z soqchilari bilan otlar qoldirilgan o'tloqqa ketishdi. O'rmon chekkasidagi sharqirab oqib turgan suv bo'yini joy qildirdi-da yonboshladi.

Aspat qumron olib keldi, ammo Iskandar negadir ichkisi kelmadi, xayolida hamon qandaydir noaniq mulohazalar, fikrlar kezib yurardi.

– Spitamen ham shu yerlarda ov qilarmidi? – so'radi podshoh.

– Ehe, undek ovchi Sug'diyonada yo'q, – dedi Aspat og'zining tanobi qochib.

Iskandar bu yovvoyining bemalol tortinmay-netmay gaplashayotganidan, hatto o'zining dushmani haqida maqtanib, «Sug'diyonada bunaqa ovchi yo'q», deb turganidan g'ashi keldi. Ammo yigitning soddaligi, buning ustiga yuragida nima bo'lsa bekitmay to'ppa-to'g'ri aytayotganligi Iskandarni tinchitdi. Chunki podshoh bunaqa odamlardan hech qachon yomonlik chiqmasligini bilardi. Aspatning ichidagi ham, yuzidagisi dam shu edi. Ba'zi odamlar tilyog'malik qilib, podshohning oldida ko'ngli uchun yomonini yashirib, yaxshisini oshirib so'zlashga o'rganib qolganlar, bunaqalarni podshohning jini chiqishtirmaydi. Bugun erta bilan Lisimax haq gapni so'zlamaganda ovning suvi chiqishi, hamma narsa chappasiga aylanib ketishi mumkin edi. Ammo, hali ham Iskandarning dilida bir narsa xira bo'lib turibdi. Lisimax bilan Klitning yashirin ravishda kechasi bilan maishat qilishgani. Mana bu yovvoyi bo'lsa to'ng'iz bilan qirg'ovul ovlab bergan.

– Menga qara, Aspat, o'sha aytgan yo'lbarsni Spitamen qayerdan ovlagandi? – so'radi Iskandar qiziqib.

– Ho'v anavi daryo yoqasidagi qamishzorda, – qo'li bilan o'sha tomonni ko'rsatdi.

– Rostini ayt-chi, Spitamenning o'zi qanaqa odam?

– Nima desam ekan, – bir oz o'ylab qoldi Aspat, keyin Iskandarga yuzlanib: – Rostini aytaymi? – dedi.

– Qo'rqmay bemalol so'zlayver, – dedi Iskandar dalda berib.

– Spitamen zo'r yigit, dong'i ketgan pahlavon, yaxshilikni unutmaydi, yomonlikni kechirmaydi. Qisqasi, xuddi haligi ovlangan yo'lbarsning o'zi, – dedi Aspat.

Iskandar birdan kulib yubordi, keyin o'tloqqa to'shalgan kigiz ustiga o'tirib yonboshladi.

– Obbo sen-ey, ta'rifni ham boplading, pahlavonligi to'g'ri deyaylik, boshqa gaplaringga ham qo'shilay, «haligi yo'lbarsning o'zi» deganing nimasi?

Aspat kigiz ustida bolalardek yotib olib, bir oddiy ovchi bilan shunchalik kibrlanmay so'zlashayotgan, olammi larzaga solib turgan Iskandar Zulqarnayndek jahongashta podshohga bir oz qarab turdi. «Iskandardek podshoh bilan shunday so'zlashdim, oddiy kigiz ustida yumalab yotdi», desa kim ishonarkin!

Falakning gardishi bilan dunyo kezib shu yerga kelib qolibdi, agar Aspat qo'qqisdan beliga qistirib olgan oyboltasi bilan urib qolsa, vassalom, hamma ish chappasiga aylanib ketib, dunyo bir jahongashta bosqinchidan qutuladi. Aspat mohir ovchi, yo'lbarslar bilan Iskandardek olishib yenga oladi. Lekin bunday fikr hozir uming hatto xayoliga ham kelmaydi, chunki u haqiqat g'oyalari bilan yashaydi, yuragida kiri yo'q, Sug'diyona elining oddiy bir farzandi, buning ustiga ovchi, tabiat shaydosi. Ovchilardan hech qachon g'alamislik, yomonlik chiqmaydi. Halol olishuvni yaxshi ko'rishadi. Yerda yurgan qirg'ovulga o'q otmaydi, uchirib keyin kamon bilan uradi.

– Yo'lbarsga o'xshatganimning boisi bor. Men necha yillardan beri o'rmonlarda yurib hayvonlar, qushlarning tabiatini yaxshi o'rganib olganman. Hamma hayvonlar ichida yo'lbarsga yetadigan kuchli, aqlli, nozik tabiat hayvon yo'q. Bunday deyishim boisi shundaki, yo'lbars kuchli bo'lsa ham hadeb bekorga ov qilavermaydi, zarur vaqtda, qorni ochganda hayvonlarga tashlanadi. Quch-quvvati o'ziga teng keladigan hayvonlar bilan to'qnashib qolsa, iloji bo'lsa janjal chiqarmaslikka harakat qiladi. Faqat unga hujum qilsagina jangga kirishadi.

– Nozik tabiat deganing nimasi, – dedi Iskandar qiziqsinib.

– Yo'lbars o'ziga juda qarab yuradi, biror joyiga gard yuqtirmaydi, mana hozir o'zingiz ovlagan yo'lbarsni olib ko'ring, hatto oyoqlarigacha top-toza. Keyin o'rmonning eng chiroyli joylarida, suv bo'ylarida sayr qilib yurishni, chiroyli daraxtlarga boqishni, sayroqi qushlar navosini tinglashni yaxshi ko'radi.

– Nega Spitamenni yo'lbarsga o'xshatding, – yana so'radi Iskandar.

– Chunki, Spitamen kuchli, epchil va vazmin yigit. Tegmaganga tegmaydi, jahliga tegsang, omon qo'ymaydi. Shuning uchun aytdim, o'zi xushfe'l, nozik tabiat, xullas yaxshi ovchi, agar ko'rsang, bir suhbatdayoq yoqib qoladi.

– Men bilan uchrashtirasanmi, – to'satdan so'radi Iskandar Aspatning ko'zlariga tikilib.

– Ey, uni qaydan topasan hozir, cho'ldami, tog'dami, changal-zordami bilib bo'lmaydi.

Aspat o'ylab turdi-da:

– Balki yaxshilab tushuntirilsa, uchrashar, – dedi.

– Bir rivoyat bor, agar jahlingiz chiqmasa so'zlab beraman.

– Nega shunday deb o'ylaysan, axir o'rtamizda qancha gap o'tdi, jahlim chiqayotgani yo'q-ku!

– Bo'lmasa, mana eshiting ulug' podshoh: bir kumi tulki, bo'ri va yo'lbars birgalikda ovga borishibdi-yu, ishlari o'ngidan kelib bitta qirg'ovul, bitta quyon va bitta kiyik ovlashibdi. Qaytib kelishgach, yo'lbars:

– Qani, bo'rivoy, o'ljalarni taqsimlang, debdi. Shunda bo'ri: taqsir sizga kiyik, menga quyon, tulkiga bo'lsa qirg'ovul bo'la qilsin, deb aytibdi. Bunday «nohaqlikdan» yo'lbarsning jahli chiqib ketibdi-da, bo'rini jallodga topshirib o'ldirtiribdi. Keyin tulkiga murojaat qilib, «endi o'ljalarni o'zing bo'la qol», – degan ekan, tulki o'rnidan turib «o'rmonlar shohi»ga ulug' shohim, mana bu quyonni erta bilan nonushtaga yesangiz, kiyikni bo'lsa tushki ovqatda, qirg'ovulni bo'lsa yotish oldidan tanavvul etsangiz yaxshi bo'ladi», – debdi. Yo'lbars xursand bo'lib kegib tulkidan: «bunday aqlni kimdan o'rgangansan», deb so'ragan ekan, tulki: «anavi siz jallodga buyurib o'ldirgan bo'ridan», deb javob bergan ekan.

– Podshohlarning kayfiyati shunaqa bo'ladi, ulug' shoh, bu so'zlarim uchun boshimga bo'rining kunini solmassiz, deb o'ylayman, – dedi Aspat hazilomuz.

Iskandar Aspatning so'zlariga miyig'ida kulib qo'ya qoldi. Bu hikoyat unga yoqdimi, yo'qmi, Aspat tushuna olmadi.

Kechga tomon ov tugadi, Juda ham ko'p o'lja olindi. Yigirmaga yaqin to'ngiz, o'nta kiyik, tulki, tustovuq va boshqa parranda-darrandalar ovlashdi. Klit o'rmondan ikkita Gepard³⁷ bolasini ushlab olibdi. O'ziga o'rgatib olaman deb ehtiyotlab qopga solib qo'ydi.

Ovdan qaytish oldidan hamma jamuljam bo'lganda makedomiyalik jangchilardan ikki kishi yo'qligi aniqlandi. Podshoh ularni qidirishni buyurdi. Ov qilingan joylar sinchiklab

³⁷ Gepard – oz-moz itga ham o'xshab ketadigan uzun oyoqli mushuk. Terisi ustida qora xollar bo'lib, dumining uchi oq ko'rinadi. Odamga o'rganadi, ohu va quyon ovlashda foydalaniladi.

tekshirildi, lekin hech yerdan topilmadi, daryo bo'yigacha borishdi, baland o'sgan qamish orasi yorilib suv tomonga iz ketibdi. Daryo bo'yida jangchilarning qaysi biriningdir dubulg'asi tushib qolibdi. Aftidan kimdir ularni qayiqqa solib, narigi tomonga olib o'tib ketibdi.

Iskandarning avzoyi buzildi. Shaxsiy soqchilar bu yerdan tezroq ketish zarurligini podshohga tushuntirishdi. Klit ham, Lisimax ham shu fikrga qo'shildilar.

DO'MBIRALAR TINMAYDI...

Kamak qizi bilan bog'dagi qantak o'rikni qoqib olayotgan edi, birdan ichkarida qiy-chuv bo'lib qoldi. Chopgancha bog' eshikdan hovliga kirgandi, besh-oltita makedoniyalik sipohlar Kamakning xotinidan nimadir talab qilishmoqda ekan.

– Ering qani, chaqir bu yoqqa, – dedi.

– Men, shu yerdaman, nima deysan, – qo'lidagi o'rik solingan savatni yerga qo'ya turib ovoz berdi Kamak.

– Ha, bu uyning xo'jasi hali senmi, bo'lmasa eshit. Senga soliqqa hozircha bitta ot, o'ttiz bog' pichan tushdi. Hozir bo'lsa biz bilan yurasan, xashak tayyorlaysan. Iskandarning buyrug'i shu! – dedi sug'd tilida haligi makedoniyalik. sipohiyning tilmochi.

– Menda ot nima qilsin, – dedi Kamak.

– Biz bilmaymiz, oting bormi, yo'qmi baribir, qaydan bo'lsa ham topasan, – dedi tilmoch.

– Bitta-yu bitta eshagim bor, lekin u o'zimga juda kerak, cho'lga ham, toqqa ham ketaveradi, – dedi Kamak.

Tilmoch uning so'zlarini sipohiylarga tushuntirib berdi. Soqol-mo'ylahlariga oq oralagan baland bo'yli, moviy ko'zli makedon zaharxanda qilib tilmochga nimadir dedi.

– Eshaging o'zingga buyursin, Iskandar askarlariga ot kerak, bo'lmasa o'rmiga o'zingmi, anavi chiroyli qizingmi olib ketamiz, deyapti sipohiylar boshlig'i, – dedi-da, nima derkin deb tilmoch Kamakka qarab turdi.

Kamak indamadi, bular bilan hozir olishib bo'lmasligini angladi.

– Senga uch kun muhiat, – dedi haligi sipohiylar boshlig'i qat'iylik bilan.

– Endi yur, xashak tayyorlashga borasan, tog'liklarning hammasi o'sha yerda, qizingni ham olivol, – dedi tilmoch gapni qisqa qilib.

– Kamak noiloj o'z oilasi bilan ular ketidan yurdi. Ular tog' yonbag'ridagi o'tloqqa yetib borishganda usrushonliklarning hammasi o'sha yerga to'planishgandi. Hamma o't o'rimi hilan mashg'ul. O'ttizga yaqin sipohiylar o't o'ruvchilaga yo'l-yo'riqlar ko'rsatar, ba'zi bir ishga bo'yni yor bermayotganlarga do'q, po'pisa qilishar qamchi bilan ishlashga majbur etishardi.

Kamak ham chalg'isini olib ishga tushib ketdi.

Ut o'ruvchilar orasida chollar, yosh-yalanglar, ayollar ham ko'p edi. Erkaklar chalg'ida, ayollar bo'lsa o'roq bilan ishlashardi. Ular o'rilgan pichanlarni hali qurimagan bo'lsa ham yig'ib-bog'lab, har yer-har yerga g'aram qilib ketishmoqda. Shu vaqt bir yosh kelinchak qo'lidagi o'rog'ini tashlab g'aram yoniga o'tirib qoldi. Umi kuzatib turgan bir sipohiy chopgancha kelib, qo'lidagi qamchi bilan kelinchakning yuz-ko'zi aralash savalaya boshladi.

– Ishyoqmas, Iskandarning otlari och yotsa-yu, bu bo'lsa, – deb haqoratlay boshladi. Kelinchak qornimi mahkam ushlagancha faryod chekib yig'lardi.

Shu vaqt semiz, baquvvatdan kelgan bir usrushonlik ayol kelib:

– Axir insofing bormi, homilador ayolni nega urasan, nomard, – dedi alam bilan.

– Nima deyapsan, hoy xotin, – dedi ayolni masxaralab sipohiy.

– O'l deyapman, dard deyapman, bechorani nima qilib qo'yding, bolasi tushsa, naq mendan ko'rasan, – dedi ayol qo'lidagi o'roqni sipohiyga o'qtalib.

Sipohiy o't g'aramiga suyamb rangi bo'zdek oqarib ketgan kelinchakka: «Tur o'rningdan deyapman», deb yana do'q qila boshladi.

– Qo'y, nari tur, nega unga yopishib olding, – dedi haligi semiz ayol kelinchakni himoya qilib.

Sipohiyning jahli chiqib, ayolni itarib yubordi.

– Nega meni urasan, hu yashshamagur, qoning og'zingdan kelsin, hu itdan tarqagan, o'qilon tovoningdan kirib og'zingdan chiqsin, – ayol kelib sipohiyning yuzlariga chang solib yumdalay boshladi.

Boshqa makedoniyalik sipohiylar bo'lsa bir chekkada turib qiyqirishar, sipohiy bilan sug'd ayoli o'rtasidagi mojaroni maza qilib tomosha qilishardi.

– Ha, Roma, endi ko'rasan, naq bir joyingmi uzib olmaguncha qo'ymaydi, yo qochib, yo o'lib qutulasan, – dedi sipohiylardan biri uni mazax qilib.

Sug'd ayoli bo'lsa hamon bo'sh kelmay, sipohiyni yulib-yumdalab, beto'xtov qarg'ardi.

– Qoch, nari tur, – Roma janjalkash ayolni itarib yubormoqchi bo'lgan edi, u ham bo'sh kelmay sipohiyning kamaridan ikki qo'li bilan mahkam tutib oldi. Janjalni sotib olishga tayyor bo'lib zerikib yotgan makedoniyaliklar «endi rosmana tomosha bo'ladi», deb mojaro qilayotgan ayol bilan sipohiyni davra qurib o'rab olishdi.

– Qani, Roma, bo'sh kelma, agar shu ayoldan kaltak yesang, uyingga qaytgach, senga hech kim qizini bermaydi, – dedi hazil qilib makedoniyalik baqaloq yigit.

– Burningga ehtiyot bo'l, Roma!

– Roma, sug'd odati bo'yicha shu ayolni yiqitsang, senga indamay tegardi!

– Roma, yiqilib ber, bo'lmasa shu yerda qolib ketasan!

Sipohiylar bunday askiyadan baravariga qiyqirishar, ba'zilar qo'llaridagi nayzalarni bir-biriga urib sharaqlatishar, kimdir qalqonga to'qmoqni urib go'yo tibiljang chalayotgandek ovoz chiqarardi.

– Itvachcha, homilador ayolga qo'l ko'tarasanmi, hu it emgan, xotinchalish, qani yigit bo'lsang qurolingmi tashia, sen bilan yakkama-yakka olishganim bo'lsin!

Davrada turgan tilmoch sug'd ayolining so'zlarini askarlarga tushuntirib bergan edi, hamma baravariga:

– Kurashasan, Roma, kurashasan, Roma, – deb baqirdilar.

Sipohiylardan ikkitasi o'rtaga tushdi-da, Romaning qilich, qalqonlari-yu, boshidagi dubulg'asigacha hammasini olib

qo'yishdi. Keyin homilador kelinchak qolib ketib, sug'd ayoli bilan Romani o'rtaga tushirishdi-da, yaxshilab davra tuzishdi. Pichan o'rayotgan, g'aramlayotgan tog'liklar ham qiyqiriqlarni eshlitishib, «bu yerda nima bo'lyapti o'zi», deb chopgancha kelishib, davra orqasida turishdi. Ha, bu ayanchli hangomaning oqibati nima bilan tugarkin. Kelimini mardonavor himoya qilayotgan bu ayol o'z vijdomi, nomusi, ona yurti, farzandlari uchun jonini ham fido qilishga tayyor. Uning yuragidagi beqiyos nafrati shu darajaga yetgandiki, inson hayotini, onalik nafosatini yer bilan yakson etmoqchi bo'lgan, Sug'diyonada o'zlarini nihoyatda hayosiz tutayotgan bosqinchilarni bo'g'ib tashlashga ham tayyor edi. Bu qanday savdo, qarangki ayol ustidan, ona ustidan kulishyapti, axir o'zlarining onalari, xotinlari, qizlari shu ahvolga tushsa nima qilisharkin?!

Roma o'zi xohlamagan holda sipohiylar boshlig'ining buyrug'i bilan homilador kelinchakka «tezroq ishla» deb po'pi-sa qilgandi. O'ziga qolsa hech vaqt bunday qilmasdi. Endi bo'lsa sipohiylar uni majburan o'rtaga tushirib masxarabozlik mo-jarosini boshlab yubordilar. Nima qilish kerak, Sug'd ayoli ham o'lgudek janjalkash chiqib qoldi. Romaning bo'sh-bayovligini bilib, borgan sari avjga minib baland kelardi. Sipohiylar bo'lsa go'yo olovga yog' quyib yana avj oldirishmoqda edi.

– Qam, Roma, umidimiz sendan, o'zingni ko'rsat, bir xotinga kuching yetmaydimi?

Davra o'rtasida sug'd ayoli qarshisida noiloj turgan Roma quroldoshlarining qaltis hazilidan nima qilarini bilmay, bo'zraygancha turardi.

– Belidan ol, belidan, Roma!

Roma o'ziga yopishmoqchi bo'lib turgan ayolni qo'qqisidan itarib yuborgan edi, ayolning jazavasi tutib, jahl ustida o't ustida yotgan o'roqni chaqqonlik bilan olib, sipohiyning qorniga sanchdi. Roma qattiq chinqirdi-yu, qornini ushiagancha yerga ag'darilib tushdi.

Bu holmi ko'rgan davradagi sipohiylar baravariga haligi ayolga yopishib ketdi, hammayoq hiy-chuv, to'polon bo'lib, davra orqasida turgan usrushonliklar qo'llaridagi o'roq, chalg'i bilan makedon sipohiylariga tashlamishdi. Tog'liklarning

g'azab-nafrati toshib ketgandi, endi ularni hech narsa ushlab qololmasdi. Kamak qornidan qon oqib yerda cho'zilib yotgan sipohiyning qilich, qalqonlarini oldida, makedoniyaliklarga tashlandi. Boshqa tog'liklar ham undan o'rnak olib shunday qilishdi, o'lganlarning qurollari bilan jangga kirib ketishdi. Hainma bir yoqadan bosh chiqarib, mardonavor jang qilish oqibatida o'ttizga yaqin sipohiy birpasda yer tishlab qoldi.

– Aziz hainshaharlar, hamma qurollarni olinglar, otlarni minib, tezda toqqa qochamiz, – dedi Kamak.

– Undan keyin-chi? – dedi klmdir.

– Boshqalarga ham xabar beringlar, tezroq toqqa ketishsin, u yerda to'planishib, jangga kiramiz, keyin Spitamenga chopar yuboramiz, biz uchun endi boshqa yo'l yo'q.

Haqiqatan ham hozirgi vaziyatda bundan boshqa yo'l yo'q, Iskandar odamlari tezda bu yerga yetib kelishi turgan gap. Biror odamni ham qo'ymay qirib tashlashadi, bumi usrushonliklar yaxshi bilishardi. Hamma Kamakning orqasidan ergashdi. Makedoniyaliklarning qurol-yarog'lari, yigirmaga yaqin ot, oziq-ovqatlarini o'lja olib tog' yo'lidan ketishdi.

Tog' darasiga kiraverishda bir-biriga qarama-qarshi ikkiga baland qoya ko'rindi. Tog'liklar uning birinchisini «Mug'», ikkinchisini esa «Tal» deb atashadi. Qo'zg'olonchilarning bir qismini ana shu ikki qoya tepasiga joylashib olishdi. Qolganlari yana ichkari tomon kirib ketishdi. Ular shu yerdan tog' tomonga keladigan yo'lmi kuzatishadi. Yo'l-yo'lakay ularga tog' yonbag'irlarida yashovchi aholi qo'shilib, xalq qasoskorlarining kattagina lashkari tashkil topgandek bo'ldi.

Erta saharlab qishloq tomondan ellikka yaqin suvoriy ko'rindi. Aftidan ular kuni kecha o'tloqda yuz bergan fojiali ahvoldan xabar topib, tog' yo'lga qarab kelishgan bo'lsa ajab emas. Ana ular to'xtashdi, shu tomonlarga ishora qilib, nima haqdadir uzoq so'zlashishdi. Keyin ulardan ikki suvoriy ajralib orqaga qaytdi. Qolganlari bo'lsa qasoskorlar izidan ikki tomoni baland qoyalar bilan o'ralgan yo'ldan tog' tomonga qarab kela boshladilar. Sug'd ayg'oqchilari makedonlar shu tomonga kelayotganligi haqidagi xabarni Kamakka yetkazishdi.

– Demak, Iskandar Maroqanddan chiqib, Navtakaga kelyapti, haligi ikki otliq bo'lgan voqealarni Iskandarga yetkazishadi, – dedi Kamak o'ylamb.

– Nima qilish kerak? – so'rashdi haligi qoyadan qaytib kelgan yigitlar.

– Iskandar ikki kundan so'ng shu yerda bo'ladi, avvalo biz bu tomonga kelayotgan makedomiyaliklarning bittasini ham qochirib yubormay qirib tashlashimiz darkor. Keyin tog' yonbag'irlarida yashovchi hamma aholimi ko'taramiz. Bir tomchi qonimiz qolgunga qadar jang qilamiz. Spitamenga yuborilgan chopar eson-omon yetib borsa, yaxshi bo'lardi.

Kamakning fikrlarini tog'liklar ma'qullashdi. Boshqa iloj ham yo'q. Hamma bir og'izdan:

– Yo hayot, yo o'lim. So'nggi tomchi qonimiz qolguncha jang qilamiz, – deb qasamyod qilishdi.

Tog'liklar qoyalar orasidan yashirinib kelayotgan makedon suvoriylarini kutib turishdi. Tushga yaqin tog' oralig'idagi yo'lda ular paydo bo'ldi. «Mug'» va «Tal» qoyasidagilar avvaliga ularni oldinga o'tkazib yuborishib, keyin ular ustiga katta-katta toshlarni yumalata boshladilar. Dushmanlar tosh yomg'iri orasida qolib, bir qanchasi ot-ulovi bilan xarsanglar tagida jon berdi. Qolganlari qurshab olinib qirib tashlandi. Eng oxirida ehtiyotlik bilan kelayotgan ikki otliq orqaga burilib qochmoqchi edi, «Mug'» tepasidagi kamonchilarning o'qi ularni ham yer tishlatdi. Shunday qilib, tog'liklar birinchi jangda ham, ikkinchisida ham g'alaba qilishdi.

Lekin bugun bo'lmasa, ertaga bu yerga Iskandar o'zining son-sanoqsiz qo'shinlari bilan yetib keladi, sipohiylari uchun qattiq qasos oladi. Tog'liklar ham anoyi emas, ular o'limga tik qaraydigan, jasur kishilar. Ular o'ng'aylikcha bo'ysundirib bo'lmaydi, kerak bo'lsa joylarini ham fido qilib yuborishadi, lekin bekorga joy berishmaydi, usrushonliklar deb qo'yibdi ularni!

Tog'lik qasoskorlarning fikri-zikri, xayoli erta-indin bo'ladigan jangda edi. Odamlar go'yo taqdirga tan berib, o'z jonlarini xudo yo'liga tikib qo'yishgandi. Hech kim o'zini o'ylamasdi, katta-kichik, hamma hayot-mamot jangiga tayyor

turishardi. Erta-yu kech o'q yoy yasashar, qilich, oy boltalarni yaxshilab charxlashar, pastga iringitish uchun qoya tepasiga tosh, xarsanglar olib chiqishardi. Bu ishga hamma qari-qartang-u hatto yosh bolalar ham kirishib ketishgandi.

Qishloqqa yuborilgan ayg'oqchilar har turli mish-mish xabarlar olib kelishardi. Iskandar o'z qo'shinlari bilan Maroqanddan Ustrushon tomonga yo'lga chiqqan emish, yo'l-yo'lakay juda ko'p qishloqlarni yer bilan yakson qilib, o't qo'yib, unga qarshi bosh ko'targanlarni ayovsiz qirib tashlayotgan, hatto bolalar, ayolilar, qari-qartanglar ham jazodan chetda qolmagan emish. Bunday shum xabarlar tog'liklarning jangovar irodasini bo'shashtirolmasdi, albatta. Chunki ularning qasami bitta: «yo o'lim, yo g'alaba».

Tog'liklar mo'ljallagan ikki kundan so'ng kechga tomon Iskandar qo'shinlari yetib keldi. «Mug'» va «Tal» qoyalariga kiradigan yonbag'irdagi ko'm-ko'k vodiy birpasda odamlar bilan to'lib ketdi. Vodiy bunaqangi ko'p sonli lashkarni hech qachon ko'rmagan bo'lsa kerak. Ko'm-ko'k o'tlar toptaldi, odam oyog'i yetmagan sokin joylarga chodirlar tikildi, ovqat tayyorlash uchun o'choqlar qazilib, dosh qozonlar o'rnatildi. Tog'dan oqib tushayotgan tezoqar soy bo'yidagi xushmanzara joyga Iskandar qarorgohi joylashdi. Hammayoq shov-shuv, to'polon. Bedov otlarning kishnashi-yu, aravalarning taraq-turug'i, og'ir qurollarning sharaqlashi, sipohiylarning baqiriq-chaqiriqlari tinmasdi.

Vodiyga zulmat cho'kishi bilan go'yo osmon yerga ko'chib tushgandek tog' cho'qqidarida ming-minglab gulxanlar yona boshladi. Ular tog' qoyalarining hamma tomonida, hatto eng uzoq-uzoq cho'qqilarda ham miltillab turardi. Gulxanlarga qarab, bu salobatli tosh qoyalar ichida juda katta qo'shin joylashib olgan deb faraz qilish mumkin edi. Birdaniga butun vodiyda nog'ora-do'mbiralarning quloqni qomatga keltirib hayajonga soluvchi gumburlari boshlandi. Uqtin-o'qtin odamlarning allaqanday hayvonga o'xshab vahimali qiyqirishlari daralarga urilib aks sado berardi. Qorong'i tunda bunday vahimali ovozlari makedoniyaliklar yuragiga qo'rquv solardi.

Ular pichanzorda tog'liklar tomonidan bitta qo'ymay qirib tashlangan sipohiylarni ko'rgandan keyin ayniqsa vahimaga tushib qolishgandi. Endi har bir qadamda o'lim hidi kelib turgan tashvishli, xavf-xatarli bu o'lkadan eson-omon qaytib keta oladilarmi, yo'qmi. Iskandar qo'shinlaridagi har bir jangchining yuragi ana shu o'lim vahimasiga duchor bo'lgandi.

Xullas, tog'lardan kelayotgan dahshatli sadolar tun bo'yi bir daqiqa ham tinmadi. Butun jahonni titratgan, hamma nar-saga hukmi o'tgan Iskandar uzundan-uzoq kechada o'z tinch-ligini buzib, qo'shinlarini ruhan ezib, yuragiga qo'rquv sola-yotgan tog'liklar oldida o'zini birinchi bor negadir bizz sezdi. Qancha-qancha mamlakatlarda bo'lib, tosh qal'alarni ham zabt etgan buyuk sarkarda ana shu vahimani to'xtatishga qurbi yet-masdi. Axir kim anavi qoya ustidagi do'mbiraning hir ohang-da jaranglayotgan ovozini o'chira oladi, u yerga na o'q-yoy, na palaxmon toshi yetadi. Noiloj edi, tog' qoyalariga joylashib olgan yovvoyilarga nisbatan butun nafrat-g'azabi qo'zg'alib ketdi. Qani endi, askarlariga qanot qilib bersa-yu, o'sha tog' cho'qqilariga chiqib qoyalar orasiga joylashib olgan asabbu-zarlarning boshini uzib, toshdek pastga otsa!

Erta tong bilan Iskandar qarorgohiga butun nomdor zot-lar, qo'shin boshliqlari yig'ilishdi. Bular: Krater, Andromax, Menedem, Artabaz, Farnux, Aminta, Aristobul, Nearx, Pevlakay, Ptolemey, Qaran va boshqalar. Podshohning kayfiyati yaxshi emasdi, uxlamaganlikdan qovoqlari bo'rtib, moviy ko'zlari qizarib ketgandi. U dastlab ovozini pasaytirib, bosiqlik bilan so'zlay ketdi.

- Tog'liklarning bizni bunchalik nafrat bilan kutib olishlarini o'ylamagan edik. Axir Maroqanddek shahri azim darvozalarini ochib bersa-yu, mana bu yovvoyi maxluqlar asabingni o'ynasa! Bu qanaqa gap?! Hammasiga o'zimiz aybdor. Nega pichan o'rayotgan qishloq aholisi oldida ochiqdan-ochiq homilador ayolga hujum qilishgan? Nega? Axir bunday noma'qul harakatlar qanday oqibatlariga olib kelishini bilasizlarmi?

Endi podshoh g'azabli ko'zlari bilan shu ishlarga bosh-qosh bo'lgan Andromaxga tikildi.

– Bularga rahm-shafqat qilsangiz boshingizga chiqib oladi, ko‘rib turibsiz-ku, ulug‘ podshohim, – dedi tog‘ tomonga ishora qilib Andromax.

– Biz hech kimga rahm-shafqat qilmaymiz, ammo aql bilan ish tutmoq kerak. Sizning befarosatligingiz og‘ir oqibatlariga sabab bo‘ladi. Bitta makedoniyalikning hayoti men uchun mingta yovvoyining hayotidan qimmatliroq. Shuni hammangiz yaxshi tushumib olinglar.

Iskandar bir oz o‘ylanib turdi-da, keyin qo‘shin boshliqlariga murojaatetdi.

– Tezda hujumga tayyorlaning, kamonchi va palaxmonchi bo‘linmalar har ikkala qoya tepasiga ehtiyotlik bilan ko‘tarilishsin. Tog‘liklar daraga surib tushirilib, keyin bitta ham qo‘ymay qirib tashlanishi kerak. Qolgan qo‘shilmalar pastda ularni yaxshilab kutib olishadi.

Tong yorishi bilan jang-u jadal boshlandi. Sipohiylar arqonni qoyaga irg‘itib ustalik bilan ilintirib, birin-ketin o‘rmalab yuqoriga chiqa boshladilar. Tog‘liklarning o‘q bo‘ronlari toqqa tirmashib chiqayotgan makedoniyaliklardan ikkitasini yerga ag‘dardi. Bittasi qoyada arqonga osilganicha qoldi. Lekin makedoniyaliklar endi ko‘pchilik bo‘lishib chumolidek qoyalarga intila boshladilar. Tosh bo‘ronlari yog‘ila boshladi, tepadan irg‘itilgan bitta tosh o‘n-o‘n beshta bo‘lib qasir-qusur qilib vodiyya tushar, har safar ikki-uch makedoniyalikni halok qilardi. Endi lashkarlar har tomondan bitta-bitta arqonga chirmashib chiqishga harakat qilishdi. Makedoniyaliklarning qat‘iy harakatlari oqibatida ba‘zi birovlar qoya ustiga chiqib olishdi. Cho‘qqilarga chiqib joylashgan kamonchilar, palaxmonchilar qoyalarga berkinib olgan tog‘liklarni birin-ketin ag‘dara boshladilar. Yuqoridan pastga qarab baqirib, dod-voy solib yerga tushib chilparchin bo‘layotganlar orasida tog‘liklar ham, makedoniyaliklar ham bor edi. Eng asosiy qoya tepasiga chiqib olgan makedoniyaliklar ko‘payib qolishdi. Ammo tog‘liklar hech qo‘rqmasdan, dadil va mardonavor jang qilishardi. Lekin kuchlar teng emasdi. Ba‘zilar arqonga osilib omonlik istab daraga tusha boshladi. Ammo shu yerdayoq suvoriylar kelib ularni chavaqlab tashlardilar. Jang to qorong‘i

tushgunga qadar davom etdi. Tog'liklar jang-u jadalni to'xtatishmadi. Qorong'i tushishi bilan qoyaga joylashib olgan makedoniyaliklarga o'sha yerda tunash haqida buyruq berildi.

Jang to'xtadi, ammo tog'larda gulxanlar yana yona boshladi. Do'mbiralarning gumbur-gumburi, qiyqiriqlar, turli hayvonlarning ovozi bo'lib baqirish, qush bo'lib sayrash boshlandi. Yana mudbish, qo'rqinchli kecha boshiandi.

Iskandar o'z qo'shin boshliqlariga tog'liklarga bildirmay kechasi bilan uxlamay arqonlardan qoya tepasiga o'rmalab chiqish haqida buyruq berdi. Ular ertalabgacha qoya ustiga ikki yuzga yaqin jangchini chiqara oldilar. Xullas, podshohning rejalari ro'yobga chiqqandek bo'ldi. Tong bilan qoya tepasiga chiqib olgan sipohiylar toshlar orqasiga berkmib olgan tog'liklarni birma-bir ushiab qira boshlashdi. Ammo ular ham bo'sh kelmay, oyboltalari bilan makedoniyaliklar o'ylamagan joydan chiqib, yo tosh ustidan sakrab, qoya ustida mardlarcha yov bilan olishar edilar. Shu **vaqt** qo'qqisdan yaqindagi dara orqasidan yuzlab tog'liklar qiyqiriq bilan xuddi bo'rondek yopirilib kelishdi, Getayralar kutilmagan hujumdan shoshib qolishdi. Ikki tomoni tog'lar bilan o'ralgan darada dahshatli jang boshlandi. Iskandarning o'zi ham jangga klrishib ketdi.

Qo'lidagi o'tkir qilichi bilan tog'liklarni bir chekkadan qira boshladi. Shu vaqt qoyaning qayeridandir otilgan o'q-yoy Iskandarning bo'ymiga tegib, ot ustida hushidan ketdi. Mulozimlar uni darhol otdan tushirib olib qarorgohga olib ketdilar. «Hammasini bitta qo'ymay qirib tashianglar», dedi podshoh bir oz hushiga kelib.

Tog'liklar jon-jahdlari bilan, o'lim yo hayot qabilida jang qilishardi. Iskandar qo'shindaridan ancha kishi halok bo'ldi, yaradorlar undan ham ko'p edi. Makedoniyaliklar – ko'pchilikni tashkil etganligi, qurol-yarog'lari shayligi tufayli endi tog'liklarni quvib, surib ketishdi. Maydon o'liklarga to'ldi. Kamakning odamlari siyraklashib qolgandi. Ular so'nggi tomchi qonlari qolgunga qadar jang qilishdi. Endi tog'liklar jang bilan orqaga chekinib tog' yonbag'irlari bilan tepaga ko'tarila borishar, makedoniyaliklar esa ularni tinmay ta'qib qilishardi. Tog'liklar sardori Kamak o'q-yoy tegib qo'lidan yaralandi. Ammo

kurash hamon qizg'in davom etardi. Mana, ikki tog' orasidagi sayhonlikda yaralangan, yelkasini qo'li bilan bog'lab olgan Iskandar paydo bo'ldi. Qoyaga tutash qiyaliklarga chiqishga xalal berayotgan tog'li kamonchilarning adabini berish va yo'lni tozalash uchun o'ttizga yaqin chaqqon yigitlar tanladi. Ularga qoyani aylanib o'tib, tog'liklarga bildirmay, qanday qilib bo'lsa ham o'sha qiyalikni egallashni topshirdi. Eng asosiy qoyaga chiqib olishsa, unga tutashib ketgan qator cho'qqilarga ham yo'l ochilardi. Iskandar bu abjir jangchilarning har biriga ellik talantdan mukofot ham va'da qildi. Bunday hotamlikdan suyinib ketgan yigitlar qiyalikni egallashga jon-jahdlari bilan kirishib ketishdi. Ular ketishgach, Iskandar o'z «do'stlari»dan yana elliktasini yuz talantdan va'da qilib aylanib o'tmasdan to'g'ridan-to'g'ri ana shu qiyalikni egallashga yubordi. Qoyaga orqadan chiqmoqchi bo'lgan yigirma jangchiga podshoh va'da qilgan talantlar nasib etmadi, aftidan pistirmada turgan tog'lik suvoriylar qo'qqisidan hujum qilib hammasini yer tishlatgandi. «Do'stlar» bo'lsa tog'liklarga qarshi shunday jang qildilarki, oqibat-natijada yigirmaga yaqin makedoniyalik halok bo'lsa-da, qiyalikning bir qismigina qo'lga olindi. Iskandar imkoniyatni qo'ldan bermay «do'stlar»ni himoya qilish uchun yana yuz ellik getayrani yordamga jo'natdi. Chunki qiyalikda olg'a siljish g'oyat mushkul, ammo orqaga qaytish undan ham hattar xavfli edi. Qoya tepasidan otilgan toshlar to'xtovsiz nishonga urilayotgan o'q-yoylar makedoniyaliklarni esankiratib qo'ydi. Nihoyat kuchlar nisbati masalani hal etdi, qiyalik makedoniyaliklar qo'lga o'tdi. Endi asosan qoyaga yo'l ochildi, getayralar yoppasiga chumolidek tepaga ko'tarila boshladi, yakka oyoq yo'l tog'liklar, makedoniyaliklarning o'liklariga to'lib ketdi, yo'l-yo'lakay xalal bermaslik uchun jasadlarni pastga irg'itib yuborishardi.

– Bu yoqqa kelinglar, mana bu yerda katta g'or bor ekan, – dedi getayralardan biri baqirib.

G'or ichi keng va qorong'i edi, kimdir mash'ala yoqib yubordi. Bu yerda son-sanoqsiz tog'liklar makon topgandi: qariqartanglar, ayollar, bolalar... O'tloqdagi janjalga sabab bo'lgan homilador ayolning ko'zi yorigan, qayin onasi uning yonida

parvona. Tog'liklar qiyalikni qattiq mudofaa qilganliklarining boisi ham shunda ekan.

Getayralar boshlig'i Selova g'ordan chiqib, pastda bir qo'li bilan ot jilovini tutib turgan Iskandarga murojaat qildi.

– Aleksandr, bu yerda katta g'or bor ekan, tog'liklarning yarmi shu yerda.

– Kimlar ekan?

– Bolalar, ayollar, chollar...

– O'ldirmanglar, hammasini qoyadan pastga tashlansin!

Getayralar tog'liklarni g'ordan sudrab chiqib bola-chaqasi bilan pastga bitta-bitta itqitishdi. Tog'-toshlar qonga bo'yaldi, sayhonlik o'liklarga to'lib ketdi. Bu fojiali ahvolning shohidi bo'lgan Kamak boshchiligidagi qasoskorlar qo'shmi qoyadan o'tib getayralarni jang bilan qoya chekkasiga surib bordilar-da, Iskandarning ko'z oldida baqirtirib pastga tashladilar, begunoh tog'liklar, ayollar, bolalar, chollar uchun qasos oldilar. Getayralar sardori Selovani qoya cho'qqisiga olib chiqib, Iskandar ko'rsin deb tiriklayin qornidan nayzaga ilib, tipirchilatib qo'yidilar.

Xunrezliklarning cheki yo'q edi, ikki tomon ham qasosli dunyo qonunlari bilan bir-birlariga o'lim fojiasini namoyish qilishar, go'yo ikki tog' orasidagi ajal vodiysi inson qavmi ustidan qilmadigan barcha qonxo'rliklarning mashq maydoniga o'xshardi.

Makedomiyaliklarning necha ming kishilik shaylangan qismlari yana o'sha tepalik bo'ylab ko'tarilishdi. Ular qoyadan-qoya-ga o'tib, tog'liklarni bola-chaqalari bilan yanchib tashiadilar. Qoyaning har yer, har yeridan itqitib yuborilganlarning faryodlari, baqirishlari kechgacha tugamadi...

Vodiya mudhish qorong'ilik tushdi. Pastda tibiljang sado-lari yangradi. Bu jang to'xtatilsin, degan ma'noni bildiradi. Tog'liklar qirilib bitgandek. Ulardan faqat bir necha kishigina omon qoldi. Ular Kamakni suyagancha Ustrushon tog'larining yashirin daralari orqali g'oyib bo'lib ketishdi. Iskandar odamlari tog'liklar sardori qahramon Kamakni ertasiga ham qidirishdi, ammo u samoga uchib ketgandek daraksiz edi...

Shunday qilib Ustrushondagi g'oyat og'ir, fojiali jang Sug'di-yona tarixida o'chmas iz qoldirdi, bu jangda tog'liklar ko'p qur-

bon bergan bo'lsa ham, ammo Iskandar lashkarlari birinchi bor misli ko'rilmagan qaqshatqich zarbaga uchragandi.

Ha, qurbonlarning cheki yo'q edi... «Ular katta-kichik, qari yosh bo'lib yigirma ming issiq jon edi...»³⁸

Kurash hali to'xtamaydi, hov ana, qarang, zulmatli tunda arslondek cho'zilib yotgan olis qoyalarda yana gulxanlar yondi. Uzoq-uzoqlarda, inson oyog'i yetmaydigan baland cho'qqilarda do'mbiralarning bir ohangda gumburlashi har kecha takrorlanib turardi...

DUSHMAN BILAN YUZMA-YUZ

Tong saharda Spitamen qarorgobiga o'z sheriklari bilan Kamak kirib keldi, uning o'q-yoy tekkan qo'li shishib ketgan, qon ko'p ketganidan holi ancha tang, oyog'ida zo'r-bazo'r turardi. Spitamen mulozimlarga buyurib, Kamak uchun alohida chodir tayyorlatdi, keyin tabib chaqirib yarasiga malham qo'ydi. Tog'liklarning ayanchli fojiasi haqidagi gaplar Spitamenning qulog'iga yetib kelgan bo'lsa ham, endi bu haqdagi aniq xabarni Kamakning o'zidan eshitdi. O'sha kuni qarorgohda uch kunlik motam e'lon qilinib, ot, tuya so'yib, tangriga qurbonlik qilindi. Vag'npatlar ularning darohiga duoyi ibodat o'qib, katta gulxan atrofida marhumlar sha'niga marosim o'tkazishdi.

– Ulug' Axuramazdaning sha'niga hamd-u sano aytib, vatandoshlarim qoni uchun qasam ichaman, usrushonliklar ulug' tangri oldida o'z burchlarini ibrat bilan ado etibdilar, ularning ruhi oldida bosh egamiz, – dedi Spitamen Kamakkka hamdardlik bildirib.

– Usrushonliklar qirilib ketdi, ammo tog'larda hali odamlar barga o'xshaydi, o'sha ayanchli qora tunda yana mash'alalar yondi, uzoq-uzoqlarda do'mbiralalar gumburi tinmadi, ammo biz ularni topa olmadik, balki ularning ruhi edimi? – dedi Kamak Spitamenga.

– Tog'liklar hech qachon o'lmaydi, hali ular ertami bugunmi

³⁸ Arrian. «Iskandarning yurishlari».

yana paydo bo'ladi. Iskandar yuragiga vahima soladi, ha, biz ham ular xotirasiga umrbod sodiqmiz, katta kurash hali oldinda, – dedi Spitamen mag'rurlik bilan.

– To'g'ri gapni aytding, ulug' sarkarda, biz tog'liklar manfur yirtqichga o'lim zarbasini berdik, hali ular Sug'diyonaga kelganlariga pushaymon bo'ladi, – dedi Kamak bilan kelgan mo'ysafid.

– Men sizni qayerda ko'rgandim, – so'radi Spitamen uni eslay olmay.

– Bu o'sha men bilan Bessni qo'riqlab turgan Farad, – dedi Kamak.

– Ey hali o'sha uzukni olaman deb Ekbatangacha bormoqchi bo'lgan Farad senmi? – dedi Spitamen hazilomuz.

– Nimasini aytasiz, bu gap hammayoqqa tarqab ketibdi, xabardan voqif bo'lib Bessning go'rini izlab yurganlar ko'p, ammo hammasiga mana bu Kamak aybdor, juda soddalik qilib qimmatbaho mulkni qo'ldan chiqarib yubordi, axir Doriyovushning uzugi-ya! – dedi Farad.

– Ushrushonda do'zax ajalxonasini ko'rganda mol-u dunyo ko'zimga ko'rinmadi, boylikka hirs qo'yish aqlsizlik ekaniga yana bir marta ishonch hosil etdim, – dedi Kamak ma'yuslanib.

Spitamening qarorgohi Maroqanddan o'n chaqirim nari-dagi qishloqqa joylashgandi. O'sha kuni poytaxt hokimi Namich bilan nari-beri bo'lgach, o'zicha mana shu joyni vaqtincha qarorgoh qilib tanlagandi, bu yerdan turib Maroqandda bo'layotgan voqealarni bemalol kuzatib turish mumkin edi. Ma'lum bo'lishicha, Spitamen o'shanda Maroqanddan, hokim huzuridan jahl bilan chiqib ketgach, Namichning sarkardalari, lavozimdorlari o'rtasida ham ixtiloflar chiqqan, Spitamening fikriga qo'shilgan ba'zi sarkardalar uni yo'ldan qaytarib, poytaxtni birga himoya qilishimiz kerak deyishgan. Maroqandning ikki qatlik devori, darvozalari mudofaa uchun ancha mustahkam qurilgan bo'lsa-da, Namich va uning yaqinlari o'z so'zidan qaytmay, Iskandarni shahar darvozasidan chiqib tantanavor kutib olishga qaror qilishgan. Ammo endi bu yog'ini eshiting, axir Iskandar ham anoyi odam emasdi, Maroqandga hech bir qarshiliksiz kirib olgach, xazinadagi barcha boyliklarni

olib, lashkarlariga shaharni istagancha talashga ruxsat bergan, Namichning «biz o'z ixtiyorimiz bilan taslim bo'ldik, hurmat bilan darvozalarni sizga ochdik, siz bo'lsangiz bizga yengilganlardek qarab, asirlardek muomala qilmoqdasiz», degan e'tiroziga: «Sen g'olib emas, mag'lubsan», deb javob berdi. Namich hadeb mahmadonagarchilik qilavergach, uni ma'lum vaqtgacha zindonga tashlashni buyurdi.

Spitamen yuz bergan vaziyatni o'rganib chiqqach, o'z do'stlari, sarkardalari bilan kengashib, poytaxtni qamal qilishga qaror berdi.

Xo'sh, vaziyat qanday edi? Iskandar lashkarlari ham tog'liklar bilan bo'lgan jangda katta talafot ko'rdi, minglab saralangan jangchilaridan ajraldi. Selova baland qoya ustida tog'liklar nayzasiga sanchib qo'yildi. Maroqanddan qaytishda qishioq, shaharlardagi xalq qo'zg'olonchilari bilan bo'lgan to'qnashuvlarda qanchadan-qancha makedoniyaliklar boshidan ajraldi. Xunrezliklarning cheki yo'q edi, bu yerlarga molidunyo orttirish, pul ishlash maqsadida kelgan oddiy jangchilar bunchalik qattiq qarshilikka duch kelishni o'ylamagandi. O'z Vataniga tezroq qaytib ketishni orzu qilganlar uchun jang-u jadalning oxiri ko'rinmagach, ular o'rtasida norozilik kayfiyatlari kuchayib borardi...

Spitamen ana shu norozilik kayfiyatidan foydalanmoqchi, Maroqandni qamal qilib, Iskandarga ish orttirmoqchi edi. Vaholanki, Iskandar «Sug'diyona poytaxtim qarshiliksiz oldik, endi Baqtriya ham, Sug'diyona ham oyog'imiz ostida», deb butun olamga jar soldi. Agar Spitamen Maroqandni bosib olsa, bu juda katta siyosiy, ma'naviy, harbiy ahamiyatga molik voqea bo'lardi.

Spitamen kengashga to'plangan do'stlariga o'z fikr, mulohazalarini yotig'i bilan tushuntirdi:

– Maroqand Sug'diyonaming muqaddas, aziz poytaxti, uni barpo etgan ulug' bobomiz Kaykovus edi. Namich qo'rqqoqlik qilib muqaddas poytaxtimizni Iskandarga berib qo'ydi, poytaxtni qamal qilib, qaytarib olamiz. Mana, ko'rasizlar, Maroqandga hujum boshiasak, Iskandar Ushrushondan lashkarlari bilan halloslagancha shu yoqqa chopib keladi yoki

o'z sarkardalarini yuboradi. Biz bo'lsak, unga chap beramiz, Maroqanddan chiqib cho'lga chekinamiz, yo'l-yo'lakay jang qilamiz, makedoniyaliklarning yaxshilab adabini berib, tog'lik qardoshlarimiz uchun qonli o'ch olamiz. Bu ishimiz Iskandarga qattiq kaltak bo'ladi, ammo hali uning lashkarlari Maroqandga yana qaytib kelishga ko'nadimi, yo'qmi?

Iskandar tog'dagi qattiq jangdan so'ng Yaksart daryosi bo'yiga chiqdi. Bu daryo Shimoliy Sharqdagi osmono'par tog'lardan boshlanib, keyin cho'l-dashtlardan o'tib Oksiana³⁹ ko'liga quyilardi. Daryo bo'yidagi G'azo, Kiles, Mamakent, Xata va boshqa shaharlar qattiq jang bilan birin-ketin qo'lga olindi.

Iskandarning g'olibona yurishi davom etib turgan bir paytda Maroqanddan chopar kelib, Spitamen poytaxtni qamal qilib egallaganligini ma'lum qildi. Bu xabardan Iskandarning tepa sochi tikka bo'lib ketdi, urush jonlaridan o'tib ketgan lashkarlarga qanday qilib bu noxush gapni aytadi! Podshoh ruhan ezildi, hamma ishni qaytadan boshlash, yana poytaxtga lashkar tortib bormoq kerak. Jonidan to'ygan jangchilar Maroqandda qo'zg'olon ko'tarilganini eshitib: «Urush jomimizga tegdi, endi uyimizga qaytib ketamiz», deb xitob qildilar. Iskandar hech narsa qulog'iga kirmayotgan, hatto eshitishni ham xohlamayotgan o'z lashkarlariga ta'sir etish uchun notiqlik san'atini ishga soldi. Uzoq so'zladi, ahvolni tushuntirdi, o'zini oddiy jangchilar bilan tenglashtirdi.

– Agar Spitamenni qo'lga olsalaring, Sug'diyonadagi barcha g'alayon, qo'zg'olonlar tugaydi. Dasht skiflarini menga qarshi qo'zg'ayotgan kim – Spitamen! Tog'liklarni ishga solgan kim – Spitamen! Turli qabilalarga bo'lingan skiflarni birlashtirib, menga qarshi qo'yayotgan kim – Spitamen! Ha, daxlar hain, massagetdar ham, saklar ham, forslar ham – hammasi Spitamenga tayanadi! Spitamen qo'lga olingan kuni Sug'diyona zabt etilgan hisoblanadi, shuni yaxshi bilib olinglar.

– To'g'ri, ulug' podshohimiz haq gapni aytyapti, – dedi Farnux Iskandarni quvvatlab.

³⁹ Oksiana – Orol dengizi.

– Sizlarga sug‘d tilini yaxshi biladigan Farnuxni qo‘shin boshlig‘i qilib tayinlayman, mana, o‘zlaring biladigan pahlavon sarkardalar Andromax, Krater, Menedem, Karen ham sizlar bilan birga borishadi.

– Ura, ura, yashasin Aleksandr, – degan sadolar yangradi. Bu – Iskandarning pahlavon sarkardalariga bo‘lgan olqish edi.

Qarshida saf tortib turgan sarkardalar Farnuxga ijirg‘anib qarah qo‘ydilar, chunki ular harbiy san‘atni yaxshi bilmaydigan bu lapashang odam podshohga qanday qilib yoqib qolganidan hayron edilar.

Iskandar Farnuxga, sarkardalarga o‘z rejalarini birma-bir so‘zladi:

– Sen, – Farnuxga qarab dedi: – hozirning o‘zidayoq Maroqandga jo‘naysan, tog‘ yo‘li bilan emas, cho‘l bilan, Spitamen kutmagan tomondan shaharga hujum qilasan!

Farnux boshchiligidagi makedon qo‘shinlari poytaxtga tomon kelayotganligidan xabar topgan Spitamen Maroqandni tashlab chiqib ketdi. Endi unga yo‘l-yo‘lakay qishloq va shaharlarda yuzlab va minglab odamlar qo‘shilib katta kuchga aylandi. Farnux bu xabarni eshitib, Spitamenning ketiga tushdi. Spitamen bo‘lsa Farnuxga chap berib keng dashtlikka chiqib oldi. Ammo makedoniyaliklar bo‘sh kelmay xalq qasoskorlari ketidan ta‘qibni davom ettirdilar.

– Ularni dashtga chiqish yo‘lidagi tekislikda kutib olamiz, – dedi Spitamen do‘stlariga murojaat etib.

– Ha, yaxshilab kutib olish kerak, – dedi Oksiart Spitamenni quvvatladi.

Spitamen jang rejalarini tushuntira ketdi. Datafarn o‘ng qanotda, chap qanotda Xorien, yo‘l-yo‘lakay ularga qo‘shilgan olti yuz skif suvoriylari massagetlar bilan markazda Spitamen qo‘shilmasida jang qilishadi, gap shu.

– Biz dasht chegarasida – olti-yetti chaqirim naridagi o‘rmonzorda, pistirmada turib ularni kutib olamiz. O‘sha yerda tumshug‘idan tuzoqqa ilintiramiz. Lekin kech bo‘lishi bilan dashtga qarab tartibli chekinish kerak. Chekinishni skiflar boshlab beradi.

Shunday qilib, hammasi kelishib olindi. Makedoniyaliklar daraxtzor yaqinidagi torgma yaylovlikdan o'tib, keyin o'rmonga kirishlari kerak edi.

Choshgoh paytida go'yo bo'ron turgandek uzoqdan chang-to'zon ko'tarildi. Yengil, og'ir suvoriylar, piyodalar, makedon qo'shinlarining boshqa turlari lak-lak bo'lib dashtlik sari kela boshladi.

- Do'stlar, ana ko'ringlar, rejalarimiz to'g'ri chiqdi, ular qopqonga tushadi, qani hujumga, dushmanga dam bermaslik kerak!

Spitamen oldinga chiqdi. Chap, o'ng qanotlarda uning do'stlari hujum boshlashdi. Birdan tibiljang sadolari yangradi, kamonchi suvoriylar qiyqirgancha na'ra tortib, olg'a yurishdi. Farnux bunday katta kuch qo'qqisdan hujum boshlashini kutmagan edi. Makedon jangchilari oldiniga bir oz esankirab qolishdi. Skif kamonchilarining o'qlari xatosiz tegar, ular dushmanning qalqon yoki sipar tutgan joyiga emas, bo'ynidagi ochiq joyiga sanchilardi.

Osiyoliklar Iskandar qo'shinlariga qarshi shunday shijoat, mardonavorlik bilan jang qildilarki, buni so'z bilan ifodalash qiyin. Daryo-daryo qon oqdi, amudi-garronlarning quloqni qomatga keltiruvchi jaranglari, qilichlarning o't chaqnab sharaqlashi, zarbaga uchragan yoki qornidan nayza teshib o'tgan jangchilarning nolishi, odamlarning qiyqirib na'ra tortishi, qiy-chuvi, dod-voyi butun jang maydoniga do'zax tusini bergan, urushning jirkanch, ayovsiz, dahshatli manzarasi qalblarni qaqshatardi.

Tor bir oraliqda bir-biriga qorishib yotgan makedoniyaliklar borgan sari siqib kelayotgan Spitamen boshliq xalq qasoskorlari iskanjasiga tushib qolishdi. Spitamen atrofida Sherdor, Zo'rtosh, Kamak, Tariq kabi bahodirlar jang qilishardi. Ular dushman saflarini yorib o'tib, na'ra bilan, jon berib-jon olishar, saralangan skif kamonchilari mo'ljalmi aniq olib, g'animlarni birma-bir ag'darib turardi. Spitamen jang qilayotgan maydon atrofi o'liklar bilan to'lib ketdi. U qaysi tomonga hujum qilsa yunonlar, makedoniyaliklar orqaga chekinib yo'l bo'shatishar, jonlarini omon saqlab qolish niyatida to'da-to'da bo'lib

qochishardi. Buni kuzatib turgan Farnux Spitamenning jang qilish mahoratiga qoyil qoldi.

- Ko'rib qo'y, hoy Menedem, jang qilish mana bunaqa bo'ladi.

Farnuxning gapi Menedemning g'ashiga tegdi.

- Shoshmay tur, hali men bu sahroyining bir adabini berib qo'yay, - dedi mag'rurlik bilan Menedem.

Farnux istehzo bilan kuldi-da, keyin Menedemga yuzlanib: - Tag'in boshingdan ajralib qolma, Makedoniyaga boshsiz borsang qabul qilishmaydi, - dedi.

Shu gapdan so'ng Menedem jahl bilan jangga tushib ketdi. Uning oti g'oyat baquvvat, epchil edi. Jang shunday dahshat tusini oldiki, birov-birovni tanimas, go'yo qiyomat qoyim bo'layotgandek. Menedem o'z atrofidagi yengil otiqlar bilan sug'dlar safini yorib kirdi. Lekin qasoskorlar xuddi shuni kutib turgandek Menedemni ikki tomondan o'rab olishdi.

- Biz o'rovda qoldik, bu tuzoqdan qanday qilib bo'lsa ham chiqib ketish kerak, - dedi Menedemning quroldosh do'sti Gipsida.

Ammo sug'dlarning siquvi qattiq edi, temirdek muktahkam zanjirni yorib chiqib ketishga aql bovar qilmasdi. Markaziy qanotdan Spitamen Menedem tomonga bosib kela boshladi. Sherdorning otgan o'qi Menedemning o'ng qo'lga tegib, yerga tushdi. Sarkarda qo'lini ushlagancha qoldi, lekin maydondan chiqib ketmay jangni davom ettirdi, chap qo'li bilan qilich ura boshladi. Shu vaqt Sherdor paydo bo'ldi va qo'lidagi oyboltani uzoqdan Menedemga otgan edi uning yelkasiga kelib tegdi. Ko'z oldi xiralashdi.

- Sen mening otimga minib, bu do'zaxdan chiqib ket, tezroq Kraterga xabar qil, yetib kelsin, - deda Gipsidaga jon holatda.

- Yo'q, seni tashlab ketolmayman...

Hammayog'i qonga bo'yalgan Menedem otdan ag'darildi. Gipsidaning endi uning otiga minib olishdan boshqa iloji yo'q edi, lekin ularni tobora qisib kelayotgan sug'dlar Gipsidani ham otdan ag'darishdi.

- Menedemga oyboltani kim otdi? - so'radi Spitamen.

- Sherdor, Sherdor, - dedi Zo'rtosh.

Spitamen Sherdorga yuzlandi:

- Suratlash, balli, boplading, kelib-kelib Iskandarning ishongan sarkardasiga tegizibsan-a, qoyil!

- Jangchilar ruhlanib ketishdi. Yunon-makedon qo'shinlari safida parokandalik boshlandi. Skifkamonchilari mohirlik bilan o'q-yoy otib juda ko'p dushman jangchilarini qirib tashladilar. Jangda Iskandarning o'ttiz ming kishilik qo'shinidan faqat sakkiz ming kishi tirik qoldi. Butun jahonga yengilmas deb dong chiqargan Iskandar qo'shinlari yana bir bor qattiq zarbaga uchragandi.

Ikki tomonning ham talafoti katta edi. Ammo sug'diyonaliklar dushmanning sarosimaga tushganligidan foydalanib cho'lga chekinish oldidan o'lja olish maqsadida maydon chekkasida turgan ot-aravalarga, tuyalardagi mollarga tashlandilar. Maroqanddan talab olib kelinayotgan boyliklar, turli xil matolar, chorva mollari, qimmatbaho uy ashyolari, gilamlar, qullar, kanizaklar...

Lekin shu payt kutilmaganda Krater qo'shilmasi yetib keldi.

Makedoniyaliklar g'azab-nafratga to'lib «yovvoyilar» boshlig'i Spitamenni qo'ldan chiqarib yubormaslik uchun cho'l tomondan uning yo'lini to'sib qo'ymoqchi bo'lishdi. Sug'diyonaliklar bu imkoniyatni qo'ldan bermaslik maqsadida hayot-mamot uchun yana ham qattiq jang boshladilar. Spitamen dushman hiylasini darhol sezib, o'zining saralangan suvoriylariga dasht yo'lini to'sayotgan dushman lashkarlariga tashlanishni buyurdi. Datafarn fors qilichbozlari bilan birga ular ustiga ot solib yubordi.

Cho'lga chiqib ketish yo'li shiddatli jang maydoniga aylandi, daryo-daryo qon oqdi, atrof olmadek to'kilgan jangchilar kallasiga to'lib ketdi. Uzun nayzaliklar birdaniga «temir qal'a» hosil qilib, fors qilichbozlari safini yorib kirishdi. Ikkinchi tomondan Kraterning og'ir otiqlari kirib keldi. Makedon lashkarlarisonjihatidan ham, qurultijihatidan ham ustunekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Spitamen qorong'u tusha boshlaganidan foydalanib, chekinishga ko'rsatma berdi. Datafarn va skif otiqlariga asosiy qismlar chekingunga qadar dushman lashkarlarini ushlab turishni topshirdi. Dastlab Oksiart, keyin

Xorien, eng oxiri Spitamen va Datafarn chekinishi kerak edi va faqat shu yo'l bilangina Spitamen lashkarlari talafotdan saqlanib qolardi.

Makedoniyaliklar Spitamenni to dasht chegarasigacha quvib borishdi, ta'qib shu yerda to'xtadi, cho'l qorong'illigi ichiga kirishga hech kimning yuragi dov bermadi...

Makedon-yunon qo'shinlarining jangda ko'rgan talafoti, boz ustiga Iskandar sarkardasi Menedemning halokati lashkarlarga ham, sarkardalarga ham qattiq ta'sir qildi. Ular o'z yurishlari davomida bunday qattiq qarshilikka hech qachon uchramagandi.

Iskandar skif dashti yomida bo'lgan jang tafsilotini batafsil eshitib, tepa sochi tik bo'ldi: «Nahotki yengilmas, saralangan qismlari shunchalik katta talafot ko'rsa! Nahotki, hamma janglarda g'oliblikni qo'ldan bermagan ajoyib sarkardalari bitta «yovvoyi» Spitamenga bas kelolmasa! Menedemning ko'zi qayerda edi, nega anqayib o'zini o'qqa tutib beribdi». Farruxni qo'shirlarga boshliq qilib yuborganligi uchun o'zini o'zi koyidi, u bilan jang ko'rgan, urush san'atini yaxshi biladigan sarkardalardan ham xafa bo'ldi. Hammasiga Iskandarning o'zi aybdor. Bu jangda ko'rgan katta talafot tafsilotlarini qo'shinlridan yangirishga urinib hech kimni urushmagan, jazolamagan bo'lsa-da, Farruxni amalidan pasaytirdi.

«Shuncha lashkarni nobud qilib, anovi sahroyini qo'lga tushirsa ham alam qilmasdi», ko'nglidan o'tkazdi Iskandar. Spitamen yana chap berdi, qani endi o'sha yovvoyini bir qo'lga tushirsa, Bessdan ham battar xor qilgan bo'lardi.

Bu osiyolik ancha tadbirkor, mug'ambir chiqib qoldi o'yladi u. Go'yo Bessni Iskandarga ixtiyoriy topshirib, endi, mana qarangki, o'zi Sug'diyonaga to'la hukmdor bo'lib oldi. Bessning odamlari ham uning yoniga kelib bajonidil xizmat qilishmoqda. Anavi Oksiart, Xorienlar mustaqil hokimlar-ku! Nega endi Spitamenning yoniga kirib olishgan? Yo'lini topib, o'rtada nizo chiqarishi, bir-birlaridan ajratib yuborish kerak. Massagetlar-chi, Spitamenning qaynotasi-chi? Unga biror katta lavozim, boylik va'da qilib qo'lga olish kerak bo'lmasa...

Xullas, Sug'diyonada, Baqtriyada notinchlik tobora avjiga chiqardi. O'sha jangdan keyin ham Spitamen o'z safdoshiari bilan yunon-makedon qo'shilmalariga qo'qqisdan zarba berish usulini qo'lib makedoniyaliklar tipkasini quritaverdi.

Shahar va qishloqlarda katta qo'zg'olonlar boshlandi. Bu safar qo'zg'olganlar somi yetti ming otliq va piyodalarga yetdi. Iskandar qo'zg'olonning ancha talafotlar keltirishini bilib, tajribali lashkarboshisi Kraterga qanday qilib bo'lsa ham Spitamenni taklif qilib, qo'zg'olonchilarni tinchlantirishni, ular bilan muzokara olib borishni topshirdi. Krater podshoh ko'rsatmasi bilan taklifni Spitamenga yetkazdi. Spitamenning javobi lo'nda bo'ldi:

– Krateringga borib ayt, muzokaraga o'rin yo'q. Sug'diyona o't ichida yonayotgan chog'da biz qanday qilib muzokara qilamiz. Xalqning yuragi to'la zardob. Marhamat, xohlasa, Iskandar So'g'diyonadan tuyog'ini shiqillatib qolsin, biz ularga tegmaymiz. Nog'ora, do'mbiralalar chalib, tantana bilan kuzatib qo'yamiz, shunday deb ayt o'sha Iskandaringga!

– Juda to'g'ri aytding, Spanta, – dedi Datafarn, – endi so'nggi tomchi qonimiz qolguncha jang qilamiz.

– Zarur bo'lsa butun Sug'diyona, butun Baqtriya ko'tariladi. Endi bo'sh kelish yo'q. Biz ularning yuragini olib qo'ydik, jang qilishni osiyoliklar ham bilishadi. Skif dashti sabog'i ularning yodidan chiqmasin, – dedi Spitamen.

Chindan ham muzokara haqidagi taklif Iskandarning Spitamenga qo'ygan tuzog'i edi. Ushrushondagi tog'liklarga berilgan jazo, Sirdaryo atrofidagi yettita shahrida yuz bergan xunrezlik makedoniyalik Iskandar nimalarga qodir ekanligini ko'rsatib, Spitamen va uning safdoshlari ko'zini ochdi.

«UZOQ ISKANDARIYA»DAN XAT

Romani o'liklar orasidan chala jon holda topib olishdi. Qorniga sug'd ayoli urgan o'roq ichki a'zolariga shikast yetkazmaganligi uchungma tirik qolgan ekan. Qon ko'p ketganligi uchun uni shifo o'toviga olib kelishganda isitmasi yuqoriligidan hadeb alahiab kimlardandir uzr so'rar, og'riq

azobidan ingrar, goh-goh onasini eslab yig'lardi. Kasalxonada yotgan oyog'i kesilgan, yelkasi oybolta zarbidan shikastlangan bir qo'lini qilich kesib ketgan, xullas jangda ishdan chiqqan yuzlab mayib-majruhlar uchun endi urush tugagandi. Makedoniyalik Iskandar «katta marhamat» ko'rsatib, ularni o'zi bunyod etayotgan «Uzoq Iskandariya» shahri aholisi ro'yxatiga kiritib qo'ygandi.

«Uzoq Iskandariya»⁴⁰ – Sirdaryo sohilida G'azo bilan Kirasohta o'rtasida qurilgan katta mudofaa ahamiyatiga molik bo'lgan qo'rg'on shahar. Iskandarning bu shaharni qurishdan asosiy maqsadi daryoning narigi tomonidagi yovvoyilar – asosan skiflardan o'zini himoya qilish, shu bilan ularning Maroqandga boradigan yo'lini berkitib qo'yish edi.

Shahar qurilishi shitob bilan borishi, ikki-uch hafta ichida tugallanishi shart. Qurilishga podshohning o'zi rahbarlik qilmoqda. Iskandar shaharning atrofini baland devorlar bilan o'rab olish rejasini belgiladi, Atrof shahar-qishloqlardan minglab odamlar haydab kelindi, Qullikdan sotib olingan, yollangan qo'shinlar, sipohiylar qurilishga jalb etildi. Shahar bunyod etilayotgan daryo yoqasiga chodirlar qurilib katta tashkiliy ishlar amalga oshirildi.

Tong sahardan qosh qoraygunga qadar shahar qurilishida tinimsiz ish ketar, atrof tog' yonbag'irlaridagi katta-katta azim daraxtlar kesib kelinar, birov yer qazir, boshqasi loy qorardi. Ishga mutasaddi davolzanlar ishlab charchamaydigan polvon yigitlar edi.

– Roma, hoy, Roma, endi shu shaharda umrbod qolib ketasan, Iskandar seni sug'd ayoliga uylantirib qo'yadi, – bu frakiyalik Ferik edi.

U ham o'sha daryodan ichiga somon tiqilgan teri qopda kechib o'tgach, qurbonlik qilish maqsadida biror jonliq qidirib, qandaydir qabilaga yo'liqqanda orqasidan o'q yeb, mayib bo'lib qolgandi. Endi bo'lsa ko'pchilik qatori shaharga olib kelib tashlangandi.

⁴⁰ Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda «Uzoq Iskandariya – Esxat Iskandariya» Xo'jand shahriga qiyos qilinadi.

– Sug’d ayoli qornimga o’roq tiqib shu ahvolga soldi, hammasiga anavi o’zimiznikilar sabab bo’ldi, – dedi Roma.

– Qurbonlikka jonliq topib kelaman deb o’zim qurbon bo’lib ketishimga oz qoldi, – dedi Ferik yig’lamoqdan beri bo’lib.

Ha, Roma o’la-o’la narigi dunyodan qaytib keldi. Tabiblar zo’r-bazo’r uni hayotga qaytarishdi. Endi bir umr qo’liga qurol olmaslikka qaror qilgan, unga eng og’ir ish bo’lsa-da, tinch bo’lsin, bu yoqdagi hayoti yoniga qoldi. Roma hamon kechalari dovdirab, aloq-chaloq tushiar ko’rib chiqadi, bir kuni uyqusida o’sha homilador ayol kelib bolammi topib ber, deb bo’g’moqchi bo’ldi. Romaning qorniga o’roq tiqqan o’sha kelinchakning qavnonasi uni izma-iz qidirib yurgandek hadeb xayolidan o’taverdi.

– Ha, Roma, yana nega xayol surib qolding, – so’radi Ferik.

– Ey do’stim, bu bema’ni yurishlarning so’nggi bo’ladimi, yo’qmi? – dedi xomush Roma.

Iskandar o’zining eng ishonchli odamlarini shahar qurilishiga bosh-qosh qilib qo’ygandi. Devorning har bir chaqirimi shu ishga mutasaddi bo’lgan boshliqlarga bo’lib berilgandi. Har bir boshliqning qo’l ostida yuzlab yer qazuvchilar, loy qoruvchilar, paxsa uruvchilar, suv tashuvchilar bor edi. Shunga yara-sha ot-o’lov, arava ajratilgan. Shaharning ichkarisida bo’lsa ko’chalar tekislanib, uy quruvchl ustalar, qo’lida hunari bo’lgan turli kasb egalari allaqachon ish boshlab yuborishgan edi.

Iskandarning daryo yoqasidagi qarorgohidan shahar qurilishida ishlarning qanday ketayotganligini bemalol kuzatib turish mumkin edi. Ammo podshohi olamni bezovta qilayotgan narsa – daryoning narigi chekkasidagi skiflar edi. Ular ko’pincha Iskandarning qarorgohdan chiqish vaqtini atayin noylab turib, qirg’oq yaqmiga kelishardi-da, tilga olib bo’lmaydigan so’zlar bilan ulug’ podshohni haqoratlashardi.

Skiflardan bir nechtasi daryo bo’yida turib, basharalarini bujmaytirar, burunlarin qiyshaytirishar, xunuk ovoz chiqarib baqirishardi. Bu ham yetmagandek uch-to’rttasi kiyimlarini yechib, noo’rin, uyatli harakat qilib keyin o’zlari baralla qah-qah urib kulishardi.

Mana, bugun ham yigirmaga yaqin, ustlariga qo’y, echki terisidan yopqich kiyib olgan, qo’llariga o’q-yoy tutgan skiflar

o'yinga tushib, daryo chekkasiga yaqinlashishdi. Ularning oldida echki terisidan yopqich kiyib, boshidagi kulohiga har turli qush patlarini osib olgan, yapaloqdan kelgan boshliqlari turardi.

– Hoy, Iskandar, ovora bo'lma, yaxshisi jo'nab qol, anavi devorlaringni baribir buzib tashiyamiz, – dedi skiflar boshlig'i baqirib. Tilmochlar ularning haqoratli so'kishlarini tarjima qilishmadi. Podshoh esa tilmochlarning unga qilgan bu «yaxshiligi»ga so'kish bilan minnatdorchilik bildirdi.

Iskandarning jahli chiqib ketdi. Uzoqqa kamon otuvchilardan o'ntasini chaqirib masxaraboz skiflarga shu yerdan turib o'q otishni buyurdi. Dastlabki o'qlar mo'ljalga borib tushib, bir-ikkitasini yengil yarador qildi, ammo skiflar daryodan uzoqroq turib haqoratli masxaralarini davom ettiraverdi. Skiflar boshlig'i balandroq joyga chiqib, tagiga po'stak soldi-da, ishtaha bilan ovqatlana boshladi. Iskandarga qarab, yegan go'shtining suyagini «eysanmi» degandek ko'rsatar, keyin «ma» deb unga tashiagandek irg'itardi, ko'zachadan sopol tovoqqa musaliasmi, qimizmi to'lg'azib podshoh bilan urishtirganday harakat qilar, keyin esa o'zi simirib yuborar va yerga yumalab-yumalab kulardi. Kechga tomon skiflar birpasda qaygadir goyib bo'lib qolishardi.

O'sha kuni kechasi skiflar yana bir na'ma ko'rsatishdi. O'zlarining tezyurar qayiqlarida daryodan kechib o'tib, hech kimga bildirmay dosh qozonlarda pishirilayotgan ovqatlarga tuyalar, qo'ylar qumalog'ini tashlab qo'yishdi. Bu yetmagandek, sipohlardan bir nechtasining kallasini olib, daryo chekkasidagi yog'ochlarga ilishdi-da, boshlarni qora, qizil ranglar bilan bo'yab, yig'lagan, kulgan tusga kiritib qo'yishdi. Hatto o'ldirilganlarning ba'zi a'zolarini ham qozonga tashiab ketishdi.

Bu voqea Iskandar qo'shinlari, shahar quruvchilariga qattiq ta'sir o'tkazdi. Sipohiylar qo'rqib qolishdi. Iskandar qo'shin boshliqlarining, soqchlarning anqovlashib qolayotganligini qattiq qoraladi. «Nega bizning qarorgohda allaqanday yovvoyilar bemalol yurishibdi, ertaga mening ham boshimni daraxtga ilib ketishar, senlar nima qilyapsanlar o'zi», deb rosa koyidi. Shundan keyin soqchilar yanada kuchaytirildi.

Iskandar qo'shin boshliqlarini o'z qarorgohiga chaqirib maslahat kengashi chaqirdi. Kamon otuvchilarni qamishlar orasiga yashirib qo'yib, uzoqqa otadigan manjanaqni tayyorlab, daryodan kechib o'tib, masxaraboz yovvoyilar adabimi berish, qirib tashlashga qaror borganligini bildirdi. Shunda podshoh yaqinlaridan Erigiy:

Kuni kecha ho'kizning ichini yorib ko'rgan edim, tafsiloti yaxshi chiqmadi. Xudolarga yoqmaydi bu ishing, daryodan suzib o'tsang, hiror xatarga yo'liqishing mumkin, degan mulohaza aytdi. Lekin Iskandar qaysarlik qilib ko'nmadi. «Bo'lmasa, – dedi Erigiy, – qon chiqarib xudolarga qurbonlik qilish kerak».

O'sha kuniyoq is chiqarildi. Qancha mol, qo'ylar so'yildi. Shundan keyin ham kechasi skiflar yana daryodan o'tib, o'nta sipohning kallasini yog'ochga ilib ketishdi.

Shu voqeadan so'ng Iskandarning qarori yanada qat'iylashdi. U narigi qirg'oqqa kechib o'tish rejasini tuza boshladi. Ataylab o'zining teridan qilingan chodirimi daryo yoqasiga tiktirib kechasi bilan mijja qoqmay skiflar gulxanini kuzatdi, bu bilan ularning soni qanchaligini bilib olmoqchi bo'ldi. Tong saharlab jangchilar huzuriga chiqdi. Podshoh og'ir yaralangandan beri birinchi bor jangchilar bilan uchrashishi edi. Bu yerda daryodan kechib o'tish haqidagi rejalarini qo'shin boshliqlariga tushuntirdi. Otliqlar maxsus tayyorlangan hollarda, yengil qurollangan jangchilar esa ichiga somon tiqilgan teri qoplarda suzib o'tishadi. O'sha kundan boshiab qattiq tayyorgarlik ko'rila boshlandi. Manjanaqlar daryo chekkasiga olib kelindi. Uch kun ichida o'n ikki ming⁴¹ sol tayyorlandi.

Choshgoh vaqtida mulozimlar kirib podshohga yigirmaga yaqin skif elchilari kelishganligini va ular qabulga kirishmoqchiligini bildirishdi. Iskandar bunday tashrifdan hayron bo'ldi, nima gap ekan deb ularni shu zahotiyoq qabul qildi. Hammasi o'zlarining milliy liboslarida bashangkiyinishgan edi. Eng qimmatbaho mo'ynalardan yopqich yopinib olgan, har turli toshlardan, meva danaklaridan taqinchoqlar taqishgan.

⁴¹ Kvint Kurtsiy Ruf. Aleksandr Makedonskiy tarixi, Moskva davlat universitetining nashriyoti, 1963. – B. 273.

Ulug' podshohga ta'zim qilib cho'kka tushib o'tirishdi. Skiflar odamlarning qaddi-bastiga qarab ruhiyatini bilib olar ekanlar, podshohning horg'in yuziga qarab uning ko'rimishi dovrug'iga mos emasligini ko'rishdi.

Skiflar bir-birlariga ma'noli qarab oldi. Ular ichida kattaroq yoshdagi, soqol-mo'ylablari, hatto qoshlari ham qordek oppoq, buyi-basti novchadan kelgan skif so'z boshladi:

«Sen hatto zabt qilishing mumkin bo'lmagan narsalarni ham istaysan. Sharqdan G'arbga, Janubdan Shimolga intilasan. Mabodo, sen butun inson zotini o'zingga tobe qilolsang, so'ng o'rmonlar, qor-muzlar, daryolar va yovvoyi hayvonlarga qarshi urush ochasan.

Senga yana nima kerak? Ulkan daraxtlar uzoq yashashini, ammo uni nihoyati bir soat ichida qo'porib tashlash mumkinligini bilmaysanmi? Daraxtning balandligini bilmay turib, uning mevasiga ko'z olaytirgan kimsa tentaklik qilgan bo'ladi. Ehtiyot bo'l, mevaning hammasini olaman, deb daraxtning uchiga chiqib, shoxi bilan birga ag'darilib tushma tag'in.

Hatto o'rmon podshosi yo'lbars ham mayda qushlarga yem bo'lgan ekan, zang temirni ham yemiradi. Hatto kuchsiz mavjudot ham xavf solmaydigan baquvvat narsa yo'q.

Sen bilan o'rtamizdagi dushmanlik boisi nimada? Biz hech qachon sening tuprog'ingga bostirib bormaganmiz. Biz hech kimga xizmat qilmaymiz va birovga ham hukmimizni o'tkazishni istamaymiz.

Shuni bilgilki, biz skiflarga: ho'kiz jabduqlari, omoch, nayza, kamon va qadah mukofot qilib berilgan. Bu ashyolardan biz do'stlarimiz bilan muloqotda bo'lganda va dushmanlarimizga qarshi chiqqanimizda foydalanamiz.

Ho'kizlar kuchi bilan olgan ne'matlarimizni do'stlarimizga tutamiz, qadahda ular bilan birgalikda xudolarga atab may ichamiz, kamon bilan dushmanlarimizni otamiz, yaqin kelganlarni nayza bilan uramiz. Biz Suriya podshosini, so'ngra esa forslar va midiyaliklar podsholarini yenggan edik. Shu g'alabalar tufayli Misrgacha bo'lgan yo'l biz uchun ochilgan edi.

Sen bu yerga talonchilarni ta'qib qilgani kelganman, deb maqtanasan. O'zing bo'lsang oyog'ing yetgan joydagi hamma qabilalarni talon-toroj qilyapsan. Sen Midiyami bosib olding, Suriyani zabt etding, forslar mamlakatini o'zingga tobe etding, Baqtriya sening hukming ostida, Hindistonga ko'z olaytirmoqdasan. Endi bo'lsa ochofat va to'ymas qo'llaringni bizning yaylovlyarimizga cho'zmoqdasan.

Bu boyliklar senga nimaga kerak? Axir, ular behad ocharchilikdan boshqa hech narsa keltirmaydi-ku. Undan o'zing birinchi bo'lib bezasan. Qancha ko'p boylikka ega bo'lsang, shuncha ochofat bo'lasan.

Baqtriyada qancha qolib ketganingni nahotki eslamasang? Sen ularni bo'ysundirganingga qadar sug'diyonaliklar urush boshlab yubordi. G'alaba qilganing sari yangi urushiarga duch kelaverasan. Garchi sen dunyodagi buyuk va qudratli kishi bo'lsang ham, hech kim o'zga yurtidan kelgan xojani ko'rishga ko'zi yo'q.

Tanaisdan o'tib ko'rgin-a, dalalarimiz naqadar yastanib ketganligini bilib olasan. Skiflarni hecham quvib yetolmaysan. Garchi sen bizdan ancha uzoqdaman deb o'ylasang ham, ba'zan bizlarni o'z qarorgohingda uchratib ham qolishing mumkin.

Biz birday ta'qib etamiz va birday qochamiz.

Skif yerlari haqida hatto yunonlar afsonalar to'qigan, deb eshitganman. Biz bo'lsak taqir sahrolarda, inson oyog'i yetmagan joylarda yuramiz. Shu boisdan taqdiringni yaxshilab o'ylab ko'rishni maslahat beramiz.

Omadingni qo'lingdan chiqarib yuborsang, uni zo'rlab ushlab qololmaysan. Vaqt o'tishi bilan bu maslahatlarning foydasini hozirgidan ham yaxshiroq uqib olasan. O'z baxtingni jilovlab ol: shunda uni yaxshiroq boshqarasan.

Bizda baxtning oyog'i bo'lmaydi, faqat qo'l va qanotlari bo'ladi, deyishadi.

Sen mag'lub etgan odamlar menga do'st bo'ladi, deb o'ylama. Xo'jayin bilan qul o'rtasida do'stlik bo'lishi mumkin emas. Urush qilish huquqi tinch paytda ham saqlanib qolaveradi.

Skiflar qasam ichib, do'stliklarini mustahkamlaydilar, deb o'ylama. Ular uchun qasam ichish sadoqatni saqlab qolishdan

iborat. Yunonlar har ehtimolga qarshi shartnomalarga imzo chekib, xudolarni yordamga chaqirishadi. Bizning dinimiz – sadoqatga rioya qilishimizdadir. Kim odamlarga hurmat ehtirom ko'rsatmasa xudolarni ham aldaydi.

Sadoqatiga ishonch bo'lmagan do'stning hech kimga keragi yo'q. Tanaisdan boshlab to Frakgacha bo'lgan joylarda yashaymiz. Makedoniya esa Frakiya bilan chegaradosh. Demak, biz sening har ikki mamlakating bilan qo'shnimiz. Shuning uchun bizning timsolimizda dushmanlaringni ko'rmoqchimisiz yoki do'stlaringnini? Shu haqda o'ylab ko'r».

Iskandar kekxa skifning so'zlarini e'tibor va chidam bilan tingladi, keyin bosiqlik bilan dedi:

– Men o'z baxtimdan va sizlarning maslahatlaringizdan foydalanib, taqdirim buyurganini bajo etaman, zero men taqdirga ishonaman.

Shundan keyin boshqa gapga o'rin qolmadi, skiflar qo'zg'alishdi. Elchilar ketgach, Iskandar o'z bilganidan qolmadi..

Qattiq jang bo'ldi. Skiflar o'zlarining yeldirim otlarida orqadan quvib kelayotgan Iskandar qo'shinlariga kamonlardan ustalik bilan otib birin-ketin ag'daraverdi. Bu ahvoldan g'azablangan Iskandar saralangan otliqlari bilan skiflar ustiga bostirib bordi. Ular endi qattiq hujumga bardosh berolmay, ancha o'liklar, yaradorlarni qoldirib cho'l ichiga chekindilar.

Lekin chekmayotib ham so'nggi uqlarini bekorga ketkazmay mishonga to'g'ri urib, bir necha makedoniyaliklarni yer tishlatdilar. Iskandar skiflarni butunlay qirib tashlash uchun ta'qibni to'xtatmadi. Ammo sarg'ish tuproq ichida ko'zdan g'oyib bo'lgan skif qabilalariga yetib bo'larmidi. Kech bo'lib, qosh qorayib qolganligi uchun ta'qib qilishni to'xtatdi. Iskandar qandaydir daraxtzorga kelib qo'ndi.

Yigirma kun deganda baland devorlar bilan o'rab olingan «Uzoq Iskandariya» shahri qurib bitkazildi. Mana, endi shahar qurilishi tugadi, baland devor, uylar, minoralar, ibodatxonalari bo'lgan shahar bunyod etildi. Shaharning devor uchun deb loy olingan joylari xandaq o'rnida foydalanildi.

Skiflar sipohiylarning kallasini olib ketgan o'sha mudhish tunda tangri Romani ham aql-hushidan judo qildi. U yangi

hunyod etilgan «Uzoq Iskandariya»ning hirinchi jnini edi. U ko'cha-ko'yda dovdiragancha hir narsalarni pichirlab yurar, ba'zan samoga tikilgancha uzoq sukut saqlar, kaftiga bir necha qora tangani olib, qarzim bor deb qandaydir ayolni so'roqlab qidirardi. Ba'zan avzoyi buzilib «ona-ona, qaydasan», deb yig'lar, keyin Iskandarni la'natlardi.

Romaning Iskandar sha'niga ba'zan yaxshi, ba'zan nолоyiq gaplar aytib yurganligi uchun ushlab avaxtaga qamashdi, keyin qatl etishdi. Shunda uning yonidan onasiga yozib, hali yuborilmagan maktubini topib olishdi. Iskandar o'z askarlarining ota-onalari, oilalari, qarindoshlariga yozgan xatlari bilan ham qiziqib, ochib o'qish odati bor edi. Bu – lashkarning ruhiyatini, o'z podshohiga, boshliqlariga munosabatini bilib olish imkonini berardi. Romaning xatimi ham Iskandarga olib kelib berishdi. Aftidan Roma bu xatni aqli joyida vaqtida shifo o'tovida yozgandi.

«Aziz onajon, ko'zlarim giryon, qalbim yonib, seni sog'inib ushbu maktubni bitmoqdaman. Hozir o'z vatanimdan juda uzoqdaman, ha, juda uzoqda: o'rtamizda dengizlar, tog'lar, dasht-u biyobonlar yastanib yotibdi, yo'l uzoq, hayot qattiq ekan, ana shu uzoq masofalardan qon kechib, odamlar o'ligi ustidan yurib begona ellarga keldik. Biz bu yerlarga go'yo ozodlik olib keldik. Shunday deb uqdirishgandi bizga. Jahonga hokim bo'ladigan xalq sifatida Aleksandr atrofiga birlashib uni ulug'ladik, qalbimiz shon-sharafga to'ladek edi. Keyin o'ylab qaragam, onajon, bular hammasi puch, ko'pikdek narsalar ekan, biz pista puchoqdan kemalar yasamoqchi bo'lib, bema'ni, shon-shuhratga aldangan ekanmiz. Endi bo'lsa hammasiga tushunib oldim. Endi bu yog'i nima bo'lar ekan, men o'z taqdirimga endi ishonmayman. Ba'zan hayotning shafqatsizligi shu qadar og'irligidan nega onam meni tuqqan ekan, shu azob-uqubatlar uchunmi deb taqdirimdan achinaman. Men hozir Sug'diyona elidaman, bu ajoyib o'lka, albatta mening ona-Vatanimga sira-sira o'xshamaydi. Kindik qonim to'kilgan tuproqni unutib bo'ladimi, onajon.

Sug'diyona degan mamlakat ikki ulug' daryo – Oks bilan Tanais daryolari o'rtasiga joylashgan. Tog'lar, daryolar, bog'-

rog'lar mamlakati. Bunda ko'p qabila, elatlar bor. Asosan sug'dlar yashaydi, ularning o'z urf-odatleri, dinlari mavjud. Sug'dlardan tashqari massagetlar, sartlar, sak-tigraxaudlar, tiay-tora-doyra saklari, apasaklar, yaksartlar, qisqasi skiflar, ular hammasi sug'd tilida so'zlashadi. Ular forslar, daxlar bilan birlashib bizga qarshi jang qilishyapti.

Mana shu qabila, elatlarga sug'diyonalik Spitamen boshchilik qilmoqda. Eshitishimcha, u juda pahlavon emish, ko'rinishi fraktyaliklarga o'xshab ketadi deyishadi, lekin o'zim ko'rganim yo'q. Uning Qorasoch degan oti bor emish. Agar chopsa qush ham yetolmas ekan. Jang maydoniga kirganda oti ham o'zi bilan bab-baravar jang qiladi, deyishadi.

Hozir Tanais daryosi sohillaridamiz, jarohatlanib kasalxonada yotibman, men uchun urush tugadi, bir umr mayib bo'lib qoldim. Tangrim meni qilmishlarim uchun jazoladi. Onajon, xavotir olma, eson-omon aziz quchog'ingga borsam ko'rarsan, hamma-yog'im sog', faqat negadir ruhim kasal, onajon, men chamamda dunyo onalari oldida katta gunoh qildim, shu boisdan yuragim bezovta, qalxim mayib, uyqum yo'q, toqatim toq.

Men hali uylanmadim, hali birorta qizni sevishga ulgura olmagandim, hayotning rohatini totib ko'rganim yo'q, ammo azob-uqubatini bo'lsa keragidan ortiqcha oldim.

Aleksandr Tanais daryosi bo'ylda «Esxat Iskandariya» shahrini qurmoqda. Urushda mayib-majruh bo'lganlar ham uning buyrug'i bilan ana shu shahar aholisi deb e'lon qilindi. Onajon, kamina o'g'lingiz ham jahongir podshohning amri bilan butun umr shu shaharda yashashi lozim.

Biz Aristotel, Platon kabi ulug' zotlar, o'lmas asarlar, nutq san'ati, arxitektura yodgorliklarining ijodkorlari endi o'zimizning qonxo'rligimiz, bosqinchiligimiz uchun o'zgalar baxtiga, hayotiga chang solishimiz bilan dong taratdik.

Onajon, o'zingiz o'ylang, nahotki Aleksandrdek bitta inson butun jahonni alg'ov-dalg'ov qilsa, shuncha qirg'inlarga sabab bo'lsa! Uning «eng chaqqon jangchilari» Aleksandrning yurishlarida butun-butun obod qishloqlarni kultepaga aylantirishga qodir. Qarang-a, o'ylab topganini, g'azabi qattiq,

kallakesar, shafqatsizlar ana shu «eng chaqqon jangchilar» safidan o'rin olgan. «Og'ir otliqlar»-chi? Ular bu xalqlar, qabilalarni ezib, elatlarni yo'q qilib tashlashda Aleksandrning jallodlari! Aleksandrning qadami yetgan o'lkalardagi go'zal shahar va qishloqlar nahot vayronaga, boyqushlar makoniga aylanib qolsa, onajon! Inson aql-idroki, zakovati bilan yaratilgan muqaddas kitoblar yoqilsa, bu qanday gap, onajon! Ulug' xalqimiz nomiga bu axir o'chmas dog' emasmi! Men yunon faylasuflari, huquqshunoslarining kitoblarini o'qiganda o'z xalqimizning buyuk zakovatidan faxrlanardim. Endi o'z e'tiqodim ohdida ojizman. Nahotki, Aleksandrdek bir kishi ana shularning hammasiga tupursa, tiniq suvni loyqalantirsa! Nega axir bitta shaxs davlatlar, xalqlarni toptab, oyoq osti qilaveradi. Bunga kim aybdor, bizmi, buyuk Ellada farzandlarimi?

Aziz onajon, «Esxat Iskandariya»dan yozyapman, negakim Aleksandr odamlar qonidan shahar qurib, uni o'z nomiga qo'ydi, ha, shunday, biz jang qilib qon to'kdik, qancha odamlar qirildi, mayib bo'ldi. Aleksandr odamlar joni-qoni hisobiga tarixda nomini abadiylashtirmoqchi, la'natlar bo'lsin o'z shaxsini boshqalar azobi evaziga ulug'laganlarga!

Onajon, maktubim so'nglayapti. Sizni, go'zal vatanimni sog'inganman, sizni negadir tushimda ham ko'rish nasib etmayapti, afsus, ming afsus, faqat dahshatli, aloq-chaloq tushlar ko'raman, arvohtar, alvastilar, shaytonlar azongacha meni qo'rqitib chiqadi.

Agar sizni ko'ra olmay g'urbatda, g'ariblikda, o'zga ellarda o'lib ketsam, meni kechiring, onajon, bizni shu ko'ylarga solib, qo'limizni qon qilganlarni siz ham la'natlang!

Xayr aziz, mehribon Onajonim.

Roma.

«Esxat Iskadariya»si.

SHERDORNING SEVGILISI

Spitamen qo'shinlari orasida va Sug'diyona bo'ylab tarqalgan eng muhim xabar – Skif dashtidagi Jangda makedoniyaliklarning

ko'rgan talafoti-yu, Sherdorning Menedemni o'ldirganligi bo'ldi. Yengilmas Iskandar qo'shinining shafqatsiz zarbaga uchraganligi haqidagi xabar yashin tezligida tarqaldi. Sherdor o'sha kungi jangning qahramonlaridan biri edi. Katta-kichik, qari-qartanglar kelib Menedemni halok etgan jasur suratlash yigitning qo'lini qisishardi. Shunday quvonchli kezlarda Sherdor o'z orzulari, quvonchlarini yuragiga eng yaqin kishisi bilan baham ko'rgisi kelardi. O'sha kuni Maroqandga borganida Spitamendan ruxsat olib Qasning uyiga birrov borib keldi. Kas ham, qizi ham uyda ekan. Mohiyon Sherdorning dilidagi gaplarni Turonaga yetkazganligini, ammo malika bu haqida otasiga mutlaqo og'iz ocholmasligini Sherdorga bildirdi. Shunda Sherdor kichik bir oq marmartoshga o'yib o'zi chizgan suratni Turonaga berib qo'yishni Mohiyondan iltimos qilgan edi. Toshda malikayi Turonaning filda ketayotgani aks ettirilgandi. Suratni ko'rib Kas ham, Mohiyon ham Sherdorning san'atiga tahsinlar o'qishdi hamda bu noyob suratni malikaga berib qo'yishga va'da qilishdi. Shundan keyin Sherdor Maroqandga bora olmadi, Namich Iskandar tomonidan zindon qilingach, oilasining, malikayi Turonaning holi nima kechganligini hech kim bilmasdi.

Sherdorning butun fikr-u xayoli qanday qilib bo'lmasin Maroqandga borsa, sevgilisining hol-ahvolidan xabar topsa. Sho'rlikning ko'ngli betoqat, xayol qayerlarga olib ketadi: «Malikani Iskandar o'ziga kanizak qilib olgan bo'lsa-ya yoki biror sarkardasiga tortiq qilib yuborganmikin! Ishqilib tangri sevgilimni o'z panohida asrasin!» Sherdorning xayoli ham, qalbi ham ana shular bilan erta-yu kech band. Qani endi qanoti bo'lsa-yu, poytaxtga uchib bora qolsa. Qani endi Spitamen Maroqandni qamal qilishga otlansa edi, Sherdorning yuragidagi ish bo'lardi.

Dunyoning ishiari qiziq, ba'zan hech xayolingga kelmagan voqealar bo'lib turadi. So'nggi jangda Iskandar odamlari Maroqanddan olib ketayotgan xazina-boyliklar bilan birga qul qilingan yosh-yalanglar, kanizak qizlar ham bor edi. Ularning insonlik belgisi olib tashlanib, ashyoga aylantirilganda, jahonning qaysidir bozorlarida sotilishga mo'ljallangandi. Ittifoqo ana shu qullar orasida Maroqand hokimining sevimli

qizi malikayi Turona ham bor ekan. Aftidan qiz aqllilik qilib, o'zining malika ekanligini hech kimga aytmagan. Sherdor uni qullar orasida ko'rib tamb qolibdi. Ajabo, bir vaqtlar tantana bilan Maroqandning o'sha gavjum ko'chalaridan oq fil ustida hammomga boradigan go'zal bir zot charx kajraftorning bevafoqligi bilan endi dunyodagi eng past narsaga – qulga, ashyoga aylangandi.

Malika Sug'd ayollari odatda kiyib yuradigan qizg'ish rang yoqasiz ko'ylak, oyog'iga kavush, boshiga shohi ro'mol o'ragandi. Qulog'ida esa oddiy kumush baldog'i bor, boshqa bezaklari yo'q edi.

Shunday libos, anjomlarda Turona yana ham go'zallashib ketgandi. Sherdor bo'lsa Malikani topib olganligi uchun g'oyat sevindi. Yuraklari ezilib, hayotning bunday qattiq qahriga, urushning naqadar daqshatligiga nafrati ortib ne qilarini bilmay turdi.

– Hoy qiz, menga qara, seni qayerdadir ko'rgandekman, – shunday dedi-yu Sherdor Turonaga yaqinlashdi.

Qiz yuzlarini yashirib, teskari o'girilib oldi.

– Nima deyapsan o'zi, men seni tanimayman, – dedi Turona iymamib.

– Sen men istagan o'sha go'zalsan, faqat hech qayerga ketib qolma, shu yerda qimirlamay tur, darhol kelaman.

Sherdor yugurgancha hovliqib Spitamenning yoniga bordi.

– Ey ulug' sarkarda, istaganimni tangrining o'zi yetkazdi, mening arz-dodimga quloq ber, qullar orasida malikayi Turonani ko'rdim, buyruq ber, uni ozod etishsin!

– Malikayi Turona dedimgi, qayerda ekan? – ajablandi Spitamen.

– Iskandar odamlari olib ketayotganlar orasida ekan, – dedi Sherdor.

– Tezda borib ayt, nega ularni bo'shatmay tutqunlikda ushlab turishibdi, faqat malikani emas, hammasini ozod qilib yuborishsin.

Sherdor tili halqumiga sig'may dashtdagi aravalar yoniga keldi.

- Meni Spitamen yubordi. Bular hammasi ozod etilsa, buyruq shu, mana bu kanizakni olib ketishim korak, - dedi Sherdor ularni qo'riqlab turgan soqchiga.

- Buni men hal etolmayman, hammasini Oksiart hal etadi. Bu ishlarga o'sha ulug' zot mas'ul, - dedi soqchi.

- Axir bu Spitamenning buyrug'i! Mayli, boshqalar hozircha turaversin. Mana bu qizni olib ketaman, - dedi Turonani ko'rsatib Sherdor.

- Bu yerda kimning buyrug'ini bajarishni bilmaysan, hay, Babax bu yoqqa kel, - dedi soqchi.

- Nima gap o'zi, - Babax kulib Sherdorni boshdanoyoq kuzatib chiqdi.

- Hech gap yo'q, bir kanizakni olib ketishim kerak, bu Spitamenning buyrug'i, - dedi Sherdor.

- Kanizak kimga kerak bo'lib qolibdi, - so'radi Babax gapni bir oz maynavozchilikka burib.

- Menga, - dedi Sherdor.

- Qani ko'rsat o'sha kanizakni, chiroylimi, agar ko'nglinga yoqsa Oksiartdan so'rab o'zim olaman, - dedi Babax surbetlarcha.

- Aqling joyidami o'zi, men ulug' sarkardaning buyrug'i bilan keldim, - dedi hovliqib, go'yo Babax malikani hozir olib qo'yadigandek.

Babax Sherdorni mensimay o'zini u yoq-bu yoqqa tashladi. Suratkashning g'azabi keldi, bir ko'ngli yaxshilab adabini berib qo'ymoqchi ham bo'ldi-yu, har yoqni o'yladi, ammo Spitamenning nomini aytganda ham pinagini buzmay surbetlik qilayotgan bu odamning o'zini tutishi suratkashning g'ashiga tegdi.

Shu vaqt Sherdorning baxtiga Spitamen bilan Oksiart kelib qolishdi.

- Mana asirlar shu yerda hammasini yaxshilab qo'riqlab turibmiz, - dedi Babax qo'l qovushtirib.

- Ozod qilib yuboringlar, axir bular o'z odamlarimiz-ku! - dedi Spitamen ko'zlari jovdirab turgan asirlarga.

Ular o'z oshyonidan, ota-onasidan ajralgan yosh qiz-juvonlar, norg'ul yigitlar, bolalar edi. Hammasining yuzlarida anduh, ko'zlarida g'am-alam.

– Hammangiz ozod bo'ldinglar, – dedi Spitamen ularga qarab. Jimjitlik, hamma qimir etmay turardi. Yosh bolalar birdan har tomonga chopib qolishdi, ammo ayollar, qizlar nima qilishlarini, qayga borishlarini bilmay hayron edilar.

– Yigitlarmi qo'shilmalarga bo'lib beringlar, qurol bilan ta'min etinglar, Sherdor anavi qizni olib ketadi, – dedi Spitamen Oksiartga yuzlanib.

Spitamen ketdi. Uning ortidan Oksiart ham, haligi laganbardor Babax ham jo'nab qoldi.

Sherdor malikaga yaqinlashdi-da, unga qarab:

– Tur, bu yerdan tezroq ketaylik endi, – dedi.

Malika ajablanib Sherdorga qaradi.

– Sen kimsan o'zing? Meni qayerga olib bormoqchisan?

– Seni Maroqandda uchratganman, o'shanda fil ustida ketayotganingda yuzingni ko'rgandim.

– Sen kimsan?

– Men suratkashman.

– Qanaqa suratkash? Uyalmaisanmi, men hech qayerga bormayman.

– Tur deyapman. Hozir bu yerda gapirishning mavridi emas, yura qol, – dedi yalinib Sherdor.

–Yo'q, bormayman.

Sherdor o'zining samimiy niyatlarini tushunmayotgan o'jar malikadan ko'z uzolmay qoldi. «Nega bormaydi, axir men uni sevaman-ku, qutqarmoqchiman-ku, hor-zorlikdan olib chiqib ketmoqchiman-ku!»

– Bilasanmi, Maroqanddagi otang qurdirgan «Ko'k saroy» devorlariga rasm chizgan o'sha suratkash menman, tushundingmi?

– Tushundim, Mohiyon aytgan edi, qanaqa qilib chizgansan? – bolalardek savol berdi qiz.

– Menga Axuramazdaning o'zi hadya etgan bu hunarmi, – dedi Sherdor.

– Qiziq, Axuramazda nega endi o'sha hunarni menga ham hadya etmagan ekan-a?..

– Sening o'zing suratsan, tangri senga husn hadya etgan, – dedi Sherdor.

– Mana bu surat ham senikimi?

Turona marmar toshga Sherdorning o'zi o'yib ishlagan, Mohlyon bergan suratni ko'rsatdi.

– Meniki, senga atab, yonib chizganman, jonim...

Malika uyalib yerga qaradi-da, qarshisida turgan olijanob suratkash yigit haqida o'zicha fikr yurita boshladi. «Qiziq, bu yigit meni qachon ko'rgan ekan, otamning saroyidagi devorlarga surat chizgan ekan, nega Mohiyon aytganda bir borib ko'rmagan ekanman-a?»

– Uyingga boshla bo'lmasa meni! – dedi malika sekingina.

– Uyim yo'q, – dedi Sherder kulimsirab.

– Bo'lmasa nima qildik?

– O'zim ham bilmayman, vaqt notinch, hozir seni Spitamen huzuriga olib boraman.

Spitamen yoshlarga iltifot ko'rsatdi, Sherdorning yelkasiga qo'lini qo'yib dedi:

– Sen bu qizning muhabbatiga loyiqsan, taqdir umi senga yetkazdi, Axuramazdaga sajda qil, baxtingni bersin, – dedi Spitamen.

Sherdor malikaga qaradi. Malika bu yog'i nima bo'larkin, deganday Spitamenga tikilganicha muloyimlik bilan jim turardi.

Spitamen malikaning avzoyiga nazar tashladi-yu, keyin unga yuzlanib so'zlay boshladi:

– Ey malika, bilib qo'y, bu suratkash sening ishqingda kuyib-yonib yuribdi. O'shanda otang saroy devorlariga surat chizib berganidan so'ng seni suratkashga berishga va'da qilgandi, afsus u va'dasini bajarmadi. Surat bitgach, saroydan haydadi uni. Buning ustiga o'zing ko'rib turibsan, Iskandar bizning elimizga bosib keldi... Oksiartga aytaman, sizlarga chodir beradi, xizmasingizga kanizaklar, qullar ham ajratamiz.

Malika ham, Sherdor ham Spitamenga qulliq qilib, chiqib ketishdi.

Ular go'yo ozod qushdek uchib, qo'l ushlagancha cho'l tomonga ketishdi. Sherdor hech o'ylamaganda oyog'i ostidan chiqib qolgan baxtidan o'zida yo'q xursand. Maroqand ko'chalarida erta-yu kech hor-zor bo'lib izg'ib yurganlari,

hokim saroyida malika ishqida tong otguncha uxlamay, surat chizib tangriga sig'inganlari yodiga tushdi. Malikayi Turonaga qarab o'z ko'zlariga ishonmaydi, «Tushimmi yo o'ngimmi» deb hatto o'zini-o'zi ushlab ham qo'yadi.

– Nimani o'ylayapsan, suratkash, – so'radi Turona.

– Seni, **faqat** seni o'ylayapman, bu tush emasmikan deb xavotirdaman, – dedi Sherdor.

– Tush bo'lsa nima qilarding, – so'radi qiz hazillashganday.

– Uyg'onmasdim, ko'zimmi yumgancha yotaverardim.

– Qanday qilib?

– Men ba'zan shirin tush ko'rayotganda uyg'onib ketsam, tezda ko'zimni qayta yumib uxlayveraman-da, keyin tushimning davomini ko'raman.

– Qiziq ekansan, – taajjublandi Turona.

– Haq gapni aytyapman, yolg'on emas, yaxshi tush ko'rganingda sen ham shunday qilib ko'r bo'lmasa...

– Mayli, harakat qilaman, – dedi kulimsirab malika.

– Men seni yaxshi taniyman, faqat hokimning qizi ekanlingingni bilaman, fil ustida blr marta ko'rib qolganman, tangrining inoyatini qarak, o'sha daqiqa qilt etgan shamol yo'q edi, bu ulug' Axuradan deb bilaman, seni menga ko'rsatish uchun samoviy shamol kelib nardani ko'tardi-yu, oy yuzing namoyon bo'ldi.

– Samoviy shamol dedingmi, – so'radi taajjublanib Turona.

– Bo'lmasa o'sha bir qisqa daqiqada qaydan kelgan ekan?

– Ajab, juda qiziq, men buni o'ylamabman, – dedi malika xayolga cho'mib.

– Taqdirning taqozosiga qara, o'zimni qurbon qilsam ham, hato qahramonlik ko'rsatsam ham otang seni menga bermasdi hech qachon. Umidim yo'q edi sening vaslingga yetmoqlikdan. Ishqing olovida umr bo'yi kuyib-yonib o'tib ketardim. Ulug' Axuraga abadiy sig'inaman, hayotning achchiq, ayanchli fojiasi tufayli, dahsbat bo'ronlari seni menga nasib etdi.

– Shunday bo'lsa ajab emas...

– Mayli endi shu yerda to'xtaylik, qani malikam, o'zing haqingda so'zla.

– Meni malika dema, sug'diyonalik oddiy bir qizman, malikalikdan tushdim-u baxt topdim, bo'lmasa beqiyos durug' gavharlar, zar-u shohilar ichra umr bo'yi bebaxt qolardim. Yana nimani aytay senga, shu so'zimning o'zi kifoya emasmi?

Sherdor malikaning qo'lidan tutib, qum ustiga cho'kkaladi. Ikkovlon bir-birlariga termilgancha uzoq o'tirishdi. Cho'lning mayin shabadasi qiz kokillarini silar, sevishgan yuraklarga orom baxsh etardi. Shirin hissiyotlar og'ushida ikkalasi shu mas'ud damlarda urush, qirg'im, darbadarlik, qorong'i kunlarni mutlaqo esdan chiqarishgan, baxt-saodat, sevgi tangrisining mehmoni edilar.

O, go'zal, yarqiroq va nurafshon baxt!

Xvarno baxsh etgan saxovatlar-la

Mardlarga baxsh etding sen har qachon baxt!

Muattar bo'lur uy marhamatlar-la,

Gar unga kirarkan bo'lib mehmon baxt,

Buzilmas hamkorlik bo'lur taxt-bataxt.

Sherdor muqaddas Kitobning Ard-yashtasidan baxt haqidagi satrlarni qo'shiqqa solib kuyladi. Ha, inson hayotida shunday baxtiyor damlar bo'ladiki, uning har bir daqiqasi bir umrga tengdir. Zero bunday baxt hech qachon qaytarilmaydi, umr sahifalarida abadulabad o'chmas iz qoldiradi.

– Sening isming nima, sen ham o'zing haqingda so'zlab ber, – so'radi Turona uning ko'zlariga tikilib.

– Ismim Sherdor, bir g'arib bechora tog'lik yigitman, suratkashlik hunarimdan boshqa boyligim yo'q. So'qqaboshman. Ulug' tangridan o'rgulayki, oyog'im tagidan bebaho gavharni topib oldim, umi hech narsaga, butun bir jahon mulkiga alishmayman. U mening noyob muhabbatim, borlig'im. Shu so'zimning o'zi kifoya bo'lsa kerak deb o'ylayman.

– Axuramazdaga hamd-u sano aytay, maqsadimga yetkazdi, – Turonaning ohunikidek ko'zlarida butun ummon namoyon bo'lgandek tuyuldi Sherdorga.

– Turona, bilasanmi, nimani o'ylab yuribman?

– Nima edi?

– Husni jamolingmi butun kamoli bilan ho‘v o‘sha baland tog‘ qoyasiga chizaman, toki shirin sevgi damlaridan mangu yodgorlik bo‘lsin...

– Qo‘y, azizim, yurak tuyg‘ularimiz faqat sen bilan menga ma‘lum. Uning yolg‘iz guvohi va sababchisi ulug‘ tangridir. O‘zing aytding-ku, samoviy deb, uni hech kim o‘zimizdek his eta olmas...

– Axir qoyaga chizilgan malika ham umr bo‘yi unsiz qolar, xuddi sukutga ketgan tog‘lardek.

– Umrbod unsiz, jonsiz malika bo‘lib qoladi-ku, sho‘rlik... Bunday go‘zallik kimga darkor.

– Jonsiz go‘zallik bo‘lsa ham mahorat egasi qo‘lida hayotiy ifoda hosil etib, avlodlar yuragida go‘zal hissiyot uyg‘otgusidir.

Turona xayolga cho‘mdi, nozik qo‘llari bilan suratkash yigitning to‘zg‘in sochlarini sekin-asta siladi...

Sherdor malikaning momiqdek oppoq qo‘llarini o‘pdi.

– Tangrim seni menga abadiy nasib etgan bo‘lsin...

MUQADDAS OILA

Spitamen skif dashti jangidan keyin ruhan o‘ziga katta ishonch, g‘alabaga umid tuyg‘ulari bilan yashadi. «Agar hamma bir musht bo‘lib, ahillik, aql-idrok bilan jang qilsa, kelgindilarga qirg‘in keltirish, ona tuproqning begonalar tomonidan toptalishiga yo‘l qo‘ymaslik mumkin ekan-ku» – o‘yladi u. Dushman bilan yuzma-yuz to‘qnashuv shuni ko‘rsatdi. Spitamen jang tafsilotlarini tahlil qilib, yo‘l qo‘yilgan ayrim nuqsonlar, pala-partishliklar haqida ham o‘yladi. Yaxshiyamki Sherdor, Datafarn, Zo‘rtoshdek pahlavonlari bor ekan, shularning mardligi, mahorati ish berdi. Spitamenning fikricha, jangovar mahorat bu – dadillik, qurolni mohirlik bilan ishlatish, vaqtida o‘zini hlmoya qila bilish, ruhiy tetiklik va boshqalar. Jangdan keyin Spitamen qarorgohida o‘tgan kengashda ana shular haqida o‘ylab ko‘rildi, bo‘lajak janglar rejasi ishlab chiqildi.

– Bizning lashkarlarimiz Iskandarnikidan bir necha barobar kam, qurollarimiz ham. Bas, shunday ekan, biz o‘z jang

usulimizga ega bo'lmog'imiz lozim: g'animni arosatda qoldirib qo'qqisdan hujum qilish, jang uchun qulay joy tanlash, oqilona hiyla-nayrang bilan bo'lsa-da, albatta, ular biz ko'rsatgan joyga borishmaydi, qopqonga tushirmoq, vaqtida yurish boshlab, vaqtida chekina bilmoq. Cho'l, dasht, biyobon biz chekinadigan istehkom, temir qal'a, chiqib bo'lmas qoya, – dedi Spitamen.

Spitamen Iskandarning qurol-yarog'lari turlari, lashkarlarini joylashtirish va jang qilish usullari haqida so'zлади. Chunki Baqtriya va Midiyada Doriyovush qo'shinlari safida turib makedoniyaliklarga qarshi urush qilganida ko'p narsani ko'rgan, o'rgangandi.

– Bizning cho'llarimiz bepoyon, inson oyog'i yetmagan changalzorlarimiz, yovchiqolmas qoyalarimiz hor. Hammamiz ham ovchilarmiz, maqtanish emas, yana takror aytaman, har holda yaxshi ovchilarmiz. Tuzoq qo'yib, yirtqichni ilintirish qo'limizdan keladi. Sug'diyonaning hamma joylariga shunday tuzoq qo'yib tashlaylikki, toki dushman erkin yurolmasin!

Xalq qasoskorlari boshliqlari, sarkardalar Spitamenning so'zlarini e'tibor bilan tingladilar. Datafarn, Oksiart, Xorien, Katan ham o'sha janglar ishtirokchisi sifatida o'z mulohazalarini aytishdi.

– Otlar kam, xalqda borini Iskandar olib qo'ydi, jang vaqtida «dax usuli»dan⁴² yaxshi foydalansak chakki ho'lmasdi, – dedi Datafarn.

– Bizning jangchilar uni o'zlashtirib daxlardan ham o'tkazib yuborishdi, – dedi Xamuk.

Hamma kulib yubordi.

– Massagetlarga ofarin, ularda har ikki kishiga bittadan ot, har kuni mashq qilishgani-qilishgan. Qizig'i shundaki, otlari bir yo'la ikki jangchiga o'rganib olishgan, – dedi Sherzod ma'qullab.

Kengash tarqadi, hamma o'z chodiri tomon ketdi. Kech qirdi. Qarorgohda osoyishtalik, Spitamenda jang-u jadallardan, tashvishlardan bir oz xoli qolib, qarorgohida oilasi, bolalari bilan bir-ikki kun bo'lsa ham birga bo'lish niyati tug'ildi.

⁴² «Dax usuli» – bitta otga ikki kishi o'tirib oladi, jang maydoniga kirgach bittasi otdan tushib piyoda sifatida jang qiladi. Ba'zan har ikkalasi galma-gal shunday qilishadi.

– Ovqat olib kel, – buyurdi mulozimiga u, – Odatidaga ayt, bolalarni olib kirsın.

Hammadan oldin bolalar chopib kirishdi, tili chuchuk, kenjatoy erkasi Ramush chopgancha kelib otasming bo'yniga osildi, tizzasiga o'tirib, uning behidagi kumush qimli xanjariga yopishdi.

– Qo'y, qo'y, qo'lingni kesib ketadi, joyiga solib qo'y.

Egizaklar – Ramtish bilan Soymishning bo'ylari ancha cho'zilib qolgan. Mana hozir ular otasiga salom berib, odob bilan bir chekkaga o'tirishdi.

Spitamen endigina o'n ikki yoshga qadam qo'yan egizaklarga qarab negadir yuragi g'alati ho'lib ketdi. Ular ota mehriga to'yishmaydi, qachon bo'lsa darbadarlik, yo'l, ko'chmanchilikka o'rganib ketishgan. Ramtish ham, Soymish ham xuddi otasiga o'xshab qoplon terisidan yopqich tashlab olishibdi, oyoqlarida uchli qizil etik, bellarida chiroyli qimli xanjar. Mo'ylablari bilinar-bilinmas nish uribdi. Spitamen o'g'iliarina ko'rib, ko'z oldida o'z bolaligi namoyon bo'ldi, ko'ngli bir oz bo'shashdi.

Mana go'zal Odatida ham olovdek yonib ketibdi, eriga ko'rinish uchun o'ziga anchagina oro bergan. Egnidagi samoviy rang ko'ylagi shunday yarashib tushibdiki, farzandlari ham, Spitamen ham uni bu holatda kamdan-kam ko'rishgan. Qulog'idagi Spitamen Ekbatandan olib kelgan oltin baldoq, bo'ynidagi taqinchoqlar, boshiga tangib olgan shohi ro'moli ayol husniga husn qo'shgan. U xuddi suzgandek yengil yurish bilan kelib eri qarshisiga o'tirdi.

Bolalar enasining odatdan tashqari pardoz-andoziga, taqinchoqlariga anqaygancha qarab qolishdi. Spitamen ham o'g'illari qatori unga termulib turgandi.

– Nima bo'ldi, hammangiz mendan ko'z uzmay qoldingiz, – dedi Odatida bir oz iymamib.

– Shunchaki...

Spitamen gapirishga og'iz juftlagan ham ediki, Odatida uning so'zini bo'ldi:

– Ha, ko'rsa ko'rgundek husnim bor, har qancha qarasa arziydi, – dedi hazilomuz jilmayib.

Bolalari ham, Spitamen ham kulib yuborishdi, Odatida lavlagidek qizarib ketdi, u yoq-bu yog'ini tuzatgan bo'ldi. «O'z uyingda, o'z oilangda ham uyalib umring o'tadi, yoshroq bo'lsam ham mayli edi», ko'nglidan o'tkazdi u.

Ena, ena, sizning ismingiz judayam chiroyli-a, otangiz qo'yganmi, – so'radi Soymish.

– O'zlari ismlaridan ham chiroylikla, – dedi Ramtish.

– Enangming ismi haqiqatan ham o'zi kabi chiroyli, uning o'z tarixi bor, – dedi Spitamen.

– Qanaqa tarixi? – qiziqdi Ramtish.

– Men enangga bir vaqtlar aytib bergandim, to'g'rimi Odatida?

– Ha, yoshligimda, unda vaqting ham, mehring ham ko'p edi, meni o'zingga og'dirish uchun ko'p hikoyatlar, rivoyatlar so'zlab berarding...

– Hozir ham so'zlab beraman, mima bo'пти, bolalaring ham eshitib qo'ysm, – dedi Spitamen.

– Ayting, dada, enamiz haqidagi hikoyatmi so'zlab bering.

Spitamen xayolan o'sha yoshlik, osoyishtalik yillarini yodiga oldi. Qayg'u-g'am mimaligini bilmagan, bola-chaqa, el tashvishlaridan xoli bo'lgan yillarda Odatida uchun jonini berishga ham tayyor edi; Bir daqiqa undan ajralolmas, haqiqatan ham Odatidaning ko'nglimi olish, sevgisiga loyiq bo'lish uchun o'zini har yoqqa urar, uning ko'ngliga yoqadigan shirinliklar, kiyimlar, turli-tuman tuhfalarga ko'mib tashlardi. Yoshlik sevgisi shunday bo'ladi-da, keyin farzandlar tug'iladi, ota-onaning mehr-muhabbati asta-sekin zurriyotlariga o'tadi, «buning uchun nolish kerak emas», deb o'yladi Spitamen.

– Xohlasanglar, mana, eshitlaring bo'lmasa. – Spitamen Odatidaga qaradi.

Odatida indamasdan yengil tabassum bilan yerga karadi.

– Bo'lmasa, eshitinglar:

Rivoyatlarga qaraganda Midiya podshohi Gistaspnig Zaridor nomli ukasi bo'lgan ekan. U Hazardan to Tanaisga cha bo'lgan mamlakatlarga hukmronlik qilgan deyishadi. Tanaisning narigi tomonidagi Omart degan podshohning Odatida degan husnda yakka-yagona qizi bo'lgan ekan.

– Bizning oyimiz ham yakka-yu yagona, – gapga qo‘shildi Ramtish.

– Oyim Omartning qizimi? – so‘radi Soymish.

– Hikoyatni oxirigacha eshitinglar, keyin tushumb olasizlar, – dedi Spitamen Odatidaga ko‘zini qisib.

Men unchalik chiroyli emasman-ku? – dedi uyalib Odatida.

– Juda chiyoyliksiz, – Spitamenning tizzasida o‘tirgan Ramu chopgancha kelib onasining bo‘ynidan quchoqladi.

– Keyin nima bo‘libdi, – oshiqib so‘radi Ramtish.

– Keyin qiziq voqea yuz beribdi: Bir kuni Odatida tushida Zaridormi ko‘rib, g‘oyibona sevib qolibdi. O‘sha kecha Zaridor ham tushida Odatidani ko‘ribdi-da, u ham qizga oshiqi beqaror bo‘lib, tinchligini yo‘qotibdi. Chunki Odatida Osiyoda tengi yo‘q, go‘zal qiz hisoblanarkan. Zaridor ham undan qolishmaydigan xushbichim, o‘ktam yigit ekan.

Zaridor nima qilarini bilmay, oqibat Omartning huzuriga sovchilar yuborib, undan qizi Odatidani so‘ratibdi. Ammo Omart «men qizimni begona yurtga yubormayman», deb sovchilarga rad javob beribdi-da, qizini tezroq erga berib yuborish ko‘yiga tushibdi, saroyda katta ziyofat uyushtirib, juda ko‘p mehmonlarni taklif qilibdi. Qizi Odatidani o‘zi bilan birga olib kelibdi. Ziyofat qizigan vaqtda qizining qo‘liga oltin kosada sharob tutqazib, «ko‘ngling sevgan yigitga olib borib ber, keyin seni o‘shanga erga beraman», debdi. Shunda qiz otasiga yolvorib, men boshqa yigitga ko‘ngil berganman deb so‘zlabdi. Shundan so‘ng Odatida Zaridorga chopar yuborib, otasi boshqa yigitga erga berayotganligini xabar qilibdi.

Zaridor bu xabarni eshitib jomi halqumiga kelibdi, shohona liboslarini yechib, skiflar kiyimida kechasi bildirmay maxfiy yo‘l bilan saroyga kirib, Odatidaga ma‘lum qilibdi. Shunda Odatida sevganiga ichirish uchun saqlab qo‘ygan o‘sha oltin kosadagi sharobni Zaridorga tutibdi. So‘ng ikki oshiq-ma‘shuq saroydan chiqib, hech kim topmaydigan el-yurtlarga ketib, umrining oxirigacha baxtli hayot kechirishibdi.⁴³

⁴³ Mazkur hikoyat Sug‘diyonada keng tarqalgan bo‘lib, saroylar, muqaddas ibodatxonalar devorlariga, hatto zodagonlarning o‘ylariga chizilgan suratlarda o‘z ifodasini topgan. Ko‘p e‘tiborli oilalar o‘z qizlariga sevib Odatida deb nom qo‘yishgan.

- Enajon, o'sha Odatida sizmi? - so'radi Ramtish onasiga hazillashib.

- Otam mening ismimni ana shu hikoyatdan olib qo'ygan ekanlar, - dedi Odatida.

- Zo'r ekan, - Ramtish onasiga faxrlanib qarab turdi.

Bolalar o'z ota-onalari og'ushida g'oyat baxtiyor edilar. Aymiqsa, hamisha ish bilan, el tashvishi bilan band bo'lgan aziz otalari - Spitamenning bu oqshom oila davrasida, xonadon to'rida kenjasi Ramumi tizzasiga olib erkalab o'tirishi go'zal Odatida qalbiga go'yo chiroq yoqqandek bo'lardi.

- Endi topishmoq aytamiz, qani Ramtish sen juda ustasan, hech kim topolmaydigan qizig'idan ayt, - dedi Soymish.

- Ey qo'ysang-chi, esimda yo'q, - dedi Ramtish tarang qilib.

- Ena, siz ayting, axir u ko'p topishmoq biladi-ku!

- Mayli, aytaman, eshitinglar bo'lmasa, topolmasanglar jazolayman, peshanangizga bittadan chertaman, - dedi Soymish.

- Mayli, rozimiz. Ammo hali biz ham aytamiz, topolmasang, seni ham jazolaymiz, shundaymi, ena?

- Albatta, - dedi Odatida kulib.

- «Ko'prikning tagida to'rtta qurt».

- Nima, nima, - tushunmadi Ramtish.

- «Ko'prikning tagida to'rtta qurt» emish, - qaytardi Odatida.

Hamma jim bo'lib qoldi, Spitamen yer ostidan Odatidaga qarab ko'zini qisib qo'ydi. Sukunat, Ramtish hayratda ko'zi chaqnab bir enasiga, bir otasiga qarab qo'yadi. Vaqt o'tib bormoqda.

- Topolmadinglar-a? - Soymish o'tirganlarga jazo bermoqchi bo'lib o'rnidan to'rdi.

- Sidir, - dedi Ramu birdan chapak chalib.

- Nima, nima, yana bir qaytar, - dedi Ramti ukasining tiliga yaxshi tushunmay.

- Eshityapsanmi, sigir emish, - dedi Spitamen o'g'lining boshini silab...

- Qanaqasiga sigir bo'larkan, - dedi Soymish ajablanib.

- To'g'risi, sigirning emchagi, - dedi Ramtish.

– Nega to'g'ri bo'larkan, tushunmadim, – dedi Soymish.

– To'g'ri, sigirning emchagi dedi Ramtish.

Hamnia baravariga gurros solib kulib yubordi. Ayniqsa, Ramu o'zini tuta olmay kiyiz ustiga yumalagancha zavq-shavq bilan qotib-qotib kulardi.

Kenjatoylarining qilig'idan er-xotin ham xursand bo'lishar edi.

– «Kichkinagina dekcha, ichi to'la mixcha», bu nima? – hammaga bir-bir qarab chiqdi Ramti.

– Anor, – dedi Soymish.

– To'g'ri topding, – dedi Ramti.

– «Yura-yura, tangadek joyni egallaydi», xo'sh bu nima ekan? – so'radi Ramti.

– Hassa, ha bobomning hassasi, – dedi Soymish.

– Bo'lmasa mana bunisini top.

– Xo'sh, ha aytgancha, topdim, topdim, eshitinglar: «Tomga beda yoyib qo'ysam, ertalab turib qarasam bitta ham yo'q», bu nima?

Yana o'rtaga sukunat tushdi, hamma bir-biriga qarab «bilasanmi», degandek imlashardi. Spitamen bolalarni kuldirish maqsadida: «topdim, topdim, bu yaylovdagi qo'y-qo'zilar», degan edi, bolalar kulib yuborishdi.

– Bu qanaqasi bo'ldi Spanta, axir javobing to'g'ri kelmaydiku, – dedi Odatida eriga ta'na qilgandek.

– Unday bo'lsa o'zi aytib bersin, – dedi Spitamen Ramtushga qarab.

– Bo'lmasa hammangizni bitta-bitta chertib chiqaman, keyin aytaman.

Ramu o'rnidan turib avvali o'z raqibi Soymishni boplab chertdi, keyin boshqalarni, Ramu cherttirmasdan otasining qo'yniga kirib ketdi.

– Xo'sh, endi ayt, nima ekan, – so'radi alamzada Soymish.

– Yulduzlar, – dedi Ramtish mag'rur turib.

– Qanaqasiga yulduzlar bo'lsin, tushuntirib ber, – dedi Soymish.

– Mana kechasi osmonga qarasang behisob yulduzlar charaqlab yotadi, ertalab turib boqsang, bitta ham qolmaydi.

Xullas, bolalar ham, ota-ona ham rosa yayrashdi.

Odatida poygakda bu ajoyib, muqaddas oilaning samimiy suhbatiga havas bilan boqib o'tirgan xizmatkor qulga ishora qildi. U o'rnidan dik etib turdi-da, tashqariga chiqib ketdi. Bir daqiqa ham o'tmasdan barasman olib kelib, xonaga tutatib yubordi. Spitamen ichida pichirlab duo o'qib, labi bilan ko'ziga qo'llarini tegizib qo'ydi, farzandlar ham otasining harakatlarini qaytarishdi. Odatida tabaqlarga xauma suvi quydi-da, sutga aralashtirib avval eriga, keyin bolalariga uzatdi.

– Qachon yaylovga boramiz, ota, – so'radi Ramtish otasidan.

– Anavi qorabayirning toychog'ini o'zimga berasiz, Qarasochoq o'xshatib boqaman, – dedi Soymish.

– Yo'q, dadam menga beyadiya, senga yo'q, – dedi Ramu Spitamenning bo'yniga osilib.

– Otlar tangrining ehsoni, tili bo'lmasa ham hamma narsani dili bilan bilib, tushunib turadi. Odamning ichidagi dardidan ham xabardor bo'lib, xafa bo'lgan birgalashib hamdardlik ko'rsatadi.

– Qanday qilib tushunadi? – so'radi Ramtish.

– Xafa bo'lsang ot ham hamdard bo'lib yoningda parvona bo'ladi, aytganingni tezda bajo qiladi, qamchi urmasang ham yelib manzilingga yetkazadi.

– Juda aqlli bo'larkan-da otlar, – taajjublandi Soymish.

– Mayli, ot talashib yurmanglar, bolalarim ot ko'p, toychoqlar ham. Hammangizga yetadi. Otga kim yaxshi qarasa, qorabayirning toychog'i o'shaniki.

Odatida farzandlari bilan samimiy, xotirjamgina so'zlashib o'tirgan eriga mehr-ehtirom bilan qarab, ich-ichidan quvondi. Axir, shu uch o'g'il yuragining qoni, bag'ridan uzilib tushgan, shularsiz unga hayot ham yo'q. Tun-kun ovunchog'i ham, iqboli ham shu bolalar. Odatida o'g'illariga suyamib qolgan, ularni qandaydir beqiyos, beg'ubor mehr bilan o'stirdi, tarbiyaladi. Ammo, goh-goh ularning taqdiri haqida o'ylasa, yuragi orqaga tortib ketadi. Mana bu mash'um urushdan Odatidaning yuragi hayajonda, bir tomondan Spitamendan xavotirda bo'lsa, ikkilamchi farzandlari haqida qayg'uradi. Jigarbandlariga biror narsa bo'lsa, o'sha kuni uning o'lgami. Shu bois o'y-o'ylab oxiriga yetolmaydi, eriga aytadigan yurak dardlari ko'p-u lekin hali hech narsa deganicha yo'q, Spitamen bir so'zlik, uning fe'l-

atvorini Odatida yaxshi biladi. Agar biror ishga bel bog'lasa, to o'rniga qo'ymaguncha yotib uyqusi kelmaydi, so'zining ustidan chiqmaydigan, landovur odamlarni jini suymaydi, ular bilan aloqani yig'ishtirib tashiydi. Savdo-sotiq masalalarida Spitamen bilan aloqa qiladiganlar ham o'ylashib ish qilishardi.

Xizmatkor qul katta sopol tovoqda pishirilgan go'sht olib kirdi. Shunga yarasha dasturxonga turli mevalar tortdi. Keyin ko'zachada musallas keltirib odob bilan kosaga quydi-da, Spitamenga uzatdi.

Kechki ovqatlanish tugagach, bolalar birin-ketin chiqib ketishdi. Xizmatkor dasturxondagi ortiqcha narsalarni olib u yoq-bu yoqni tartibga solgach, bo'sh kosaga yana musallas to'ldirib qo'ydi-da, oyoq uchida yurib xonadan chiqdi.

- Spanta, endi ko'p ichma, - dedi Odatida musallas kayfidan o'tirgan joyida ko'zi ketayotgan Spitamenga.

Agar Spitamen hozir uxlab qolsa hech kim ko'tarib o'rniga yotqiza olmaydi, uyg'otmoqchi bo'lsangiz eplay olmaysiz, xunobingiz chiqib ketadi.

- Spanta, tur bo'lmasa, yaxshisi o'rningga yotqizib qo'yay!

- Qo'yaver, maza qilib o'tiribman, hadeb bezovta qilaverma, - dedi yarim uyqu aralash Spitamen.

- Nega men bezovta qilmay, endi joningga tegdim, shekilli, - xafa bo'ldi xotini.

- Darrov ko'nglingga olasan, senga jim o'tir deyaрман.

Odatida gapiravergach Spitamen o'rnidan turib ketdi, uyquli ko'zlarini ishqalab xumda turgan muzdek suvdan kosaga to'ldirib ichdi, keyin xotining belidan qo'limi o'tkazib erkaladi:

- Hadeb mima deyaverasan, mana turdim, xo'sh muddao-yimgni ayt.

- Spanta, seni sevaman, ammo sen juda beparvosan... Shuni o'zing bilasanmi?

- Yo'q, bilmayman, seni ham Ayshma aynatib qo'ymadimi?

- Spitamen xotining sochiarini siladi.

- Memi hech kim aynatolmaydi, o'z aql-idrokim bilan ish tutaman, - dedi Odatida qat'iy.

- Shunday degin, aytmoqchi goho-goho xayoling ozgina bo'lsa ham boshqa yoqlarga ketib qoladi-a?

– Seni sevgamim uchun shunday qilaman. Menga qara, Spanta, anchadan beri senga aytmoqchi bo'lib yurgandim, shu urushmi nima keragi bor-a? Mendan xafa bo'lma, odamlar ham shunday deb yurishibdi.

– Kim shunday deyapti, qaysi olchoqning gapi bu? – Spitamenning jahli chiqdi.

– Jahling chiqmasin, jonim, mayli, bu gapni o'zim aytdim, o'zimning so'zlarim...

– Urush hech kimga kerak emas, menga ham... Axir tushungang-cbi, ular bizga urush e'lon qildilar, Axuramazdaning serunum yaylovlarida rohat-farog'atda, tinchgina yurgandim-ku!

– Ko'p qizishma, Spanta, men axir haq so'zni aytdim, mana sen jangga ketding, mening o'rmimga o'zingni qo'yib ko'r, qo'rquvdan, iztirohdan yuragim yomon bo'ldi, sochlarimga oq oralabdi. Bu qirg'in urushiar, darbadarliklar jonimga tegib ketdi, axir, Spanta!

– Bas qil, bo'lmasa.

Spitamen xonada u yoqdan-bu yoqqa yurib o'z yog'iga o'zi qovrilar, qarshisida turgan sevimli xotiniga maqsadini tushuntirishdan, gap uqdirishdan ojiz edi.

Odatida Spitamenga hayajon bilan qarab turdi, erining asabi buzilib, yana biror og'ir gap qilib qo'yishidan qo'rqdimi, bosiqlik bilan tushuntirdi:

– Meni kechir, Spanta, jonimdan o'tib ketganidan aytyapman, norasida bolalar taqdiri meni qiynamoqda. Mayli, bilganingni qil, bu yog'i senga...

– Bas qil, shuncha g'ashimga tekkaning yetar, yonimda turib, madad berish o'rmiga xalaqit berasan, qilich tutgan qo'llarim tilimg zahridan og'riy boshiadi, endi yana bir og'iz gap aytsang taranglashgan asabim iplari uzilgay...

Odatida sekingma oyoq uchida yurib chiqib ketdi...

KIRISAXTA FOJIASI

– Ayo do'stlar, birodarlar, yurak dardim sizga so'zlay, hir devona-yu g'aribning so'zin tinlang. Men tug'ildim, baxt uchunmi, rohat uchunmi, yo'q, azob-uqubatda. Nechun

chor atrofda g'iybat, adovat, nechun odamlar bir-biriga istar yomonlik! Haqoratlar nechun? Yaxshilar dunyodan juda tez o'tib ketdilar. G'iybatchi, yolg'onchi bemalol yashab yuribdi. Ularga yorug' dunyoda nega, nechun joy ko'p. Tag'in yaxshilar ustidan kulishadi, adolatni oyoqosti qilishadi, badavlat hayot kechirishadi. Qani haqiqat, qayda o'zi. Yolg'onning, g'iybat va tuhmatning umri qisqa. Birovga choq qazigan unga o'zi yiqilar emish. Ammo bu iflos illatlar tufayli qancha-qancha dono, zakovat egalari qurbon bo'ldi. Qancha-qancha yaxshi odamlarning asablari qaqshadi. Haqiqat yuzaga chiqqunga qadar nohaqlik, zug'um o'tkazib insonni toptadi, asablarini ezib tashladi! Axir odam umri qisqa-ku!

Aziz birodarlar, Sug'diyona elining oyoqyalang gadolari, yupun ochlari, Axuramazdaga qasam ichamanki, falakning gardishi sizlarning foydangiz uchun aylanmaydi. Bu dunyoga yalang'och kelib, yalang oyoqligingcha o'tib ketaverasan!

Dariyod zo'r ishtiyoq va hayajon bilan kuylay ketdi:

Shunday bo'lg'ach nizo nechun, nechun qironlar,

Nega inson bo'ri bo'lsin bir-biriga, xo'sh?

Ezgulikka nima yetsin, aziz yoronlar,

Odamlarning taqdirlari payvasta va qo'sh.

Bu dunyoga kimlar kelib, kimlar ketmadi,

Hamma ishlar chala qolib, umr yetmadi.

Kirisaxtada notinchlik. Shahar ko'chalaridan to'da-to'da suvoriylar ot choptirib o'tib qolishar, qilich-qalqon taqqan xalq lashkarlari qal'a tomon kelishardi. Hammaning yuzi jiddiy. Mish-mish xabarlar bugun-erta Kirisaxtaga Iskandar qo'shinlari bostirib kelishidan dalolat berardi. Axir Kirisaxta Sug'diyonaning katta, mudofaa ahamiyatiga molik shaharlaridan biri.

Tushga tomon kuzatuvchilar Iskandar qo'shinlari, Krater hoshliq lashkar Kirisaxtaga yaqinlashib kelayotganligini xabar qildi. Bu xabar yashin tezligida tarqaldi, butun shahar alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Hamma harakatga tushib qoldi, o'roq, oy

bolta kabi turli qurollar ko'tarib olgan aholi shahar darvozasi tomon oqib borardi.

Kechga tomon yunon-makedon qo'shinlari yetib keldi. Ular og'ir va yengil qurollar bilan ta'minlangan suvoriylar, piyodalardan iborat edi. Manjanaqlarni otlarda sudrab kelishdi. Uzun nayzaliklar, kamonchilar, har biri alohida qo'shin birlashmalariga ukirgandi. Ustma-ust qilib narvon ortilgan bir necha arava hammadan keyin yetib keldi.

Krater o'z lashkarboshilari bilan Kirisaxta devorlari atrofini aylanib chiqib, shahar mudofaasi mustahkamligiga qanoat hosil qildi. Shunday bo'lsa ham hokimga vakil yuborib, urushsiz tinchgina taslim bo'lishni taklif etgandi, qat'iy rad javobi oldi.

Shundan keyin shahar qamali boshlandi. Bir necha joyga manjanaqlar qo'yildi. Kamonchi qismlar devorlar yaqinida payt poylab turishlari kerak. Keyin devorning buzilgan joyidan suvoriylar birinchi bo'lib o'tishi, narvondorlar bo'lsa uzun shotilarni devorga qo'yib darvoza ustiga ko'tarilishlari kerak. Bir necha manjanaq ishga solindi, ammo devorlar pisand qilmadi. Suvoriy kamonchilar darvoza tomon shitob bilan kelishdi-da tepada turgan shahar himoyachilarga o'q uzib, tartib bilan yana orqaga chekinishdi. Shaharliklardan kimningdir qo'liga o'q tegdi, endi kirisaxtaliklar ham bo'sh kelmay, dushman suvoriylarining hujumiga tayyor bo'lib turishdi, ikkinchi safargi hujumda makedoniyaliklardan ikkitasi shahar himoyachilarining o'qiga uchdi.

Qorong'i tushdi, hujum to'xtadi, shahar darvozasi yonidagi katta maydonda gulxanlar yoqildi, ammo makedon ayg'oqchilari qo'rg'on devorlari atrofida izg'ishar, qanday bo'lmasin shaharga kirib olish uchun yo'l axtarishardi.

Hokim saroyi yonida Dariyod paydo bo'ldi. Soqchilarga Kirisaxta hokimi Ispandat huzuriga zarur ish bilan kirmoqchi ekanligini bildirdi, ammo uning devona holati, isqirt kiyimlariga qarab hokim huzuriga kiritishmadi.

- Turish-turmushimga qarab, menga baho berma, ey nodon, axir men ham barno yigit edim bir vaqtlar, odamlar jirkanmasdi vajohatimdan, qarilik qursin, hech kimga yoqmaysan, suhbatingdan ham nari ketar yosh-u yalanglar.

Shu vaqt Dariyodning tanish ovozi eshitib hokimning o'zi chiqib qoldi.

– Agar yanglishmasam, sen Dariyodsan, – murojaat etdi hokim devonaga.

– Balli senga, ovozimda balki yoshlik alomati qolgandir, nidolarim yetibdi-ku, ulug' xudoga!

– Sening qalbing yosh, fikring yosh, ey padarbuzrukvor, qoshimga kir, ming afsuski yurtimiz notinch, sen bilan uzoq so'zlasholmayman, – dedi Ispandat.

– Shu notinchlik tufayli keldim qoshingga, dushman olchoq, qo'shini ko'p, og'ir bo'ladi senga. Ammo bilki ular ayyor, sotqinlar ko'p, senga aytmoqchi bo'lgan gapim shul. Rasta tomon o'tib edim shu bugun, adashmasam ikki sotqin yurgan edi bozorda.

– Kimlar ekan o'shalar, yaxshi tanib oldingmi? – so'radi Ispandat.

– Ko'rsam albatta taniyman. Biri bashang, kiyimlari shohona, ikkinchisi bo'yi baland, kasalmand itvachcha. Ispandat Dariyodga ming bor tashakkur aytdi.

– Minnatdorman, padarbuzrukvor, chindan ham Sug'diyonaning jonkuyar elparvari ekansan.

– Meni Spitamen yuborib edi, o'sha aytdi bu yerlarda sotqinlarning yurganligini.

– Mehribonchiligi uchun umr bo'yi qarzdorman undan, pahlavonga salomimni yetkazgin, – dedi Ispandat.

Dariyod o'z yo'liga ketdi.

Shahar hokimi o'z odamlari bilan shahar darvozasiga borib, mudofaa ishlari bilan qiziqdi. Ispandat darvoza tepasiga chiqib, atrof-tevarakka nazar tashladi, haqiqatdan ham Iskandar qo'shinlari shahar chekkasidagi maydonni egallab olgandi. Shovqin-suron, gulxan atrofida beqiyos qiyqiriqlar yarim kechagacha davom etdi.

Tun yarimdan oshganda makedon lashkarlari o'rtasida qiy-chuv ko'tarilib qoldi, yigirma yanglig' qasoskor suvoriylar dushmanga hujum qilib birpasda o'ndab makedoniyaliklarni o'ldirib, o'zlari bitta ham talafot ko'rmay qayergadir g'oyib bo'ldilar. Bumi makedoniyaliklar sira kutishmagan edi. Qo'shin-

lar o'rtasida vahima ko'tarildi, shundan keyin hech kim uxlamadi, azongacha yurib chiqishdi. Makedoniyaliklar yana shahar atrofida paydo bo'lib, kirish uchun joy axtara boshladilar.

Kirisaxta mudofaachilari dushmanga kechasi hujum qilganlar haqida hech narsa bilmasdilar, uni cho'lda yashovchi qabilalardan ko'rishdi, chunki kechasi shahar darvozasidan birorta ham odam tashqariga chiqmagandi.

Erta bilan makedon qo'shinlari shaharga har tomondan hujum boshlab, shahar mudofaachilarini shoshirib, qo'yishdi. Devorning ikki joyi buzilib teshik hosil bo'ldi. Bir necha joyga qo'yilgan narvondan chaqqonlik bilan tepaga chiqib olgan makedoniyaliklar bilan mudofaachilar o'rtasida shiddatli jang ketdi, ikki tomon ham ancha talafot ko'rdi. Xullas, shahar bir haftagacha taslim bo'lmadi. Mudofaachilar ziyraklik bilan shahar yo'llari, darvozalari, devorlari atrofini qo'riqlab, mardonavor jang qildilar. Noma'lum suvoriylarning tungi hujumi bo'lsa yana bir necha bor takrorlandi, xalqning qo'lga tushmas qasoskorlari bildirmasdan, qo'qqisdan hujum qilib dushmanga katta talafot yetkazmoqda edilar.

Iskandar Kirisaxtadagi voqealardan voqif bo'lgach, Kraterning noshudligidan jahli chiqib, o'zining tanlagan zarbdor kuchiari bilan yetib keldi. Hammayoqni kuzatib, shahar atrofini aylanib chiqdi. Shahar darvozalari yoniga o'tin qalab, o't qo'yishni buyurdi. Ammo shahar mudofaachilari bo'sh kelishmadi, darvoza tagiga o'tin qalayotgan sipohiylarni to'xtovsiz o'qqa tutib, tosh bilan urib, yaqinlashtirmaslikka harakat qilardilar. Ammo makedoniyaliklar bu ishni amalga oshirish uchun katta kuch tashlagandi. Darvoza quyuq o't ichida qoldi, mudofaachilar ko'zalarda suv olib kelib, tepadan quyib olovni o'chirib turdilar.

Kechqurun qo'shinlar joy-joyiga qaytdi. Iskandar Krater bilan shaharni allamahalgacha zabt etish rejasini tuzdi.

Tun yarim kechadan oqqanda soqchilar boshlig'i kelib, uni Kobar degan odam yo'qlayotganligini, yomida sherigi ham borligini bildirdi.

– Kim ekan hemahal yo'qlayotganlar, – dedi Iskandar bir oz xavotirlanib.

– Juda zarur ishimiz bor. Kirisaxtaga kirish yo'lini bilamiz deyapti, – dedi soqchilar boshlig'i.

– Yaxshilab teksblringlar, keyin olib kiringlar, tag'in qotil bo'lmash, bu yovvoyilardan har narsa kutish mumkin, – dedi podshoh.

Sherigi bilan Kobar kirdi.

– Mening ismim Kobar. Bessning yaqinlaridan bo'lardim, o'sha vaqtda Baqtriyada u bilan urishib ketib qolganman, maqsadim sening xizimatingga kelmoqlik edi, Bessni ham shunga ko'ndirmoqchi bo'ldim.

– Sen ham Doreyosning qotillaridanmisan? – so'radi Iskandar.

– Men ishtirok etmaganman bu qotillikda, – dedi Kobar.

– Bessning yaqin odami bo'lsang-u qotillikda qatnashmagan bo'lsang, bu qanaqasi bo'ldi? – g'azablendi Iskandar.

– Yumshoq ko'ngilli odamman, rost gapim shu, aldamayman...

– Sherigimg kim?

– Buning ismi Bosti, panjikentlik bo'ladi, Spitamen ozor beribdi unga!

– Nega? – so'radi qiziqib Iskandar.

– Uning uyuridan yaxshi otlarmi o'g'irlagan ekan, ushlab olishibdi, xalq o'rtasida eshakka teskari mindirib sazoyi qilibdi, endi Spitamenmi o'ldiraman, deb yuribdi.

Podshoh miyig'ida kulib qo'ydi.

– Spitamen to'g'ri qilibdi, uning o'rnida bo'lsam men ham shunday qilardim, – dedi Iskandar.

Kobar ham, Bosti ham nima deyishiarini bilmay mulzam bo'lib qolishdi, podshoh huzurida o'ng'aysiz bir vaziyat yuzaga kelgandi, go'yo ular o'zlarini Iskandarga yaxshi ko'rsatish uchun uning dushmanlarini yomonlab kelgandek bo'lib chiqdi. Iskandar bo'lsa bunday odamlarvi xush ko'rmasdi.

– Xo'sh, yarim tunda shu gap bilan keldinglarmi? – so'radi podshoh bir oz ijirg'anib.

– Biz boshqa ish bilan kelgandik, ulug' podshoh, – dedi bir oz jon kirganday Kobar.

– Dilingdagini so'zla, – dedi Iskandar.

– Shaharga kirishning bir yo'li bor, Bosti juda yaxshi biladi.
– dedi Kobar.

– Kirisaxtagami?

– Shunday podshohim, – dedi Bosti.

– Qayerdan kirish munim shaharga?

– Shaharning narigi tomonida daryoning qurib qolgan o'zani bor, men ilgari o'sha yerdan kirib yurardim.

– O'g'irlik qilarmiding?

Iskandar o'rnidan turdi:

– Erta tong bilan mening tanlangan qismlarim o'sha yerdan shaharga kiradi.

– Sen... Isming Bostimidi, ularni boshlab borasan.

– Qulluq, ulug' podshohim, – ikkovlari ta'zim qilishdi.

– Ammo, ikkovingga aytadigan so'zim shu, sizlar insofsiz sotqin odamlarsiz. O'ldirmayman, ertaga ozod qilib yuboraman, keyin xohlagan tomonlaringga ketaveringlar, – dedi Iskandar qat'iylik bilan.

Soqchilarni chaqirdi.

– Bularni hozircha qamab qo'yinglar, – dedi.

Bostini tong saharda avahmadan olib chiqishdi.

Krater boshchiligidagi yuzga yaqin suvoriylar daryoning qurib qolgan o'zani bo'ylab ketishdi. Daryo ilgari shahar devori tagidan o'tgan, qurib qolgach, yashirin yo'lga aylanib, o'g'rilar shu yerdan shaharga kirib o'g'irlik qilisharkan. Hozir bo'lsa buni hech kim esiga ham keltirmay tashlandiq joy bo'lib qolgandi. Ammo devor tagidan ot bilan o'tib bo'lmasdi, kimdir uni buzib bimalol bitta ot o'tadigan holga keltiribdi. Buzilgan kesaklar hali yangi, u yoq-bu yoqda sochilib yotardi.

– Buni ham sizlar buzdinglarmi, – so'radi Krater Bostidan.

– Yo'q, biz ko'rganda buzilgan joyi yo'q edi, – dedi Bosti.

Ular devorning buzilgan joyidan otni yetaklab bitta-bitta o'ta boshladilar. Un-o'n besh kishi o'tgan ham ediki, ichkarida qiy-chuv bo'lib qilichlar sharaqlab qoldi.

– Bilib qolishdi shekilli, balki sen bizni tuzoqqa tushirmoqchi bo'lgandirsan? – dedi qilichini sug'urib Krater.

– Yo'q, yo'q... men.

Krater Bostini bir urib, otdan ag'darib yubordi-da, o'zi devor teshigidan oti bilan o'tib ketdi. Devor orqasida qattiq va shiddatli jang boshlanib, sug'd suvoriylari makedoniyaliklar bilan mardonavor olishib ketdi. Atrof-tevarak o'liklarga to'ldi. Kraterga baland bo'yli jussasi kelishgan sug'd suvoriysi tashlanib qoldi. Aftidan sug'dlarning boshlig'i bo'lsa kerak, u Kraterga ketma-ket zarb urib sarkardani shoshirib qo'ydi, «shuncha katta jang maydonlarida g'olib bo'lib, devor orqasida o'lib ketsam-a» xayolidan o'tkazdi sarkarda. Keyin, zarbni qaytarib, o'zi ham muxolifiga tashlandi. Himoyachilarning hammasi halok bo'lgandi. Krater qattiq zarb bilan urgan edi, sug'd suvoriysi otdan yiqilib, boshidagi dubulg'asi uchib tushdi, lekin tezda o'rnidan turib oldi. Uning boshiga o'rab qo'ygan sochlari yelkasi bilan bitta bo'lib yoyilib ketgandi. Krater taajjubda jangchilarga qarab:

– Axir bu ayol-ku? – dedi.

Borib qarashsa, yerda o'lib yotgan sug'd jangchilarining hammasi qizlar ekan.

– Juda go'zal ekansan, husning uchun senga hayot baxsh etdim, ketaver, – dedi Krater.

– Sen bilan hali jangda uchrashamiz, – dedi qiz.

– Mayli, roziman, ammo isming nima aytib ket, – dedi Krater.

– Chinora, seniki-chi, – dedi qiz.

– Krater.

– Afsus, Iskandar emas ekansan, – dedi qiz va otini qamchilaganicha birpasda ko'zdan yo'qoldi. Krater hayron bo'lib, qiz orqasidan qaraganicha qoldi.

– Tezroq shahar darvozasiga borish kerak, Aleksandr kutib turibdi, tag'in anavi qiz ishni buzib qo'ymasin, – dedi Krater.

Makedoniyaliklar Chinorani quvib ketishdi, ammo qiz ularni o'ziga yetkazmadi, g'oyib bo'lganicha ketdi.

Suvoriylar darvozaga yetib borishganda, shahar himoyachilari shoshib qolishdi, to ular o'ziga kelib, voqeani anglab olguncha makedoniyaliklar birpasda ishni hal qilib qo'yishdi. Darvozaning ikki tabaqasi lang ochib yuborildi. Iskandarning shay bo'lib turgan qo'shinlari baqirib-chaqirib,

chigirtkaday yopirilib kirishdi. Jang qonli, ayovsiz ketdi. Shahar ko'chalarida, xiyobonlarda, rastalarda, hamma-hamma joyda borardi. Bosqinchilar hatto xonadonlarga kirib inson zoti borki, ayovsiz o'ldirishardi. Hatto beshikdagi chaqaloqlarni ham qirg'im chetlab o'tmadi.

Krater bozor yonidagi maydonda Ispandat va uning lashkarlari bilan urishardi. Shahar himoyachilari bo'sh kelmay, mardlarcha jang qilishardi. Hokim qo'lidagi uzun qilichi bilan dushman saflarida parokandalik tug'dirar, qilichini qay tomonga selpisa makedoniyaliklar gala-gala bo'lib qochishardi.

– Ulug' sarkarda, mana qaytimimi ol endi, – dedi Kraterga tanish ovoz..

Zarb bilan solingan qilich Kraterning sovutidan o'tib suyagigacha borib yetdi. Ko'z oldi qorong'ilashib borar ekan Chinorani ko'rib qoldi.

– Mayli, sarkardalik hurmati, senga ham hayot baxsh etdim, axir qaytarli dunyo, yaxshilikka yaxshilik bilan javob berish kerak, – dedi qiz va otini keskin burib o'zini janggoh ichiga oldi, Krater hech narsa demadi, mulozimlardan hiri uni xoli joyga olib chiqib ketdi.

Shahar darvozasi yonidagi jang hamon qattiq borardi. Shaharlik qasoskorlar dushmanni darvozadan tashqariga surib chiqarib, keng maydonda «bemalol» olishmoqda edilar. Iskandar ham atrofini o'rah olgan o'z himoyachilariga tayanib nayzabozlik jangi olib borardi. Ammo shu vaqt darvoza tepasidan otilgan tosh podshohning yelkasiga kelib tushdi. Iskandar qo'li bilan yelkasini ushlagancha maydondan chiqib ketdi.

– Bitta ham qo'ymay qiringlar, bu yovvoyilarni, shaharga o't qo'yinglar! – dedi og'riqqa chiday olmay Iskandar.

Xuddi Iskandar aytganday bo'ldi. Uchragan inson zoti tirik qolmadi.

Qariyalar qatl etildi. Ayollar o'ldirildi. Bolalar chavaqlandi. Hech kimga omonlik bo'lmadi.

Ispandat o'zining ellikka yaqin navkari bilan qal'aga kirib ichidan berkitib oldi. Ammo foydasiz edi, Iskandardan omonlik so'rib qal'adan chiqishdi, hammasi bitta qo'ymay chavaqlab tashlandi.

Shaharga o't qo'yildi, saroylar, qal'alar, ibodatxonalar, xonadonlar yondi, kuli ko'kka sovrildi. Shunday qilib, Kirisaxta fojiasi tugadi. Ertasi kuni makedomiyalik Iskandar qo'shinlari bilan go'ristonga aylangan Kirisaxta kul tepasini qoldirib, yo'lida davom etdi.

ZARAFSHON BO'YLARIDA

Spitamen shaharni ikkinchi bor qamal qilib, egallab oldi. Uning birinchi qilgan olijanoh ishi Iskandar tomonidan zindon qilinganlarni ozod qilish bo'ldi. Shahar hokimi Namich ham zindondan topib olindi. U hammaning yodidan chiqib ketgan ekan.

Zamonaning taqozasi bilan Namich o'zi qurdirgan zindonning barcha azob-uqubatlarini boshidan kechirib, ochlik, tashnalikdan cho'p bo'lib ozib ketgandi. Spitamen hokimga yomon so'zlamadi, uning taqdirini hal etishni Sherdorga topshirdi.

Keyin shahar aylanib, bozor-rastalarni ko'zdan kechirib, Kasming uyiga kirdi. Usta qayg'uda, ahvoli og'ir edi. Qizi Mohiyonmi ham saroy kamizaklari bilan makedomiyaliklar qul qilib olib ketishibdi. Ustaning «oh» desa o'pkasi ko'rinadigan holga kelgan.

Spitamen malikayi Turona qutqarib olinganligi tarixni Kasga so'zlab berdi, Qizingiz o'shalar ichida bo'lsa kerak, biz qidirib ko'ramiz, deb ustaning ko'nglini tinchlantirdi.

Keyin Spitamen «Olov qasri» tomon yo'l oldi. Hamisha eshik oldida duo o'qib o'tiradigan vag'npatlar ko'rinmas, biror joyda yonib turgan olov ham yo'q. Spitamenning mulozimlari o't yoqiladigan maxsus joyga o'tin dalab, darrov olov yoqib yuborishdi, keyin ibodatkona tokchalarida qolib ketgan barasman o'tini olib tutatishdi, ibodatxonaga hayot qaytgandek bo'ldi. Qayerdandir yoshini yashab bo'lgan keksa vag'npat paydo bo'lib, inqillab, sinqillab, olov yoniga kelib tiz cho'kdi. Spitamen vag'npatga rahmi kelib bir oz qarab turdi-da, yomiga cho'kkaladi. Vag'npat qo'ldarini samoga cho'zib duo o'qiy boshladi:

– Ey, ayt-chi menga, yer yuzida eng go‘zal joy qayerda?

Shunda Axuramazda jazob beribdi:

– O, Spitama – Zardo’sht, shuni bilgilki, qo‘lida o‘tin, barasman, sut, tayoq bilan keng yaylovlar egasi bo‘lgan Mitraga hamda yam-yashil o‘tloqlarni yashnatuvchi Ramanaga muqaddas so‘zlar aytgan joy eng go‘zaldir.

– Ey, ayt-chi menga, yer yuzida eng go‘zal joy qayer-da?

– Odil inson! Olov, sut, xotin, bolalari, ko‘plab podalar egasi bo‘lgan joy eng go‘zaldir.

– Ey, ayt-chi menga, yer yuzida eng go‘zal joy qayerda?

– O, Spitama – Zardo’sht, yerlariga don, o‘t ekilib, hosildor daraxtlar o‘tqazilgan, dalalari suvga serob qilingan, botqoqlari quritilgan joy eng go‘zaldir...

Vag‘npat Muqaddas kitobdan olingan duolarni yana uzoq o‘qidi, keyin labi va ko‘ziga qo‘lini surtib, atrofdagilarga qaradi, boshqalar ham uning shu harakatini takrorlashdi.

– Ey ulug‘ zot, ayting-chi vag‘npatlar qayda, ibodatxona bo‘shab qolibdi-ku! – so‘radi Spitamen.

Keksa vag‘npat yoshli ko‘zlarini zo‘r-bazo‘r ochib, Spitamenga qarab qo‘ydi, keyin yana ko‘zini yumib oldi-da, ingichka ovoz bilan:

– Ayshma g‘ovg‘a boshladi, vag‘npatlar jonlarini ulug‘ Axuramazdaga topshirish uchun ketishdi, endi qaytib kelishmaydi, – dedi.

– O‘ldirishdimi ularni, – so‘radi Spitamen.

– Ular o‘lmaydi, ana, olovga qara, yonib turishibdi, ular abadiy uyquga ketishdi... meni ham chaqirishyapti, – Vag‘npatning ko‘zlaridan yosh tomchilari yuziga yumalab tushdi.

– Qo‘ying, xafa bo‘lmang, ulug‘ zot, biz ularning qasosini olamiz, – dedi Spitamen.

– Sen kimsan o‘zi? – so‘radi Vag‘npat.

– Spitamenman. Mana bular Datafarn, Xorien, Xamuk, Oksiart, Katan, Zo‘rtosh... biz ko‘pchilikmiz...

– Olovni sen yoqdingmi? – so‘radi.

– Biz yoqdik, – dedi Spitamen.

– Senga Axuramazdaning o‘zi madadkor bo‘lsin, vag‘npatlarni tiriltirding, endi sen yoqqan olov hech qachon

o'chmaydi. Sen ulug' odamsan, butun Sug'diyona sendan minnatdor, boshing toshdan bo'lsin!

Vag'npat bu safar duoni uzoq o'qidi, keyin yumuq no'zlarini zo'r-bazo'r ochib:

– Endi ketinglar, men xudolar bilan so'zlashaman, – dedi.

Spitamen hamyonini oldi-da vag'ipatga uzatdi, u ibodatxonadan chiqib, Maroqandning bo'm-bo'sh ko'chalaridan huvillab qolgan hashamatli saroy tomon borarkan, Vag'npatning: «Sen yoqqan olov hech qachon o'chmaydi», degan so'zlarini esladi. Bu so'z uning yuragiga ishonch baxsh etdi, bilaklari kuch-quvvatga to'lib, shu topda agar tog'mi ura talqon qiladiganday sezdi o'zini.

Kechga tomon ayg'oqchilar Iskandar qo'shinlari Maroqandga tomon kelayotganligi haqida xabar berishdi.

– Tezda shahardan chiqib ketmoq darkor, – dedi Datafarn.

– To'g'ri, poytaxtda qolib bo'lmandi, ammo chekinib turib dushmanga zarba berish kerak, – dedi Spitamen bosiqlik bilan.

– Mana endi o'ylagan rejalarimizni amalga oshiramiz, – dedi Datafarn.

– Buni mendan ham sen yaxshi bilasan, skif ayollari chekma turib, qanday ustalik bilan o'q-yoy otishadi, biz ham xuddi shunday skifchasiga jang qilmog'imiz lozim.

Ular Maroqandning sharqiy darvozasidan chiqib, Spitamenning ona yurti Panjakent yo'liga tushishdi. Hammasi o'ylagandek bo'lib chiqdi, mana, uzoqdan yana dushman suvoriylari ko'rindi, aftidan yana ta'qib boshlangandi. Bu safar makedoniyaliklarning niyati qat'iy, ular Spitamenni qo'lga olishi kerak, Iskandarning buyrug'i shu! Qorama-qora, izma-iz bir necha chaqirim yo'l bosishdi.

Bu yerlarda hali inson qadami yetmagan joylar bor. Daraxtlar bir-biriga yopishib, shoxlari birlashib ketgan, o'tib ketaman desang tikani hammayoqni tilib yuboradi. Xalq qasoskorlari bunaqangi yo'llardan yuraverib pishib ketishgan, oybolta bilan tikanli butalarni chilpib, changalzor ichiga kirib ketishganda birorta suvoriy ular orqasidan yurishga yuragi dov bermaydi. Hozir bo'lsa ular

makedoniyaliklar ko'rsin uchun atayin daryoni yoqalab borishardi. Ammo oyoqosti botqoq bo'lganligi sababli otlarning tuyog'i botib ketar, yurish ancha qiyin edi. Makedoniyaliklarning, ayniqsa og'ir qurolli suvoriylarning harakat qilishi mushkul edi.

Spitamen dushmanni chalg'itib, goh qirg'oqda ko'rinib qolar, goh changalzorga kirib g'oyib bo'lardi. Shunda ta'qibchilar shoshib, otlarini urib, qamchilab qolishardi. Nihoyat, Spitamenning o'ylagan rejasi ro'yobga chiqdi. Bu yerda daryo suvi o'zanidan chiqib, ikki tomonga bo'limib, o'rtada katta orol hosil etgan. Spitamen daryoning sayoz joyidan kechib o'tdi-da, narigi tomonga chiqib oldi. Bir oz oldinga yurgach, makedoniyaliklar kichik orolga yaqinlashib kelganda qo'qqisidan orqaga qaytib, ikki tomondan hujum boshlashni taklif etdi. Dushman o'sha joyga kelgach, Spitamen o'z suvoriylarini qo'qqisidan orqaga burdi-da, birdaniga hujumga o'tdi. Orqa tomondan bo'lsa pistirmada turgan Datafarn jangchilari hujum boshladi. Makedoniyaliklar sarosimaga tushib qolishdi. Qattiq jang bilan dushman siquvga olingach, ular o'z-o'zidan daryo o'rtasidagi orolchaga kirishga majbur bo'lishdi. Chunki ular uchun bundan boshqa iloj yo'q, ular Spitamen qopqoniga ilingan edi. Mana endi qarabsizki, skif kamonchilari ishga tushib ketishdi, tayyor o'lja topildi-da! Makedoniyaliklar tushib qolgan orolda ajriq va g'umaydan boshqa hech narsa o'smaydi, ochiq joy edi.

Skiflar daryo qirg'og'iga tartib bilan qator turib olib, o'q-yoylarini rostlab, dushman skarlarini mo'ljalga olishar, o'zlarini bemalol tutib, hatto qaysi odamni qayeridan otishni bir-birlariga aytib mo'ljalga urishar, keyin baravariga qiyqirishardi. Makedoniyaliklar qurollarini tashiab, asir tushishga tayyor ekanliklarini bildirishdi, ammo qasoskorlar ularning iltijolariga quloq solishmadi.

– Kirisaxtaliklar uchun, usrushonliklar uchun, gunohsiz beva-bechoralar, yongan shaharlar, qishloqlar uchun, – dedi Spitamen. Qasoskorlar janggi bir soatcha davom etdi. Orolga chiqib olgan makedoniyaliklardan birortasi ham tirik qolmadi, hammasini Spitamen otliqlari va skif kamonchilari

qirib tashlashdi. Qo'lga tushgan ozgina qismini hain otib o'ldirishdi.⁴⁴

– Qasosli dunyo deb mana shuni aytadilar, qonga qon, – dedi Spitamen mag'rurlik bilan.

Zarafshon daryosi sohilidagi bu voqea Iskandar qo'shinlari o'rtasida tezda tarqaldi. Mag'lubiyatning asosiy sababi Iskandar sarkardalari o'rtasidagi o'zaro kelishmaslik oqibati bo'lib chiqdi. Sarkarda Koran Andromaxni ogohlantirmay, o'z qo'shilmasini orolga chekinishga buyruq bergandi. Natijada, qo'shinlar qopqonga ilinib, o'q bo'roni ichida qoldi...

Spitamen o'z lashkarlari bilan yana orqaga qaytdi, Zarafshon qirg'oqlari bo'ylab Panjikent tomon yo'l oldi. Bugungi g'alabadan ko'ngli tog'day ko'tarilgan, ichichidan qo'vonardi. Xalq qasoskorlari atrofida jang qilayotgan qadrdon do'stlari ham ruhan shod, tetik edilar. Butun Maroqand ibodatxonasidagi vag'npatning ruhlantiruvchi so'zlari hamon qulog'i tagida jaranglar, tangrining Spitamenga qilgan beqiyos mehribonchiligi tufayli qo'li baland kelganligiga imoni komil edi: «Mana, Axuramazda yaratgan eng go'zal vodiyning farzandlari – «Quyosh bolalari», ko'nglidan o'tkazdi Spitamen.

Qarang, anavi daxlar sarkori, vafodor Datafarn, umin o'tkir, keskin qilichidan qancha-qancha olchoqlar jon berdi. Jasur, pahlavon yigit, bilagida kuch, tlagida erk balqiydi.

Oksiart-chi, fors o'g'loni, o'z yurti, eli uchun jon kuydirib, men bilan yonma-yon, yelkama-yelka jang qilmoqda. Yovni bir quvsa bo'ldi, yetib yakson qiladi. Nayza sanchganda atrof-tevarak o'likka to'lib ketadi. Kamon otishga usta. Iloho, Ayshma aynatib qo'ymasin uni!

Xorien bo'lsa o'ziga xos tabiatli sarkarda, Oksiart bilan qonqardosh, do'st. Agar ikkovlon yonma-yon turib jang qilsa bormi, hech qanday g'anim ularga bardosh bera olmaydi. Jahli chiqsa, biror kimsa bas kelolmas. Besh-o'n kishim bir o'zi bemalol eplaydi.

Katanning otda ketishiga e'tibor qiling-a, ajoyib chavandoz, o'tkir zehnli maslahatgo'y. Agar u bilan ovga borsang, yang-

⁴⁴ «Iskandarning yurishlari» kitobida shunday ma'lumot beriladi.

lishmaysan, charchamaysan, ora yo'lda qolmaysan. Jangda ham shunday, ko'kragini qilichga bersa ham, seni saqlaydi.

Massagetlar sardori Xamuk, ehe, bag'ri keng, bir so'zli, abjir pahlavon. Hech qanday dushman o'yga teng kelolmaydi. Jang maydonida bir na'ra tortsa dushman saflarida parokandalik boshlanadi. Qilich uning chap qo'lida ham o'ng qo'lida ham birdek o'ynaydi. Jasur o'g'lon.

Tariqni aytmaysizmi, janglarda pishib yetildi, uni hamma yaxshi ko'radi, jasurligi, qo'rqmasligi bilan dong chiqardi, xalqning haqiqiy qahramoni!

Zo'rtosh bo'lsa qasoskorlarning ishongan tog'i, agar gurzisini qo'lga olib maydonga kirsas, hech kimga omonlik yo'q, ba'zan piyoda, ba'zan otda jang qiladi. Ammo unga munosib ot topish qiyin.

Tog'liqlar qahramoni Kamakning jasurligini hech kim esdan chiqarmaydi, sug'diyonaning asl o'g'loni.

– Hoy Sherdor, qayda qolding, axir bukungi ishlarimiz chakki bo'lmadi-ku, nega jimsan, qani boshla, bu ezilgan yuraklarga orom ber. Dunyoda eng baxtli inson sensan, azizim. Qani kuyla, eshitaylik.

Zarafshonning quyoshda oynadek yarqirab turgan suvlari vodiyya kamardek bo'lib turibdi. Orqada kelayotgan Sherdor bir oz oldinroq o'tdi-da, xalq jangchilariga yoqib qolgan o'zining shirali ovozn bilan kuylay ketdi.

Boshim olib qayga boray, qayga yo'l tutay?

Ayirsalar o'z qavmimdan va kazolardan...

Jamoatda tan olmaslar, men neni kutay,

Rad etsalar meni soxta shohlar, kazzoblar.

Ibodating qanday ado aylan, o, Xurmuzd?

Dilda ayon nochorligim, o, Mazda, menga.

Podalarim kamdir mening, kamdir sodiq do'st,

Do'stga yordam bergan kabi qo'llagil meni.

Topingayman senga bu kun, nazar sol Xurmuzd.

Arta madad bersin, toki topay Voxuman.

*Ayo voqif xudo Mazda, nurli govmishing,
Arta haqqi, paydo bo'lsa kunning yarmida.*

*Suyashganlar ruhi, donish hikmati ila,
Kimga madad olib kelgay ulug' Voxuman?
Sen tanlab, so'zlaringa keltirgum iymon,
Ey, qodir egam.⁴⁵*

Xalq qasoskorlari o'rtasida mashhur bo'lgan bu qo'shiqning oxirgi bandlarini hamma jangchilar baravariga qo'shilishib aytishardi. Vodiy bo'ylab O'rta Osiyo xalqlarining Muqaddas kitobidagi o'chmas satrlar qanot qoqib parvoz qildirdi.

Bugun tahiya, serhosil yerlar, hayotbaxsh sero't yaylovlar uzra yangradi bu muqaddas qo'shiq...

Spitamen o'z lashkarlari bilan cho'l chegarasidagi yashil bir qishloqqa yetib keldi. Bu yer g'oyat bahavo, ariqlarda suv sharqillab oqib yotibdi, cho'lning mayin shabadasi g'ir-g'ir esib turadi. Bir tomoni keng adir va yaylovlar, bir tomoni bo'lsa taqir cho'l! Qishloqdan turib cho'lga ham, adirlarni ham baralla kuzatish mumkin. Krater hali-beri ta'qibni to'xtatmasa kerak. Shu boysdan Zarafshon bo'ylab yo'lga chiqqan Spitamen o'zining otliqlari, piyodalari bilan kecha-kunduz yurib mana shu mudofaasi mustahkamlangan qishloqqa joylashib bir oz dam olmoqchi bo'ldi. Qo'riqchilarni kuchaytirib cho'l chekkasidagi tekislikka chodirlar tikirdi. Charchagan, yo'l yuraverib holdan toygan xalq qasoskorlari sero't o'tloqlarga otlarini qo'yib, o'zlari bir chekkaga yonboshladilar.

Ammo bu rohat uzoqqa cho'zilmadi, Spitamen haq bo'lib chiqdi. Krater ta'qibni to'xtatmay, yo'l-yo'lakay yunon-makedon istehkom qal'alaridan yangi kuchlar olib, ular ortidan izma-iz kelayotganligi ma'lum bo'ldi. Spitamen ayg'oqchilari shunday xabar olib kehdilar. Nima qilish kerak, tezroq biror to'xtamga kelmoq darkor.

– Qarorgohda hayajonlanish, hamma sovut-qalqonlarni taqib otlarini egarlay boshiadi. Spitamen qabila boshliqlariga

⁴⁵ «Avesto»ning «Yaena» qismidagi qo'shiqlardan.

tezlik bilan cho'lga chekinishni buyurdi. Bolalar, qariyalarni, ayollarni oldinroq olib ketish topshirildi. Shu vaqt Tariq kelib Spitamenning qulog'iga nimalarnidir pichirladi. Sarkarda Tariqning so'zini eshitib, bir oz o'ylanib qoldi, keyin uni quchoqlab yelkasiga qoqdi.

– Mayli, do'stim, sen aytgancha bo'lsin. Ammo o'zingga ehtiyot bo'l. Sen hali bizga juda keraksan, tushundingmi?

– Tushundim, – dedi Tariq va Spitamen bilan quchoqlashib xayrlashdi.

Spitamenning lashkarlari, piyodalar, otliqlar, tartib bilan cho'l ichkarisiga chekina boshiadi. Tariq bo'lsa o'nga yaqin otliq bilan makedon qo'shinlari yaqinlashib kelishini kutib turdi. Bbir necha daqiqalar o'tgach, Kraterning ayg'oqchilari ko'rindi. Ular cho'l chekkasida ot o'ynatib turgan Tariq uning sheriklarini ko'rishlari bilan orqaga qaytib, ketishdi. Tariq buni sezib, sekin-asta cho'lning boshqa tomoniga, shimol tomon qarab yura boshladi. Daqiqalar o'tishi bilan dushmanning uch yuzdan ortiq otliqlari Tariq turgan tomonga qarab yelib kela boshladilar. Koplon terisidan ustiga yopqich tortib olganligi uchun Tariqni Spitamen deb o'ylab, uni qo'lga olish uchun jon-dahdlari bilan cho'lga kirib kela boshladilar.

Tariqning oti juda chopqir xuddi Spitamennikidek qop-qora edi, makedonlar bu otni yaxshi tanishardi. Quvish boshlandi chopqir otlar ishga solindi. Oldinda o'n-yigirma makedon keyinda esa Kraterning asosiy qo'shinlari borardi. Quvish uzoq davom etdi. Tariq bo'lsa ularni aldab, qum sahrosining inson oyog'i yetmagan joylariga boshlab ketmoqda edi. Krater kamonchilari ketma-ket o'q-yon bilan Tariq va uning do'stlarini nishonga ola boshladilar. Tariq goh boshiga, goh yoniga qal-qon tutib o'qlarmi qaytarardi. Oxiri bo'lmagach otning bo'yniga yopishgancha, yelib ketdi. Qum barxanlarning so'nggi yo'q, kun bo'lsa choshgohdan og'ib qolgandi. Cho'lning issig'ida otlar ham, odamlar ham harsillardi.

Lekin, samo betinch, pag'a-pag'a bulutlar hov uzoqda quyundek tepaga ko'tarilmoqda.

Makedooniyaliklarning otlari ham baquvvat, ular qumni to'g'zitib endi Spitamen bizdan qochib qutula olmaydi, deb

Tariqning ortidan izma-iz yelishardi. Yana bir necha kamon o'qlari g'uvillagancha o'tib qumga tiqildi. Ittifoqo, bir o'q kelib Tariqning otiga sanchildi. Ot irg'ib ketdi-yu Tariq qumga yiqildi. Makedoniyaliklar bir pasda yetib kelisha qoldi. Qattiq jang ketdi, Tariq polpon sheriklari bilan makedon suvoriylariga qarshi qarshi jang qildi. Tariq g'oyatda kuchli va epchil yigit eli nayza ishlatishga, qilich chopishga, dushmandan o'zini himoya qilishga ham mohir edi. U qum ustida na'ra tortib makedon lashkarlariga o'zini urar, nayza sanchar, ularni qochishga majbur qilardi. Lekin ketma-ket tashlangan arqon uning bo'yniga ilindi-yu; polvon yerga ag'darildi. Shuni kutib turgan makedon lashkarlari uning ustiga yopirishdi, qo'llarini bog'lashdi. Sheriklarining hammasini chavaqlab tashiashdi. Makedon qo'shin boshliqlaridan biri kelib qum ustida qo'llari bog'liq yotgan Tariqni o'rnidan turg'azdi:

– Men Kraterning yordamchisi bo'laman, Ayt-chi, sen o'zing kimsan?

– Jangchiman, xalq qasoschisiman.

– Bilamiz, sen Spitamensan.

– Ha, men Spitamen.

– Maynavozchilikni qo'y. Biz bilamiz, otingni ham taniymiz, umring bitdi endi.

– Yo'q, umrim bitgani yo'q. Lekin senlarning umring bitdi. Bu cho'ldan endi hech qayerga chiqib ketolmaysanlar. O'liklaringni bo'rilar, zog'lar yeydi, kaltakesak va ilonlarga yem bo'lasanlar.

Tariq shunday dedi-yu, qah-qah urib kuldi. Makedoniyaliklar uning qo'llarini mahkam bog'lab, «Sen Spitamensan, Iskandarga tortiq qilamiz», deb otga o'ngarib olishdi. Shu vaqt osmon alg'ov-dalg'ov bo'lib, bulutlar ko'cha boshladi. Yashin chaqnab, qattiq momaqaldiraq gumburladi. Shamol qumlarni uchirdi, hammayoq to's-to'polon bo'lib ketdi. Kuchli bo'ron turib hech kimni ko'z ochirgani qo'ymadi, otlar yurolmay qoldi. Makedoniyaliklar barxanlar ustiga yiqilishdi. Qancha yotishganlari noma'lum, ammo o'zlariga kelib ko'zlarini ochishganda havo charaqlab ochilib ketgandi. Sho'rlik otlar bo'lsa egalari boshida qimir etmay turishibdi. Holdan toygan

makedoniyaliklar qum ichidan bir-birlarini tortib olishdi. Tariqni ham chiqarib qo'l-oyoqlarini yechib qo'yishdi.

– Mayli, sen endi ozodsan, ketaver, – dedi makedon lashkarboshisi.

Tariq indamay, olg'a yuraverdi, yana bir necha daqiqadan so'ng pastlikka tushganda, ulardan cho'chib ming-minglab quzg'unlar galasi qag'illagancha osmonga ko'tarildi, o'z o'ljalari bilan band bo'lgan bo'rilar odamlardan pari qochib turishdi. Cho'l hukmdorlari bazm etayotgan bu joy kuni kecha Tariq jang qilgan pastqamlik edi. Makedoniyaliklar shuncha yo'l bosib, aylanib-aylanib yana o'sha joyga qaytib kelishgandi.

– Aytmadimmi, go'shtlaring quzg'unlarga, bo'rilariga yem bo'ladi deb, – dedi Tariq makedoniyaliklarga qarab.

Endi Tariq adabini berib qo'yishga kech kimning majoli yo'q edi, hatto otlar ham turgan joylarida boshlarini quyi solgancha taqdirga tan berib, so'liqlarini chaynagancha jim turishardi. Och bo'rilar galasi sekin-asta shu tomonga yura boshladi, quzg'unlar galasi tepadan turib o'zlarining bo'lajak o'ljalarini kuzatishardi...

SUG'D ZODAGONLARI

Iskandar ketma-ket zarbaga uchragach, alamini Zarafshon sohiliga joylashgan shahar va qishloq aholisidan oldi, ekinzorlar toptaldi, uylarga o't qo'yildi, beomon qon to'kildi. Maroqanddan o'n-o'n besh chaqirim nari joylashgan Saram qishlog'ida ham xuddi shunday fojia yuz berdi, aholining hammasi bitta qo'ymay qirib tashlandi.

Iskandar qishloqdan jo'nab ketish oldidan, Karan kelib, qishloq chekkasida yerto'la uy borligini, himoyachilar yuzga yaqin makedoniyaliklarni o'ldirib, o'sha yerga berkinib olganligini ma'lum qildi.

– Ular qancha kishi ekan, – so'radi Iskandar.

– Yerto'la eshigini berkitib olishgan, qanchaligini bilib bo'lmadi, – dedi Karan.

Iskandar hamma qo'shin boshliqlari bilan qishloq chekkasidagi yerto'la tomon ketdi. Haqiqatan ham bunday

qaraganda yer osti uyi shunday niqoblanganki, uni uncha-
nuncha odam payqab olishi qiyin edi, hatto yerto'ladan qazib
ollangan tuproq ham boshqa joyga olib borib tashlangan, faqat
kirish yo'liga e'tibor qilgan odamgina izlarni payqab olishi
mumkin. Yerto'la ustida o't-o'lanlar o'sib yotibdi.

Iskandar yerto'la eshigi yoniga kelib, murojaat qildi:

- Eshikmi, ochinglar, agar o'z ixtiyorlaring bilan asir
tushsanglar, omonlik beramiz, - dedi.

- Bo'lmasa buzib kiramiz, keyin o'zlaringdan ko'r, - dedi
Karan.

Ichkaridan hech kim nido bermadi.

- Eshik yoniga o'tin qalab o't qo'yilsin, keyin pichan o'rib
kelib olov ustiga qo'yinglar, toki tutundan nafasi qaytib, qiynalib
o'lsin bu yovvoyilar, - buyruq beradi Iskandar.

Gulxan yoqildi, hammasi Iskandar aytgandek bekam-u ko'st
bajarildi. Ko'm-ko'k tutun burqsib yerto'la ichiga kira boshladi.
Qishloq himoyachilari ancha chidab turishdi-yu, keyin bitta-
bitta tashqariga chiqib; nafasleri qaytib o'zlarini o't ustiga
tashiagancha nima bo'lsa bo'ldi, degandek jim yotaverdilar.
Xullas, bir necha daqiqa ichida yerto'laga yashiringanlarning
hammasi chiqib bo'ldi.

- O'rinlaringdan turinglar, - dedi Iskandarning tilmochi.

Hammasi baravariga dik etib turishdi. Iskandar ularning
hozirgi holatini ko'rib beixtiyor kulib yubordi. Chunki
yerto'laga kirgan qora tutun yuzlarini tanib bo'lmaydigan qilib
qoraytirgan, kiyimlarining ko'p joylari kuyib ilma-teshik bo'lib
ketgandi.

Ular hammasi bo'lib o'ttiz kishi edi.

Kiyinishlariga qaraganda qishloqning e'tiborli kishilariga
o'xshashardi. Jussalari baquvvat, ko'rinishlari pahlavonlarga
xos, tog'ni ursa talqon qiladigan mohir jangchilar edi.

- Xo'sh, endi jang qilib bo'ldilaringmi, - so'radi mas-
xaraomuz Iskandar.

- Nega indamaysanlar, mum tishlagansanlarmi? - so'radi
Qaran.

- Kimning lashkarisizlar? - dedi Iskandar.

- Spitamenming! - deyishdi hammasi baravariga.

Iskandarning jahli chiqdi. «Yana o'sha cho'l yovvoyi qayerga bormang, uning nomini aytishadi». Zimdan sarkardalariga qaradi, «hammasiga senlar aybdor, Spitamenmi shu vaqtgacha qo'lga tushira olmadilaring» demoqchi bo'lgandek tuyuldi.

– Kattangiz kim ichingizda, – so'radi Iskandar.

– Biz hammamiz baravarmiz, mol-u dunyomiz ham, hatto yoshimiz ham teng, – dedi chalvorining pochalari tizzasigacha kuyib ketgan sug'd.

– Nechta oting bor?

– Yuzta.

– Seniki-chi?

– Yuzta.

– Seniki-chi?

– Yuzta.

Xullas hammasiniki bir xil edi.

– Qo'ylar-chi?

– Sanog'i yo'q.

– Seniki-chi?

– Sonini bilmayman.

– Semiki-chi?

– Sanab ko'rmaganman...

– Bular masxarabozlardan qolishmaydi, – dedi Iskandar kulib.

– Podalaring qayerda?

– Tog'da.

– Seniki-chi?

– Hov anavi tog'da.

– Seniki-chi?

– Sug'd tog'larida...

Ular shu yerning e'tiborli zodagonlari edilar. Iskandar o'yladi: «Bularning gapi ham qiziq, rost yoki yolg'on so'zlayotganligini bilolmaysan kishi. Shuncha yurib sug'dlardek qaysar, murakkab xalqni ko'rmadim. Kimni so'roq qilsang xulq-atvorida mensimaslik, yuzida g'azab, nafrat seziladi, Doreyosning qo'shinlari katta bo'lsa ham, jangda g'olib ham, mag'lub ham ma'lum bo'ldi. Ammo, mana bu yovvoyilar bilan

maza qilib, xumordan chiqib yuzma-yuz jang ham qilolmaysan, xuddi silliq baliqqa o'hshab, qo'lingdan chiqib ketadi. «Eh-e aslida oldin Hindistonga borsam bo'larkan» – ko'nglidan o'tkazdi, Iskandar.

– Sizlar bir so'zlik, hamfikir odamlar ko'rinasiz, bo'lmasa u dunyoga ham birga ketaqolinglar, – dedi Iskandar miyig'ida kulib.

Ular go'yo tushunmagandek, podshohga qarab turishdi.

– Qatl etilsin, – dedi Iskandar qat'iy.

Saramlik sug'd zodagonlarini qatlga olib ketishdi, ammo ular bunday qarordan pinaklarini ham buzmay, go'yo hech narsa bo'lmagandek tutishardi o'zlarini. Yo'l-yo'lakay baravariga qo'shiq boshlab yuborishdi, buning ustiga ikkitasi oldinroq o'tib o'limga ketayotganidan ruhan shodligini bildirib, qiziq badan harakatlari bilan raqsga tusha boshladi. Yana bir jussasi pishiq, xuddi yunon gladiatorlariga o'xshash qorachadan kelgan, ustiga qizil shohi ko'ylak kiygan, uzun sochli yigit yo'l ustida sakrab-sakrab, keyin ikki qo'lini yerga qo'yib, oyog'ini tikka tutib, qo'llari bilan yura boshladi. Qatlga ketayotganlarning har biri o'ziga xos bir qilig'i, harakati bilan haydab ketayotganlarni hayratga solardi.

– Bizga yaxshi fikrlash, yaxshi so'zlash, yaxshi odob o'rgatgan Mazdaga sharaflar, – dedi zodagonlardan biri balandovoz bilan.

Boshqalar ham takrorlashdi shu so'zlarni.

Yo'l-yo'lakay yana qo'shiq, yana raqs davom etdi. Qatlga hukm qilingan sug'd zodagonlarining o'lim oldidan o'zlarini xursand tutayotganliklari haqidagi xabar ketishga tayyorlanayotgan Iskandarning ham qulog'iga yetib bordi. «Bu qanaqasi bo'ldi, es-hushi joyidami bu odamlarni, ajal oyog'i ostida turganlarga qo'shiq aytib, raqsga tushishni kim qo'yibdi. Balki sho'rliklar o'limga hukm etilganliklarini bilmaslar». Tilmochni chaqirib: «Mening qatl etish haqidagi farmonimni yaxshilab tushuntirib bergan edingmi», deb so'radi. «Ular buyrug'ingiz mazmumini yaxshi bilishadi, xotirjam bo'ling», dedi.

– Qatl etilsin!

Hech kim o'limdan hayiqmadi.

YO'LDAGI UCHRASHUV

Xorazm shohi Farasman Iskandar bilan muzokaralarni tugatib, o'z vataniga yo'l oldi. Kech kuz bo'lganligi sababli havo sovuq, hali qor tushmagan bo'lsa ham Turon yerlari toshdek niuzlagan. Farasman uzoq yo'l uchun alohida yasalgan shohona aravasining tuya junlari bilan qoplangan orqa o'rindig'ida issiqqina joylashib olib kuni kecha bo'lib o'tgan uchrashuvlar haqida o'ylab berardi.

Aravaning kichkinagina darichasidan qish arafasida mudrab yotgan bepoyon biydek dalalarga, karvon yo'lidan rizqi ro'z qidirib to'da-to'da bo'lib osmonga ko'tarilayotgan zag'chalar galasiga beixtiyor, erinibgina qarab borardi. Ammo bu manzaralar hammasi bir xil, zerikarli. Yaxshiyam, yomg'ir-qor yog'may, quruq qora sovuq bo'lib turibdi. Agar yog'ingarchilik boshlanib ketsa bormi, ko'rasiz bu yo'llarning ahvolimi. Loygarchilikda to Xorazmga yetib olguncha odamlarning ham, otlarning ham ona suti og'ziga keladi. Faqat kechga tomon tuman tushib, ertalab quyosh yoyilib ketgunga qadar tarqamaydi, shu boisdan kechasi yo'l bosish mumkin emas. Yo'ldagi eng asosiy qiyinchilik suv tanqisligi, kun sovuq bo'lganligi uchun bu unchalik sezilmaydi, ammo shunda ham ovqatga, yuvinishga, ot va tuyalarga suv kerak. Xullas, Xorazmdek uzoq o'lkaga yetib olish ancha qiyin.

Xorazm shohining xayoli hamon Iskandar huzurida bo'lib o'tgan uchrashuvlar bilan band edi.

Iskandar o'z saroyida Ahmoniylar saroyida qo'ldanilgan urf-odatlar, rasm-rusumlarni joriy etgandi.

Farasman ham Iskandar tomonidan ana shunday tarzda qabul qilindi. Iskandarning o'zi qabul vaqtida Osiyocha zarbof to'n va kamar, boshiga zarrin kuloh kiyib olgandi. Iskandar osiyoliklar kiyimida Xorazmshohga juda ham salobatli ko'rinib ketdi.

Farasman zarrin qutichalarda olib kelgan tilla buyumlar, dur-u javohirlar, qimmatbaho toshlar, turli matolarni podshohi jahonga tuhfa qila turib, Iskandar uchun alohida tikilib, qimmatbaho toshlar qadalgan zarbof to'nni tantanavor kiydirdi,

beliga tilla kamar, boshiga oltin toj qo'ydi. Xorazmning ikkita go'zal kanizagi podshohga tortiq qilindi. «Buning boyligi ko'p, agar Spitamen bunchalik tinkammi quritmaganda yurtiga bosib borgan bo'lardim, – deb ko'nglidan o'tkazdi Iskandar. «Ammo hozircha unga kattaroq boj solmoq darkor, Xvayrezem juda boy mamlakat».

Shundan so'ng Iskandar ham Xorazmshohga katta muruvvat, navozishlar ko'rsatdi. Tuhfalaridan Iskandarning boshi ko'kka yetib, hotamligi tutib ketdi-da, butun arkoni davlat oldida uni rosa osmonlarga ko'tarib maqtadi, hatto Doreyosdan ham yuqori qo'ydi. Osiyo odatiga amal qilib, forslar xazinasidan olingan shohona to'n kiydirdi. Shohning yaqinlariga ham to'n kiygizib, turli qimmatbaho buyumlar hadya etdi. Tantanali kechadagi bazm vaqtida kayf bilan raqsga tushgan makedon qizlaridan to'rttasini Farasmanga tortiq qilib yubordi. Xullas, podshoh ham, shoh ham bir-birlarining izzat-ikromlarini o'rmiga qo'yishdi.

Iskandar yonida turgan Ptolemeyni chaqirib uning qulog'iga bir narsa dedi. Ptolemey bazmxonadan chiqdi-da, bir daqiqa o'tmasdanoq qaytib kelib, podshohga: «hammasi joyida bo'ladi», degandek ishora qildi.

Bir vaqt qarabsizki, bazm xonasiga mulozimlar qaddi-basti juda ham chiroyli, did bilan yasatilgan arab otini yetaklab kirishdi.

Iskandar taxtdan pastga tushdi-da, mulozimlardan otning jilovini olib, o'z qo'li bilan Farasmanga hadya etdi. Bazmdagilar bor ovoz bilan qiyqirishar, Iskandarning nomini sharaflashardi.

Xorazm shohi ana shu gulduros qiyqiriqlar ichida Iskandarning qo'llarini o'pib unga ming bor qulliq qildi. Xorazmshohning mulozimlari otni olib chiqib ketishdi.

– Biz sening muborak tashrifingni g'oyat qadrlaymiz, elingizga tegmaymiz. Uzoq Xvayrezemdek o'lkadan panoh istab kelgan ekansan, bizdan yomonlik ko'rmaysan, sening bu harakatingni, bizga ko'rsatgan hurmatingni yuksak baholaymiz.

Tilmoch Iskandar so'zlarini Farasmanga oqizmay-tomizmay tarjima qilib berdi.

- Ey ulug' podshoh, shohlar shohi. Bizga ko'rsatgan mulozimatingiz, izzat-ikromingiz oldida lolmiz. Qay so'z bilan, qay ish bilan o'z sadoqatimizni izhor etishdan o'jizmiz. Sizdek ulug' jahongir oldida o'zimizni hamisha qarzdor deb bilurmiz.

Iskandar o'z tilmochi orqali Xorazmshohning so'zlari ma'nosini bilib oldi. Keyin jiddiy ohangda so'zladi:

- Mana eshit, olingan ma'lumotlarga ko'ra, Baqtriya Ahmoniylarga uch yuz oltmish talant o'lpon to'lagan. Sug'diyona, Ariya, Parfiya ham uch yuz talant, Saklar va xazarliklar ikki yuz ellik talant yuborganlar. Xvayrezem bo'lsa uch yuz talant o'lpon to'lab kelgan. Endi bu o'lponlarning miqdori ikki-uch barobar oshadi, senga bo'lgan hurmatim yuzasidan, boshqalarga nisbatan kamroq, ya'ni endi besh yuz talant o'lpon to'lashingmi so'rardim. O'zing ko'rib turibsiz, Shunday katta lashkarni kiyintirish, maosh berish, qo'rollantirish, ovqat bilan ta'minlash osonmi? Axir bularning o'zi bo'ladimi?

- Tushundim, tushundim, ulug' jahongir, - dedi Farasman qulluq qilib.

- Endi bu yog'ini eshit! - dedi Iskandar eng muhim, jiddiy masalani hal etayotgandek.

- Qulog'im sizda, ulug' podshoh.

- Har yili to'rt yuzta yaxshi ot, ikki ming pud bug'doy, uch ming pud arpa yuborib turasan. Yana bu yog'i o'zingning himmatingga bog'liq.

Iskandar to'lanadigan bojar haqida aniq qilib birma-bir sanayotganining o'zidayoq Xorazmshohning kapalagi uchib ketgandi. Endi u aftidan qashqirdan qutulib, bo'riga uchragandi. O'ziga o'zi: «Nega ham keldim, sichqonning o'lgisi kelsa mushuk bilan o'ynashadi», deb dilidan o'tkazdi.

- Eshityapsanmi, xayoling parishonga o'xshaydi, - Iskandarning bir oz jahli chiqqandek bo'ldi.

- Yo'q, yo'q, ulug' podshoh, men hozir sizdan bir narsani so'rashga andisha qilib turibman, - dedi gapni boshqa tomonga burib Farasman.

- Nima edi, aytaver? - dedi Iskandar Farasmanning og'ir gavdasiga razm solib.

- Ulug' podshoh, dengiz atrofida bizga chegaradosh amazonkalar, kolx qabilalari bor. Ular bizga tinchlik berishmaydi, chorvamizni talab, qizlarimizni, bolalarimizni qullikka haydab olib ketishaveradi... Shularga qarshi kurashda yordam bersangiz. Birgalashib ularni daf qilsak, sizning barcha aytganlaringizni to'la bajarardim...

- Yordam bermasam bajarmaysanmi? - dedi bir oz kesatibroq podshoh.

- Yo'q, yo'q. Siz meni to'g'ri tushuning, hamma aytganlaringiz ortig'i bilan to'lanadi, buning ustiga, agar ular ustiga yurish qilsangiz, butun sarf-xarajatlar mening ustimga bo'ladi, - dedi Farasman Iskandar g'azabidan qo'rqib.

Iskandar atrofini o'rab olgan lashkarboshilariga: «Nima deysizlar», degandek nazar tashladi. Ular Xorazmshohning bu noo'rin iltimosiga «endi bizga shu ham bor ekanmi?», degandek ensalari qotganday bo'ldi.

Farasman Iskandarning moviy ko'zlariga tikildi, ammo jahongirning hech narsami anglatmaydigan beparvo qarashlaridan o'zicha xulosa chiqardi. Demak, bu taklif podshohga yoqmadi, Iskandar unga yordam bermaydi, shu gapni ochganiga o'zi ham pushaymon bo'ldi.

- Sening taklifingga hozircha rozi bo'lolmayman, - dedi nihoyat Iskandar. Men Hindistonga yurish qilaman... Butun Osiyoni zabt etganimdan so'ng, Elladaga qaytaman. Shundan keyin sening taklifingga qayturmiz.

Farasman bu haqda boshqa gap aytishni ortiqcha bilib Iskandarga qulluq qildi. Shundan keyin ziyofat yana uzoq davom etdi. Ichkilikbozlik avjga mindi. Iskandarning o'zi ham tinmay ichardi. Qo'shiq, raqslarning keti uzilmasdi. Lashkarboshilar, Iskandarning yaqinlari davradagi raqsga tushayotgan qizlarni yonlariga chaqirib olib, kayf bilan ularga yopishar, ba'zi birlarini bazmxonadan olib chiqib ketishardi. Bunday paytlarda Iskandar: «Odamlarim bir maza qilib olsin», deb hamma noma'qulchiliklarga yo'l qo'yib berardi. Xorazmshohi charchagan bo'lsa ham Iskandarning yonida to bazm oxirigacha o'tirdi...

Mana, endi Farasman Iskandar huzuridan hech narsaga erisha olmay, bo'yniga yana ham katta boj yuklab ketmoqda.

- Ey ulug' podshoh, shohlar shohi. Bizga ko'rsatgan mulozimatingiz, izzat-ikromingiz oldida lolmiz. Qay so'z bilan, qay ish bilan o'z sadoqatimizni izhor etishdan ojizmiz. Sizdek ulug' jahongir oldida o'zimizni hamisha qarzdor deb bilurmiz.

Iskandar o'z tilmochi orqali Xorazmshohning so'zlari ma'nosini bilib oldi. Keyin jiddiy ohangda so'zladi:

- Mana eshit, olingan ma'lumotlarga ko'ra, Baqtriya Ahmoniylarga uch yuz oltmish talant o'lpon to'lagan. Sug'diyona, Ariya, Parfiya ham uch yuz talant, Saklar va xazarliklar ikki yuz ellik talant yuborganlar. Xvayrezem bo'lsa uch yuz talant o'lpon to'lab kelgan. Endi bu o'lponlarning miqdori ikki-uch barobar oshadi, senga bo'lgan hurmatim yuzasidan, boshqalarga nisbatan kamroq, ya'ni endi besh yuz talant o'lpon to'lashingni so'rardim. O'zing ko'rib turibsan, Shunday katta lashkarmi kiyintirish, maosh berish, qo'rollantirish, ovqat bilan ta'minlash osonmi? Axir bularning o'zi bo'ladimi?

- Tushundim, tushundim, ulug' jahongir, - dedi Farasman qulluq qilib.

- Endi bu yog'ini eshit! - dedi Iskandar eng muhim, jiddiy masalani hal etayotgandek.

- Qulog'im sizda, ulug' podshoh.

- Har yili to'rt yuzta yaxshi ot, ikki ming pud bug'doy, uch ming pud arpa yuborib turasan. Yana bu yog'i o'zingming himmatingga bog'liq.

Iskandar to'lanadigan bojlar haqida amiq qilib birma-bir sanayotganining o'zidayoq Xorazmshohning kapalagi uchib ketgandi. Endi u aftidan qashqirdan qutulib, bo'riga uchragandi. O'ziga o'zi: «Nega ham keldim, sichqonning o'lgisi kelsa mushuk bilan o'ynashadi», deb dilidan o'tkazdi.

- Eshityapsanmi, xayoling parishonga o'xshaydi, - Iskandarning hir oz jahli chiqqandek bo'ldi.

- Yo'q, yo'q, ulug' podshoh, men hozir sizdan bir narsani so'rashga andisha qilib turibman, - dedi gapni boshqa tomonga burib Farasman.

- Nima edi, aytaver? - dedi Iskandar Farasmaning og'ir gavdasiga razm solib.

– Ulug' podshoh, dengiz atrofida bizga chegaradosh amazonkalar, kolx qabilalari bor. Ular bizga tinchlik berishmaydi, chorvamizni talab, qizlarimizni, bolalarimizni qullikka haydab olib ketishaveradi... Shularga qarshi kurashda yordam bersangiz. Birgalashib ularni daf qilsak, sizning barcha aytganlaringizni to'la bajarardim...

– Yordam bermasam bajarmaysanmi? – dedi bir oz kesatibroq podshoh.

– Yo'q, yo'q. Siz meni to'g'ri tushuning, hamma aytganlaringiz ortig'i bilan to'lanadi, buning ustiga, agar ular ustiga yurish qilsangiz, butun sarf-xarajatlar mening ustimga bo'ladi, – dedi Farasman Iskandar g'azabidan qo'rqib.

Iskandar atrofini o'rab olgan lashkarboshilariga: «Nima deysizlar», degandek nazar tashladi. Ular Xorazmshohning bu noo'rin iltimosiga «endi bizga shu ham bor ekanmi?», degandek ensalari qotganday bo'ldi.

Farasman Iskandarning moviy ko'zlariga tikildi, ammo jahongirning hech narsani anglatmaydigan beparvo qarashlaridan o'zicha xulosa chiqardi. Demak, bu taklif podshohga yoqmadi, Iskandar unga yordam bermaydi, shu gapni ochganiga o'zi ham pushaymon bo'ldi.

– Sening taklifingga hozircha rozi bo'lolmayman, – dedi nihoyat Iskandar. Men Hindistonga yurish qilaman... Butun Osiyoni zabt etganimdan so'ng, Elladaga qaytaman. Shundan keyin sening taklifingga qayturmiz.

Farasman bu haqda boshqa gap aytishni ortiqcha bilib Iskandarga qulluq qildi. Shundan keyin ziyofat yana uzoq davom etdi. Ichkilikbozlik avjga mindi. Iskandarning o'zi ham tinmay ichardi. Qo'shiq, raqslarning keti uzilmasdi. Lashkarboshilar, Iskandarning yaqinlari davradagi raqsga tushayotgan qizlarni yonlariga chaqirib olib, kayf bilan ularga yopishar, ba'zi hirlarini bazmixonadan olib chiqib ketishardi. Bunday paytlarda Iskandar: «Odamlarim bir maza qilib olsin», deb hamma noma'qulchiliklarga yo'l qo'yib berardi. Xorazmshohi charchagan bo'lsa ham Iskandarning yonida to bazm oxirigacha o'tirdi...

Mana, endi Farasman Iskandar huzuridan hech narsaga erisha olmay, bo'yniga yana ham katta boj yuklab ketmoqda.

Iskandarning mavhum gaplari mag'zini chaqib, ziyofatdan so'ng kechasi bilan mijja qoqmay chiqdi. Endi bo'lsa uyqusizlikdan boshi gangib ketyapti, hatto ko'zlarining g'o'lagigacha og'riyapti. O'rindiqda ko'zini yumib, bir oz tin olmoqqa harakat qilsa ham bo'lmadi. O'z yurtida bo'lsa, hatto, saroyda marosim ketayotganda ham taxtda o'tirib uxlab qolardi. Hozir bo'lsa asablari tortilgan, yuragi bezovta. O'z eliga tezroq eson-omon yeta qolsaydi. Hali shu noxush sovuq kunda qancha haftalab yo'l yurish kerak, manzil uzoq, zamin qattiq, qancha tog' u toshlar, daryolar, dasht-biyobonlarni kechib o'tish kerak. Yo'l azobi qursin, har holda otlaring shay, issiqqina arava, xizmatkor mulozimlar xizmasingda bo'lsa ham kech kuzning sovuq, nam havosida uzoq yo'lga chiqishning azobi ko'p bo'ladi. O'z-o'ziga dashnom berdi, nega ham shuncha yo'l yurib kelgan ekanman. Faqat Iskandardek jahongir podshohni ko'rib qo'yish uchunmi? Shuncha sovg'a-salomlar, har yili Iskandarga besh yuz talant o'lpon to'lash. Boshqa soliqlar-chi, qancha don, ot, kanizaklar yuborib turish kerak.

Buning ustiga eng muhimi Sug'diyona o't ichida yonayotgan, xalq qasoskorlari ayovsiz jang olib borayotgan bir paytda o'z vatandoshlari oldida kim degan odam bo'ldi, endi ular Farasmanni allaqachon sotqinga chiqarib qo'yishdi. Iskandarga yalinib bordi, oyog'iga bosh urdi, deb gap qilishadi Farasmanning yuragini bezovta qilib ezayotgan narsa ham shu!

Shohning eti uyushib, boshiga qattiq og'riq kirdi. O'rindiq chekkasiga qo'yilgan yostiqqa yonboshladi. Ozgina ko'zi ketgan ekan, birdan tashqarida qiy-chuv bo'lib qoldi, shoh biror bosqinchi qabila odamlari hujum qildi, shekilli deb o'rnidan turib arava darichasidan qaradi. Suvoriylar qo'qqisidan yo'ldan chiqib qolgan tulkini quvib har tomondan o'rab olishgan, o'qni kim tegizarga o'ynashmoqda edi. Shohning ko'ngli joyiga tushdi, askarlarining ruhi yaxshiligidan xotirjam bo'lib, yana o'rindiqqa yonboshladi.

Bu yo'llarda xavf-xatar ko'p. Yunon-makedon istehkomlaridan o'tib borish uncha qo'rqinchlik emasdi, qo'lida Iskandarning muhrlab bergan yorlig'i bor. Eng xavflisi cho'l-biyobonlardan chiqib hujum qiladigan turli ko'chmanchi

qabilalar. Ular hech kimni tan olishmaydi, o'lja bo'lsa bas, talab, o'ldirib ketaveradi. Xorazmshoh o'z atrofiga bir yarim mingga yaqin yaroqbardor, tog'ni ursa talqon qiladigan pahlavon suvoriylarni tanlab olib kelgan. Ulardan tashqari shohga xizmat qiluvchi yuzga yaqin mulozimlar hamroh bo'lib kelishgan. Shunda ham Sahroyi bosqinchilar chigirtkaday yopirilib kelsa bormi, ular bilan jang qilib baraka topmaysan, ular o'q-yoy otishga juda usta bo'lishadi, keyin yer tagidan chiqqandek birdaniga paydo bo'lib qolishadi. Birpasda hammayoqni alg'ov-dalg'ov qilib, g'oyib bo'lishadi. Ularni keyin quvib yetib bo'lmaydi, mol-mulkingmi talaydi-yu, zumda qum ichiga kirib yo'q bo'lib ketadi. Orqasidan quvib borsang, adashib cho'l ichidan chiqolmay qashqir va quzg'unlarga yem bo'lasan.

Shohning bosh og'rig'i kuchaydi, endi ko'ngli bilan qo'shib og'riyotgandi. Cho'l o'rtasida qulay joy topib, chodir qurishdi. O't-cho'p topib kelib olov yoqib, qozon osishdi-da, shohning ko'ngliga yoqadigan taom tayyorlashdi. Kechga tomon Farasmanning ahvoli bir oz yaxshilangani uchun ko'ngli musallas tusab qoldi. O'tkir musallas shohning kayfiyatiga ta'sir etib ko'ngli qo'shiq eshitishga moyil bo'ldi. Farasman musiqaga g'oyat ishqiboz edi, biror safarga chiqqanda o'zi bilan hamisha saroy qo'shiqchisini olib yurardi. Mulozimlar ko'ngil ochish uchun Iskandar hadya etgan yunon raqqosalarini olib kelmaylikmi, deb so'rashgandi, shohning maishatga ko'ngli bo'lmadi. Vaqt allamahalgaga borganga qo'shiqchiga ham ruxsat berib yubordi. Shohning huzurida gulxanga o't qalab o'tirgan ikki soqchidan boshqa hech kim qolmagandi. Musallas o'z kuchini ko'rsatdi, shohning oyoq-qo'li bo'shashib shirin uyqu elitdi. Farasman qancha vaqt uxlaganini bilmadi, negadir yotgan to'shagi xuddi yurib ketayotgandek tuyuldi unga, baqirmoqchi bo'lganda og'zi ochilmadi, nafasi qaytib tipirchiladi. «Nima bo'lyapti o'zi, biror chohga tushib ketdimmi yo bo'lmasa o'lim shunday tuyuladimi kishiga» deb o'ylardi. Qo'lini qimirlatgan edi, qattiq narsaga borib taqaldi. Es-hushini yig'ib olishga harakat qildi, ammo uyquli ko'zlari negadir ochilmasdi. Otning tuyuq tovushi eshitildi, ot nima qilib yuribdi yoki xiyonat yuz berdimi, qaroqchilar qo'llga tushganmikin. Ikki kishining ot

ustida g'ovur-g'uvur so'zlashib ketayotgan tovushi qulog'iga chalindi, bu mening odamlarim emas. Xullas, biror voqea yuz bergan, endi taqdirga tan berib jimgina yotaverdi. Suvoriylar uzoq yurishdi, otlar sekinlashib to'xtadi, birdan g'ovur-g'uvur boshlandi. Haligi ikki otliq shohni ehtiyotlik bilan tushirdi. Keyin kimdir xanjari bilan qop og'zini tilib yuborda-da, shohning og'ziga tiqilgan lattani olib tashladi. Baquvvat qo'llar shohni dast ko'tarib o'rnidan turg'azib qo'ydi. Xorazmshoh o'zini mash'ala bilan yoritilgan qarorgohda ko'rdi. Bu voqealar shunday tez yuz bordiki, shoh hamon tush ko'rayotgandek his etdi o'zini.

– Kechirasiz, ulug' shohim, hurmatsizlik uchun, – dedi ustiga qoplon terisi yopingan baland bo'yli kelishgan pahlavon yigit.

– Men o'zim qayerdaman, kim bilan so'zlashyapman, bu bosqinchilik nechun, axir, men buyuk Xvayrezem shohiman, – dedi asabiylashib.

– Bosqinchilik, sotqinlik emas, – dedi haligi yigit kinoya bilan.

Farasman boshini quyi solib, kuni kecha yo'l bo'ylab kelayotganida xayolidan o'tkazgan fikrlarini esladi. «Ha, vatandoshiarim meni allaqachon sotqinga chiqarib qo'yishgan, yarim tunda bu yerga olib kelishlarining boisi ham shunda».

– Sen kimsan o'zi? – so'radi shoh.

– Men Spitamen bo'laman.

Shoh indamay qoldi.

Spitamen Farasmanga zimdan razm soldi. Qarshisida Sug'diyona shimolidagi obro'-e'tiborli va qudratli Xvayrezem davlatining buyuk shohi turardi. U jussasi baquvvatdan kelgan, soch-soqoliga endigina oq oralay boshlagan ellik yoshlar chamasidagi pahlavondan kelgan yelkador odam edi. Hozir uning egnida shohona kiyimlari yo'q, faqat yumshoq shohidan tikilgan tungi uzun ko'ylakda turardi.

– Iskandarga borganligim uchun o'zim ham xafaman, – dedi Farasman.

– Nega? – so'radi Spitamen.

– Xatoga yo'l qo'ydim, ba'zi odamlar noto'g'ri maslahat berishgan ekan, o'zim ham pushaymonman, – dedi shoh.

– Biz shunday bo'lishini yaxshi bilardik, – kesatibroq dedi Spitamen.

– Har holda Iskandar Xvayrezemga yurish qilmaydi, endi Hindistonga jo'naydi.

– Siz nima va'da qildingiz unga, – so'radi, Spitamen.

– Katta o'lpon talab qildi mendan, ammo biz unga hech narsa to'lamaymiz.

– Nega?

– Chunki bizning ko'zimiz ochildi, agar bizga hujum qilgudek bo'lsa, so'nggi qonimiz qolguncha jang qilamiz, – dedi shoh.

– Uning iflos niyatlarini endi bilibsiz-da, – dedi Spitamen.

– Menga qara, Spitamen, seni hurmat qilib yurardim, mana ko'rishish ham nasib bo'ldi. Vatandoshlarga ayt, ular sening gapingga ishonadi, meni kechirishsin.

– Aytishga aytamanku-ya, lekin Sug'diyona boshiga shunday og'ir kun tushganda, Iskandar poyiga sajda qilib borishingizni Sug'diyona ham, xvayrezemliklar ham kechirmaydi, shohim.

– Xvayrezemliklarga kerak bo'lsa, o'zim aytaman, sendan iltimosim shulkim, mening asl maqsadimni odamlarga tushuntirib qo'y, axir, seni so'zining ustidan chiqadigan mard odam deb eshitganman, – dedi Xorazmshoh...

Spitamen navkarlariga ishora qildi:

– Ulug' shohga ot, kiyim-kechak beringlar. Tong yorishmasdan o'z joyiga eltib qo'ymoq darkor.

Spitamen qarorgohiga kirib, pochapo'stin olib chiqib Farasmanning ustiga yopdi.

– Yana ko'rishish nasib etadimi, yo'qmi, har holda bu mendan esdalik, sug'd qizlari tikkan, – dedi Spitamen.

– Rahmat senga. Faqat menga ayt-chi, qarorgohim yonida abjir qo'riqchi yigitlarim turganda meni qanday qilib olib keldinglar, – so'radi shoh taajjublanib.

– Bu bizning sirimiz, keyin bilib olasan ulug' shoh, – dedi Spitamen kulib.

Spitamening navkarlari Farasmanni tongra yaqin o'z o'toviga qo'yib keldilar. Mulozimlari ham, lashkarlari ham

tunda bo'lib o'tgan uchrashuvdan xabar topishmadi, sirli-
sirligicha qoldi...

SOTQINLIK

Massagetlarning katta bir qabilasi joylashgan bu qishloq unchalik serdaraxt bo'lmasa ham, ammo yashash uchun ancha qulay edi. Atrof-tevarak biyday dasht, yoqimsiz shamol hech to'xtamaydi. Dunyoning bir chekkasiga o'xshaydi, bu yerni uncha-muncha odam topib kelolmaydi. Nega desangiz sho'r chiqib yotgan sahro yo'llari biri-biriga o'xshaydi. Yo'lni yaxshi bilmagan yo'lovchi albatta adashib qolardi, agarda suvoriy yo'lga chiqsa, bir necha soat yo'l topolmay sarson bo'lardi, otulovsiz yo'lovchi-ku bir-ikki kun sahroda qolib ketishi hech gap emas. Har tarafga ilonizi bo'lib ketgan yolg'izoyoq yo'llarning qayerga olib borishi faqat shu yerlik cho'pon-cho'liqlirga, ovchilargagina ma'lum. Ular o'z mollari, qo'y-echkilari, tuyalarini qir yonbag'irlaridagi sero't yerlarga olib borib boqishadi. Eng muhimi, qishloq chekkasida uch tomoni qiradirlar bilan qoplangan pastqamlikda hor, yomg'ir suvlaridan paydo bo'lgan tabiiy ko'llar yerli aholi uchun jon ozug'i, hayot manbayi, biron begona ko'z ularni darrov topolmaydi.

Ko'llar atrofini sho'r bosib, oppoq tuz yer ustiga chiqib yotar, shu boisdan bo'lsa kerak, yerli aholi ularni «Sho'r ko'l» deb atar edi. Bu ko'llarni Oksiana ko'lining «bolalari» ham deyishardi. Agar baland qir tepasiga chiqib, pastga qarasangiz, cho'l tomonga yastanib yotgan ko'l suvi quyosh nurida oynadek yarqirab turadi. Oydin kechalarda bu yana ham mo'jizakor, yana ham go'zal ko'rinadi. Ko'lda turli suv qushlari: o'rdaklar, qashqaldoqlar, kech kuzda g'ozlar talasi paydo bo'ladi.

Mana kechga yaqin kunbotar tomondan kelgan ikki otliq Sho'r ko'l bo'yida to'xtadi. Ularning yurish-turishlari bejo, xatti-harakatlaridan qandaydir jiddiy ishga bel bog'laganlari bilinadi. Ular otlarini o'tloqqa, qirg'oq bo'yiga qo'yib yuborib, joy hozirlab, gulxan yoqishdi. Gaplaridan ular bu yerlikka o'xshamasdilar. Biri yapasqidan kelgan baquvvat yigit,

Ikkinchisi esa qotmadan kelgan uzun bo'yli, ovozi ingichka, o'rta yoshlardagi odam edi.

– Sen bola, bu yog'iga ehtiyot bo'l, naq boshing ketadi-ya, – dedi olovga cho'p tashlar ekan baland bo'ylisi.

– Men-ku o'z burchimni bajararman, xuddi qo'yning og'zidan cho'p olmagandek... ammo sen – dedi yapasqi.

– Nima, sen menga ishonmayapsanmi? – jahli chiqdi ikkinchisining.

– Ishonaman, lekin bu ish juda qaltis, bilib qolishsa bormi, sen bilan meni hech kim kechirmaydi. Spitamenni o'zing bilasan, biz bo'lsak uning jonini sug'urib olmoqchimiz. Axir biror gap bo'lsa, bilasanmi, nima bo'ladi?

– Agar shu ishni o'rinlatsak, Spitamenning qanoti smadi, shu bilan tamom – o'nglanmaydi, Sug'diyona qutuladi undan... Sen bilan bizga bo'lsa boylik, davlat oqib keladi.

– Bu nima deganing? – so'radi baland bo'ylisi.

– Bir o'q bilan ikki quyon... Men undan qasdimni ham olaman... – dedi yapasqi yigit mag'rurlamb.

– Uning oilasi qayerda ekan, qishloqqa bitta begona odam borsa, darhol bilinadi. Spitamenning o'zi shu yerda bo'lsa-ya! – bezovtalandi baland bo'ylisi mo'ylovini o'ynab.

– Bilmadim, yuragim orqamga tortib turibdi, bir falokat yuz bermasaydi, – dedi yapasqi.

– Ey, nodon, sen ham vahlmachi ekansan, mening ham yuragimga g'ulg'ula solib qo'yding, qani xurjunni ochib yemakdan ol, – dedi novchasi.

Yapasqi yigit xuddi shuni kutib turgandek o'rnidan turdida, chekkaroqqa saranjomlab qo'yilgan xurjunlarning birini ochib yaxna go'sht bilan pishloq, qo'rda pishirilgan non va bir oz meva-cheva olib keldi.

Ikkovlon har kim o'z xayoli bilan jimgina o'tirib ovqatlamishga tushishdi. Shu vaqt qir tomondan qo'y-qo'zilar suruvi ko'l tomonga kela boshladi. Ular bezovtalamib, narsalarini yig'ishtirishdi.

– Otlarni egarla, – dedi baland bo'yli yigit hovliqib.

– Agar otlarni minib jo'nab qolsak, ular xavfsirab, orqamizdan quvib, ushlab olishadi. Massagetlar bir so'zli odamlar,

ularga gap uqdirib bo'lmaydi, bekordan-bekorga o'ldirib yuborishlari mumkin, shuni bilasanmi? – dedi yapasqi hayajonlanib.

– Xo'sh, bo'lmasa nima qilamiz?

– Biz yo'lovchilarmiz, bu yerda dam olib o'tiribmiz, erta bilan yo'lga chiqamiz. Bixraga ketyapmiz, tushundingmi? – dedi novchasi go'yo aqlli va tadbirkor odamdek.

Ular yana hemalol joylariga o'tirishib, qolgan yaxna go'shtni xurjunga saramjonlab, hech narsa bilmagandek, dasturxondagi meva-chevalardan tanavvul qilaverishdi.

Shu orada suruv ham yetib keldi. Hammayoqni qo'y-qo'zilarining ma'rashi bosib ketdi, cho'ponlar «quruv-quruv» deb suruvni tartibga solishardi. Eshakdek keladigan cho'pon itlari bo'lsa, chetga chiqib ketayotgan dovdir qo'ylarni vovullab otarga olib kelib qo'shardi. Qo'ylar ham shunga o'rganib qolgandek, shataloq otib, sakrab, otarga kirib qo'shilardi.

Mana, qo'ylar hir-birini surib, sakrab suvga yetib kelishdi. Hammadan oldin saman otda ko'l bo'yiga yetib kelgan, oftobda yuzlari qoraygan, qo'ng'ir tusli, keng yag'rinli massaget yigit o'tirganlarga e'tibor ham qilmay, oti bilan to'ppa-to'g'ri ko'lning sayoz joyiga tushib ketdi. Boshqa cho'ponlar ham undan o'rnak olib, shunday qilishdi. Bir yigit ot ustida turib, egmidagi jandasini yechdi-da, otning yolini ushlab ko'lga tushdi, yuz-ko'zlarini, badanlarini yuva boshladi. Qo'riqchi itlar ham egalaridan qolishmay, suvga intilishdi, uzun bo'yli bilan yapasqi yigit ham cho'milganlarga havasi kelib, kiyimlarini qirg'oqqa yechdilar-da, suvga tushib yuvma boshlashdi.

Xullas, hamma bir sidra cho'inilib, yuvinib oldi. Haligi qoramag'izdan kelgan massaget yigit zavq bilan cho'milayotgan musofirlarga qarab turdi-da, suvdan chiqishgach, sekin-asta ular yoniga keldi.

– Bu yerlikka o'xshamaysizlar, qayerdan keldinglar? – deb so'radi ulardan.

– Bixraga ketyapmiz, asli navtakalikmiz, savdo ishlari bilan Xvayrezemga borgan edik, – dedi uzun bo'yli vazminlik bilan. Cho'pon yigit sinovchan ko'zlari bilan yo'lovchilarni boshdan-

oyoq kuzatib chiqdi, keyin otlariga, bir chekkaga tartib bilan qo'yilgan anjomlarga, hurjunlarga qaradi.

– Navtakalikman denglar, ha u yoqlarda ne gaplar bor? – o'smoqchilagandek so'radi cho'pon.

– Nima bo'lardi. Iskandar xalqni talab yotibdi. Spitamen cho'lma-cho'l, dashtma-dasht yov quvib yuribdi... – yapasqi jim bo'lib qoldi.

– Sizlar Iskandarning ayg'oqchisi bo'lmanglar tag'in, – dedi cho'pon birdan ziyrak tortib.

– Iya, nima deyapsan o'zing? Esing joyidami? Nahotki sotqin deb o'ylasang o'z tug'ishganlaringni, – dedi yapasqining bir oz jahll chiqib.

– Hozirgi zamonda odamlarga ishonib bo'lmaydi, do'ppisi tor kelsa o'z otasini ham sotib yuboradi, – dedi cho'pon va bor ovozi bilan baqirib, qo'ylarni kuzatib turgan cho'ponlardan birining nomini aytib chaqirdi. Boshiga sariq kuloh, choponi ustidan kamar bog'lab olgan, baquvvatdan kelgan abjir yigit birpasda shamoldek yelib keldi. Chaqqonlik bilan otdan sakrab tushdi-yu, xizmat degandek cho'pon boshlig'iga qarab turdi. Cho'pon boshlig'i unga «hozir» degandek qaradi-da, keyin «mehmonlar»ga murojaat etdi.

– Aybga buyurmaysizlar, bu yigit sizlarni qishloqqa olib boradi, oqsoqol bilan uchrashganingizdan keyin yo'lingizga ketaverasiz.

Musofirlarning rangi quv o'chdi, uzun bo'yli jahl bilan bir narsa demoqchi edi, yapasqi o'rtaga tushdi. Cho'ponlar boshlig'i qishloqqa borish zarurligini qat'iy talab etdi:

– Hozir hammayoqda Iskandarning ayg'oqchilari izg'ib yuribdi. Ular Spitamenni izlayapti. Shuning uchun bizdan xafa bo'lmanglar, sizlarni shundoq qo'yib yuborishga haqqimiz yo'q, qochishni xayollaringga ham keltirmanglar, baribir ushlab olamiz. Oqibati yomon bo'ladi. Kimki bizga itoat etmay qochsa, kallasidan judo bo'ladi.

Musofirlar bo'yinlari yor bermay, noilojdan massagetlar qishlog'i tomon yurishdi. Qishloq yo'll ancha uzoq edi, taqir cho'l bo'ylab ancha yurishga to'g'ri keldi. Yo'l-yo'lakay har ikkilasining fikri buzilib, bir amallab qochishni mo'ljallab

ko'rishdi. Axir, ular ikki kishi bo'lsa-yu, qo'rqib shu bir cho'ponning oldiga tushib ketaverishsa? Cho'pon ko'rinishdan ancha abjir, pahlavon yigit edi. Bo'yniga o'q-yoy osib olgandi. Umuman o'q-yoy otishda, arqon tashlashda massagetlardan o'tadigani yo'q.

– Xayollaringizni buzmay yuraveringlar, bilib turibman, bir o'q bilan ikkovingning qulog'mgni yopishtirib qo'yaman, – dedi cho'pon yigit. Qo'lga o'q-yoyni olib, osmonda uchib ketayotgan zag'chani otdi. Zag'chaning pati to'zib, qag'illagancha yerga qulab tushdi. Ikkovlon bir-birlariga qarashdi. Ular taqdirga tan berib, endi jimgina qishloq tomon ketaverishdi.

– Spitamen qayerda hozir? – deb so'radi yapasqi oldinda – ot ustida mag'rur ketayotgan cho'pondan.

– Kim biladi, bugun qarasang Navtakada, ertasi Maroqandda, makom'cho'l, baland tog' cho'qqilari...

– Uzunquloq gaplarga qaraganda, hozir shu yerda yashirinib yurgan emish. Oilasi ham o'zi bilan birga deyishyapti.

– Men hech narsa bilmayman, agar bilsam ham aytmayman, tushundinglarmi? Xo'sh, nega uni surishtirib qoldilaring? Gaplaringdan haqiqatan ham ayg'oqchiga o'xshaysanlar!

– Axir biz sug'diyonalik bo'lsak, nega bizni ayg'oqchi deb o'ylaysanlar, undan ko'ra, o'ldirib qo'yaqol.

– Qiziq odam ekansan, qo'limizga tushding, o'ldirish qochmaydi, halol bo'lsalaring bo'shatib yuboramiz, to'rt tomoning yo'l, yovuz niyatli bo'lsalaring boplah jazolaymiz.

Yana ikkovlon bir-biriga ma'noli qarab qo'yishdi. Massagetlar qo'lidan o'ng'aylik bilan qutulib bo'lmasdi. Ular massagetlar boshlig'i ulug' Sakon qarorgohiga yetib borishganda vaqt allamahol bo'lib qolgandi. Hokim yoshi oltmishlarga borgan bo'lsa ham, ikki yuzi qip-qizil, baquvvatdan kelgan, zuvalasi pishiq odam edi. O'tovida o'ziga yaqin kishilar bilan so'zlashib, qumron ichib o'tirgan ekan. Sakon asirlarni ko'rib hayron bo'ldi.

– Nima gap o'zi, sizlar shunday notinch vaqtda biz tomonlarda nega izg'ib yuribsizlar? – deb so'radi Sakon.

Novcha qo'l qovushtirib, ta'zim bilan yana boyagi gaplarni qaytardi.

– Agar sen Navtakadan bo'lsang, balki Spitamenni tanirsan, uni ko'rgandirsan?

– Yo'q-yo'q, tanimaymiz, – dedi yapasqi sherigidan oldin javob berib.

– Sen-chi? – deb so'radi Sakon uzun bo'ylidan.

– Men ham... tanimayman.

– Spitamenni chaqirib kelinglar, – buyruq berdi Sakon.

Musofirlarning rangi o'chib, o'zlarini qo'yarga joy topa olmay, xuddi qopqonga tushgan sichqondek bezovtalandi. Ayniqsa novchasi tipirchilab qoldi. «Spitamen shu yerda ekan-da, massagetlar orasida yashirinib yuribdi, degan gaplar to'g'ri bo'lib chiqdi, – deb o'yladi u. – Endi nima qilish kerak? Bizni yaxshi taniydi, endi kalamiz ketishi aniq. Bu yerlarga ajal quvib kelgan ekan! Agar Spitamenning bola-chaqasi shu yerda bo'lsa, xotini ham taniydi. Biror yaxshi bahona topish kerak, bu yerga kelishimiz boisini asoslab bermasak, bizdan xavfsirab, ayg'oqchiga chiqarib qo'yishadi. Ammo, bu yerga kim yuborganligini boshimizga qilich kelsa ham aytmasligimiz lozim. Men-ku, maydi-ya, ammo anavining asabi bo'sh sotib qo'yishdan ham toymaydi». Boshini quyi solib o'tirgan yapasqiga qaradi. Rangida qon yo'q peshonasida ajinlar ko'rindi. Ko'ziga birpasda qorayib ketgandek tuyuldi.

«Ablah, o'z manfaati yo'lida otasini ham sotib yuboradi», deb o'yladi ichida novcha. Sharoit murakkab, Spitamenni aldab bo'lmaydi, zukko odam, ko'zingga qarab hammasini birpasda bilib oladi. Uning qo'lidan o'ng'aylik bilan qutulib ketolmaysan. Sug'diyonada nima gaplar bo'layotganini o'tirgan joyida bilib turadi.

Spitamenga yuborilgan odam qaytib kelib: «Spitamen yo'q ekan, bir-ikki kundan so'ng qaytar emish...» deb aytdi. Asirlarga jon kirib, yuzlariga qon yugurdi.

– Qayerga ketibdi? – deb so'radi Sakon.

– O'z odamlari bilan saharlab chiqib ketgan ekan, aftidan hozir bu yerdan ancha uzoqda bo'lsa kerak.

– To Spitamen kelgunga qadar bularmi yerto'laga qamab qo'yinglar, – dedi Sakon.

Xullas, ayg'oqchi deb gumon qilingan «mehmon»lar shaxsan Sakonning nazoratida qamoqda turdi.

Spitamen qishloqqa uch kundan keyin qaytib keldi. Sakon uni voqeadan xabardor qilib, yerto'la – zindonga boshlab bordi. Ular zindon eshigini ochib kirishganda yerda ikki kishi o'lib yotardi. Biri ovqat olib kirgan zindon qorovuli, ikkinchisi bo'lsa o'sha semiz ayg'oqchi yigit edi. Spitamen uzoq tikilib, uni tanidi. U Ravshanakka uylanmoqchi bo'lgan o'sha yapasqi Siton edi...

Uning sherigi kim, qayerga qochibdi?

Spitamen hayratdan yoqa ushladi: «Bu odam massagetlar elida nima qilib yuribdi, nahotki miyati buzuq bo'lsa? Xo'sh, uning sherigi kim, qayerga qochibdi?»

Spitamen o'z qarorgohiga qaytgach, Siton va uning sherigini asir olgan cho'ponlarni yo'qlatdi. Ulardan qotilning afti angorini bilib olishi lozim edi. Cho'ponlarning aytishiga qaraganda, qotilning bo'y-basti baland, oq yuzli, yuzining chakka suyaklari bo'rtib chiqqan, soqol-mo'ylabiga oq oralagandi. Bir qulog'ida katta kumush ziragi bor, bashang kiyingan, egnida havorang kamzul, oyog'ida uchi qayrilgan qora etigi bor, boshiga bo'lsa sariq kuloh kiygan. Kamari zardan qilingan, kumush qinlik shamshiri bor edi. Gapirganda ovozi bir oz bo'g'iqlik chiqadi.

– Bu gaplaring to'g'ri-yu, ammo, o'sha odamning o'ziga xos hiror belgisi bormidi, shuni aytib berolmaysanmi? – deb so'radi Spitamen.

– Ha, esladim, burnining o'ng tomonida katta so'gali bor edi, – deb qo'shib qo'ydi cho'pon.

– Mana bu boshqa gap, – dedi Spitamen.

– Cho'ponlar o'z yo'llariga ketishdi. Spitamen massagetlar yurtida izg'ib yurgan, shayton libosi kiygan bu ablah sotqinlarning nima istab kelganligini bilardi. Ammo ular kimning buyrug'i bilan bu tomonlarga kelishgan! Uning joni kimga kerak bo'lib qoldi ekan, ana shunisi qorong'u edi. Cho'ponlar hushyorlik ko'rsatishibdi, ikkovini ham ushlab, bu yerga olib kelishibdi. Ammo yaxshi qo'riqlay olishmabdi. O'rtada bir bechora soqchi o'lib ketibdi, Sho'rlikning bola-chaqasi ko'p ekan.

Spitamén marhumning oilasiga katta yordam ko'rsatdi – otardagi qo'y-echkilardan 20 tasini yordam sifatida hadya etdi. Xo'sh, endi savol tug'iladi: o'sha iflos, dili to'la adovat qotil kim bo'ldi ekan, sirni oshkor qilmaslik uchun o'z sherigini qurbon qilishdan ham qaytmabdi. Burnining bir tomonida so'gali bor emish. Menga kimmidir eslatyapti bu belgi, kimda bor edi shunday so'gal-a? Spitamen o'sha odamni hech eslay olmadi, qayerdadir uchratgan, lekin bir marta ko'rgan bo'lsa kerak. Agar ilgari bilgan odam bo'lsa, albatta eslardi, axir uning xotirasi yaxshi-ku.

Spitaménning ko'ngliga g'ashlik tushdi. Uning dushmanga qarshi jang qilib, qo'li tolmaydi, dasht-biyobonlarda och-nahor kezib, o'z lashkarlari bilan Sug'diyonaning u chekkasidan bu chekkasini kezib charchamaydi. Ammo mana bunday odamlarning sotqinliklari, iflos ishlari asabga tegib, bilakdagi kuchni qirqadi, zaiflashtiradi, vujudga og'riq, bo'shashuvchilik paydo qiladi. Po'lat hech qachon sinmaydi, egilmaydi. Ammo kichkinagina zang uni chiritadi, ishdan chiqaradi. Iflos, sotqin, ig'vogar odamlar ham xuddi ana shu zangga o'xshaydi, po'lat irodali pahlavon odamlar ana shunday pastkashiarning munofiqlari ishlari tufayli irodalari bo'shashib, asablari tortiladi.

Spitamén qora niyatli ayg'oqchilarni o'yladi-yu, nazarida go'zal Sug'diyonaning pokiza bag'riga zang tushgandek tuyuldi. Qani endi o'sha iblis libosini kiygan «inson» uning qo'liga tushsa-yu, butidan ikki yoqqa yirtib tashlasa! Afsus, uning izi hozircha yo'qolgan, o'zn shaytondek qaygadir g'oyib bo'lgan. Shunday odamlar ishlrinishga ham usta bo'ladi, ularning o'z rahnamolari, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchilari bor. Yo'qsa, qayerdan paydo bo'ladilar?! O'z-o'zidan bo'lmaydi-ku iflos, qora ishlar!

Endi joyni o'zgartirish, bu yerdan tezda ketish kerak, bo'lmasa biror falokat yuz berishi mumkin. Iskandar uning boshi uchun butun jahonni berishga ham tayyor, shu boisdan odamlarni yollab, aldab, sotib olib, Spitameni qidirmoqda, qo'lga olish uchun hech narsani ayamayapti. Sug'diyonaning zodagonlariga boylik, hatto podshohlik va'da qilmoqda. Faqat Spitamenni unga ushlab berishsa bo'lgani. Axir Iskandarning

erta-yu kech tinchligini buzib, hayotini xavf ostiga solayotgan askarlarini birma-bir qadam-baqadam qirib, qasos olayotgan shu Spitamen-ku! Agar Spitamen bo'lmaganda, allaqachon Sug'diyonani bo'ysundirib, Hindistonga yo'l olardi. Spitamen uning yo'liga to'g'anoq, oyog'iga tushov bo'lyapti. Buni Iskandar yaxshi biladi.

Massagetlar yurtida yashirilib yurganligi endi hammaga ma'lum bo'libdi. Buning sirli joyi qolmabdi. Qochib ketgan ayg'oqchi – sotqin o'z xo'jayinlariga bu xabarni bugun-erta yetkazadi. Demak, Iskandar tez orada shu tomonga yurish boshlaydi.

Spitamen o'sha kuniyoq kechga tomon oilasini olib, o'z qo'shinlari bilan Sug'diyonaning noma'lum tarafiga qarab yo'l oldi.

JOHILLIKDAGI AQLSIZLIK

Diomis bayrami yaqinlashib qolganligi munosabati bilan katta tantanaga tayyorgarlik ko'rilardi, tangri taollo yo'liga katta qurbonlik qilmoqlik darkor. Iskandar bu safar qurbonlikni negadir Dionisga emas, balki o'zicha yangi xudolarga, Dioskuralarga atadi. Saroy atrofidagi ayrim og'ziga kuchi yetmaydiganlar podshohning bu «qilig'i»ni «yovvoyi»lar ta'siriga yo'yishdi. «Hammasi osiyocha urf-odatlarga moyillik oqibatida kelib chiqmoqda», – degan gaplar tarqaldi.

Shu bayram munosabati bilan Maroqanddagi bazm vaqtida shunday katta mojaro ro'y berdiki, bu Iskandarga juda qimmatga tushdi.

Iskandar ziyofatga osiyochasiga kiyinib chiqqandi. Chunki marosimga Maroqandning ancha e'tiborli kishilari, zodagonlari ham taklif etilgandi. Shunday paytda ularga shu yo'l bilan ta'sir o'tkazib qo'yish ham kerak-da, buni Iskandar atayin qilardi. Oqibat, xuddi podshoh o'ylagandek bo'lib chiqdi, hamma yig'ilgan vaqtda Iskandarning milliy libosda tashrif buyurishi kuchli olqishlarga sazovor bo'ldiki, hatto uning bu ishini ma'qullamaydigan, o'z e'tiqodini mensimaslikda ayblayotgan muxoliflari ham chapak chalishga majbur bo'lishdi.

Iskandar osiyocha liboslarni ana shunday tantanalar vaqtida, keyin mahalliy zodagonlar, shahar hokimlari, Sug'diyona, Baqtriyaning e'tiborli odamlarini qabul etganda kiyardi. Shuningdek, zarur bo'lgan vaqtda mahalliy xalqlarning rasm-rusumlari ham qo'llanilardi. Xorazm shohi Farasman Iskandar huzurida bo'lganida uning osqicha liboslari o'ziga juda yarashganligini ko'pchilik huzurida aytib: «Bu bilan xvayrezemliklarning sizga bo'lgan hurmatini yana ham oshirdingiz», deb aytgan edi.

Mastlik – aql-idrokning idorasizligiga olib boradi, deganlaridek, ichkilik avjga minga sari safsatabozlik kuchaydi. Iskandarning «erkasi» Klit ayniqsa o'zini yo'qotib, atrofdagilarga tegajog'lik qilaverdi. Keyin ba'zan ovozini balandlatib: «Qahramon ota-bobolarimizning xizmatlarini mensimay, hadeb Aleksandrni maqtayverish kerak emas, u hali odamlar og'ziga tushadigan nima ish qilibdi, hammasi makedoniyaliklar xizmati», deyaverdi. Kimdir Filippning isblarini maqtab qolgan edi, Klit yana avjga minib ketdi.

– Men Granikdagi jangda Iskandarni o'limdan qutqarganman, – dedi hammaga eshittirib.

Majlis ahli jimib Klitga qaradi, shunda u o'rnidan turib o'ng qo'lini Iskandarga ko'rsatib:

– Mana seni qutqargan o'sha qo'l, Aleksandr! – deb baqirdi.

Iskandar haddan oshayotgan Klitning so'zlariga chiday olmay jahl bilan o'rnidan gurgan edi, yonidagi «do'stlari» uni ushlab qolishdi. Aksiga olib Klitning orqasidan qurbonlikka atalgan uchta qo'yni yetaklab kirishdi.

Qizig'i shundaki, Iskandarning kayfli ko'ziga qurbonlikka atalgan qo'ylarning oldida Klit ham olib kirilgandek tuyuldi. Qurbonlikka atalgan qo'ylar uchta emas, to'rtta bo'lib ko'rindi podshohga. Buni podshoh yaxshi alomatga yo'ymadi. O'zi kechasi yomon tush ko'rib, kuni bilan xavotirda yurgandi. Endi Iskandar ortiq chiday olmadi:

– Ablah, – dedi baqirib.

Shunda Iskandar qo'lga hech narsa ilinmay dasturxondagi olmani olib Klitga otdi-da, qilichini qidira boshladi. Asabi buzilgan podshoh jahl bilan yaroqbardorlarini chaqirgandi,

negadir hech kim kirmadi, buyrug'i bajarilmay qoldi. Podshohning kayfli holatida miyasiga yomon g'alamis fikrlar kelib urildi. «Mening boshimga ham Doriyosning kuni tushmasa edi», xavotirlandi. «Bessga o'xshagan amalparast sotqimlar meni ham shohning holiga solishmasa edi», deb yuragi orqasiga tortib ketdi. Butun vujudi qizib peshonasidan ter chiqib, o'zini yomon his qila boshladi. «Yo'q, men kimsan, jahongir Iskandar bo'lsam, Klitga o'xshagan nonkurlarga izmimni berib qo'yamanmi, ovora bo'pti, hozir ularga ko'rsatib qo'yaman» dedi-da, g'azab bilan o'rnidan turib ketdi.

Podshohning qahridan qo'rqqan Klitning o'rtoqlari uni ziyofatdan olib chiqib ketishdi. Ammo kayfi oshib qolgan Klit boshqa eshikdan qaytib kirdi. Yoshlar Iskandarning ko'nglini boshqa yoqqa chalg'itish maqsadidr «yovvoyi»lardan yengilgan sarkardalar haqidagi hajviy qo'shiqni zo'r mahorat bilan kuylab yubordi. Shunda Klit o'zini tutolmay:

– «Yovvoyi»lar va dushmanlarimiz oldida makedoniyaliklarni haqorat qilish yaxshi emas... Aleksandr o'z otasi Filippni esdan chiqarib, Amonning o'g'liman deb hovliqib yuribdi. «Ha... ha»... deb Iskandarni masxara qila boshiadi.

Endi Klit quyishqondan chiqib ketgan, kayf ustida og'zidan bodi kirib-shodi chiqar, qilayotgan harakatiga mutlaqo javob bera olmay qolgandi. Ortiqcha chidab bo'lmasdi, Iskandar o'zini qo'riqlab turgan soqchi qo'lidagi nayzani oldi-da, xuddi o'z o'ljasiga tashiangan ovchidek Klitga otdi... Nayza uning ko'kragidan qirib orqasidan teshib chiqdi. Klit qo'limi musht qilib Iskandarga bir narsa demoqchi bo'ldi-yu, ammo kuchi yetmay gursillagancha yiqildi, og'zidan qon kelib, birpasda jon berdi.

Saroy qiy-chuv bo'lib ketdi, ammo gilam ustida qonga belanib yotgan Klitning yoniga hech kim yaqinlashmay, hamma turgan joyida qotib qolgandi.

Iskandar ko'm-ko'k ko'zlari jonsiz ochilib yotgan Klitning tepasiga kelib, pushaymondek bosh egib turdi. Kishiga ozor berguchi g'amgin jimjitlikda Iskandarning ich-ichidan og'ir yig'i keldi.

Shunday qilib, makedoniyalik buyuk Iskandar mastlik vaqtida o'zining eng yaqin kishisini o'ldirdi. Endi u o'z Vataniga qaytib borganida Klitning onasiga, ha, unga onadek bo'lib qolgan tarbiyachisiga nima deydi!

Uning ikki o'g'li Milet yomidagi jangda Iskandar uchun jon berdi. Endi bo'lsa Klitni Maroqanddagi bazm vaqtida o'z qo'li bilan nayza sanchib o'ldirdi! Bundan ham og'ir fojia bo'lishi mumkinmi? Bu mudhish bazm kechasida maroqandlik aslzodalar, zodagonlar ham qatnashmoqda, ular nima deb o'ylashadi...

Iskandar o'z qilmishidan qiyin ahvolga tushdi, iztirobda Klitning ko'krigidagi nayzani oldi-da, keyin o'zining ko'krigiga yaqin olib kelib sanchmoqchi bo'lgandi, soqchilar kelib qo'lidan nayzani zo'rlik bilan tortib olishdi; Saroyda qiy-chuv bo'lib ketdi. Iskandarning shaxsiy soqchilari qo'ltig'idan ushiab uni dam olish xonasiga olib kirishdi. Iskandar o'zini yerga tashladida, achchiq-achchiq yig'lay boshladi:

– Nima qilib qo'ydim, axir bu sharmandalik-ku, bu dunyoda yashagandan o'lganim yaxshi, meni ham Klit yoniga boringlar.

Iskandar ertalabga yaqin yig'idan to'xtadi. Kechagi ichkiliqdan rang-ro'yi za'faron sarg'ayib, uyqusizlikdan ko'zlari qizarib ketgandi. Bunday ruhiy tushkunlikka hech qachon uchramagandi. Endi uning hech kimi yo'q, yakkalanib qolgandek his etdi o'zimi. Kechagi badmastlikda ro'y bergan ayanchli fojiadan keyin unga hech kim yaqinlashmaydi, hamma undan uzoqroq yurishga harakat qiladi, xuddi o'rmondagi odamlar undan, u esa odamlardan qo'rqqan yirtqich hayvondek hayot kechiradi. Shu vaqtga qadar o'z sha'niga faqat maqto'v so'zlar eshitib, mag'rurlanib ketgan Iskandar endi og'ir ma'naviy tushkunlikni boshidan kechirmoqda. Xayolimi ana shunday mudhish fikrlar chulg'ab olgandi.

Birdan Klitning jasadini ko'rishni ko'ngli istab qoldi. Mulozimlar qonga bo'yalib yotgan Klitning o'ligini olib kelishdi. Podshoh o'lik yoniga tiz cho'kib, uzoq yig'ladi, yuragidagi dard-u alamlarini to'kib soldi.

– Mana men, sening qotiling, endi bu dunyoda qanday qilib yashayman. O'z tarbiyachimga qilgan yaxshiligim shu bo'ldimi,

endi sho'rlik arz-dodini kimga aytadi, axir Klitni podshohning o'zi o'ldirgan bo'lsa! Meni o'limdan qutqarib qolgan Klit bo'lsa, tarbiyachim uning sezimli onasi bo'lsa, endi o'z Vataniinga nima deb boraman, axir qani Klit, senga ishonib yuborgandim, deb so'rab qolsa nima deb javob beraman.

Iskandar hasrat-nadomat bilan qag'urib, hadeb faryod chekavergach, Klitning jasadini olib ketishdi.

Shundan keyin podshoh yana o'z yotoqxonasiga kirib ketdi-yu, uch kungacha u yerdan chiqmadi, ko'kragini yerga bergancha motamsaro, ochlik e'lon qilgandek tuz totmay yotaverdi...

Iskandar o'z odamlari oldida yuzi shuvut bo'lib, kuyib-ezilib, ruhan azob chekayotgan bir paytda ba'zi bir qiliqlarni o'ylab ko'rishga «vaqt topdi». Ha, inson arillab-darillab, shon-sharaflarga belanib, cho'qqiga chiqqan paytda bosar-tusarini bilmay yaqinlari yuziga oyoq qo'yadi, haqoratlaydi, o'ziga yaxshilik qilgan, tarbiyalagan mehribon kishilarini unutadi, ammo hayotning qahri, yashash qonuniyatlarining qasosli nuqtalari borki, ular inson irodasiga bo'ysunmaydi, vaqt-soati kelib o'zing bilmay, oyog'ing ostidan bu falokat chiqib qolib, boshingga to'qmoq urilgandek gangib qolasan.

Iskandar ham shon-sharaflar og'ushida o'zini tuta bilmay qattiq zarbaga duchor bo'ldi. Hech o'ylamaganda, johillik ustida shunday mudhish aqlsizlik ro'y berdiki, endi podshoh o'z yog'iga o'zi qovrilib yotibdi.

Shunday paytlarda ulug' aliomami, jahongashta sarkardami yoki podshohmi o'z qilmishlari haqida jarohatning og'rig'i ketgunga qadar o'ylaydi, iztirob chekadi. Kimlarga yomonlik qildi, kimning ko'nglini og'ritdi, man-man bo'lib, bosar-tusarini bilmay qolganligining sabablari nimada, hayot so'qmoqlarida ketayotib qayerda qoqildi, xullas ana shular haqida uzoq o'ylab, o'zicha o'zi mulohaza yuritadi. Mana, jahon podshohligiga da'vogar bo'lgan Iskandarning yolg'izlikdagi fikr-o'ylari.

Iskandar Eron, Baqtriya, Sug'diyonani o'ziga buysundirib, g'olib yurishlari so'ngida aysh-ishrat, bazm qilayotgan bo'lsa ham, lekin go'zal, g'aroyibotlarga boy va g'oyat qashshoq bu o'lkaning muqaddas tuprog'i unga og'irlik qildi, qancha

ko'ngilsizliklar keltirdi. Nega shunday bo'ldi, qancha-qancha
mard jangchilari dasht-u biyobonlarda, cho'llarda yirtqichlarga
yem bo'ldi, qoyalardan yiqilib o'ldi, og'ir janglarda halok bo'ldi,
Manedemdek bir qancha atoqli sarkardalari shu tuproqda ajal
topdi. Ushrushon tog'larida, Kirsaxta ostonalarida, Zarafshon
vodiysi qishloqlarida xalq qasoschilari qo'lida jon berganlar
ozmi? Haqiqatan ham Turon zamini Iskandar uchun og'irlik
qildi, shu yerda o'zi ham bir necha bor yaralandi, og'ir
kasalga chalindi, tinchligi ketib, asablari qaqshaydigan bo'lib
qoldi, Klitga misbatan qilingan qotilligi ham ana shu asabi
charchaganligi, falokatlar oqibati bo'lsa ne ajab!

Sug'diyonaning odamlariga «yovvoyi» deb past nazar
bilan qarash makedomiyallklarga odat bo'lib qolgan daryoning
narigi tomonidan kelgan skif elchisining so'zlari hamon
yodidan chiqmaydi. Maroqandga tantanavor kirib borganida
devonaning unga aytgan mushohadalari-chi? Sug'd ovchisi
Aspatning gaplari hamon esida. Hammadan ham qo'lga
tushmas, mohir sarkarda Spitamenning harbiy mahoratiga
tan bermaslik mumkinmi? O'rmonda o'ziga tashlangan turon
yo'lbarsini esladi, agar o'shanda sal xatoga yo'l qo'ysa, yirtqich
uni g'ajib tashlardi. Buni sezgandi, ammo nomus kuchiilik qilib
yuragidagi bu gapni hech kimga aytmadi.

Ha, bularning hammasi Iskandar uchun oddiy urush emas,
asab urushi edi. Hozir o'zini qattiq yaralangan, bezib qolgan
yirtqichga o'xshatdi. Qo'llarining kuchi, madori, belining
quvvati ketib qolgandek. Turonga kelib uning jahonga hokim
bo'lish haqidagi orzusi, ezgu miyati negadir so'nib, sillasi
quriganday edi...

Ha, Turon yerlarida Iskandarning kuchi qirqildi... Shu-shu
o'ziga kela olmadi.

Iskandar yotog'ida uch kun eshikka chiqmay motam tutdi,
hamma qilgan ishlarini ko'z oldiga keltirib chiqdi. Eng yaqinlari
ham eshigi yoniga borib, uning yoniga kirishga yuraklari dov
bermadi, tirqishdan qarab, yerga yopishib yotgan podshohni
ko'rib, nima qilishlarini bilmay qaytib ketishardi.

Oqsoqollar, sarkardalar Iskandarning yoniga birorta
gapga usta, bosiqroq odamni kiritishga qaror qilishdi. Bun-

ga hammadan ham Iskandarning faylasufi Anaksarx to'g'ri keladi. U gap topib beradi, buning ustiga podshoh uni ancha hurmat qiladi. Keyin boshqalar ham kirib Iskandarni «ovutishi» kerak. Bu fikr hammaga ma'qul tushdi.

Anaksarx oyog'ining uchida kirib astagina Iskandarning yoniga o'tirdi-da, uning boshiga qo'lini qo'ydi. Podshoh buni sezib, gunohkordek ho'ngrab yig'lab yubordi.

– Ulug' podshoh, qo'y endi, axir sen butun el-yurtlarning buyuk hukmdori bo'lsang-u o'z irodangni idora eta olmasang.. Bu senga yarashmaydi. Bo'lar ish bo'ldi, ming yig'laganing bilan Klitni tiriltirib bo'lmaydi.

– Qani endi tiriltirib bo'lsa. O, Zevs, meni kechir, nima gunohlar qilib qo'ydim, – yana yig'ladi Iskandar.

– Hamma ayb Klitning o'zida, saroydagilarning hammasi shunday fikrda, qo'y endi, olamning muammolari to'lib yotibdi, hamma senga intizor.

Anaksarxning insoniy qonun-qoidalarga rioya qilish, adolatli bo'lish, ayniqsa qonunning tosh-u tarozusi podshoh qo'lida bo'lishi lozimligi haqidagi nasihatimiz mulohazalari Iskandarga yoqdi. Podshoh o'rnidan turib o'tirdi.

– Ulug' podshohim, sen nima uchun g'alaba qilgansan, ulug'vor orzularni amalga oshirish o'rniga yosh boladay yig'lab o'tirish uchunmi? Yo'q, idora etmoq uchun, hukmdorlik qilmoq uchun, – dedi so'zining oxirida Anaksarx.

Iskandar faylasufning «ibratli va oqilona so'zlaridan mimatdor bo'lganligini» bildirdi.

Faylasuf chiqib ketgach, Kallisfen tashrif buyurdi. Iskandar tarixchi bilan uzoq so'zlashmadi, uning «oqilona», chuqur fikrlarini jimgina eshitdi.

Lekin keyin kirgan «do'stlarining» ulug' Dionisga qurbonlik qilinmaganligi ushbu ko'ngilsiz voqealarga asosiy sabab bo'ldi», degan fikrlari podshohni ancha tinchlantirdi. Ha, aybni xudolarga yo'ydi, keyin Iskandarning o'zi bosh-qosh bo'lib, tangri yo'liga qo'y, mol so'yib, katta qurbonliklar berdi.

Maroqanddagi ziyofat vaqtida ro'y bergan bu fojيانing so'ngida aslini olganda Iskandarning Sharqdagi siyosatiga qarshi butun bir oqimning manfaatlari yotardi. «Filipp

gvardiyasi»dagi eski makedoniyaliklar podshohning yovvoyilar yurtida olib borayotgan yangi tartiblarini ma'qullamadilar, «qullar»ni bilimli va ozod ellinlar bilan tenglashtirib bo'lmaydi, sharqliklar to'laqonli xalqlar emas, degan qoidaga amal qilardilar.

Forslarni ziyofatga taklif etish, hokimlikka tayinlash, suvoriy «do'stlari» bilan xizmatga qabul etish, «yovvoyi»larga uylanish kabi tadbirlar ularga yoqmadi. Kallisfen ana shu oqimning asosiy tashabbuskorlaridan biri edi.

Bir ziyofat vaqtida shunday voqea yuz berdi.

Iskandar oltin kosaga sharob to'ldirib, o'zi ho'pladi-da, keyin atrofdagi sarkardalarga uzatdi.

Ular ham sharobni qo'lga olib, ichib, o'rinlaridan turishdi, keyin egllib podshohga ta'zim bajo keltirishdi, shundan so'ng Iskandarning etagini o'pib qo'yishdi. Oltin kosadagi mayni barcha ziyofat ishtirokchilari bitta-bitta ho'plab, o'sha harakatni qaytarishdi. O'shanda Kallisfen ta'zim qilishdan bosh tortdi. Podshoh ham etagini o'pishga ruxsat bermadi.

Shunda ziyofatdagilar:

– Kallisfen, sen bu ishing bilan ko'p narsa yo'qotding – deb unga hazil qilishdi.

– Ko'p narsa emas, faqat bittagina o'pish yo'qotdim, – dedi kulib.

Iskandar kunlardan bir kuni ovga chiqdi. Ko'pincha bunday vaqtlarda podshoh ovga o'zining hamma yaqinlarini taklif etardi. Shunda qayerdandir bir to'ng'izning, podshohga tashlanib qolganda, Iskandarning Germolay degan shaxsiy soqchisi undan oldin nayza sanchib to'ng'izni o'ldirdi. Shunda Iskandar g'azablanib, shaxsiy soqchisini yalang'och qilib qamchilashni buyurdi. Shu voqeadan keyin qattiq haqoratlangan Germolay o'z atrofiga tengdosh yoshlarni yig'ib, podshohga qarshi sui-qasd uyushtirmoqchi bo'ldi. Ular sakkiz-o'n kishidan iborat bo'lib, Iskandarni uxlab yotganida o'ldirmoqchi bo'lib, bir marta hatto soqchini ham qo'lga olishgan. Suiqasd tayyorlangan o'sha kechada Iskandar to sahargacha ichkilikbozlik qilgan, tongda o'ldirishga qo'yilgan soqchi bo'lsa almashimb, reja amalga oshmay qolgandi. Yoshlarning biri yaqin do'stiga voqeani aytib

qo'yadi-da, bu gap Ptolemey Lagning qulog'iga yetadi. Shundan keyin suiqasd qatnashchilarining hammasi qatl etiladi.

Maroqanddagi bazm vaqtida ro'y bergan qonli toj bunday qaraganda badmastlik oqibati, «jahl chlqqanda aql ketadi» qabilidagi ishdek ko'rindi. Ammo keyingi voqealar Iskandarning qonli yurishlari barchaning joniga tegib, uning qo'shinlari o'rtasida ham, siyosiy arboblari, qo'shin boshliqlari orasida ham norozilik kayfiyati tobora oshib borayotganidan dalolat berardi.

BIRLASHISH, YANA BIRLASHISH KERAK

328-yil... Kuz. Ertalabdan boshlangan qora sovuq yengil-yupun kiyingan, oyoqyalang, qorni to'yib ovqat yemagan bolalar, ayollar, yaradorlarni yana ham qattiq azobga qo'ydi. Yoz bo'yi tandirdek qizib yotgan qum barxanlari endi muz bo'lib qolgan, zahri tovoningdan miyanggacha urardi. Quyoshning issig'i yo'q, eshak o'ldiradigan oftob deyishadi, osiyoliklar bunday kezlarda cho'lda yashashning o'zi bo'lmaydi. Darbadarlik, ko'chmanchi hayot, hamisha xavf-xatarda yashash odamlarning tinkasini quritib yuborgan. Tezroq tugay qolsaydi bu ayanchli betinch, shum kunlar... Turli el-elatlarga mansub bo'lgan O'rta Osiyo xalqlari birgalashib yunon-makedoniyalilarga qarshi kurashardi-yu, lekin vaqti kelganda ana shu qiyinchiliklar odamlarning jon-jonidan o'tib ketganda, turli gap-so'zlar, noroziliklar, o'zaro nizolar boshlanardi. Spitamen o'zining iroda kuchi bilan ana shu turli til, odat va xislatlarga ega bo'lgan elatlar, qabilalarning boshini bir joyga qovushtirib turar, ba'zan jismomiy baquvvatligi ham unga qo'l kelardi, uning izidan quvgan, o'zidan bir necha borkuchli, tajribali, yaxshi qurollangan dushmanga qarshi kurash ham uni chiniqtirib yuborgandi. Spitamen ba'zan-ba'zan qiyinchiliklarga mardonavor bardosh bergan vatandoshlariga qarab g'ururlanardi. Ayollar, qariyalar, bolalar-chl? Ular ham kecha-kunduz o'lsa-o'lib, yotsa-yotib, och-nahor cho'lma-cho'l yurishibdi. Ammo ba'zan ularni tashlab ketishga to'g'ri keladi, lekin shunda ham sho'rliklar nolishmaydi, hammasiga chidashadi. o'zining xotini Odatida-

chi, o'g'illari-chi? Albatta, odam temir emas, ba'zan-ba'zan qiyinchiliklarga chiday olishmaydi, isyon ko'taradi. Odatida ham shunday og'ir damlarda turish-turmushidan norozi bo'lib, bir-ikki marta erining kayfiyatini buzdi. Nima qilsin, ilgari tinchlik vaqtlarda rohat-farog'atli hayotga o'rganib qolgandi, endi bo'lsa darbadarlik joniga tegib ketdi...

Bir yoqda qilichini qayrab qish kelyapti. Sug'diyonada ba'zi yillari qish juda ham qattiq keladi. Biydek cho'lda qishli-qirovli kunlarda yashash qiyin, chorvaga yem-xashak yetishmaydi, mayda bolalar, qariyalar, ayollarning ahvoli ayanchli, ularning issiq kiyim-kechagi yo'q.

O'rta Osiyoning qattiq qishiga makedoniyaliklarning ham chidashi qiyin. Ularning hammasi ham qishlik kiyim-bosh bilan ta'min etilmagan. Ammo bosqinchi bosqinchiligini qiladi, hamma og'irlik xalq ustiga tushadi, talon-toroj avjga minadi. Sug'diyonadagi hamma teri-yu, qunduzlar, quruq meva-chevalar Iskandar odamlari tomonidan tortib olingandi.

Sahro chekkasidagi bu sayhonlik shu kunlarda ming-minglab issiq uyini tashlab chiqishga majbur bo'lgan odamlar uchun makon edi. O'z ayanchli turish-turmushidan uqubat chekib norozi bo'lganlar, notinch hayot jonlariga tegib ketgan kishilar ana shu qiyinchiliklar oldida ojiz, asablari bo'shashgan, iloji bo'lsa darbadarlikdan, og'ir hayotdan qutulish uchun Iskandar huzuriga yalinib borishga ham tayyor edi. Ba'zi bir g'alamis sotqinlar bu norozilik kayfiyatidan foydalanishga urinishardi.

Sahroda nima ko'p – saksovul ko'p. Bu yerning eng jonga oro kirayotgan narsasi ham shu. Kun-u tun gulxan o'chmaydi. Ovqat ham, kiyim-bosh ham shu gulxanlar.

Sahroyilarning yurak dardlarini bitib sig'inadigan chudolari ham shu olov edi...

Gulxan atrofi gavjum. Babax hech kimga so'z bermaydi, og'ziga kelganini ayamaydi ham, negadir har so'zining oxirini ilmoqlik qilib, ustalik bilan Spitamenga taqaydi. Pardali qilib, «undan hamma norozi», deb aytib yubordi. Gulxan atrofidagilar bo'lsa uning so'zlarini quloqlarini ding qilib e'tibor bilan tinglashardi.

– Sug'diyona, Baqtriya boshiga tushgan bunchalik og'ir kulfatlar, qirg'inlarga Spitamen aybdor, – dedi haligi ovozi.

– Hoy, og'zingga qarab gapir, nima deb vaysayapsan? – dedi massaget jangchisi.

– Ey nodon, men haq gapni aytdim, urishib, o'zimizni xavf-xatarga solib nima qilamiz, bu azoblar kimga kerak. Yaxshisi Iskandarga bo'ysun-da, uyingda tinch yotib uxla, Spitamen bo'lsa erta-yu kech urushni o'ylaydi, Iskandirga teng kelib bo'ladimi?

– Nega Iskandarga bo'ysunar ekanmiz, – dedi jangchi yigit.

– Axir, shuncha yillardan beri forslarga qaram bo'lib keldik, solliq to'ladik, xo'sh, nima bo'пти, eydi bo'lsa shu savilni Iskandarga bersak bir joyimiz kamayib qoladimi?

Ba'zilar Babaxning gaplarini ma'qullashdi. Shu naqtgacha bir chekkada jimgina turgan Uab endi gapni ilib ketdi.

– Qancha odamlar o'lib ketdi, qancha shaharlar, qishloqlar yondi. Nega shunga yo'l qo'ydik? Kelishib qo'ya qolsak bo'lardiku!

Hamma yalt etib Uabga qaradi. U ham Babax aytgan gaplarni boshqachasiga takrorlardi. Keyin asl maqsadga o'tdi:

– Hozir Iskandar Spitamenni qidirib, quvib yuribdi. Agar uni qo'lga olsa, o'sha kuniyoq urush to'xtaydi...

– Hoy, endi haddingdan oshma, bola, xuddi kallangni olmadek uzib tashlayman, – dedi baquvvatdan kelgan, bir qulog'iga katta kumush baldoq taqqan shopmo'ylov baqtriyalik jangchi.

– Mana, uzaqol kallammi, o'zi ham og'irlik qilyapti, sen olmasang Iskandarning odamlari uzib tashlaydi. Bu ahvolda bari bir hammamiz qirilib ketamiz.

– Sen ig'vogarni Iskandar odamlari sotib olganga o'xshaydi, – dedi haligi baqtriyalik qizishib.

– Mayli, sen ineni sotqin, ig'vogar deyaver, lekin sen-chi, o'taketgan ahmoq ekansan. «Sichqonning o'lgisi kelsa, mushuk bilan o'ynashadi», Iskandar kim-u Spitamen kim bo'пти, unga teng kelib bo'ladimi? – dedi Uab.

– Spitamen cho'l qoplani, Iskandar undan qo'rqadi. Shuning uchun senga o'xshagan sotqinlarni yollab, pahlavonimizni o'ldirmoqchi, – dedi haligi massaget yigit.

– Qoplon emish, bo'lmasa nega qochib yuribdi, ana katta maydon, chiqib Iskandar bilan yuzma-yuz kurashsin, – dedi Babax.

– Qani, bo'lmasa sen borib Iskandarga ayt, Spitamen bilan yakkama-yakka maydonga tushsin, o'shanda ma'lum bo'ladi, kim qoplon-u kim qo'rqoq, – dedi baqtriyalik tutaqib.

– Iskandar kuchli, Spitamen undan yengiladi, – dedi Uab.

– Spitamen zo'r, – dedi baqtriyalik.

– Iskandar zo'r, – dedi Uab..

Baqtriyalikning jahli chiqib gulxan yonidan turib, Uabning yoqasidan bo'g'ib oldi-da, mushti bilan burniga tushirdi.

Ko'pchilik bo'lib ikkovini ajratib qo'yishdi.

– Sotqinlar, axir biz qanday odamlar orasiga tushib qoldik, nega indamaysizlar, hoy odamlar. Axir, Spitamen blzning faxrimiz, yo'l boshchimiz-ku! Bu ablahlar mima deyishyapti o'zi?

– To'g'ri, to'g'ri, bular Iskandarga sotilganlar, ushlar kerak ularni, – qo'shilishdi unga bir necha jangchi yigitlar.

Haligi baqtriyalik qilichini sug'urib Uabning oldiga keldi. Ammo Uab unga chap berib, yaqinida turgan yo'rg'asiga minib qamchi bosdi-yu, yeldek uchib ketdi. Babax ham birpasda ko'zdan g'oyib bo'lib qoldi.

– Kim taniydi ularni? – so'radi haligi baqtriyalik.

– Biz tanimaymiz, – dedi massagetlar.

– Hech ko'rmagandik bu yerda ularni, – dedi dax jangchisi.

– Boshqa yoqdan kelishgan bo'lsa kerak, – dedi fors yigiti.

– Ular bizning qo'shilmamizdan emas, qaydandir paydo bo'lib qolishdi, – dedi usrushonlik bir chol.

– Ablahlar, sotqinlar, ularga gulxanimiz chekkasida ham joy yo'q. Ularning jazosini xudoning o'zi kechirsin, – dedi baqtriyalik qilichini qiniga solarkan.

Hamma yana gulxan chekkasiga cho'kkaladi.

Kechga tomon Spitamenning qarorgohiga barcha qo'shin boshliqlari to'planishdi. Endi qish kelyapti, nima qilish kerak. Shu haqda o'zaro maslahatlashib olish, bir qarorga kelish lozim.

Spitamenning qarori qat'iy, uni bu yo'ldan hech nim qaytara olmaydi. U butun kuchlarni to'plab, bir maqsadda birlashtirib, dushmanga qarshi tinimsiz kurashmoqchi. Bu

– uning qat’iy qarori. Lekin qabila boshliqlarining ayrimlari og’ir qiyinchiliklar oldida esankirab o’z hayotlari, oilalarining taqdirini o’ylab qolishdi. Ayniqsa, keyingi qattiq jangdan so’ng, asabi bo’shlar hayotlarini xavf ostiga qo’ymaslik uchun hatto Iskandarga bo’ysunishga ham tayyor edilar. Sug’diyananing eng obro’li, e’tiborli kishilaridan biri Oksiartning ikkilanishi Spitamenni, boshqa qabila boshliqlarini hayratga soldi. Oksiart o’z oilasi, bola-chaqalarini o’rtaga qo’yib, jang qilish faqat nohaq qon o’kilishiga olib kelishini tushuntira ketdi. Spitamen uni qattiq siltab tashlamoqchi ham bo’ldi, lekin andisha qildi...

– Iskandar unga bosh egib borgadlarni kechiradi. Hozirgi ahvolda bu bepoyon, kimsasiz, o’lik cho’lda hammamiz halok bo’lishimiz mumkin. Mana, bir misol. Xvayrezem shohi Farasman Iskandardan izzat-hurmat topdi. Axir, podshoh uni o’ldirmadi-ku! Shu boisdan bizlar ham Iskandar huzuriga bosh egib borsak, chakki bo’lmas, – dedi Oksiart o’tirganlarga murojaat qilib.

Qattiq janglarda yonma-yon turib, manfur dushmanga qirshi mardonavor kurashgan quroldoshining ikkilanishlari Spitamenga qattiq ta’sir etdi. Buning ustiga Oksiartning bunday noo’rin beqarorligi boshqa qabila boshliqlarining ham kayfiyatiga ta’sir etmasdan qolmasdi. Zarafshon bo’ylarida, Maroqand ostonalarida, skif dashti yoqasidagi qattiq janglarda o’z lashkarlari bilan namuna ko’rsatib, qahramonlarcha jang qilgan sarkardalardan biri Oksiart edi-ku! Nega birdan aynib qoldi. Unga kim ta’sir ko’rsatmoqda, biror g’alamis odam o’rtaga tushdimi? Iskandarning bu sohadagi ba’zi bir tadbirlari Spitamenga ma’lum. O’rtaga e’tiborli kishilarni qo’yib, katta va’dalar bilan ba’zi asabi bo’sh, boylikka mukkasidan ketgan odamlarni «aynitib» o’zi tomoyga og’dirib olayotganligi haqida ma’lumotlar Spitamenga ma’lum edi. Oksiart ham balki o’shandaylarning domiga ilinib qolgan bo’lsa ajab emas.

Spitamening Oksiartga izzat-hurmati beqiyos edi, hatto u bilan so’zlashganda bir oz iymenib turar, agar biror fikr bildirsa, darhol qo’llab-quvvatlardi. Bu albatta Spitamenning Ravshanakka nisbatan bo’lgan iliq, samimiy sevgisi oqibati edi. Shu boisdan Oksiartga biror marta qattiq so’z aytmagandi.

– Hurmatli Oksiart, o'zingiz bir o'ylab ko'ring-a, bizning ming-minglab vatandoshlarimiz, qavmi-qarindoshlarimizni qirib tashlagan podshohga bosh egib boraylikmi! Agar shunday sotqinlik qilsak, halok bo'lgan vatandoshlarimiz go'rida tik turadi. Biz bekorga sizlar uchun jonimizdan kechgan ekanmiz deb ruhlari ozor chekadi! Ulug' Axuramazdaga sajda qilib aytaman, agar shunday yo'l tutsak, ular ham, avlod-ajdodlarimiz ham bizni kechirmaydi!

Spitamen jim qoldi. O'rtaga sukunat cho'kdi. U do'stlarining, safdoshlarining ko'ziga tik qaradi.

– Gaplaring to'g'ri, ammo mening ham oilam, farzandlarim bor, na chora! – dedi Oksiart.

Maslahatli ish buzilmas, – dedi shu vaqtga qadar jim o'tirgan Xorien. – Har holda Oksiartuing so'zlariga bir oz e'tibor qilsak yanglishmaymiz. Ulganlar o'lib ketdi, endi bu yoqdagilar omon bo'lsin. Hammamiz qirilib ketgaydan ko'ra aql-farosat bilan ish tutaylik Butun-butun shahar-qishloqlar yonib kultepaga aylandi. Bu yog'ini ham o'ylab ko'rish kerak!

– Hall sen ham shu fikrdamisan, ey Axura, nimalar bo'lyapti o'zi? – dedi Spitamen osmonga qarab.

Oksiart ham, uni quvvatlagan Xorien ham jim qolishdi.

– Azamatlarim, ishongan tog'larim shunday deb tursa, endi men kimga suyanay. Kimga borib arz-dodimni aytay. Bilaklaring kuchi ketib, qiliching o'tmaslashib qoldimi, azizim Xorien! Axir makedoniyaliklarni adabini bergan, jang maydonida ular safiga qo'rquv solgan sen emasmiding! Yoki Oksiart yo'ldan urdimi seni! Endi sovuq cho'lda bizga umid bilan boqqan och-yalang'ochlarga nima deymiz. Sizlar bekorga qon to'kdingiz, kechirasizlar, bizlar endi Iskandarga sajda qilamiz, deb aytaylikmi? Shunday desak to'tri bo'ladimi?

Hamma jim qoldi, Spitamenning so'zlariga hech kim javob bermadi. Xullas, kengashda bir fikrga kelish qiyin bo'ldi, hamma tarqaldi. Spitamenning asabi buzilib, qarorgohda bir o'zi qolib negadir sovqotib eti uvushdi, tuya junidan qilingan katta po'stinini, yopindi-yu, bir chekkaga yonboshladi. U endi o'z hayoti haqida, oilasi haqida o'ylandi.

Ko'ngliga ne-ne gaplar keldi. Hayot juda murakkab, ayanchli, kurash og'ir, bu ahvolda qanday qilib dushmani muqaddas tuproqdan quvib chiqarish kerak. Younga bir o'zning kuchi yetadimi? Agar quroldosh do'stlari qo'llab-quvvatlamasa, safdoshiari yordam bermasa, hamfikir bo'lmasa, qanday qilib jang qilish mumkin. Hamjihatlik bo'lmasa, hamma ish chappasiga ketadi, biz shuncha vaqt bekorga qon to'kkan ekanmiz-da! Bu yerda faqat bitta muhim narsaga amal qilmoq zarur! Birlashish, birlashish, ha, manfur yovga qarshi bir musht bo'lib kurashish kerak!

BO'RILAR

Ertalab boshlangan yomg'ir kechga borib tindi. Yengil shabada turib bulutlarni joy-joylga ko'chirib yubordi. Ko'r oydinda cho'l yuzasi g'ira-shira ko'rinadi. Mana, bulutlar orasidan chiqqan to'lin oy hammayoqni yoritib yubordi. Bepoyon cho'l xuddi kunduzgidek yorishib ketdi. Qo'r oydinda qora tulpor yana ham bahaybat ko'rinadi, uning ustida qoplon terisi yopinib olgan, keng yag'rinli suvoriyning ko'inishi-chi? U cho'l bo'ylab zulukdek qora otining ixtiyorini o'ziga qo'yib, asta-sekin borardi. Suvoriyning oti kishnab, to'satdan to'xtab qoldi. Xayol surib kelayotgan suvoriy nima bo'ldi, degandek atrofga qaradi va barxanlar ustida qorayib turgan bo'rilar to'dasiga ko'zi tushdi. «Senlar qolgan ekansanlar meni ta'qib etmagan...» xayolidan o'tkazdi g'ijinib suvoriy.

G'ira-shirada bo'rilarining qanchaligini bilib bo'lmasdi. Otliq o'qdonni olib undagi o'qlarni bamaylixotir sanab chiqdi, keyin otining uzangisiga oyog'ini tirab, xotirjam o'z yo'lga ketaverdi. Bo'rilar ham otliq ketidan izma-iz borishardi. Suvoriy otga qamchi bosdi, tulpor bir zarbning o'zidayoq tezlashib ketdi. Bo'rilar ham suvoriyning ketidan jon-jahdlari bilan quvishdi. Otliq orqasiga qayrilib, chaqqonlik bilan o'ng tomondan unga yaqinlashib kelayotgan bo'riga kamondan o'q uzdi. Bo'ri qo'rqinchli ovoz chiqarib, chiyillagancha o'mbaloq oshib ketdi.

Suvoriy otiga yana qamchi bosdi. Bo'rilar yana quvishni davom etdirdi. Uq-yoydan otilgan ikkinchi o'q yana bir bo'rini

yer tishlatdi. Endi bo'rilar ikkovlashnb, otning ikki tomonidan kelishdi, biri tulporning uzangisiga yaqinlashib qolgandi, otning o'zi orqa tuyog'i bilan shunday tepdiki, bo'ri qum to'zoni ichida yo'qolib ketdi, ikkinchisi esa mohir merganning o'qidan charxpalak bo'lib ag'darildi. Xullas, shu alfozda chavandoz ketma-ket yana uch bo'rini sulaytirdi. Holdan toygan och bo'rilar endi natija chiqmasligini bildi, shekilli, sekin-asta orqada qola boshladi.

Suvoriy to'xtab yana ortiga qaradi. Ko'r oydinga hech narsani ilg'ab bo'lmasdi. Oppoq pag'a-pag'a bulutlar oy yuzini bekitib qo'ygandi. Suvoriy endi shoshilmasdan o'z yo'liga ketdi. Uning vafodor tulpori ham ancha tinchlangandi. Egardan cho'zilib otning yollarini siladi. «Qam endi dunyoda hamma sendek vafodor bo'lganda edi, Qorasochim» deb qo'ydi. Bo'rilar-chi? Ular umrbod yomonlikka tug'ilgan. Nega shunday... Bo'rilarga o'xshab, vahshiylik, birovlariga ozor berish uchungina yashayotgan insonlar bor bu dunyoda! Iskandar-chi, uning odamlari-chi? Ular ham xuddi shu och bo'rilardek mening izimga tushib soyadek kuzatmoqdalar, odamlarning tinch, osoyishta hayotiga chang solmoqdalar. Nega ular bo'rilarga o'xshab yirtqichlarcha hayot kechirishadi? «Inson – insonga bo'ri» degan yunon matalini Iskandar butun el-elatlarga, mamlakatlarga joriy etib, yirtqichlikni o'ziga kasb etib, atrofidagi korchalonlarini ham, butun qo'shinlarini ham xuddi shunday maqsad bilan yashashga o'rgatmoqda. Bizlarni haqoratlagandek yovvoyilar deyishadi-yu, o'zlari vahshiylarcha harakat qilishadi, shu axir insofdanmi?

Suvoriyning g'azabi qaynab, otiga yana qamchi bosdi. Qorasoch xuddi shuni kutib turgandek, shamol singari yelib ketdi. Mana barxanlar tugab, uzoqdan tog' tizmalafi tagida Xorien qal'asi ko'rindi. Oksiart ham o'z oilasi bilan kelib shu qal'ada jon saqlamoqda. Otliq qal'aga yaqinlashgach, tulporining jilovini tortdi. Birorta odam ko'rib qolmasin deb qal'a orqasidagi tezoqar daryo chekkasidan panalab bordi. Keyin suvning burilish joyidagi g'uj bo'lib o'sgan daraxtzor ichiga kirib, birpasda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bir daqiqa o'tmasdan qal'a tomondan boshqa bir otliq chiqib, ham ana shu

daraxtzor ichiga kirib ko'zdan yo'qoldi. Qancha daqiqa, qancha vaqt o'tganligi noma'lum. Ammo bunday baxtiyor damlar juda tez o'tib ketadi. Chin muhabbat og'ushida sevishtganlar butun bir dunyo tashvishlarini unutishgan bo'lsa ajab emas. Zero, sevgidek buyuk tuyg'u hammaga ham nasib etavermaydi. Agar tabiat senga ana shu noyob tuyg'uni hadya etsa, o'zingni samoviy hissiyotlar egasi deb bil. Hayoting bahordek go'zal, guldek nozik va muattar bo'lgusidir. Ha, muhabbat yerminggina emas, balki buyuk samoning ham mahsulidir,

Mana, daqiqalar juda tez o'tib ketdi. Oy uzlatga chekinib, g'ira-shlra tong yorisha boshlaganda, daraxtzor ichidan ikkala otliq ham qaytib chiqishdi. Ular tezoqar daryoning burilish joyiga kelib to'xtab, bir-birlari bilan xuddi qush o'z bolasiga ovqat bergandek o'pishdi. Tongning xira yorug'ida ularning yuzini hali lnglab bo'lmasdi. Ammo uzoqdan qarab ularning biri ayol, ikkinchisi yigit ekanligini tanib olish qiyin emas edi.

– Azizim, Ravshanak, yaxshi qol endi...

– To'xta, ketma! Yo'q, yo'q, seni hech qayerga yubormayman... Azizim, pahlavonim, – dedi erkalani Ravshanak.

– Menga qara, esimdan chiqayozibdi, o'qdoningdagi hamma o'qlaringni menga ber, kechasi yo'lda hammasini sarf qilib qo'ydim.

Qiz hamma o'qlarini olib Spitamenga berdi.

– Negadir sendan ajralgim kelmayapti, go'yo bir umrga yo'qotib qo'yadigandekman, jonim Spanta, yana bir oz tur. Seni endi qachon ko'rurmen, azizim, – dedi Ravshanak.

Spitamen Ravshanakka yuzlanib:

– Aytdim-ku, senga, kelasi haftaning shu kuni kelaman, deb. Meni kut, xuddi shu joyda kut, albatta kelaman, xo'pmi, – Spitamen otdan egilib qizning sochlarini siladi.

– Seni intizorlik bilan kutaman, albatta yodingda turadi-a? Ammo, o'zingga ehtiyot bo'l, jonim, shuni bilki, mening dunyoda sendan boshqa hech kimim yo'q. Tushundingmi, hech kimim yo'q.

– Bilaman, azizim, seni sevaman.

– Men ham sensiz turolmayman.

– Sen endi otanidan yordam kutma. Qal’aga kirib yashirinib oldi. Urushmasmish, iloji bo’lsa, Iskandarning oldiga uzr so’rab hormoqchi.

– Otang, meni kechir... Ravshanak... – yigit u yog’ini aytmadi, Ravshanak indamadi. Yerga qaragancha jim turaverdi.

– Tezda tong yorishadi, azizim, men endi ketay, eson-omon ko’rishguncha xayr...

Otliqlarning biri cho’lga, ikkinchisi qal’a tomonga burildi. Shu vaqt tog’ qizarib quyosh ko’rina boshladi Spitamen quyoshga qarab uni qutlab yo’l-yo’lakay duo o’qib borardi.

Demak, Ravshanakning otasi qilich-qalqonini yig’ishti-ribdi, dushmanga sotilibdi. Bu qanday ayanchli, og’ir kulfat. Oksiart Spitamenning ishonchli safdoshi, uning qo’lida qanchadan-qancha askarlari bor. Ular endi urushga kirishmaydi. Bordi-yu, ular Iskandar tomonga o’tib ketsa-chi, unda nima bo’ladi? O’z ichingdan chiqqan dushmandan xavfli narsa yo’q. U seni, odamlaringni, butun sir-asroringni biladi. Ikkinchidan, urush kimning joniga tegmaydi deysiz, Spitamenning yonida jang qilayotgan odamlar ham ancha charchab qolishgan, oilasi, chorvasi bor hammasini! Yaqin safdoshiari endi kelishuvchilik yo’liga o’tgan ekan, ular ham urushdan bosh tortishiari mumkin... Spitamenning asabi buzildi, butun vujudiga chumoli o’rmalagandek titroq yugurdi, baquvvat qo’llari bo’shashib ketdi. Oksiartni Ayshma buzyapti, ha, o’sha. Ey Ulug’ Amuramazda, o’zing rahm qil, odamlaringa insof ber!

Spitamen Quyoshga qarab yolvordi:

– O, Quyosh, sen – hayot manbayi, mening imonim, vijdonimsan. Taqdirimni, borlig’imni senga ishonganman. Bilasanmi, sensiz hayot yo’q, inson, koinot, tabiat yo’q. Go’zal vodiylar sensiz quruq qaqshagan dasht-biyobon. O, tangrim, hammaga barobar nur sochasan-ku, nega odamlarni har turli qilib yaratgansan. Biri qul, biri zodagon, hiri shoh. Zolimlar, bosqinchilarga shafqatsizligingni nega ko’rsatmaysan. O, Nohid, rahm qil, sevishganlar sening qahringga yo’liqqanmi, nega ularga umrbod visol hadya etmaysan, bizni ham marhamatingdan darig’ etmasang nima bo’libdi?!

Mana oldinda bepoyon, unsiz cho'l. O'lik dunyo, sukunat dunyosi. Suvoriy ot ustida uyquga ketdi. Qorabayir bir narsani sezgandek ehtiyotlik bilan qum ustidan manzilga shoshadi. Butun olamni munavvar etib, quyosh ko'tariladi...

Spitamen Quyosh yoyilib ketganida o'z qarorgohiga qaytib keldi.

Odatida erining kechasi bilan yo'qolib, erta bilan kelganligini bilsa ham churq etmadi. Axir, nima ham derdi bunga uning haqqi bormidi? Qalbining yakka-yu yagona hukmdori shu olijanob inson-ku! Axir, butun Sug'diyona elining tashvishlari, g'am-g'ussalari hozir bchrgina shu pahlavonning ustida ku. Shu bilan birga o'ziga taskin bergandek bo'ladi. «Mayli, boshqasini sevsa ham, baribir uni yaxshi ko'raman», deb yurardi. Ammo shunday bo'lsa ham ayollik g'ururi yuragining aliaqayerida eriga nisbatan bo'lgan qandaydir rashk, gina, adovat o'tini sekin-asta yoqa boshiagandi. Uning yuragi erining munosabatlaridan, ko'z qarashlaridan hamma narsani sezadi... Lekin lom-mim demaydi, o'z etini o'zi yeydi.

Qullar qaynatilgan go'sht, pishloq, non, qaymoq keltirib qo'yishdi. Odatida ko'zachadagi qimizdan kosaga quyib, eriga uzatdi.

– Azizim Spanta, juda charchagan ko'rinasan, ovqatlanib ol, keyin bir oz orom olasan.

Spitamen indamadi. Ochiqib qolganligi rost edi. Kosadagi qimizni simirib, xotini olib kelgan nonushtani shoshib-pishib tanavvul qildi. Odatida bo'lsa bir chekkada cho'kkalab, erining ovqatlanishiga mehr bilan qarab o'tirdi. Spitamen nonushtani tugatib bo'lgach, o'zi ham bilmay cho'ntagidan chiroyli gulli, yashil ro'molchani olib, yuz-ko'zlarini artirdi. Odatidaning unga ko'zi tushdi-yu, ichi yonib ketdi. «Bunaqa chiroyli ro'molchani qayerdan olibdi», deb o'yladi u. Butun vujudidan ter chiqib, o'zini yomon his etdi. Dasturxonni nari-beri yig'ishgirib, tez-tez yurib xonadan chiqdi. Shu vaqt Datafarn kirdi:

– Anavi sotqimni qo'lga tushirdik!

– Qaysi? – deb so'radi Spitamen.

– Nonko'r Babax-chi, Siton bilan birgalashib sening joningga qasd qilmoqchi bo'lgan.

– Zindonda o‘z sherigini o‘ldirib ketgan o‘sha ekanmi? – deb so‘radi Spitamen.

– Ha, o‘sha, ammo o‘z ustozining kim ekanligini aytmayapti! – dedi g‘azab bilan Datafarn.

– Yaxshilab jazolash kerak, butun elga o‘rnak bo‘lsin, – dedi Spitamen.

– Mayll, sotqinni jazolash yo‘lini bir o‘ylab ko‘raylik, – dedi Datafarn va qarorgohdan chiqib ketdi.

Datafarn mulozimlarga qayerdan bo‘lsa ham bir necha yuz qovoqari tutib kelishni buyurdi. Kuz oylarida qovoqarilar ayniqsa zaharli bo‘ladi, Ular yaqindagi chorboqqa borishib, eski qo‘rg‘onlar bo‘g‘otidagi qovoqarilarning inlarini topishib, to‘rvaga yig‘ib qaytdilar.

Kechga tomon qarorgoh oldida jamoat jam bo‘ldi. Hammaning diqqat-e‘tibori «qanday jazo berishar ekan», degan fikrda edi. Jazoni o‘ylab topgan Datafarn bo‘lgani uchun bu ishlarga uning o‘zi bosh-qosh edi.

Odamlar yig‘ilishgach, Spitamen va uning safdoshiari qarorgoh oldiga chiqishdi. Keyin yerto‘ladan Babaxni olib kelishdi. Uning ko‘zlari ichiga tushib, rangi za‘farondek sargayib ketgandi. Babaxni maydon o‘rtasiga olib chiqishdi.

Spitamen uning yoniga kelib, basharasiga tik qaradi, chindan ham o‘sha massaget cho‘poni aytgandek Babaxning burni yonida katta so‘gali bor ekan.

– Xo‘sh, ayt-chi, mening jonim senga nega zarur edi?

– Seni kim yubordi?

Babax indamasdi, so‘zlashga tili ham, dili ham lol edi. Umi yalangoch holda katta qopga solishdi. Endi nima bo‘larkin, deb hamma hayron edi. Babax qopga tushgach, yosh bolalar chapak chalib yuborishdi. Haligi mulozim Spitamenning yonginasida qo‘lida to‘rva to‘la qovoqari ushlab turardi. Lekin yig‘ilganlardan birortasi ham qanday jazo berilishini bilishmasdi.

Spitamen yigilganlarga murojaat qildi:

– Kimda-kim o‘z Vataniga, xalqiga xiyonat qilsa, uning jazosi nima? – deb so‘radi.

– O‘lim! O‘lim! – dedi yigilganlar umi ma‘qullab.

Keyin haligi mulozim qovoqari to'la to'rvaning og'zimi ochilib, qop ichiga qo'yib yubordi, so'ng chilvir bilan qopning og'zini qattiq qilib bo'g'ib bog'ladi.

Ana endi tomoshani ko'ring. Turgan qop yoniga ag'darilib tushdi. Babax qandaydir bo'g'iq ovoz chiqarib kimnidir la'natlar, dod-voy solar, qop dam u yoqqadam bu yoqqa ag'darilib tushar, goh yumalab ketar edi. Xullas, bu harakat anchagina davom etdi-yu, birdaniga jimib qoldi.

Mulozimlar borib pichoq bilan qopni yorib yuborishdi. Babaxning yuzlari shishib, tanib bo'imas darajaga kelgan, gavgdasi bo'lsa qip-qizil qonga bo'yalgan edi. Qop ichida omon qolgan bir necha qovoqari g'u villagan cha har tomonga uchib ketdi.

– Xoinning jazosi shu! – dedi kimdir,

Hamma tarqaldi. Babaxning o'ligini eshakka ortib, cho'lga olib borib, bo'ri va qashqirlarga tashlab kelishdi.

SO'NGGI JANG

Ezma yomg'ir bir necha kundan beri tinimsiz quymoqda. Hammayoqni nam bosib, chodirlardan, kapalardan chakka o'tib ketdi. Shu kezlarda Spitamen o'z oilasi bilan Sug'diyonaning shimoliy qismida massagetlar orasida yashirib yurardi.

Uning lashkarlari cho'l chekkasidagi bir qishloqda joylashib olib yunon-makedon qo'shinlariga qo'qqisdan zarba berish uchun qulay fursat poylab yotardi. Massagetlar boshlig'i, Spitamenning qadrdoni xayrixohlik ko'rsatib, o'zining eng yaxshi oq teridan qilingan o'tovini unga tikib bergandi. Odatida o'z o'g'illari, xizmatkorlari bilan alohida kapada yashardi.

Havoning noqulay kelishi tufayli Spitamen yuborgan ayg'oqchilardan mana bir haftadan beri darak yo'q. Dariyod ham bedarak ketdi. Kechga tomon yana yomgir kuchaydi, xuddi chelaklab qo'ygandek. O'tovlar, kapalar oldidan daryodek bo'lib suv oqardi. Kech kuz bo'lsa ham negadir momaqaldir oq bo'lib, osmonda chaqmoq chaqnardi. Bu yaxshilik belgisi emas, devlar qutiryapti, deb o'ylashardi. Bunday kezlarda qabilalar Axuramazdadan madad istar, o'z odatlari bo'yicha qurbonlik

qilib xavf-xatarni daf etib, mushkullarini oson qilishni so'radilar.

Odatida o'z farzandlari bilan gulxan chekkasida yumsboq po'stinga o'ralgancha o'tirardi. Ikki o'g'li olov yoqasiga yonboshlagancha pish-pish uxlar, faqat olgi yoshli kenjasi Ramugina onasiga suyanib qo'lidagi uzun yog'och bilan olov kovlardi.

Odatida norg'ul, baquvvat bo'lib o'sayotgan o'g'illari bilan faxrlanar, ularga mehr to'la ko'zlari bilan termilib, «iloh xudo umri bilan bergan bo'lsin» deya yaratganga iltijo qilardi. Zero, zamon og'ir, Spitamenning iziga tushganlar ko'p. Demak, oilasining hayoti ham xavf ostida. Odatidaga ba'zi bir do'stlari, yaqinlari, hatto nodo'stlari: «Yaxshisi eringga ayt, seni, bolalaringni bebaxt qilmasin, Iskandarga panoh so'rab boraversin» deb maslahat berishdi. Ular Spitamenga bu fikrlarni Odatida orqali yetkazmoqchi bo'lishdi, ammo o'z erining bunga ko'nmasligini juda yaxshi bilgan, bir-ikki bor buning uchun pand yegan Odatida Spitamenga og'iz ochmadi. Ammo azob jon-jonidan o'tib ketgan chog'lari nima qilarini bilmay ikkilanib ham qolardi...

– Ena, hoy ena, nega yig'laysiz, – so'radi tili chuchuk kenja o'g'li Ramu onasidan.

– Yig'layotganim yo'q, ko'zim og'riyapti... – dedi Odatida o'g'lini bag'riga bosib.

– Enajon, osmonda nima bo'lyapti?

– Ey o'g'lim, bilasanmi, osmonda devlar bilan shaytonlar olishyapti. Devlar gurzi bilan shaytonlarni uryapti.

– Nega devlayning guyzilayi yeyda tushib ketmaydi?

– Gurzini qo'llaridan qo'yib yuborishmaydi-da, mahkam ushlab turishadi, yerga tushib ketsa qiyomat-qoyim bo'ladi.

– Ena, devla qanaqa bo'ladi?! Shaytonla-chi?

– Endi uxla, bolaginam, uxla, kech bo'lib qoldi, ertaga senga qiziq cho'pchak aytib beraman.

– Aldamaysizmi, – so'radi Ramu.

– Yo'q, yo'q, ertaga albatta so'zlab beraman, endi uxla, do'mbog'im...

Shu vaqt tashqarida odamlarning shovqin-suroni va kimningdir xonishi eshitildi. Bu Dariyodning tanish ovozi edi.

Odatida uyquga ketgan o'g'lini sekin qo'lidan qo'yib, ehtiyotlab ustiga po'stin yopdi-da, keymi tashqariga chiqdi, odamlar Dariyodni o'rab olib, savolga tutishmoqda edi.

– Shoshyapman, sarkardaga uchrashim kerak.

Dariyod Spitamen qarorgohiga kirib, bo'lgan voqealarni birma-bir, boshdan-oyoq so'zlab berdi. Aftidan yuborilgan ayg'oqchilar makedoniyaliklar qo'lga tushib qolibdi, ammo ular hech narsa deyishmabdi, azoblab, keyin it qiynog'iga solib, aholi oldida daraxtga osishibdi. Dariyodning so'zlariga qaraganda Iskandar qarorgohida ham ancha alg'ov-dalg'ov gaplar bo'lib o'tibdi. Iskandar o'zming eng yaqin kishilaridan hiri Klitni nayza sanchib o'ldiribdi.

– Shunday deng? Hali o'z odamlarim ham o'ldirmoqdami-a? Axir Klit Iskandarning eng yaqini edi-ku Aftidan Klitning opasimi, onasimi podshohning tarbiyachisi bo'lgan deb eshitgandim. Endi podshoh rosa haddidan oshibdi-ku, – dedi Spitamen.

– Eshitishimga qaraganda Iskandar seni mana shu omonlarda massagetlar orasida yashirib yurganingdan xabar topganmish, qanday qilib bo'lmasin qo'lga ushirish haqida Kraterga topshiriq beribdi. Ular qish kunlarda shu tomonlarga yurish boshlasa ajabmas. Memimcha Iskandarning o'zi ham bu ishga qattiq kirishgan.

Spitamen bir oz o'ylanib turdi. Keyin birdan Dariyodga o'girilib:

– Mayli kelaversin, biz qo'rqadiganlardan emasmiz. Ular-ning adabini shunday beraylikki, sichqoning ini ming tanga bo'lsin!

– Unday dema, bo'tam, o'ylab ko'r, ehtiyotlik bilan ish tutmoq kerak. Odamlarimizning kayfiyati yaxshi mas. Ba'zi bir ig'vogarlar har xil gaplar tarqatib yuribdi. Iskandarga bo'ysunishga tayyor turgan e'tiborli kishilar ham oramizdan chiqib qoldi.

– Bilaman, hammasidan xabardorman, padarbuzrukvor, Oksiart ham sotildi. Iniga kirib ketgan tulkidek qal'ada yotibdi. Mayli, o'zimiz ularsiz kurashaveramiz. Spitamen hali o'lgani yo'q. Tanamda qonim aylanib turgan ekan, Iskandarga tinchlik

bermayman. Biz shu bugundan tayyorgarlikni boshlaymiz. Chaqirilgan mehmonlarni «yaxshilab» kutib olamiz.

Spitamen bir oz o'ylanib turdi, xayolidan nimalaridir o'tkazdi. Aftidan qandaydir hujum rejalarini fikr oynasida ko'rmoqda edi.

– Ey, aziz otaxon, bu dunyoga kimlar kelib ketmadi. butun jahonni zabt etmoqchi bo'lganlar ham u dunyoga ochiq qo'llari bilan ketarlar.

– Ha, shunday, o'g'lonini, toj-taxt kimga vafo qilibdi! Olamni titratgan Doriyovush qayda endi! Bess-chi, xor-zorlikda o'lib ketdi. Uning o'ligini ham go'ridan o'g'irlab ketibdilar.

– Ne uchun? – ajablandi Spitamen.

– Doriyovush o'ldirilganda uning dunyoda bahosi o'q uzugini Bess olgan ekan. Keyin «Osiyo shohl» uzukni yutib yuborganligini kimdir bilgan emish. Aftidan bu ishni o'sha qilgan bo'lsa kerak.

– Bu gaplarni Kamak aytib bergandi, ajabo, – hayratlandi Spitamen.

– Ha, bu quloqlar nimalarni eshitmagan, – dedi Dariyod afsuslanganday.

Spitamen qarorgohida tuni bilan tayyorgarlik ko'rildi. Qo'shin boshliqlari bilan ko'p masalalar haqida kelishib olindi.

Tun yarim kechadan og'ib qolgan. Dariyodning mungli qo'shig'i yurakni ezardi...

*Biror kimsa u dunyodan qaytib kelsaydi,
Hamma jumboq hal bo'lardi, shubha tugardi.
Aldanmasdi avom sho'rlik do'zax vahmiga,
Ishonmasdi biror kimsa, ollo rahmiga!
Bu dunyoda kimlar kelib, kimlar ketmadi,
Qancha ishlar chala qolib, umr yetmadi...*

Erta tong bilan yo'lga chiqildi. Spitamen massatetlar hukmronligidagi yerlardan o'tib, sug'd chegarasidagi Baga degan joyga yetib bordi. Ular Baganing bir chekkasidagi katta yaylovda dam olib yotgan uch mingga yaqin skif otliqlariga yo'liqib qolishdi, ular har joy-har joyga gulxanlar yoqib, aysh-

ishrat bilan mashg'ul edilar. Lekin ular yaxshi qurollanmagan, otlari holdan toygan, oriq, ustlaridagi kiyim-kechaklari yupun edi. Qiladigan mashg'ulotlarining ham tayini yo'q. Spitamen ularga yaqinlashganda, skiflar avvaliga Spitamenga e'tibor ham qilishmadi. Spitamen, o'zicha o'zi mulohaza qildi, «uch ming suvoriy, bu juda katta kuch, ulardan foydalanmoq darkor». Spitamen ularga murojaat qildi:

– Ey siz vatansiz, boshpanasiz, yulimgan, talangan yo'qsillar, bu yerda bekorga nima qilib yotibsizlar?

Skiflar ot ustida turgan baquvvat, kelishgan, basavlat suvoriylarga qarab:

– Biz skiflarmiz, o'zing kimsan?

– Men Spitamenman, balki tanirsiz?

– Eshitganmiz, bilamiz – deyishdi baravariga.

– Xo'sh, menga qaranglar, jahllaring chiqmasin-ku, nega bu yerda botqoqqa tushgan qurbaqaday vaqillashib yotibsiz? – hazillashdi Spitamen.

Hamma barobariga kulib yubordi. Shu bilan go'yo o'rtadagi devor-to'siq ko'tarilgandek bo'ldi. Ulardan kimdir o'rtaga chiqib:

– Bu yomg'ir deganingiz hamma joyni botqoqqa aylantirib yubordi, botqoq bo'lgach qurbaqa ham bo'ladi-da! – dedi.

Yana kulgi ko'tarildi. Spitamen ham, uning do'stlari ham ana shu kulgi davrasiga qo'shilib ketishdi.

– Mayli endi, kulgi-kulgi bilan, ko'p kulgimning yig'isi ham bo'ladi, menga aytinglar-chi, sarkardalaring kim? – dedi Spitamen ularga murojaat qilib.

– Men, – qotmadan kelgan, chakaklari ich-ichiga pishgan, beliga uzun qilich taqib olgan yigit oldinga chiqdi.

– Isming nima?

– Xipa!

– Xo'sh, Xipa, ayt-chi, askarlaringga tuxum bostiryapsanmi? Nega axir qurollaringizni ishlatmay, zanglatib qo'ydinglaring. Axir, Iskandar qo'shinlari yerlarimizni talab, odamlarimizni qirib tashlayotgan bo'lsa-yu, daryo suvi to'pig'laringga chiqmay o'tiraversalaring, bu qanaqasi?

Skiflar boshlig'i indamadi, Spitamenga so'z ham topib berolmadi.

– Bo'lmasa, aziz vatandoshlar, – dedi Spitamen, – eshitinglar, Iskandarning sarkardasi Krater bu yoqqa kelyapti. Podshohning o'zi ham shu tomonga tashrif buyuradi degan xabarlar bor. Agar biz bir joyda mog'or bosib o'tiraversak, ular hammasini qirib tashlaydi, yo qul qiladi. Undan ko'ra jang qilib, mardonavor o'lgan yaxshi emasmi? Xo'p desalaring ularni yaxshilab kutib olsak. Xo'sh, bunga nima deysiz? Sizlar uch mingga yaqin, biz ham shuncha, birga jang qilib ko'raylik-chi, birodarlar.

Spitamening so'zlarida mantiq bor edi, bir necha oydan beri foydali ish bilan shug'ullanmagan, vatani ham, turarjoyi ham, boshpanasi ham yo'q, qayerga borarini bilmayotgan bechoralar ot ustida hozirning o'zidayoq uchib ketishga tayyor turganday basavlat pahlavon yigitga mahliyo bo'lib qarab turishardi. Keyin ular:

– Spitamen, biz sen bilan birga o'lishga rozimiz, – deyishdi.

– Rahmat, sizlarga, vatan uchun o'lish kerak emas, jang qilish zarur. Qani, otlaring, ketdik!

Hammalari qilich, qalqonlarini shaqirlatib qiyqirishdi.

– Endi gap bunday. Sizlarga sarkarda etib mening aziz do'stim, pahlavon Xamukni tayimlayman. Mana o'zi, ko'rib qo'yinglar.

– Bilamiz, eshitganmiz. Uning qahramonliklari elga ma'lum, – degan ovozlari eshitildi.

– Unday bo'lsa juda yaxshi. Xipa bo'lsa pahlavon Xamukning yordamchisi bo'ladi.

– Juda yaxshi, rozimiz, – ma'qullashdi skiflar. Spitamen yo'lni kuzatib borish maqsadida o'z ayg'oqchilarini olg'a tomon yubordi. Keyin har bir qabila boshliqlarini chaqirib, o'zaro maslahatlashdi! Uch mingga yaqin skif suvoriylarini alohida-alohida bo'lib, har bir qismiga jasur yigitlardan boshliqlar tayinladi. O'q-yoy otuvchilar, nayza sanchuvchilar, og'ir qurollar bilan ta'minlangan jangchilar saralanki, Gurzi-amud ko'tarib olgan pahiavonlarni qo'shimlarning orqa qismlariga joylashtirdi. Ularga boshliq qilib Zo'rtosh belgilandi.

Bir necha daqiqalardan keyin Spitamen yuborgan ayg'oqchilar qaytib kelishdi. Ular bu yerdan o'ttiz-qirq chaqirimcha narida makedoniya qo'shinlari shu tomonga

qarab kelayotganligini ma'lum qilishdi. Ular yetti mingga yaqin otliqlar, ko'ngilli piyodalar edi. Spitamen safdoshlari bilan keng adrlarga ulanib ketgan katta balandlikka ko'tarildi. Bu yerda dushman qo'shinlarini kuzatish bilan birga jang rejalarini muhokama qildi.

- Eshitinglar, aziz do'stlarim, eng muhimi - dush manga vaqtida yashindek tashlanmoq, keyin shamoldek tez g'oyib bo'lmoq darkor. Spitamen Bess bilan daryoning narigi tomonida jang qilganda Iskandar qo'shinlarini qay tartibda joylanishini, ko'proq yengil suvoriylardan foydalanishini, piyodalar nayza irg'ituvchilar, palaxmon otuvchilar qay tartibda jang qilishini o'rganib olgandi. O'z lashkarlari bilan kuchli dushmanga qarshi yuzma-yuz kurashib yengsa bo'ladimi?

Datafarn boshchiligidagi dax suvoriylari balandlik orqasida bildirmay saf tortib turishi va yunon-makedoniyaliklarga ma'naviy ta'sir ko'rsatish maqsadida na'ra tortib qo'qqisdan hujum boshlashlari kerak. Xamuk boshchiligidagi uch ming skif qo'shinlari massagetlar bilan boshqa tomondan kelib Iskandar lashkariga zarba berishi kerak. Spitamen o'zining sug'd suvoriylari, usrushonliklar va boshqalar bilan ilgarigi jang odati bo'yicha pistirmada turib, vaqti-soati va urushning borishiga qarab jangga kiradi.

Ertasi kuni tushga yaqin uzoqdan chang-to'zon ko'tarildi, qo'yosh ko'rinmay qoldi. Avvaliga Krater ayg'oqchilari ko'rindi. Ular bu yerda Sug'diyona askarlari turganligini ma'lum qilishdi shekilli, makedoniyaliklar to'xtab, saflana boshladi. Ha, ularga imkon dam bermaslik, tezda hujum, hujum boshlash kerak. Bu Spitamenning sug'dcha urushish usuli. Birdan tibiljang sadolari olamni tutib, qo'qqisdan jang-u jadal boshlanib ketdi. Massaget suvoriylari na'ra tortib, makedoniyaliklar ustiga yopirilishdi. Skiflar bo'lsa ikkinchi tomondan dushman ustiga tashlandi. Spitamenning tanlangan jangovar suvoriylari tepalikning orqa tomonida bekinib sabr bilan qulay vaziyat kelishini kutib turardi. Grek-makedon qo'shinlari bunday favqulodda ahvoldan shoshib, sarosimaga tushib qolishdi, dushman saflarida sarosimalik boshlandi. Suvoriylar, piyodalar birgalashib shunday jang qildilarki, grek-makedon qo'shinlari o'z kurash

tajribalarida bunday muhorabani ko'rmagandilar. Qizig'i shundaki, haligi otdan tushib jang qilayotgan dax jangchisi chaqqonlik bilan sherigining otiga mingashib, ikkovlashib ikki tomonga shunday zarb urishardiki, dushman askarlari tutdek to'kildirdi. Piyodalar bilan otliqlarning birgalashib mohirona jang qilishi hammani hayratga soldi. Jang qilishning bunday usulini ko'rib, o'rganib olgan boshqa qabila jangchilari ham xuddi shunday – daxchasiga urushishga harakat qilardi.

Xalq qasoskorlari Iskandar lashkariga qarshi hujumni shu qadar kuchaytirdilarki, ular ancha vaqtgacha o'zlariga kelolmadilar. Keyin Krater va boshqa lashkar boshliqlarining qat'iy harakatlari qo'shinlarni ancha hushiga keltirdi. Dushman tomon o'z saflarini birlashtirib, o'ng qanotdan hujumga o'tdilar, Bu ahvolni ko'rgan Spitamen zarbdor suvoriylari bilan tepalikdan oshib, dushman qo'shinlari ustiga tashiandi. Jang g'oyatda qizib ketdi. Odamlarning qiyqirig'i, baqiriq-chaqiriqlari, qilichlarning sharaqlashi, otlarning kishnashi hammayoqni tutdi. Taraqa-turuq amuli garron, janggoh bo'ldi bozori ohangaron, qarabsizki go'yo qiyomat-qoyim bo'lgandek. Odamlarning oh-u nolasi pahlavonlarning na'rasi bilan qo'shilib ketgandi, Spitamen o'zining zulukdek qora tulpori bilan janggohning qoq o'rtasidan yorib kirdi. Qo'lidagi o'tkir qilichi bilan qay tomonga ot solmasin qo'shin saflari yorilib ketar, dushmanlar to'da-to'da bo'lib qochish harakatiga tushishardi. Spitamenning atrofini o'rab olgan bahodir safdoshlari ham o'z sarkardalariga qalqon bo'lib, uni hamlalardan himoya qilishardi. Mana, bir qanotda Datafarn, ikkinchi qanotda bo'lsa Sherdor, Kamak, yon qanotda og'ir qurollar sardori – Zo'rtosh qahramonlarcha jang qilmoqda. Jangda hech kimni ayash yo'q. Spitamen jang qilayotgan maydonning o'rtasi dushman lashkarlarining o'liklari bilan to'lib ketdi. Otlar yurolmas, o'liklarga qoqilar, mayib bo'lgan ne-ne samanlar yerdan turolmay yotardi.

Spitamenning jang qilish mahoratini bir chekka dan kuza-tib turgan Krater unga tan berdi.

Dushman qiron keltirayotgan Zo'rtosh bahodirni o'rab oldi. U har gurzi urganda uch-to'rtta makedoniyalik

majaqlanardi. Ammo uzun nayzaliklar pahlavon ustiga yopirilib kelishdi. Zo'rtoshning qo'liga nayza tegib, gurzisi tushib ketdi.

Biryola sanchilgan o'nlab uzun nayzalar sho'rlikning orqasidan teshib chiqdi. Buni ko'rib Spitaniening tepa sochi tik bo'lib ketdi.

Jang-u jadal uch soat davom etdi. Qonlar daryodaryo bo'lib oqdi. Nima bo'ldi-yu, massaget suvoriylari safida parokandalik boshlandi. Makedonlar «o'ziyurar qal'a» piyodalari bilan qat'iy hujumga o'tib, ularni esankiratib qo'ydi. Bir necha yuz otliqlar qurshovda qoldi. Spitamen buni sezib, darhol o'z pahlavonlari bilan o'sha tomonga tashlandi. Keyin kelishuvga binoan chekinish vaqti yetganligi haqida signal berildi. Datafarn ham yelkasidan yaralandi.

Sug'diyona qo'shinlari asta-sekin cho'l tomonga chekina boshlashdi. Makedoniyaliklar bu parokandalikdan foydalanib, hujumni kuchaytirdi. Spitamenni qo'ldan chiqarmaslik, ularning cho'l yo'liga o'tib olmasliklari uchun katta kuchni o'sha tomonga tashladi. Jang yanada avj oldi. Ammo jang taqdiri allaqachon hal bo'lgandi. Makedoniyaliklar kuch jihatidan ustun kelishdi. Spitamen lashkarlari katta talafot ko'rdi. Krater qo'shinlari cho'lga chekinayotgan Spitamen va uning jangchilarini quvib ketishdi. Lekin quvish befoyda. Baribir Spitamenga yetib bo'lmaydi, cho'lga kirdimi, bir zumda yo'qolib ketadi, buni Krater yaxshi biladi.

BU DUNYOGA KIMLAR KELIB-KETMADI

Kimsasiz, hayotsiz, inson qadami yetmagan sahrolar... Uning so'nggi ham, boshlanishi ham yo'qdek, ming-ming yillardan beri o'lik tanadek yastanib yotibdi. Falakging gardishini qarangki, qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan bu bepoyon jonsiz, qahrabodek qotib yotgan, ajdahodek och yerlar o'z vatani, el-yurtidan judo bo'lganlarga panoh bo'lsa! Mana hozir ular o'lim changalidaq qochib, horib, charchab, toliqib, uyqusizlik azobidan qiynalib sovuq sahroga jon saqlash uchun kirib kelishmoqda. Bu yog'i – kech kuz, hademay sovuq kunlar

boshlanadi. Qishda bo'lsa cho'ldan dahshatli joy dunyoda yo'q. U hech kimga shafqat qilmaydi.

Qum barxanlarining so'nggi yo'q, biridan oshib o'tgang ikkinchisi boshlanadi. Shunchalik ham uzoq bo'ladimi bu go'rdan ham sovuq dahshat sahrosi.

Biyobon bo'ylab tartibsiz chekinayotgan bu odamlar to'dasining eng oxirida Spitamen ketmoqda. Bu ayanchli manzaraga qarasa yuragini ezmoqda. Vujudi yonib, suyaklari sochilib ketayotgandek, belidan quvvat ketib, madorsiz bo'lib qolgandek..

Mana, olamni munavvar etib turgan Quyosh izg'irinli kech kuz oqshomida yuzlari sovuqdan qizarib botib bormoqda. Hammayoq shafaq rangga kirgan, go'yo bugungi jangda to'kilgan qondan samo qizarib ketganden. Spitamen Quyoshga qarab pichirlab ichida duo o'qib boradi. Bu uning doimiy odati. Ko'pincha ruhan tushgan, eng og'ir damlarda Ulug' Axuramazdadan shafqat, madad so'raydi. Barkashdek bo'lib botayotgan Quyosh nurida sahroda bir zamonlar kimlardir yasab ketgan tosh haykaliar insonga qo'yilgan abadiy yodgorlikdek qop-qora bo'lib ko'rinib turibdi. Spitamen o'zicha o'zi xayol suradi: Kim ekan bu sho'rliklar, bir vaqtlar ular ham bosqinchilarga, kelgindilarga qarshi kurashib, abadiylikka ketgan qahramon jangchilardir. Endi bo'lsa jonsiz qotib qolishgan. Spitamenga qarab: qalaysan endi, deb nido qilayotganga o'xshaydi. Spitamen ham go'yo abadiylikka ketayotgandek o'zini ana shu mangu haykallar qatoriga qo'ydi.

Ot ustida horg'in ko'zlari yumila boshladi, xayoli bo'shliqqa parvoz etgandek bir daqiqa g'am-anduhlarni unutdi. Vafodor Qorasochi suvoriysining hozirgi holatiga hamdardlik bilan boshini quyi solib olgan.

Yo'q, hali men tirikman, qo'yinglar o'z holimga, ey mening jigarbandlarim, ajdodlarim! Sizlarning ruhingiz oldida abadiy tiz cho'kaman! Hali mening jang qilishga qurbim yetadi, oldimizda katta va dahshatli muhoraba bor. Bilaklarimizning kuchi ketmagan, oyoqlarimiz mustahkam, yuragimiz g'azab-nafrat o'ti bilan yonmoqda! Axir bu Tang-rining inoyati, bunday qattiq g'azab o'ti hammaning ham

yuragida yonavermaydi! Asabi bo'sh, olchoqlar allaqachon maydonni tashlab ketdi.

- Ey o'g'lim, shuni bilkim, sen Sug'diyonaning sofdil o'g'lonisan! - dedi qandaydir bir ovoz.

- Qaddingni rostla, - dedi ikkinchi ovoz.

- Boshingni ko'tar!

- Tushkunlikka berilma!

- Ota-bobolaring ruhi madadkor bo'lsin!

- Axuramazdaning o'zi senga yor bo'lsin, - degan nidolar qaydandir keldi.

Spitamen hushyor tortib ko'zini ochdi, qaddini rostladi. Tevarak-atrofga boqdi, hech kim yo'q, haykallar orqada qolib ketgan... Yuragi urib ketdi-yu, dadil tortib otiga qamchi bosdi. Bir zumda o'z qarorgohiga yetib bordi, ichkarida chiroq yonmoqda, demak, hayot bor, odamlar bor. Shoshgancha o'toviga kirdi. Uch o'g'li, xotini gulxan atrofida uni kutib o'tirishibdi. Demak, olov yonmoqda, farzandlari sihat-salomat, hali kurash davom etadi...

- Ota, - dedi Ramu.

Pahlavondek o'g'illari otasiga yopishib, uni o'rab olishdi. Odatida erining jang anjomlarini olib, bir chekkaga qo'ydi.

- Azizim Spanta, sog'misan, Axuramazdaning. o'zi asrasin seni, - Odatida yig'lab yubordi.

Spitamen oila davrasida o'ziga kelib, g'am-alamlari tarqalgandek bo'ldi. o'zi uyi, oilasi, bir-biridan shirin farzandlari, axir bunday zo'r baxt dunyoda bormi? Ha, tinch, osoyishta hayotga ne yetsin? Qani endi shunday bo'lsa... Bu tinchlikni kimlar buzdi. Kimga qon kerak, kimga non. Qulog'i ostida: «Sen Sug'diyonaning sofdil o'g'lonisan... Ota-bobolaring ruhi senga madadkor bo'lsin», degan nido hamon jaranglardi.

Spitamen kichik o'g'li Ramushni tizzasiga olib, erkalab o'tirdi. Keyin xizmatkorlar keltirgan ovqatdan bir oz tanovul qilgan bo'ldi. Musallas olib kelishdi. Chanqoq, horg'in, ezilgan yuraklar qizishib, qandaydir ezgu hissiyotlar uyg'ondi. Bu yog'i nima bo'ladi endi? Oksiart qayga ketdi. Nega ikkilanib yuribdi u. Xorien-chi? Axir ikkalasining qo'shinlari birlashganda har qanday dushmanga ham zarba berish mumkin edi-ku! Nega bir musht emasmiz, bizni bo'lib-bo'lib yemoqdalar, talamoqdalar.

Aqlsiz, qo'rqoq odamlar butun elimizga isnod keltirishmoqda. Hamma gap anavi Oksiartda, uni Ayshma buzyapti. Nega o'shanda unga murosasizlik qildim, kimning hurmati uchun, o'sha go'zal Ravshanak uchunmi? Endi bo'lsa azobini tortmoqdaman, qayerda ekan o'sha xayolimni olgan gulyuzli sarvmoz! O, uni o'ylasam yuragim yonadi. Bugun qaysi kun o'zi? Spitamen barmoqlarini birma-bir bukib chiqdi, darvoqe uchrashuv shu bugun-ku! Meni intizorlik bilan kutadi bugun. Mana, jang-u jadal tufayli anchadan beri Ravshanakni ko'rolmadim. Oldingi hafta uchrashuv kuni bechora qiz uni zoriqib kutgan bo'lsa kerak, bora olmadi. Mana bugun ham yana kutadi...

Birdan yodiga bir narsa tushib, **qoldi**: mulozimlariga o'shanda zindon qilingan makedon ayg'oqchisini o'z huzuriga olib kirishni buyurdi. Odatida farzandlarini olib qo'shni o'tovga chiqdi

Mulozimlar ayg'oqchini olib kelishdi. Soqollari o'sib, ozib-to'zib suyagi et-etiga yopishib ketibdi. Zo'r-bazo'r oyoq bosadi. Qarashga ham, so'zlashga ham madori yo'q.

– Ha, aqling joyiga keldimi endi, balki ism-sharifingni aytib, o'zingni ma'lum qilarsan?

– Senga bu nega kerak... nom-nishonsiz u dunyoga keta qolay... qiynama meni... – dedi zo'r-bazo'r ayg'oqchi.

– Semi o'ldirmayman, endi ozodsan, yo'lingga ketaver, qayga borsang ixtiyor o'zingda.

– Shunchalik ekan... nega menga bir yil do'zax azobini berding, qiynading...

– Qaysarligingdan tusharsan deb, inson sifatida mulohaza qilarmikansan deb...

– Men ham inson... farzandiman... ammo men jangchiman, ulug' Iskandarga sodiqman, shundayligimcha... qolaman, unga xiyonat... qilmayman... Agar mening... Ha, mening o'rnimda sen bo'lsang ham shunday... qilgan... bo'larding...

– Sen e'tiqodliman deb adolatsizlikka, nohaqlikka xizmat qilmoqdasan!

– Qanday adolatsizlik, qanday nohaqliq. Iskandar jahonga hokim... bo'lishi kerak... Buyuk maqsad yo'lida... qirg'inlar, vayrongarchiliklar... bo'ladi... biz ana shu ulkan ishlardagi yo'lni adolat deb bilurmiz.

– Hali aqling joyiga kelmabdi, endi senga omonlik yo'q, sen juda xavfli odam ekansan!

Spitamen o'z fikridan qaytdi, demak, Iskandarning g'oyasi buzuq, uningcha jahonga hokim bo'lish yo'lida butun butun ellar-elatlar, xalqlar qirilib ketishi kerak. Odamlarning kallasidan minor qilib ustiga chiqib o'tirmoqchi:

– Hoy, kim bor, – baqirdi Spitamen.

Mulozim kirdi.

– Bu chirkin maxluqning boshini tanasidan hozirning o'zidayoq judo qil!

– Rahmat... Meni shuncha qiynamay... allaqachon...

– Yo'qotinglar ko'zimdan!

Mulozimlar ayg'oqchlarni sudragancha olib chiqib qatl etishdi.

Spitamen qarorgohdan chiqib, Qorasochni mindi-yu, «Xorien qoyasi» qaydasan, deb yo'lga tushdi. Odatida qo'shni o'tovdan chiqib orqasidan kuzatib qoldi.

Spitamen cho'l bo'ylab o'sha yo'l bilan ketdi.

Mana, yana o'sha bepoyon dasht-u biyobonlar, o'sha tanish-qadrdon yo'llar. Xuddi o'tkinchi, foniylar dunyodek. Bir ko'rgan narsangni ikkinchi bor uchratmaysan, umrbod shunday bo'ladi. Hatto o'sha vahshiy bo'rilar ham bu kecha qaygadir yo'qolgan. «Qayerga goyib bo'lishibdi, ochko'z bo'rilar, nega izma-iz quvishmaydi meni», – yo'lga tanho borishning qizigi yo'qdek tuyuldi Spitamenga! Eh-he, ov qilishni qanchalik yaxshi ko'rardi u. Endi shikorga borish uchun vaqt qayda deysiz, ko'ngilga ham sig'maydi, ha, mavrudi ham emas... Spitamen otiga qamchi bosib, xuddi shamoldek yelib ketmoqda. Uzoq yurdi, fikrlari chuvalashib, xayoli bo'lindi. Qarshisida tuya mingan bir odam unga tomon kelmoqda. Kim ekan bevaqt, bemavrud, yurishlari negadir bezovta, shoshilinch, qayerga ketyapti shunchalik shitob bilan bu odam? Tuya ham shunchalik tez chopar ekanmi, o'yladi Spitamen. Yana bezovtalandi, yuragi noxushlikni sezgandek... O'sha, ha xuddi o'sha, «Sug'd qoyalari»da ko'rgan mo'ysafid, Axuramazda yuborgan, endi qaytib keldi-da, ajabo, Dariyodning o'zi-ku!

Tuyakash yaqinlashdi. Mana, o'sha tanish ovoz, o'sha tanish samimiy so'zlar...

– Ayo do'stlar, birodarlar. Men na qilay, cho'lda qolgan bir Dariyodman.

– Ey donishmand, ayt-chi menga, bu dunyoning so'nggi bormi? Charxi kajraftorning boshlanishi qayda o'zi? Mayli yorug' dunyo bizning oshyonimiz bo'lsin, boshqa dunyo bormi o'zi? Afsun o'qib, duolarga bizmi belab, bu dunyodga azob cheksang, u dunyoda rohat ko'rar sho'rlik boshing, deb aytsalar, Shu so'zlarga asos bormi, rostmi o'zi, bilasanmi, u dunyoning borligiga ishonchlaring komil bo'lsa, nega o'zing gunoh qilib, odamlarga ravo ko'rding yomonlikni? Yolg'onchilik qilib doim sho'rliklarni aldab yursang, o'zing o'yla, o'sha do'zax azobiga tushmaysanmi? U dunyoda jannat bo'lsa nega o'zing gunoh qilding, odamlarni ig'vo qilib, zugum qilding? Do'stlaringga behurmatsan! Xo'sh, javob ber, xalq hukmiga qo'yib seni so'roqlayman.

Qancha-qancha donolar ham boshqa dunyo orzusida qora go'rga kirib ketdi, agar bitta odam qaytib kelsa edi u dunyodan, jannat nima, do'zax nima o'z ko'zi-la ko'rib bizga aytsa edi, hamma narsa hal bo'lardi, yolg'onchilar iblis kabi xor bo'lardi. Ming afsuski, keksa tarix bu savolga javob bermas, biror toshda yo terida u dunyodan qaytib kelgan inson zoti to'g'risida shu damgacha yozilmagan, biror quloq eshitmagan! Balki bundan keyin ham qaytib kelmas biror kishi xabar bilan u dunyodan!

– Salom senga, dono padar!

Yo'lovchi Spitamenmi darhol tanidi.

– Azizim, pahlavonim, bormisan o'zi!

– O, padari buzrukvorim, sizni menga Axuraning o'zi yubordi, siz menga juda ham zarur edingiz, yuragida quyosh chiqqanday bo'ldi Spitamenning.

Dariyod tuyadan tushib Spitamenni quchoqladi. Ikkovlon ota-boladek bir-birlari bilan ko'rishishdi.

– Yo'l bo'lsin, o'g'lim? – so'radi Dariyod.

– Balki ularni ko'ndirarman. Oksiart bilan Xorien yoniga, yana bir yo'la... dedi Spitamen ma'yuslik bilan.

– Ey pahlavonim, bu shahdingdan qayt, u yoqlarga bormay qo'ya qol, yaxshisi birga qaytib ketaylik.

Dariyod nega bunday deyapti deb, Spitamen hayron bo'ldi.

– Nima gap o'zi, o'rtangan yuragimni qiynama.

– O, o'g'lim, aytsam tilim, aytnasam dilim yonar, bilasanmi, Oksiart Iskandarga taslim bo'ldi, kelishuvchilik yo'liga o'tdi. O'z sadoqatining ramzi deb qizi Ravshanakni podshohga xotnnlikka berdi. Ikki o'g'li endi Iskandarning qo'shinida xizmat qilmoqda...

– Nima? Nima dedingiz?

– Ha, shunday, eshitishimcha Iskandarning o'zi ham Ravshanakni sevib qolgan, hatto uni o'z nikohiga olmoqchimish.

– Qanday og'ir fojia bu, qanday g'alamislik bu! Undan ko'ra bagrimni yorib tashlanglar, ey ablahlar! Ey gardun ustimga yiqil! – Spitamen hayajondan o'zini qayga qo'yarini bilmasdi.

Spitamen qumga ag'anab, o'zini har tomonga tashlar, kaftiga qum olib boshlaridan sochardi. Bu mash'um xabar o'lganning ustiga chiqib tepgan bo'ldi. Endi dunyodagi o'zi uchun eng aziz narsasini yo'qotib qo'ygandi. Qumga bag'rini bergancha qimir etmay qoldi, go'yo uningchun hayotning ham, yashashning ham qizig'i qolmagandi.

Dariyod Sug'diyonaning buyuk farzandiga qaragancha bosh egib, yuragini bir oz bo'shatib olsin degancha jimgima turdi...

– Qo'y, o'g'lim, xafa bo'lma, bunday alam chekish senga yarashmaydi, falakning qilmishiga tan bermoq darkor...

– Ey sen jahongashta, zardo'shtlikning buyuk ixlosmandi, menga ayt-chi, bu dunyoda haqiqat degan narsa bormi o'zi yoki hamma go'zal, hamma noyob narsalar zo'rmikimi? Aqling xazinasini ochib, menga bir maslahat, najot yo'lini topib ber!

– Tur o'rningdan, o'g'lim, sen ham, men ham haqiqatga yeta olmaymiz, faqat hayotning o'zi bunga qodir, buyuk va, g'olib Axuramazdaning o'zi hal etadi.

– Nimani o'ylaylik, qani ayting-chi, Xorien qayerda? Nega u Oksiartni yo'ldan qaytarmadi?

– Oksiart Xorienni ham shunga ko'ndirdi...

– O, Axura, o mening tangrim, undan ko'ra tezroq jonimni ol, quloqlarimni kar qil, tillarim soqov bo'lsin, mayli. Men

kinga yomonlik qildim, axir, sevgilim, ham, do'stlarim ham meni tashlab ketsa! Bu tashvishlarga, g'am-alamlarga qanday qilib chiday endi, otaxon!

– Ey o'g'lim, azizim, bir oz o'zingmi bos, asablaringga erk berma, sen ahir Sug'diyona elining taqdiri uchun javob berishing kerak, hamma senga ishonadi. Butun umidimiz sendan-ku!..

– Qanday qilib o'zimni bosay, so'nggi umidlarim ham yo'qqa chiqyapti, men o'ylagan narsalar sarob ekan. Ishongan tog'larim meni himoya qilmadi. Muhabbatim bo'lsa bahor ko'rmadi...

Spitamen turgan joyida osmonga qaragancha haykaldek qotib qolgandi. G'am-alam, tashvish uning pahlavondek qomatini xam qilib kichraytirib qo'ygandek. Hammayoq bo'm-bo'sh, ma'nosiz. Hozir uning ustiga tog' yiqilgandek. Spitamen otning jilovini burib, noumid orqaga qaytdi, yo'l-yo'lakay o'zi bilan o'zi so'zlashib borardi.

– Ey, Oksiart. Seni bilmagan ekanman, sotqin ekansan. Sen bilan bitta buloqdan suv ichmayman, bitta gulxan atrofida o'tirmayman. Sen bosgan izlardan yurmayman. Mening borar manzilim ham boshqa. Sig'inadigan xudolarim ham, mozorlarim ham boshqa. Ulug' Axura sening jazoingni bersin, ko'rshapalakdek yorug'likka qaray olmaysan, undan qochasan, qorong'i bo'lishini kutasan. Sotqin! Tarix seni la'natlaydi!

Spitamen g'azab-nafratga to'lib, el-yurtga sotqinlik qilganlarni la'natlab borardi. Uning abjir, vafodor tulpori Qorasoch ham o'z egasining hozirgi ayanchli ahvoliga kuyib-pishgandek kallasini sarak-sarak qilib qum tepaliklar ustida ma'yus borardi.

Dariyod bo'lsa o'zining shunchalik boy aql xazinasidan Spitamenni yupatish uchun so'z topolmasdan izma-iz jim borardi. Endi uning qiziq hangomalari, hikoyatlari, rivoyatlari, latifalariga o'rin yo'q... Spitamen o'zi uchun ma'nosiz bo'lib qolgan hayot haqida o'nlar ekan, go'yo bu dunyodan tashqari yana bir olam, yaxshilik, adolat hukmron bo'lgan boshqa bir jahon borga o'xshardi. Qorong'ulik quyuqlashishi bilan osmon yulduzlarga to'lib ketdi. Kuzning tiniq samosida sayyoralar yana ham yorqin, yana ham go'zal jimirlaydi.

Spitamen samoga boqib qasamyod qiladi. Endi dushmanga ayov yo'q. Bo'lajak janglar yana ham qattiq bo'ladi. Mayli, Xorien ham, Oksiart ham o'z ellariga xiyonat qilaversin, sodiq do'stim Datafarn bor, u ajoyib do'st, u meni hech qachon yolg'iz tashlab ketmaydi. Essiz-essiz Zo'rtosh, mening sodiq do'stim, elga mashhur pahlavon, mardlarcha halok bo'ldi. Anavi qahramon Sherdor-chi, el uchun jon berdi. Qondoshlarim massagetlar bilan yana so'zlashaman ularning hammasini bir joyga jamlayman, bir tan, bir oila bo'lib kelgindilarning sho'nday adabini beraylikki, hamma qoyil qolsin, Ravshanakni ham qutqaraman!

Shularni o'ylab, Spitamenning ruhi yengillashganday bo'ldi, umid uchqunlari qalbining allaqayerlarida alanga oldi, dadillashdi. Orqasiga qarab Dariyodga dedi:

– Yuring, padari buzrukvor, hali bizni katta ishlar kutadi, mayli sotqinlar Ayshmaning qahr-g'azabiga o'chrasin. Jang davom etadi. Mayli, jonimiz qurbon bo'lsin el-yurt uchun! Tangrim, ajdodlarimiz ruhi bizga madadkor bo'lsin!

Spitamen o'z qarorgohiga yaqinlashdi, qandaydir bir qora sharpa lop etib orqaga o'tgandek bo'ldi. «Kim o'zi, odammi, ins-jinsmi yoki buzg'unchi qallob?» – o'yladi Spitamen.

– Hoy, kimsan, soqchilar bormi bu yerda?!

Ichkaridan qora qul yugurib chiqdi.

– Soqchilar qami? – so'radi Spitamen.

– Shu yerda edi, ulug' zot, – dedi chaynalib qulvachcha.

Spitamen otidan tushmay qarorgoh atrofini bir aylanib chiqdi. Hech kim yo'q, sharpa g'oyib bo'libdi. Balki shunchaki ko'ziga biror narsa ko'ringanday bo'lgandir, balki cho'ldan biror o'lja, tamaddi axtarib kelgan och bo'ridir.

Dariyod ham tuyasini bir chekkaga cho'ktirdi.

Shu payt Spitamenning ovozi eshitib soqchilar ham qayerdandir paydo bo'lishdi, chekkadagi xizmatkorlar uchun ajratilgan chodirda o'tirishgan ekan.

Mulozimlar sarkardaning otini olib, bir chekkaga bog'lashdi. Spitamen o'zini ichkariga oldi.

– Keldingmi hartugul, Spanta, azizim, – dedi Odatida o'rnidan turib.

– Biror odam yo‘qmidi bu yerda, – so‘radi Spitamen.

– Yo‘q... o‘zim yolg‘izman, – dedi Odatida.

Odatidaning kayfiyati yaxshi emasdi, yig‘lagamidanmi ko‘zlari qizarib ketgandi.

– Musallas keltir, – dedi Spitamen xizmatkor qulga avzoyi buzilib. Spitamen horg‘in kayfiyatda gulxan yonidagi yumshoqqina po‘stakka tiz cho‘kdi.

– Yemak keltiringlar, anavi Dariyod ham kirsin!

Gap tugamasdanoq poygakda Dariyod paydo bo‘ldi:

– O, Axuramazda, o‘zing shafqat qil, – Dariyod kirib bir chekkaga cho‘kdi-da, Spitamenga yuzlanib:

– Dunyoda qiziq rivoyatlar bor, men senga bobolaring Siyovush haqidagi bir hikoyatni so‘zlab beray, – dedi...

– Qani so‘zla, qulog‘im senda, hoy, taom, ichmak keltiringlar, – dedi Spitamen.

Ramush degan joyda Kaykovus degan pahlavon yashardi. Agar gurzi ursa yer yorilib ketar, toshni qo‘li bilan siqsa suvini chiqarib yuborardi. Bir o‘zi lak-lak lashkarlarga teng kelarkan. Uning lashkarlari ham juda ko‘p, olmagan shahri, zabt etmagan qal‘asi qolmagan.

Kaykovus qirq yoshida bir farzand ko‘rdi. Oy desa yuzi, kun desa ko‘zi bor edi. Uning ismini Siyovush qo‘ydi. U oy saym emas, kun sayin o‘sib, tezda balog‘atga yetdi. Sakkiz yoshida kamon otishni, o‘n yoshida nayza sanchishni o‘rgandi. Ot chopishda, qilichbozlikda hech kim unga teng kelolmasdi. Xullas, Siyovush otasidan ham kuchli qahramon bo‘lib yetishdi. U kuchini qayerga sig‘dirishini bilmay, cho‘lga chiqib ajdaholar bilan olishar, tog‘larga borib devlarning adabini berardi. U otasi bilan kelisholmay, oqibat Afrosiyob shahriga ketib qoldi. Shunda Afrosiyob degan podshoh uni ko‘rib, havasi kelib, qanday qilib bo‘lmasin pahiavon yigitni o‘ziga bo‘ysundirishni o‘ylab, go‘zal qizini xotinlikka berdi. Ammo bu ishi uchun keyinchalik o‘zi afsus qilib, negadir niyati buzildi. Chunki Siyovush o‘zi-ning dilovarligi, sohibqironligi bilan el o‘rtasida obro‘-e‘tibor qozongandi. Bundan Afrosiyob qo‘rqdi. Tag‘in podshohlikni olib qo‘ymasa, deb xavotirlandi. Chunki Siyovushga teng keladigan pahlavon dunyoda yo‘q edi. Bir na‘ra tortsa xuddi

osmonda mo'inaqaldiraq gumbirlagandek bo'lardi, o'q-yoy otsa bulutlarni teshib o'tib ketardi. Qilich ursa yashin chaqnagandek o't chiqardi. Devlar unga yaqin kelisholmagan, ajdaholarga qarshi qo'rqmay jang qilgan. Dushmanga bardosh berolgan ham, uni yenggan ham Siyovush edi. Qudratli Eron shohi ham Siyovushdan qo'rqardi. Xullas Afrosiyob uning obro'sidan, qahramonliklaridan qo'rqib, g'aflatda qoldirib nomardlik bilan boshini qilich bilan kesib o'ldirdi. Siyovushning munofiqona o'ldirilganligi haqidagi xabar butun Turonga yoyildi. Otasi qon-qon yig'lab, uning o'ligini Ramushga olib kelib ko'mdi. Siyovush haqida qo'shiqlar to'qiddi. «Mug'lar yig'isi» deb atalgan qo'shiq ana shu pahlavonning nomiga zikr etilgan...

Dariyod jim bo'lib qoldi.

– Xo'sh, keyin-chi...

– Buning ma'nosi shulkim, ulug' pahlavonlar ham shunday munofiqona hirslarning qurboni bo'lib ketadi...

– Ey padari aziz, bu hikoyating yuragimni ezdi, menga ayt-chi, agar men halok bo'lsam qabrim ustida «Mug'lar yig'isi» qo'shig'ini kuylaysanmi, shunga va'da berasanmi?

Dariyod Spitamenga qarab turdi-yu, bir oz ko'ngli ranjigandek:

– Ey, pahlavonim, sen quyosh o'g'lisan-ku, ulug' Axuramazdaga qasam ichamanki, sen o'lmaysan, ko'p yashaysan, – dedi qat'iylilik bilan...

Xizmatkorlar dasturxonga yemak-ichmak va katta mis barkashda endigma qozondan olingan mol go'shti keltirishdi. Xonaga ishtaha tarqatuvchi yoqimli bo'y tarqaldi. Spitamen Dariyodga ishora qilgan edi, u qo'l ochib duo o'qidi. Keyin qo'limi labiga, ko'ziga qilib Spitamenga yuzlandi. Ular dasturxondagi noz-ne'matlardan olib o'tirishdi. Keyin Spitamen ikkita kosaga musallasni to'ldirib, bittasini Dariyodga uzatdi, ikkinchisini qo'lga olib uh tortdi-da, bir ko'tarishda shimirib yubordi. Dariyod ham shunday qildi.

Spitamen yonidan xanjarini olib, go'shtning katta bo'lagini ajratib yeya boshladi, hamsuhbatiga ham o'zidan o'rnak olishga ishora qildi, Xonaga jimlik cho'kdi. Ular ovqat vaqtida bir og'iz ham so'zlashmadilar.

Emak tugadi. Yana sharob keltirishdi. Gul kosalar to'ldirildi.

– Qani, endi toringni ol, aziz padar, yuraklarim pora-pora bo'lib ketdi, bir kuy eshitay, zora bir oz bo'lsa ham dard-anduhlardan forig' bo'lsam...

Dariyod o'rnidan turdi-da, torini olib keldi. Mungli musiqa butun xona bo'ylab yangray boshladi. Sehrli sado yurakning eng nozik pardalariga borib urilar, kishida ajib bir hissiyot uyg'otardi...

Yig'loqi ohang yuraklarmi yondirdi, dardga-dard qo'shdi. Spitamen kosami yana to'ldirib shimirdi, og'ir, g'amgin kuy ta'siridanmi, nomusdanmi ko'zlari yoshiandi. U hech qachon bunaqa ko'z yoshi to'kmagan, hayotida birinchi bor shunday bo'lishi, negadir yuragi to'lib ketdi, ezildi. Balki bu bilan kuni kechagi ayovsiz jangda halok bo'lgan ming-minglab vatandoshlariga aza tutayotgandir, yoki bo'lmasa Sug'diyona elining ayanchli taqdiri, el-yurtining ahvoli yurak-bag'rini ezayotgandir. Balki o'zining sho'r qismatidan zorlanib, tashlab ketgan do'stlariga la'natlar o'qiyotgandir. Yoki bo'lmasa Ravshanakning ayanchli taqdiri, sarob bo'lgan sevgisi uchun dildildan nola qilayotgandir.

Spitamen ko'p ichsa ham hamon tetik. Musailas unga negadir hech kor qilmasdi, ko'zani bo'shatdi-yu, «yana musallas» deb baqirdi. Xizmatkor yana bir ko'zani olib kelib qo'ydi. Spitamen Dariyodning nozik kuylarvga tebramib, o'zini to'xtatolmay bosib-bosib ichaverdi...

– «Mug'lar yig'isi»mi chal... padar... buzrukvor... yuraklarim... Eh-he, ichim yonib ketyapti...

Dariyod torni qayta sozladi-yu, Spitamenga bir oz qarab turdi. Ulug' sarkardaning ko'zlari yunilgan, yuzlarida iztirob-alam... Dariyod «Mug'lar yig'isi»ni chalib, astagina xirgoyi qila boshladi. Xonaga motam cho'kkandek bo'ldi... Ko'ngil yig'laydi, butun olam, dunyo yig'laydi... G'am-alamga to'lgan yuraklar unsiz ingraydi.

Vaqt yarim kechadan og'ib qolgach, beto'xtov shimirilgan bodadan bo'shashgan Spitamen yostiqqa yonboshlagancha uyquga ketdi. Uning yumilgan ko'zlarida yosh tomchilari qotib qolgandi... Dariyod qo'shig'ini tugatgach, torini olib sarkardani-bezovta qilmay tashqariga chiqdi. Odatida erining ustiga po'stin

tashlab qo'ydi-da, bir chekkada yotib qolgan Ramuni yetaklab, o'z o'toviga chiqib ketdi...

Odatida bolasini yotqizib, o'zi xira yonib turgan sham qarshisiga cho'kkaladi. Ko'ngli bezovta, xayoli parishon, oqsoqollar xanjamansi vakil qilib yuborgan daxning so'zlari yodiga tushib, o'zini qayerga qo'yarini bilmay asabiylashardi. Spitamen kelishdan bir necha daqiqa oldin qarorgoh oldida soyadek g'oyib bo'lgan o'sha vakil edi...

– Mening ismin Bastvar, senga xanjamana nomidan keldim, endi Iskandarga qarshi urushishning foydasi yo'q deyishyapti, eringga aytar emishsan, qilmishlari uchun Iskandardan uzr so'rasin, bo'lmasa...

– Yaxshisi, kallang borida bu yerdan jo'nab qol, mening erim sotqin emas anavi Oksiartga, Xorienga o'xshash. O'sha Oksiart yaxshisi qizi Ravshanakni Iskandarga qo'shsin-da, o'zi uning oyog'ini o'pib yuraversin.

– O'zing qanaqangi bemehr ayolsan, bolalaringni o'ylamay-sanmi, ularning uvoli tutmaydimi?

– Nega uvoli tutsin, – so'radi Odatida taajjub bilan.

– Agar Spitamen xanjamana qaroriga rozi bo'lmasa, qatl etiladi, o'g'illarim omon qolsin desang, uni o'zing o'ldirasan, kaylasini Iskandarga olib borasan, mol-dunyoningga tegmaymiz.

Odatida baqragancha Bastvarga qarab qotib qoldi, «buolchoq, sotqin nima deyapti o'zi, hozir sogchilarni chaqirib shunday adabini berayki, umr bo'yi esidan chiqmaydigan bo'lsin», g'azablandi Odatida.

Bastvar ayolning betoqat bo'layotganini sezib, ovozin sekilashtirdi:

– Sogchilarni chaqirib, g'ovg'a ko'tarishni o'ylama, naritroqda mening odamlarim kutib turishibdi, xomtama bo'lma, hammasi o'ylab qo'yilgan. Agar bizniqg aytganimizga ko'nmasang, uchala o'g'lingni cho'lga olib borib ertagayoq qatl etamiz. Bu mening fikrim emas, xanjamananing qarori shu! Bilaman, eringni yaxshi ko'rasan, lekin u Ravshanakni sevadi-ku, hozir ham o'shani deb «Xorien qal'asi»ga ketdi. Nahotki shuni bilmasang; tushunmasang, butun Sug'diyonaga ma'lum-ku ularning oshiq-ma'shuqligi!

Odatidaning yodiga anavi Babaxning so'zlari tushdi. O'sha ham shu gaplarni aytgandi, Spitamen uni sotqinlikda ayblab qovogariga chaqtirib o'ldirdi. Balki, shunday gaplarni tarqatib yurganligi uchun yo'q qilgandir. Odatidaning fikri yana buzildi, dunyoning, odamlarning, ayniqsa o'zining qardoni, turmush yo'lidoshining bevafofigidan ko'ngli g'ashlandi, rashk olovida qovrildi.

Bastvar bo'lsa Odatidaning hayajonli kayfiyatini sezdi-yu, o'tovdan chiqayotib:

– Biz shu yerdamiz, hammasidan boxabar bo'lib turamiz, – dedi qat'iy.

Odatida pirpirab yonayotgan shamga qarab duo o'qiy boshladi. Uning yuzlari sham yog'dusida yana ham hayajonli tus olgandi, asablarining tarangligidan lablari lablariga tegmay pichirlardi...

Musibatli kuzning qorong'i tunidagi voqealar shu yerda to'xtasinu endi biz tantanalar kechasiga tashrif buyuraylik. Bu kecha Oksiartning sariyida katta ziyofat, bazm, jahon podshohi Iskandar bu kecha Oksiartnikiga mehmonga taklif etilgan.

Dasturxonlarda turli-tuman meva-chevalar, yangi so'yilgan qo'y, mol, parranda go'shtlaridan tortib, dudlangan yaxnalargacha hamma narsa muhayyo. Katta doshqozonlarda turli taomlar tayyorlanmoqda, xizmatkor qullarning qo'lli-qo'lliga tegmaydi. Chekkadagi maxsus tayyorlangan shohsupada mashshoqlar, qo'shiqchilar, raqqosa qizlar o'tirishibdi. Ziyofat uchun hamma narsa muhayyo, endi Oksiartning intiqib kutayotgan aziz mehmoni kelsa bo'lgani. Oksiart Iskandar huzurida uzr so'rab, o'zining taslim bo'lganligini bildirgandi, podshoh unga ko'p navozishlar ko'rsatib, hokimlik lavozimini berdi. Uch o'g'lidan ikkitasini makedon qo'shinlari safiga xizmatga oldi, bu kungi tantananing boisi shunda.

Kechqurun Iskandar o'zining yaqin aqrabolari, sarkardalari, lashkar boshliqlari bilan Oksiartnikiga tashrif buyurdi. Doriyo-vushning go'zal xotini, ikki qizini ham o'zi bilan birga olib keldi.

– Qadamlaringizga hasanot ulug' podshohim, – dedi ta'zim bilan Oksiart va Iskandarni mehmonxona to'ridagi zarrin taxtga o'tqazdi.

Mehmonlarga chanqov bosti uchur sharbat tortildi. Keyin turli taomlar birin-ketin kela boshladi. Ayniqsa qo'rga ko'mib pishirilgan yovvoyi to'ng'iz go'shti Iskandarga juda yoqib tushganligi uchun yonidan xanjarini olib, o'z qo'li bilan Doriyovushning xotiniga va qizlariga ham bo'lib-bo'lib berdi.

Oksiart har zamon-har zamon kelib podshohga tashrif uchun ming bor qulluq qilib minnatdorchilik bildirardi.

– Ko'ngillari yana nima istaydi, ulug' podshohim, – dedi u Iskandarga mulozimmat ko'rsatib.

– Qani, yonimga o'tir, senga aytadigan bir-ikki og'iz gapim bor, – dedi Iskandar.

– Bosh ustiga, – dedi Oksiart qulluq qilib.

– Sen Xorienga ayt, podshoh senga yomonlik istamaydi de, huzurimga bemalol kelaversin. Ammo anavi Sisimifr-chi, taslim bo'lmasa o'zim borib jazosini beraman, butun oilasi bilan qoyadan tashlataman. Agar o'z ixtiyori bilan qal'ani menga topshirsa, senga qilganimdek, hokimligini o'ziga qaytarib beraman.

– O'zining shunga moyilligi bor, ulug' podshoh, ammo bilasizmi, onasi rozi bo'lmayapti, – dedi Oksiart.

– Iya, nega onasining so'ziga quloq berib o'tiribdi, esi bormi o'zi? – dedi Iskandar bir oz qizishib.

– O'zim tushuntiraman, qal'ani topshiradi, – dedi Oksiart Iskandarning ko'nglini tinchitib.

Oksiart podshohga qulluq qildi va uning imosi bilan mashsboqlar qandaydir kuyni boshlab yuborishdi.

Bazm qizib ketdi, chiroyli kiyimgan, qaddi-basti kelishgan o'ttizta go'zal qiz mehmonxonada paydo bo'lganida hamma hayratda qoldi. Bu Oksiartning podshoh ko'nglini olish maqsadida atayin rejalashtirgan ishi edi. Ana shu qizlar guldastasi ichida Oksiartning sevimli qizi Ravshanak ham bor edi. Qizlar did bilan tanlangan, bir-biridan go'zal, ammo ular ichida kechaning yulduzi Ravshanak o'z chiroyi, husn-kamoli bilan hammadan ajralib turardi.

Ravshanak kirishi bilan bazm kechasiga fayz yog'ildi, o'z chiroyi bilan barchani maftun etdi. Hatto Iskandar ham qizga besh ketdi. Yonginasida qizlari bilan o'tirgan, husn-

jamoli hammani maftun etgan «Osiyodagi eng go'zal ayol» Doriyvushning xotini ham uni qiziqitirmay qo'ydi.

Iskandar bir ko'rishdayoq Ravshanakka ko'ngli tushib qolgandi. Endi nima qilsin, yaxshisi uylanadi-qo'yadi-da, ha, qonuniy ravishda xotin qilib oladi, axir butun Baqtriya, Sug'diyona uning oyog'i ostida-ku, dunyo mulkiga xo'jayin bo'lgan jahongir, husn mulkiga ham hokim-ku! Albatta, makedoniyaliklar bunday nikohdan norozi bo'lishlari mumkin, xo'sh, sevib qolgandan keyin, «yovvoyi»ning qizimi, boshqami, bari hir emasmi? «Nikoh qilib olaman dedimmi, olaman, podshohning amri vojib», dedi Iskandar o'ziga-o'zi. Axir ulug' Ahil ham asira qizga uylangan, Iskandar shunday fikrni xayolidan o'tkazdi-yu, dast o'rnidan turib ketdi.

– Bir daqiqa, quloq beringlar! – bazm ahliga murojaat etdi Iskandar.

Podshoh nima deyarkin, deb hamma uning og'ziga qarab turishardi.

– Men, azizlarim, hurmatli do'stim Oksiartning kechamiz yulduzi bo'lgan ana shu go'zal qiziga uylamishga qaror qildim, – dedi Iskandar qat'iylik bilan.

Mehmon va mezbolar hayratdan lol bo'lishdi. Doriyovushning xotini, qizlari Iskandarga tikilgancha qolishdi.

Oksiart voqeaning bunaqasiga burilib ketishini sira ham o'ylamagandi. Avvaliga podshohning to'satdan Ravshanakka uylamishga qaror qilganligidan ahli aqrabolar oldida gangib, ishonqiramay, garang bo'lib turdi. Keyin es-hushimi yig'ib olgach, butun olamni titratib turgan buyuk Iskandar birdaniga kuyovi bo'lib qolsa buni nimasi yomon ekan, bunday baxt har kimning boshlga ham qo'na bermaydi, deb o'yladi. Keyin es-hushi o'ziga kelib, hovliqqancha podshohning poyiga tiz cho'kdida, Iskandarning qo'llarini o'pa boshladi.

– Samidamita olib kelinglar, – dedi Iskandar va o'rtadagi qizlar guldastasi sari tantanavar yurib borib Ravshanakning qo'lidan ushladi.

– Menga qallig' bo'l, seni suyib qoldim, – dedi podshoh qizga.

Ravshanak otasining izmi bilan Iskandar ularnikiga ziyofatga kelar ekan deb eshitganda dugonalari bilan bazm

kechasiga eng yaxshi qo'shiqlar, raqslar tayyorlab, podshohni quvontirmoqchi, ko'nglini o'lmoqchi, iloji bo'lsa qoyil qoldirmoqchi bo'lgan edi. Qizning xayoliga boshqa hech narsa kelmagandi. Kutilmaganda podshohning unga xaridor bo'lib qo'lishi hamda uylanmoqchi bo'lganligi Ravshanakni esankiratib qo'ydi, chunki hayotida yetti uxiab tushiga kirmagan voqea yuz bergandi. Sho'rlik endi nimia qilsin, arz-dodimi kimga aytsin! Endi u shunday kuchli qo'lga tushib qolgan ediki, unga Nohid ham, Axuramazda ham shafqat qo'lini cho'zib olmasa kerak...

Ravshanakning ikki yuzi anordek qizarib ketgan, o'zini sevib, shu payt xaridor bo'lib turgan jahon shohiga tik qaray olmay iztirob chekardi...

Mulozimlar Makedoniya odatiga ko'ra oq ro'molchaga chiroyli qilib o'ralgan Samidaniga noni olib kelib Iskandarga tutdilar, podshoh bo'lsa yonidan qilichini sug'urdi-da, mulozim qo'lidagi nonni olib ikki bo'lakka ajratdi, yarmini Ravshanakka, yarmini esa o'ziga qoldirdi. Shunday qilib bazm kechasining o'zidayoq podshoh Oksiartning qiziga butun rasm-rusinlar bilan uylanib oldi.

Sug'diyaning bu chekkasida nikoh tantanasi, bazm borardi, ikkinchi yog'ida esa ayanchli voqea, sevgi va sadoqat fojiasining so'nggi bosqichi. Ha, dunyo ana shunday qurilgan, bir yoqda g'am-alam, ikkinchi yoqda bo'lsa to'y. Spitamen qarorgohida davom etayotgan fojia endi o'zining so'nggi, g'oyat ayanchli nuqtasiga kelgandi. Tun allamahol bo'lib qolgan, Spitamen kayf bilan xuddi yosh boladek pishillab shirin uyquga ketgandi. Odatida oyoq uchida xonaga kirib Spitamenning tepasiga kelib to'xtadi. O'tovning to'rt chekkasiga qo'yilgan mash'aladan faqat bittasigina milt-milt yonardi. Spitamen xafaqonlikda ko'p musallas ichib qo'rganligi uchun aftidan hech narsa bilmay toshdek qotib uxlardi.

Odatida mash'alaniqg xira yog'dusida erining yuziga termildi. Uning qop-qora, qalin sochlari patila-patila bo'lib, ustiga yopilgan po'stinga qo'shilishib ketgan, yuzlari samimiy kulimsiragandek.

Yovuz niyatli odamlar uning buloqdek tiniq, musaffo muhabbatiga og'u soldilar. Suyuklisi, bir yostiqa bosh

qo'ygan hayot yo'ldoshi haqidagi mish-imish gaplarga avvaliga ishonmadi. Ig'volarga vaqtida yaxshilab javob berdi, chunki Spiltamen bilan shu vaqtgacha o'rtalarida birorta nari-beri gap bo'lmagandi. Odatidaning qalbi taqdiri Spitamen bilan abadiy birlashib ketgandek edi, g'alamis odamlar turli yo'l bilan Odatidaning ko'ngliga g'ashlik soldi. Muhabbatga zang tushdi. Buning ustiga o'rtaga Odatida uchun dunyoda eng qadrli, eng suyakli mehribon farzandlari tushib qoldi, bolalari uchun bu ayol jonini ham berishga tayyor. Dunyoda ulardan yaqin, mehribon hech kim yo'q, axir farzandlari, jigarbandi, qalbining bir bo'laki-ku! Ammo Xanjamananing qarori bilan hazillashib bo'lmaydi, Odatida buni yaxshi biladi, qanchadan-qancha bechoralar uning hukmi bilan o'z ko'zi oldida qatl etilgan.

Odatida erining yuzlariga uzoq termildi, Bir narsa miyasiga qattiq urildi: «Nahotki shu bugun qal'aga, ma'shuqasi yoniga borib kelgan bo'lsa»...

Spitamen bilan shuncha yil shirin, totuv hayot kechirdi, lekin yuragidagi tobora yallig'lanayotgan nafrat alangasi sevgining nozik torlarini yondirgandek edi. Noyob, sof sevgi qattiq, shafqatsiz nafrat bilan almashingandi. G'azabli, nafratli muhabbat dillida g'alayon qilar, rashk qa'rida yonardi. Odatidaning fikrlari chigallashib, idora etish iplarining uchini yo'qotib qo'ydi, o'zini mutlaqo boshqarolmay merovlanib qoldi: Uni hech kim o'zi o'ylagan yo'ldan endi qaytara olmaydi, miyasiga ham, qalbiga ham bitta mudhish fikr singib berardi... Ikkala qulog'i chippa bitib, ko'z oldi qorong'ilashdi, go'yo yer qa'ridan chiqayotgandek noxush bo'g'iqlik bir ovoz keldi:

- Men Ayshma, men Ayshma!!

Odatidaning yuragida qo'rquv aralash qandaydir nafrat olovi yonardi. Bu g'azab o'ti kimga qaratilgan, o'zi ham bilmaydi....

- O'ldir uni, nima qilib turibsan!

- Oq sut bergan farzandlaring uvoli tutmaydimi!

- Axir ering seni sevmaydi-ku!

- Ravshanaksiz yashay olmaydi ul!

- Xanjamananing qarori esingdan chiqdimi?

- Spantani o'ldirmasang, uch o'g'ling, o'zing qatl etilasan.

– Spitamen senga xiyonat qildi!

– Men Ayshma, tezroq o'ldir umi!

Ayol fikri, qalbi Ayshma sochgan yomonlik og'usi bilan zaharlangandek edi...

Odatida ko'ylagi ichiga yashiringan o'tkir xanjarmi oldida, bir zarb bilan Spitamenning kallasini kesdi. Erining kuchli gavdasi bir silkinib tushdi, boshi yerda qolib o'zi o'rnidan turib ketmoqchi bo'ldi, lekin bu intilish uzoqqa cho'zilmadi, ag'darildi, boshi o'zidan sal naridagi dasturxon ustiga tushib, qon tirqirab oqa boshladi, xirillagan ovoz vahimali kechada yanada dahshatli eshitilardi. Sarkardaming katta-katta ko'zlari baqraygancha chiroqda yiltirardi. Qon hidi xonaga anqib ketdi.

Odatida negadir o'zini yo'qotmadi, qo'rqmadi ham, aksincha negadir dadillashib ketdi. Vazminlik bilan xizmatkor qulni chaqirdi. Ovozi xirillab qolgandek tnyuldi o'ziga. U ham shuni kutib turgandek yugurib Odatidaning yoniga keldi.

– Boshni mana bu ro'molga o'rab ol, qam tez, ketdik!

Ular yarim kechadan oqqanda o'tovdan chiqdi-da, oldindan tayyorlab qo'yilgan uchqur otlarda Iskandar qarorgohiga qarab yo'l olishdi.

Mana sizga fojia, hayotning qahrli, ayanchli damlari. Inson ba'zan o'z hayoti yo'lini ana shunday tugallab, bema'ni o'lim topadi.

Iskandarning mulozimlari shirin uyquda yotgan podshohni uyg'otishib, juda zarur ish bilan go'zal bir yovvoyi ayol yo'qlayotganligini xabar qilishdi. Podshoh o'z harbiy yurishlari davomida bunaqangi tasodifiy voqealarga o'rganib ketganligi uchun achchig'i ham kelmay, bema'lol turib, yo'qlayotgan ayol huzuriga chiqdi. Ayolning vajohati, ko'rinishi, asabiyati Iskandarga yoqmadi. Ayol uzoq yo'l yurganidan g'oyatda charchaganligi bilinib turardi. Chunki uning sochlari to'ng'ib ketgan, ustiga kiygan sarg'ishrang ko'ylagiga qon sachrab, unga qo'rqinchli gus bergandi. Iskandar avvaliga bu ayol eri bilan janjallashib, kaltak yeganlardan yoki birorta sarkardasi nomusiga tegmoqchi bo'lganda, uni o'ldirib kelganga o'xshaydi, deb o'yladi. Chunki, osiyolik ayollarning ko'nglini topmay, majburlagan makedoniyaliklar shunday ahvolga tushgan hollar ko'p bo'lgan.

– Sen kimsan? – so‘radi Iskandar.

Odatida Iskandarga javob berish o‘rniga orqasiga qarab:

– Antik, bu yoqqa kir, – deb eshik tashqarisida turgan qulni chaqirdi.

– Qaranglar, Antik kim o‘zi, – so‘radi Iskandar kechinmaga tushunmay va qarshisida mislsiz hayajonda turgan va o‘z qilmishi uchun podshohdan o‘zi ham bilmay nimadir kutayotgan sug‘d ayoliga razm soldi.

– Menga bevaqt va bemavrid qanday sovg‘a keltirgan eding, yovvoyi ayol? – so‘radi Iskandar.

– Spitamenning boshi, – dedi Odatida hayajonlamb.

Podshohning turgan joyida rangi o‘chdi. U taajjubda eshik tomonga tikilib qoldi.

Shu daqiqa ro‘molga o‘ralgan kallani ko‘tarib qul kirdi.

– Qani, ro‘molcham ko‘tar-chi, – dedi Iskandar ishonmay.

Qul qo‘lidagi boshni ochib ko‘rsatdi, Iskandar unga yaqinlashib, ko‘z tashladi. Haqiqatan ham kimningdir boshi, haq gap, ammo yuzlari qonga belanib ketganligi uchun tanib bo‘lmasdi.

– Bu kimning boshi, – so‘radi Iskandar.

– Spitamenniki, – dedi qul.

– O‘zing kimning qulisan?

– Spitamenning...

– Anavi ayol-chi, – so‘radi Iskandar Odatidani ko‘rsatib.

– Spitamenning suyuqlisi, – dedi qul.

– La‘nat bo‘lsm senlarga, suyuqli bo‘lmay o‘l, alvasti, – dedi Iskandar qarshisida turgan ayoldan nafratlanib.

Podshohning qoni miyasiga urilib, fikrlari chuvalashib ketgandi, shu topda na biror buyruq berishga, na harakat qilishga ojiz edi. Ko‘z oldi negadir jimillab ketdi, yuragida qandaydir qo‘rquv his etdi. Bir narsa yodiga kelib, qarshisida turgan qotil ayolga razm soldi, ajabo, anavi mening bu oqshom uylangan qallig‘im Ravshanakka o‘xshab ketarkan. Bu osiyoliklarning ayollari hech narsadan tap tortmaydi. Bu qanaqasi bo‘ldi? Tushimmi yo o‘ngim!?

– O tangrim, o, Zevs, bu dunyoda nimalar bo‘lyapti o‘zi? – Iskandar sinovchan ko‘zlari bilan Odatidaga qaradi.

- Uni sevarmiding?
- Jonimdan ortiq sevardim, o'zimni samoviy tuyg'ular bilan bog'lagandim unga...
- Bo'lmasa nega o'ldiring, - taajjublandi podshoh.
- Nihoyasiz sevganimdan... - dedi Odatida yig'lamsirab.
- Tushuna olmadim, - dedi Iskandar taajjubda.
- Sen tushunmaysan, tushunishga qodir ham emassan! - dedi sug'd ayoli. Bu safar uning ovozi titrab chiqdi.

Iskandarning miyasiga bir narsa urilgandek gangib qoldi. Jahongashtalik qilib, shuncha shaharlarni, ellarni zabt etib, odamlarga aql o'rgatib, endi bo'lsa bitta yovvoyi ayolga so'z topib berolmay turardi, Faromush xotirida bir narsa chuvalashib ketdi: axir bu ayolning ovozi tanish-ku, qayerda eshitgandim, so'zlari ham xuddi o'shanikiga o'xshaydi. «Sevgi degan narsani sen tushunmaysan, tushunishga qodir ham emassan» degandi. Ajabo, muncha o'xshashlik, yo bo'lmasa ayollar o'zaro kelishib olishganmi?

- Yo'qoting ko'zimdan, bu jodugarni! Qarorgohimdan butunlay quvib yuboringlar! Mana bu o'z xo'jasiga xiyonat qilgan qul bo'lsa hozirning o'zidayoq kallasi tanasidan judo etilsin, sotqinlar, ablahlar, jodugar, alvastilar, essiz Spitamen, mard maydonda, muhorabada o'lishi kerak edi!

- Hammasiga sen aybdor, uning qotili o'zing, ming-minglab begunoh bechoralarning ham qotili sen! - jazavasi tutib baqira boshlagan Odatidani mulozimlar sudragancha olib chiqib ketishdi.

Mana, sizga Oksiart saroyidagi fojia!

Kech kuzning uzundan-uzoq kechasida Spitamen qarorgohida ro'y bergan baxtsizlik fojlasi tong oqargan sayin yana ham mudhish tus olmoqda edi.

Mana erta tong bilan Spitamenning qadrdoni, ishongan sodiq do'sti Datafarn xushxabar bilan kirib keldi.

- Spanta, aziz do'stim, mana, tingla, butun Sug'diyona qo'zg'aldi.

Datafarn soqchilardan o'tib, qarorgohga kirganda Spitamenning pahlavondek gavdasi xona o'rtasida cho'zilgancha kallasiz yotardi...

- Azizim, nima bo'ldi senga, men xushxabar keltirsam-u... Sen.... Datafarn boshini yerga urib faryod chekib yig'lay boshladi.

– Uni kim o'ldirdi, **qotil** kim men undan qasosingni olay, aziz do'stim, sening hir joning uchun minglab dushmanning boshi ketadi... balki bu anavi massagetlarning ishidir...

Butun ulus, butun Sug'diyona yig'i-sig'i, motam bilan uyg'ondi. Xalq g'azabining cheki yo'q edi. Hammaning ko'zida yosh... Uch o'g'lining nolishiga butun olam, samo yig'lardi...

Odatida qarorgohning burchagida esi og'ib, tosh haykaldek qotib qolgan, na so'zlaydi, na yig'laydi...

– Ayo, do'stlar, birodarlar, men yig'lamay kim yig'lasin, yigitlarning sultonidan judo **qildi** shafqatsiz o'lim, degan bir itvachcha, mana men bir eski suyak qoldim yakka, shu boisidan bo'lsa kerak hazar qilar o'ldirishdan, yer ham meni qabul qilmay tashqariga uloqtirar!

Ayo, do'stlar, sohibqiron dilkashimdan judo bo'ldim, yig'la, endi Sug'diyona, sadoqatli, insonparvar, dovyurak farzandidan judo bo'ldi.

Alvido ey, qaynoq qonli el o'g'loni, Sug'diyona pahlavoni, sher yurakli aziz o'g'lon! Yonar dunyo qalblar yig'lar, bu olamga kimlar kelib, kimlar ketmadi, bu bevafo, foniylar dunyo o't ichida yonganicha qolaverdi...

Cho'l qoplari ketdi tashlab, qari to'ng'iz omon yursa, bu ne savdo, o'lgandan ko'ra meni so'rganida bu qotillar rozi edim. Ha, aytganday mendek qari bir isqirt chol kimga kerak.

Bu olomon ichidan yorib chiqib, aytib-aytib zor-zor yig'layotgan Dariyodning motamsaro ovozi edi.

Dariyod yig'lab-yig'lab, mungli torini qo'lga oldida, g'am-anduh to'la qalb unlarini qo'shiqqa solib kuyladi:

Bu dunyoga kimlar kelib, kimlar ketmadi.

Qancha ishlar chala qolib, umr yetmadi...

Spitamen ona-yerning erkin farzandi edi. Kuchli qo'llari jang qilib charchamadi, pahlavondek qaddi-basti hech qachon xam bo'lmadi, hech kimga bo'yim egmadi: Jang-u jadallarda dushman o'qi ololmadi, muxolif qilichi kesolmadi. Eng og'ir damlarda bepoyon cho'l-biyobonlar, osmono'par **tog'** qoyalari uni o'z bag'riga olib saqladi, ardoqladi himoya qildi. Ammo ig'vo, sotqinlik tufayli uning aziz boshi kesildi, jangda emas, o'z qarorgohida, eng sevimli kishisi qo'lida o'ldi...

Butun rasm-rusumlar bajo keltirildi. Spitamenni sug'd tog'lari yonbag'ridagi ulkan bir qoyaga qilingan dahmaga dafn etishdi. Sug'dlar yengilmaslik, manguлик ramzi sifatida shu joym tanlagan edilar.

Mana, marosimlar tugab, odamlar tarqalishdi. Go'yo hammayoq bo'm-bo'sh bo'lib qoldi. Bu azaliy qonuniyat: inson o'ldi, hayot qurboni bo'ldi, dafn etilgan ona tuproq qo'ynida yolg'iz tinch abadiy uyquga ketdi, endi u hech narsani o'ylamaydi, dunyoning tashvishlaridan butunlay ozod. Ha, bu yorug' dunyodan ko'z yumib uzlatga yo'l oldingmi, shamdek o'chib, manguликka ketasan...

Tong otdi, Sug'd tog'lari ortidan shafaqrang Quyosh ko'tarila boshladi. Kech kuz tongida sovuqdan qizarib chiqqan Quyosh kuni kecha qonga bo'yalib yotgan Spitamenning boshiga o'xshab ketardi... Ha, Sug'diyonaning mard o'g'lomi qabrda yotibdi, uning boshi tangrining inoyati bilan samoga ko'tarilib, Quyoshga singib butun olamga nur sochayotgandek. Axir Spitamen o'z eliga, xalqiga halol, sadoqat bilan xizmat qildi-ku!

Huv, ana, bir nazar tashlang-a, manguлик qoyasi yonidan sharqirab oqayotgan tog' daryosining narigi qirg'og'idan bir ot yeldek uchib kelmoqda. Bu Spitamenning suyukli oti – Qorasoch! O, bechora, endi egasiz yolg'iz qoldi, abadiy vafodorlik ramzi, hech kimga bo'ysunmaydi, erkni, mag'rur! Aftidan u bevafo, bebaqo dunyo va uning bir-biriga bo'ridek yovuz odamlaridan ranjib, tog'-toshlarga bosh olib ketganga o'xshaydi. Qarang, shu tomonga butun vujudi bilan shoshilyapti, intilyapti, yuragi betinch va negun, shafaqrang Quyosh aksida g'amgin ko'zlari yiltiraydi.

Mana, u yelib keldi-yu, o'zini daryoga tashlab, qoya tomon suzib kela boshladi. Qirg'oqqa yaqinlashganda sakrab, depsinib, kishnay-kishnay o'zini sohilga urdi. Qadrdon suvoriysi Spitamen qabriga ko'tarilib, qop-qora yollarini yoygancha uzoq turdi. Bu yollar kimnidir eslatardi... «Mening «Qorasochim», sensan, «Qorasoch!...» Spitamenning qabridan go'yo shunday sado kelgandek bo'ldi. Ot boshini sarak-sarak qildi-da, astagina oyoqlarini bukib, maqsudiga yetgandek qabr yoniga cho'kkaladi...

Quyosh ancha yuksakka chiqib, junjikkan maysalar, daraxtlar va yupun odamlar boshidan iliq mehr nurini sochar, jo'shqin daryo o'zining mangu va mas'ud hayot qo'shig'ini kuylab oqardi.

MUNDARIJA

I qism. Sug'd qoyalari

Dariyod	4
Cho'l qoplani	16
Maroqand kechasi	26
Navro'z	34
Muhabbat ma'budasi	42
Iskandar ayg'oqchisi	65
Osiyo shohi	72
Sog'inish	83
Doriyovushning uzugi	90
Karvon yo'li	104

II qism. Tog'dagi gulxanlar

Daryodan kechish	112
Katta janglar arafasi.....	120
Iskandar va Dariyod	126
«O'rmon shohi» bilan to'qnashuv	133
Do'mbiralar tinmaydi	142
Dushman bilan yuzma-yuz	154
«Uzoq Iskandariya»dan xat	163
Sherdorning sevgilisi	173
Muqaddas oila	181
Kirisaxta fojiasi	190
Zarafshon bo'ylarida	199
Sug'd zodagonlari	208
Yo'ldagi uchrashuv	212
Sotqinlik	220
Johillikdagi aqlsizlik.....	228
Birlashish, yana birlashish kerak	236
Bo'rilar	242
So'nggi jang	248
Bu dunyoga kimlar kelib ketmadi.....	256

Maqsud QORIYEV

SPITAMEN

«Fan» nashriyoti
Toshkent – 2019

Muharrir

Elbek Jumanov

Musahhih

Nizomjon Islomov

Badiiy muharrir

Umid Sapayev

Sahifalovchi

Oloviddin Sobir o'g'li

Nashriyot litsenziyasi AI № 266, 15.07.2015 й.
03.12.2019-yilda bosishga ruxsat etildi. Qog'oz hichimi 84×108^{1/32}.

«Cambria» garmiturasi. Kegli 11. Shartli bosma tabog'i 14.

Nashriyot bosma tabog'i 14,6. Adadi 2500 nusxa.

Buyurtma raqami № 422. Bahosi shartnoma asosida.

«Fan» nashriyotida nashrga tayyorlandi.
100047, Toshkent sh., Yahyo G'ulomov ko'chasi, 70-uy.

«Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi.
100097, Toshkent sh., Bunyodkor shoh ko'chasi, 44-uy.

28500



ISBN 978-9943-19-530-1



9 789943 195301